ISSN 2181-7839

XALQ TA'LIMI

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI VAZIRLIGINING
ILMIY-METODIK JURNALI

Muassis:
O'zbekiston Respublikasi maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi

PUBLIC EDUCATION

SCIENTIFIC-METHODICAL JOURNAL
MINISTRY OF PRESCHOOL AND SCHOOL EDUCATION
OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN

2023

5-son

(Sentabr-Oktabr)

Jurnal 1918-yil dekabr oyidan chiqa boshlagan
O'zMAA tomonidan 2013-yil 4-martda qaytadan ro'yxatga olinib, 0104-raqamli guvohnoma berilgan.

TOSHKENT

MUNDARIJA

		TAHRIRIYAT
	4	Ta'lim sifatini oshirish – yangi O'zbekiston taraqqiyotining yakkayu yagona to'g'ri yo'lidir
		TA'LIM VA TARBIYA NAZARIYASI
A. Nasirov	6	Umumiy o'rta ta'limni takomillashtirishning tashkiliy-pedagogik va metodologik asoslari (dasturiy konsepsiya)
X. Ibraimov, F. Ibragimova	12	Gender o'z-o'zini anglash – gender tenglikni ta'minlashning ustuvor prinsipi sifatida
O. G'aniyev	15	Bo'lajak o'qituvchilar metametodik kompetensiyasini rivojlantirishning didaktik ta'minoti
M. Umnova	19	Boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'quv faoliyatida bilishga qiziqishlarining rivojlanish tendensiyalari
Sh. Jo'rayev	24	Bo'lajak o'qituvchilarning refleksiv pozitsiyasi falsafiy va pedagogik-psixologik muammo sifatida
J. Shukurllayev	28	Talabalarni ilmiy va kasbiy faoliyatga tayyorlashda akmeologik yondashuvning mazmuni
D. To'rayeva	31	Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining ijodiy kompetentligini rivojlantirish (Integrativ yondashuv asosida)
G. Ibragimova	35	O'zbekistonda umumiy o'rta ta'lim sifatini rivojlanishiga oid tarixiy ma'lumotlar
A. Suyunov	38	Integrativ yondashuv asosida tarix o'qituvchilarining o'zini o'zi kasbiy rivojlantirish definitsiyasining psixologik-pedagogik aspektlari
		TA'LIM VA TARBIYA METODIKASI
N. Yuldasheva	42	Pedagogik jarayonda "O'zbek tilining sohada qo'llanilishi"ni o'qitishning o'ziga xos xususiyatlari
R. Eshimov, S. Israilov	46	Umumta'lim maktablariga doir kompyuter imitatsion modellar yaratish va o'quv jarayoniga joriy etish metodikasi (7-sinf "fizika" o'quv predmeti misolida)
Q. Muxammadiyev	51	Texnologiya fanlarni o'qitishda zamonaviy ta'lim metodlaridan foydalanish
R. Ziyayev, M. Umarova	54	Organik kimyoda spirtlar mavzusi o'tilganda oksidlanish – qaytarilish reaksiyalarini o'rganish
L. Mambetova	58	Ona tili darslarida o'quvchilar nutqiy kompetensiyalarini rivojlantirishning nazariy asoslanishi
O. Yusupov	61	Ta'limda axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanib geometriya fanini o'qitish metodikasi
		ZAMONAVIY TA'LIM TEXNOLOGIYALARI
G. Buvorayeva	65	Umumta'lim maktablarida o'quvchilarning tarbiyaviy kompetensiyalarini uyg'unlashtirish texnologiyasi (Jismoniy tarbiya fani misolida)
B. Amirullayeva	68	Tabiiy fan o'qituvchilarining o'quv metodik tayyorgarligini rivojlantirishda konstruktiv yondashuv

M. Tairova	75	Bo‘lajak tarbiyachilarni mutaxassislikka tayyorlashda zamonaviy didaktik vositalardan foydalanish
N. Kadirova	79	O‘quvchining tanqidiy tafakkurini rivojlantirishda yangicha yondashuv tajribasi
Z. Komilova	84	Innovatsion ta’lim-tarbiya jarayonida 10-11-sinf o‘quvchilarining axborot madaniyatini rivojlantirish
I. Jumaniyazova	89	Milliy mumtoz adabiyot namunalarining o‘qitilishiga doir tadqiqotlar tahlili
		TA’LIMDA MENEJMENT
M. Xalilova	93	Maktabgacha ta’lim tizimida inson kapitalini rivojlantirishda ikkinchi tilni o‘rganishning psixofiziologik ahamiyati
		KASB-HUNARGA YO‘NALTIRISH
K. Masharipov	97	Uzluksiz ta’lim tizimida kasbga yo‘naltirish ishlarini takomillashtirishning dolzarbligi
		HUQUQ VA HUQUQIY TARBIYA
D. Sharipova, I. Ibrohimov	100	Yo‘l harakati xavfsizligida piyodalarning o‘rni – pedagogik aspekt (Koriya tajribasi asosida)
		JISMONIY TARBIYA VA SPORT
V. Karayev	106	Sport hakamlarini tayyorlashda kompetensiyaga asoslangan yondoshuv
Sh. Mirzakulov	110	5-7 sinf o‘quvchilarida chidamlilikni rivojlantirish texnologiyasi
A. Sabirov	114	Bo‘lajak jismoniy tarbiya o‘qituvchilarining innovatsion kasbiy faoliyatini shakllantirishing uslubiy ahamiyati
Sh. Ro‘ziyev	118	Voleybol murabbiyining kasbiy-pedagogik tayyorgarligi
		MAKTABGACHA TA‘LIM
A. Shadiyev	122	Maktabgacha yoshdagi bolalarning rivojlanish dinamikasiga xos xususiyatlari
		QIYOSIY PEDAGOGIKA
D. Kamoljonova	126	Xorijiy tajribalar asosida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida kitobxonlik kompetensiyalarini rivojlantirish (AQSh va Yevropa misolida)
A. Xolmurodov	130	Pedagog kadrlar malakasini oshirishning ilg‘or xorijiy tajribalari
		KORREKSION PEDAGOGIKA
R. Safarov	135	Ko‘zi ojiz bolalar uchun ixtisoslashtirilgan ta’lim muassasasida ta’lim sifatini boshqarishda korreksion tarbiya va tarbiyachilarning o‘rni
		ТЕОРИЯ ОБРАЗОВАНИЯ И ВОСПИТАНИЯ
Л. Набиулина	140	Подходы, принципы и направления развития интеллектуальной мобильности в системе высшего образования

TA'LIM SIFATINI OSHIRISH – YANGI O'ZBEKISTON TARAQQIYOTINING YAKKAYU YAGONA TO'G'RI YO'LIDIR

2023-yil "Insonga e'tibor va sifatli ta'lim yili" deb e'lon qilinganda, ko'pchilik ziyolilar ruhlandi. Ikkita so'z birikmasidan tarkib topgan yilning nomlanishida ulug' niyat – jamiyatning buguni va ertasiga daxldor bo'lgan maqsadlar aks etgan. Qachon xalqqa e'tibor bo'ladi, qachonki, bizning ilmu ta'limda erishgan yutuqlarimiz sifatli bo'lsa, ya'ni ta'lim sifatga qurilsa, ana shunda natijadorlik haqida, samara haqida gapirsak bo'ladi.

Davlatimiz rahbari respublikamiz bo'ylab qaysi korxona, qaysi tashkilotda bo'lmasin, mutasaddilar bilan uchrashmasin, albatta, uchta so'zni takrorlashlari va talab etishlari bejiz emas. Bular – sifat, samara va natijadorlik. Har bir qilingan harakatning natijasi, samarasi sifatga bog'liqligi ayon. Demak, Prezident o'zi qayta-qayta e'tirof etgani kabi "Najot ta'limda, najot bilimda, najot ilmda". Shunday ekan, jamiyatni, xalqni ulug' maqsadlar sari olg'a boshlashning birdan bir yo'li – yosh avlodga berilayotgan ta'lim-tarbiyaning sifati bilan chambarchas bog'liq. Shuning uchun ham "Ta'lim sifatini oshirish – Yangi O'zbekiston taraqqiyotining yakkayu yagona to'g'ri yo'lidir".

Shubhasiz, ta'lim sifatini oshirish mamlakatimiz kun tartibida turgan dolzarb masaladir. Buning zamirida mamlakatni rivojlangan davlatlar qatoriga olib chiqishga qodir bo'lgan yetuk mutaxassislarni yetishtirish masalasi turibdi, bu vazifalarni amalga oshirish, bizning, barcha ta'lim sohasi mutasaddilarining oldida turgan asosiy vazifa hisoblanadi.

Yurtboshimizning saylovoldi dasturlarida ta'limga zamonaviy metodika, sifat va raqobat kirib kelishi, darsliklarning eng ilg'or xorijiy tajribalar asosida to'liq yangilanishi, 2030-yilgacha barcha tuman va shaharlarda "Iste'dod – Intilish – Istiqbol" nomli ixti-soslashtirilgan maktablar tashkil etilishi, maktablarga o'z yo'nalishi bo'yicha malakali o'qituvchilar jalb qilinishi kabi rejalari taklif qilindi.

Umumiy o'rta ta'lim o'quvchilarga bilimlarning zarur hajmini beradi, mustaqil fikrlash, tashkilotchilik qobiliyati va amaliy tajriba ko'nikmalarini rivojlantiradi, dastlabki tarzda kasbga yo'naltirishga va ta'limning navbatdagi bosqichini tanlashga yordam beradi.

Yangi renessans maktab ostonasidan boshlanishi bejizga emas, chunki inson umri davomida oladigan bilim, ko'nikma, malakalarining asosiy qismini maktabda egallaydi. Ma'lumki, umumiy o'rta ta'lim boshlang'ich ta'lim, tayanch o'rta ta'lim va o'rta ta'limdan iborat. Tabir joizki, Yurtimizda har bir shaxsning ta'lim va tarbiya olishdagi konsti-tutsiyaviy huquqini ro'yobga chiqarish umumiy o'rta ta'limning maqsadi hisoblanadi. Umumiy o'rta ta'lim zamonaviy ilg'or metodlar asosida o'quvchilarga bilimlarning zarur hajmini beradi, mustaqil fikrlash, tashkilotchilik qobiliyati va amaliy tajriba ko'nikmalarini rivojlantiradi, dastlabki tarzda kasbga yo'naltirishga va asosida ta'limning navbatdagi bosqichini tanlashga yordam beradi. Binobarin, Davlat ta'lim standartlari umumiy o'rta, o'rta maxsus, kasb-hunar va oliy ta'lim mazmuniga va sifatiga qo'yiladigan talablarni belgilashi hamda umumta'lim fanlarining o'quv dasturlari shaxsni har tomonlama kamol toptirishga, ta'lim oluvchilarda bilim, malaka, ko'nikmalarni, saviyani shakllantirishga va ularning qobiliyatini rivojlantirishga qaratilgan bo'lishi kerakligi ta'lim to'g'risidagi qonunlarda ham belgilab qo'yilgan.

Respublikamizda umumiy o‘rta ta’limning davlat ta’lim standarti, o‘quv dasturlari va darsliklarini zamon talabi, jamiyat yangilanishi, bozor va ish beruvchilarning ehtiyoji va talablari asosida yangilanib bormoqda. Har bir fanning maqsad va vazifalari bugungi yangi O‘zbekiston taraqqiyotiga xizmat qilishi, ta’lim – ilm – fan va ishlab chiqarish integratsiyasiga tayanilishi, jamiyatning barcha jabhalaridagi strategik yo‘nalishlar bilan bog‘lanishiga e’tibor qaratilmoqda. Masalan, tabiiy fanlarning o‘quv dasturlari sanoatning bevosita rivojlanishida ushbu yo‘nalishdagi bilimlar (genetik injeneriya, biotexnologiya kabi fanlar) o‘z o‘rniga ega ekanligi, eng yangi kimyo yoki biologik texnologiyalarining rivojlanishidagi kechikish milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligini pasaytirishi, shuningdek, o‘sib borayotgan geosiyosiy raqobat sharoitida uning zaifligini oshirishi mumkinligi kabi asoslar kiritilmoqda.

Ta’limning uzluksizligi, uzviyligi, o‘quvchi shaxsi va qiziqishlari ustuvorligidan kelib chiqib, ularning yosh xususiyatlariga mos ravishda quyidagi tayanch kompetensiyalar shakllantirilishi malaka talablarida ko‘zda tutilgan:

– kommunikativ kompetensiya;

– axborotlar bilan ishlash kompetensiyasi;

– o‘zini o‘zi rivojlantirish kompetensiyasi;

– ijtimoiy faol fuqarolik kompetensiyasi;

– milliy va umummadaniy kompetensiya;

– matematik savodxonlik, fan va texnika yangiliklaridan xabardor bo‘lish hamda foydalanish kompetensiyasi.

Ta’limdagi muammolarning asl sabablari, ta’lim tizimida faoliyat ko‘rsatayotgan ayrim pedagoglarimizdagi zamonaviy bilim berish, pedagogik mahorat, kompetentlik; ularning o‘z fanini hayot, turmush, ishlab chiqarish bilan bog‘lab, fan-texnikaning eng so‘ngi yutuqlaridan, ilg‘or xorij tajribalaridan, zamonaviy axborot va pedagogik texnologiyalardan foydalanib ta’lim oluvchilarga yetkazish malakasining yetishmasligidadir.

Hozirgi davr o‘quv mashg‘ulotlarini ta’lim oluvchilarni mustaqil va erkin fikrlashga yo‘naltiradigan o‘qitish texnologiyalari va interfaol usullarni joriy etish asosida tashkil etish, asosiy e’tiborni ularning mustaqil ta’lim olishi bilan bog‘liq mexanizmlarni amalga oshirishga qaratishni taqozo etmoqda. Ta’lim sifatini oshirish, fan va texnologiyaning eng so‘ngi yutuqlarini amaliyotga joriy etish asosida ijodkor, kasb-hunarli, ijodiy va mustaqil fikr yurita oladigan, tashabbuskor va tadbirkor, o‘z javobgarligini his etadigan yoshlarni tayyorlash kabi muhim vazifalarni amalga oshirish nazarda tutiladi. Bu o‘z navbatida ta’lim jarayonida zamonaviy ta’lim texnologiyalaridan foydalanishni taqozo etadi. Ularni qo‘llash, avvalo, pedagogik munosabatlarni insonparvarlashtirishni talab etadi. Chunki, uni amalga oshirmay turib qo‘llangan har qanday texnologiya kutilgan natijani bermaydi. Bugun kunda o‘qitishning an’anaviy ko‘rinishidan farq qiladigan zamonaviy texnologiyalarni qo‘llash, o‘qitish jarayonini yagona shaklga keltirish va yuqori samaradorlikka erishishga imkoniyat yaratadi.

Xulosa o‘rnida aytish mumkinki, yangi o‘quv yili oldidan maktablar, o‘qituvchilar, o‘quvchilar va ota-onalar uchun ham mazmunga qaratilgan davlat, jamiyat talablaridan kelib chiqqan holda, kechiktirib bo‘lmaydigan umumiy o‘rta ta’limni takomillashtirishning tashkiliy-pedagogik va metodologik asoslarini ishlab chiqib, tatbiq etish zarurdir. Bu ulkan vazifalarni tizimli amalga oshirish va uning samaradorligiga erishish mutasaddilarning va ta’lim jarayoni ishtirokchilarining barchasiga bog‘liq. Asosiysi, yuqorida bayon etilgan mazmunga bog‘liq yangiliklar ta’lim tizimining rivojiga, o‘qitish va o‘rganish jarayonining sifatiga ijobiy ta’sir qiladi.

Abdurahim NASIROV,
Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi
boshqarma boshlig'i o'rinbosari, filologiya fanlari doktori, professor

UMUMIY O'RTA TA'LIMNI TAKOMILLASHTIRISHNING TASHKILIY-PEDAGOGIK VA METODOLOGIK ASOSLARI (DASTURIY KONSEPSIYA)

Annotatsiya

Maqolada ta'lim sifatini oshirish, yetuk mutaxassislarni tayyorlash, ta'lim sohasi mutasaddilarining javobgarligini oshirish, ta'limga zamonaviy metodikalarni tatdiq etish, sog'lom raqobat muhitini shakllantirish, darsliklarni ilg'or xorijiy tajribalar asosida to'liq yangilash, yangi turdagi ixtisoslashtirilgan maktablarni tashkil etish masalalari ko'rib chiqilgan. Shuningdek, muallif tomonidan umumiy o'rta ta'lim tizimi mazmuni, ta'lim sifatining asosiy ko'rsatkichlari, ta'lim tizimida nimani o'qitish, qanday o'qitish, kim o'qitadi degan savollarga javoblar batafsil yoritilgan. Umumiy o'rta ta'limning davlat ta'lim standarti, o'quv dasturlari, o'quv rejasi, yangi baholash tartibi, o'qitish metodikasi, didaktik ta'minot, o'qitish va o'rganish resurslari, fan darsligi tushunchalari zamonaviy talqinda ochib berilgan.

Kalit so'zlar. Ta'lim sifati, yetuk mutaxassis, ta'lim sohasi, zamonaviy metodika, sog'lom raqobat muhiti, darslik, ilg'or xorijiy tajriba, ixtisoslashtirilgan maktablar, umumiy o'rta ta'lim tizimi, davlat ta'lim standarti, o'quv dasturi, o'quv rejasi, yangi baholash tartibi, o'qitish metodikasi, didaktik ta'minot, fan darsligi.

В статье рассматриваются вопросы повышения качества образования, подготовки квалифицированных специалистов, повышения ответственности работников образования, внедрения современных методов обучения, создания здоровой конкурентной среды, полное обновление учебников на основе передового зарубежного опыта, создания профильных школ нового типа. Также автор подробно разъясняет содержание системы общего среднего образования, основные показатели качества образования, ответы на вопросы, чему учить в системе образования, как учить и кто учит. В современной трактовке раскрываются понятия государственного образовательного стандарта общего среднего образования, учебной программы, учебного плана, новой процедуры оценивания, методики обучения, дидактического обеспечения, учебно-методических пособий, учебника нового типа.

Ключевые слова. Качество образования, квалифицированный специалист, современная методика, здоровая конкурентная среда, учебник, передовой зарубежный опыт, профильные школы, системы общего среднего образования, государственный образовательный стандарт, учебная программа, учебный план, новая процедура оценивания, методика обучения, дидактическое обеспечение, учебники нового типа.

The article discusses the issues of improving the quality of education, training qualified specialists, increasing the responsibility of educators, introducing modern teaching methods, creating a healthy competitive environment, completely updating textbooks based on advanced foreign experience, creating specialized schools of a new type. The author also explains in detail the content of the general secondary education system, the main indicators of the quality of education, answers to questions about what to teach in the education system, how to teach and who teaches. In the modern interpretation, the concepts of the state educational standard of general secondary education, the curriculum, the curriculum, the new assessment procedure, teaching methods, didactic support, teaching aids, and a new type of textbook are revealed.

Key words. The quality of education, a qualified specialist, modern methodology, a healthy

competitive environment, a textbook, advanced foreign experience, specialized schools, the content of the general secondary education system, the state educational standard, curriculum, curriculum, a new assessment procedure, teaching methods, didactic support, textbooks of a new type.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Ta’lim sifatini oshirish – Yangi O‘zbekiston taraqqiyotining yakkayu yagona to‘g‘ri yo‘li ekanligini qayd etgani bejiz emas. Shubhasiz, ta’lim sifatini oshirish mamlakatimiz kun tartibida turgan dolzarb masaladir. Buning zamirida mamlakatni rivojlangan davlatlar qatoriga olib chiqishga qodir bo‘lgan yetuk mutaxassislarni yetishtirish masalasi turibdi, bu vazifalarni amalga oshirish, bizning, barcha ta’lim sohasi mutasaddilarining oldida turgan asosiy vazifa hisoblanadi.

Yurtboshimizning saylovoldi dasturlarida ta’limga zamonaviy metodika, sifat va raqobat kirib kelishi, darsliklarning eng ilg‘or xorijiy tajribalar asosida to‘liq yangilanishi, 2030-yilgacha barcha tuman va shaharlarda “Iste’dod – Intilish – Istiqbol” nomli ixtisoslashtirilgan maktablar tashkil etilishi, maktablarga o‘z yo‘nalishi bo‘yicha malakali o‘qituvchilar jalb qilinishi kabi rejalari taklif qilindi.

Umumiy o‘rta ta’lim o‘quvchilarga bilimlarning zarur hajmini beradi, mustaqil fikrlash, tashkilotchilik qobiliyati va amaliy tajriba ko‘nikmalarini rivojlantiradi, dastlabki tarzda kasbga yo‘naltirishga va ta’limning navbatdagi bosqichini tanlashga yordam beradi.

Ta’lim tizimida nimani o‘qitish kerak?, qanday o‘qitish kerak? va kim o‘qitadi? degan savollarni bugungi kun talablaridan kelib chiqqan holda, yangicha talqinda ochib berishni lozim topdik.

Nimani o‘qitish deganda – uzluksiz ta’lim tizimining har bir bosqichida davlat ta’lim standartlari, o‘quv dasturlari va ular asosida darslik, o‘quv – metodik qo‘llanmalar yordamida turli fanlardan bilim, malaka, ko‘nikma berish, kompetensiyalarni shakllantirish.

Ta’lim to‘g‘risidagi qonunning 34-moddasida Davlat ta’lim standartlari umumiy o‘rta, o‘rta maxsus, kasb-hunar va oliy ta’lim mazmuniga hamda sifatiga qo‘yiladigan talablarni belgilashi, 35-moddasida esa umumta’lim fanlarining o‘quv dasturlari shaxsni har tomonlama kamol toptirishga, ta’lim oluvchilarda bilim, malaka, ko‘nikmalarni, saviyani shakllantirishga va ularning qobiliyatini rivojlantirishga qaratilgan bo‘lishi kerakligi belgilab qo‘yilgan.

Respublikamizda umumiy o‘rta ta’limning davlat ta’lim standarti, o‘quv dasturlari va darsliklarini zamon talabi, jamiyat yangilanishi, bozor va ish beruvchilarning ehtiyoji va talablari asosida yangilanib bormoqda. Har bir fanning maqsad va vazifalari bugungi yangi O‘zbekiston taraqqiyotiga xizmat qilishi, ta’lim – ilm – fan va ishlab chiqarish integratsiyasiga tayanilishi, jamiyatning barcha jabhalaridagi strategik yo‘nalishlar bilan bog‘lanishiga e'tibor qaratilmoqda. Masalan, tabiiy fanlarning o‘quv dasturlari sanoatning bevosita rivojlanishida ushbu yo‘nalishdagi bilimlar (genetik injeneriya, biotexnologiya kabi fanlar) o‘z o‘rniga ega ekanligi, eng yangi kimyo yoki biologik texnologiyalarining rivojlanishidagi kechikish milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligini pasaytirishi, shuningdek, o‘sib borayotgan geosiyosiy raqobat sharoitida uning zaifligini oshirishi mumkinligi kabi asoslar kiritilmoqda.

Ta’limning uzluksizligi, uzviyligi, o‘quvchi shaxsi va qiziqishlari ustuvorligidan kelib chiqib, ularning yosh xususiyatlariga mos ravishda quyidagi tayanch kompetensiyalar shakllantirilishi malaka talablarida ko‘zda tutilgan:

– kommunikativ kompetensiya;

– axborotlar bilan ishlash kompetensiyasi;

– o‘zini o‘zi rivojlantirish kompetensiyasi;
– ijtimoiy faol fuqarolik kompetensiyasi;
– milliy va umummadaniy kompetensiya;
– matematik savodxonlik, fan va texnika yangiliklaridan xabardor bo‘lish hamda foydalanish kompetensiyasi.

O‘quvchi va o‘qituvchining o‘qish va ish yuklamasi umumiy o‘rta ta’limning o‘quv rejasiga bog‘liq. O‘quv reja xorijiy tajribalarni o‘rgangan holda har yili takomillashib bormoqda. Bugungi kunda jami 102 turdagi o‘quv rejalar, shundan 3 turdagi tayanch o‘quv rejalar, 45 turdagi variativ o‘quv rejalar, 54 turdagi ixtisoslashtirilgan o‘quv rejalari va 4 yo‘nalishdagi tanlov fanlar o‘quv rejalari ishlab chiqilgan. O‘quv rejalardagi bunday xilma-xilliking o‘zi ta’lim oluvchilarga, ota-onalarga o‘ziga yarasha qulayliklarni yaratadi. Joriy etilayotgan tanlov fanlariga asoslangan o‘quv reja o‘quvchilarining qobiliyati va tanlovi asosida ta’lim jarayonlarini tashkil etish, yuqori sinf o‘quvchilarini fanlarga ixtisoslashuvini kengaytirish hamda ularni oliy o‘quv yurtlariga yo‘naltirish uchun keng imkoniyatlar yaratishga mo‘ljallangan. Ushbu o‘quv rejalari 124 ta maktabda tajriba sinovdan o‘tkaziladi. Tajriba-sinov maktablarida ijod va ixtisoslashtirilgan maktablarda joriy etilgan yangi baholash tartibi (summativ va formativ) joriy etiladi. 10-sinf o‘quvchilari o‘zlari tanlagan 2 ta fan, tayanch o‘quv rejadan farqli ravishda, chuqurlashtirilib, 2-3 barobar qo‘p hajmda o‘qitilishi bitiruvchi sinf o‘quvchilarining qo‘shimcha mablag‘ to‘lab repetitorga borishiga ham ehtiyoj qoldirmaydi.

Qolaversa, variativ o‘quv rejalar ham o‘quvchilarga, maktab ma’muriyatiga fanlarni tanlash imkoniyatini kengaytiradi. 11 yil uchun o‘quv yuklama 11504 soatdan 10655 soatga (- 849) tushirilgan. Oldingi yillardan farqli ravishda, ta’lim o‘zbek tilidagi maktablar uchun alohida, ta’lim rus va qardosh tillardagi maktablar uchun alohida o‘quv reja tasdiqlanib, davlat tili siyosati ustunligi ta’minlangan.

O‘quv dasturlariga to‘xtaladigan bo‘lsak, ularda ham o‘zgarishlar talaygina. Yuqorida bayon etganimizdek, umumta’lim fanlarining o‘quv dasturlari shaxsni har tomonlama kamol toptirishga, ta’lim oluvchilarda bilim, malaka, ko‘nikmalarni, saviyani shakllantirishga va ularning qobiliyatini rivojlantirishga qaratilgan. Qolaversa, Insonga e'tibor va sifatli ta’lim yili davlat dasturida (8-band) 2023/2024-o‘quv yilidan boshlab bosqichma-bosqich umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida o‘quvchilarni umuminsoniy va milliy qadriyatlar, vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, shuningdek, ularda kommunikativ ko‘nikmalar, tanqidiy va kreativ fikrlash, jamoa bo‘lib ishlash, tadqiqotchilik kabi ko‘nikmalarni shakllantirishga yo‘naltirilgan ta’lim dasturlarini amaliyotga kiritish belgilab berilgan. Bunda, umumiy o‘rta ta’lim muassasalarining 1-4-sinflarida o‘quvchilarni ilg‘or xorijiy tajriba asosida ishlab chiqilgan darsliklar bo‘yicha o‘qitish; 5 - 9-sinflarda o‘quvchilarga umumta’lim fanlaridan tayanch bilimlar berish va 10-11-sinf o‘quvchilarining qiziqish va qobiliyatiga mos bo‘lgan ixtisoslashgan dasturlar asosida bilim berish amaliyoti joriy qilish vazifalari qo‘yilgan. Shuningdek, ta’lim sifatini oshirish, sohani ilg‘or xorijiy tajriba asosida isloh qilish maqsadida 2023-yil 1-sentabrdan boshlab har bir tuman (shahar)ning bittadan umumiy o‘rta ta’lim muassasasida o‘quvchilarni ikkita xorijiy til va bitta kasb-hunarga o‘rgatish amaliyoti bosqichma-bosqich yo‘lga qo‘yilishi ko‘zda tutilgan.

O‘quv dasturlari har doim takomillashib kelgan, bu nafaqat O‘zbekistonda, balkim boshqa xorijiy davlatlarda ham shunday holat kuzatiladi. Bizda o‘quv dasturlari 2013-yilda birinchi qadamda chet tillari bo‘yicha, keyin barcha umumta’lim fanlari bo‘yicha kompetensiyaviy yondashuv asosida yangilandi, 2017-yilga kelib 9 yillik ta’limdan 11 yillik ta’limga o‘tishi hisobiga yana o‘zgarishlar bo‘ldi. 2020-yildan boshlab umumiy o‘rta

ta’limning Xalq ta’limi tizimida Milliy o‘quv dasturlari ishlab chiqildi, 2021-2022-yillarda 21 ta fandan uzluksiz ta’lim tizimi uchun fanlar kesimida konsepsiyalar ishlab chiqildi. Fanlar kesimida barcha ta’lim turlarida o‘tiladigan mavzular takrorlanishlari bartaraf etilib, 21 ta fandan maktabgacha, umumiy o‘rta, o‘rta maxsus, professonal va oliy ta’lim muassasalari uchun uzviyligi ta’minlangan “O‘zbekiston Respublikasi uzluksiz ta’lim milliy o‘quv dasturlari” tayyorlandi. Bunda, boshlang‘ich ta’limni Maktabgacha ta’lim tizimi bilan bog‘lash, o‘quvchilarda umumiy o‘rta ta’limni davom ettirish uchun zarur bo‘lgan savodxonlik, bilim, ko‘nikma va malakalar asoslarini shakllantirish, tayanch o‘rta ta’lim uchun o‘quvchilarga bilim, ko‘nikma va malakalarning zaruriy hajmini berish, ularda mustaqil fikrlash va tahlil qilish qobiliyatini rivojlantirish, o‘rta ta’lim uchun o‘quvchilar tomonidan zarur bilim, ko‘nikma va malakalar o‘zlashtirilishi, ta’limning keyingi turi tanlanishi hamda yuqori malaka talab qilinmaydigan kasblarni egallash, ta’limning har bir bosqichi yakunida XXI asr ko‘nikmalariga ega bo‘ladigan bitiruvchilarga qo‘yiladigan malaka talablarini shakllantirish, o‘quv dasturlariga xalqaro tadqiqotlar (PISA, PIRLS, TIMSS kabi) savollarining mazmun-mohiyatini singdirish kabi jihatlarga e’tibor qaratildi.

Milliy o‘quv dasturining maqsadi o‘quvchilarni hayotga tayyorlash, ta’lim kontentida amaliy ko‘nikmalarni, kompetensiyalarni rivojlantirish, nazariy bilimlarni 90 foizdan 50 foizga kamaytirishdan iborat bo‘ldi. Milliy o‘quv dasturida maktab bitiruvchisiga kreativ fikrlash, keng dunyoqarash, mustaqil qaror qabul qilish, zamonaviy ko‘nikmalarga ega bo‘lish, axborot texnologiyalarini puxta o‘zlashtirish kabi komponentlar belgilandi. O‘quvchilarga qo‘yiladigan malaka talablari sinflar kesimida ishlab chiqilgan, bunda sinflar va fanlararo integratsiya masalalariga e’tibor qaratilmoqda, oldingi o‘quv dasturlarida malaka talablari boshlang‘ich, 4-sinf va 9-sinf bitiruvchilarga nisbatan belgilab berilgan edi.

Uzluksiz ta’limning, jumladan, umumiy o‘rta ta’limning o‘quv dasturlarini takomillashtirish bo‘yicha 21 ta fandan ijodiy ishchi guruhlar shakllantirilib, YuNISeF tashkiloti bilan hamkorlikda Singapur, AQSh, Angliya, Finlyandiya, Koreya, Yaponiya, Gonkong davlatlarida foydalanilgan o‘quv dasturlari, Prezident maktablari bilan Kembridj tajribasi, o‘quv dasturlari va darsliklari o‘rganilgan.

Ta’kidlash joizki, amaldagi uzviyligi ta’minlangan o‘quv dasturlari bugungi kundagi katta islohotlar ta’sirida yana yangilanishga ehtiyoj sezmoqda.

Ma’lumki, umumiy o‘rta ta’lim maktablarida fanlar xususiyatlaridan kelib chiqqan holda sinflar kesimida har bir fan bo‘yicha turli o‘quv dasturlari, 1-4-sinflarda yangi darsliklar bo‘yicha o‘qitishda 4K modeli joriy qilinadi: kommunikatsiya, kollabaratsiya, kreativlik, kritik fikrlash. 7-sinfdan ikkinchi xorijiy tilni (fransuz, nemis, koreys, xitoy, ingliz) o‘qitish, 10-11-sinfdan 3 ta yo‘nalishda kasbga, ishchi kasblarga o‘rgatish, 10-11-sinflarda 4 ta yo‘nalishda tanlov fanlarini joriy etish: (1) Kimyo-Biologiya, (2) Matematika-Fizika, (3) Matematika-Chet tili, (4) Ona tili va adabiyot, Chet tili, bunda 2 ta tanlov fan chuqurlashtirib o‘qitiladi,umumiy fanlar soni umumiy 18 tadan 11 ta majburiy fanlarga tushiriladi.

Shuningdek, bugungi kunda o‘qitish va o‘rganish resurslari ham takomillashtirilmoqda, 1-11-sinflar uchun barcha fanlardan darsliklar va o‘quv-metodik majmualar (7 tilda) ishlab chiqildi. Darsliklar davlat ta’lim standartlariga muvofiq o‘quv dasturi asosida didaktik, metodik, pedagogik-psixologik, estetik va gigienik talablarga javob beradigan holda yangitdan yaratildi. 2022-yilda maktablarda ingliz, nemis, rus tillari fanlaridan xalqaro darajadagi darsliklar joriy etilgan bo‘lsa, 2023-yilda 1-4-sinflar uchun xalqaro talablardagi darsliklar joriy qilinadi. Fransuz tilidan Didier nashriyotining fransuz tili fani

darsliklari joriy etiladi, Kembridj nashriyotining informatika darsligi joriy qilinadi, aniq va tabiiy fanlar bo‘yicha xalqaro nashriyotlar darsliklari mahalliylashtirilishi ko‘zda tutilgan.

Yangi va qayta chop etiladigan darsliklarda o‘quv fanining mavzulari to‘liq yoritilgan va asoslari mukammal o‘zlashtirilishiga qaratilgan, o‘quv fanining maqsad va vazifalaridan kelib chiqib, ta’lim oluvchilarning yoshi va psixo-fiziologik xususiyatlarini hisobga olgan holda ishlab chiqiladi, nazariy ma’lumotlardan tashqari amaliy tajriba va sinov mashqlarini ham qamrab oladi. Aksariyat fanlardan darsliklar o‘quv-metodik majmua ko‘rinishida, ya’ni, asosiy o‘quvchi darsligi, mashq daftari, o‘qituvchi uchun metodik qo‘llanma va raqamli resurslar – multimedia ilovalari, audio, videoresurslardan iborat bo‘ladi.

Qanday o‘qitish kerak – bu o‘qituvchilardagi bor bilimni, fanlar kesimida belgilangan standart va o‘quv dasturidagi talablarni, zamonaviy darsliklar yordamida o‘quvchilarga kafolatli yetkazish. Bunda albatta, o‘qitish metodikalari nazarda tutiladi. Aslida o‘qituvchi o‘z fanidan kuchli bo‘lsa, o‘quvchilarining ham o‘zlashtirish darajasi shunga mos bo‘lishi kerak, deb o‘ylaymiz. Ammo, umumiy o‘rta ta’lim tizimida o‘tkaziladigan ichki, tashqi yoki xalqaro monitoring natijalari ushbu aksiomani inkor etib kelmoqda. Masala nimada, o‘qitish metodikalarimiz eskirganmi, fan o‘qituvchilari toifasini oshirish uchun faqat o‘z bilimini oshirish ortidan quvib ketmoqdami yoki ularga berilishi kerak bo‘lgan uzluksiz metodik xizmat izdan chiqqanmi.

Milliy o‘quv dasturlarida o‘qitish metodikasi chiziqli o‘qitish – yodlatishdan – spiralsimon, XXI asr ko‘nikmalarini rivojlantirishga yo‘naltirilmoqda. Didaktik ta’minot ilgari faqat chet tillaridan majmua shaklida bo‘lgan bo‘lsa, endi barcha fanlardan darslik, ish daftari, o‘qituvchi uchun metodik qo‘llanma va multimediali ilovalardan iborat tarzda yaratilmoqda. Ammo natija ijobiy tomonga siljidi deya olmaymiz.

Har bir fandan darslik bilan birga ishlab chiqilayotgan o‘qituvchi uchun metodik qo‘llanmalar – barcha o‘qituvchilar tomonidan ham birdek samarali foydalanilmayapti. Ayrim hollarda yangi metodikalar bilan ishlashga o‘rgatadigan o‘quv-seminarlar yetarli tashkil etilmayapti. O‘qituvchilar malakasini oshirishdagi o‘zgarishlar ham ularga yordam berish o‘rniga aksincha, ularni dangasa qilib qo‘ya boshladi, metodistlar tomonidan fanlar kesimida o‘quvchilar o‘zlashtrishidagi bo‘shliqlarni to‘ldirishga qaratilgan metodik tavsiyalar yetarli darajada berilmayapti. Ilgari har bir tuman(shahar)da, viloyat xalq ta’limi boshqarmalarida fan metodistlari faoliyat olib borgan bo‘lsa, bugungi kunda ularning soni ancha kamaygan va faqatgina viloyatlar Pedagoglarni yangi metodikalarga o‘rgatish Milliy markazlari tuzilmasidagi metodik xizmat ko‘rsatish bo‘limlarida 1 tadan fan metodisti shtati mavjud xolos.

Kim o‘qitadi? degan savol ma’lumki o‘qituvchilarimiz va ularning salohiyati bilan bog‘liqdir. Hozirgi kunda 10 104 ta davlat maktabida 6,3 mln. nafar o‘quvchiga 509 443 nafar o‘qituvchi dars berishadi. Shulardan, 224 384 nafari toifaga ega bo‘lmagan mutaxassislar, 41 814 nafar oliy toifali, 96 245 nafar birinchi toifali va 147 000 nafar ikkinchi toifali o‘qituvchilardir. Tahlillarga ko‘ra, ularning kasbiy mahoratiga qarasak, 46 foiz o‘qituvchilar dars jaryonida zamonaviy metodikalarni qo‘llamaydi, 38 foiz o‘qituvchilar tajribasiz (yosh mutaxassis) bo‘lsa, 52 foiz an’anaviy usulda dars o‘tadi. Qolaversa, har yili Respublika bo‘yicha 16 ta pedagogik yo‘nalishdagi pedagogik oliy ta’lim muasssalaridan yosh bitiruvchi talabalar maktablarga kirib keladi.

Ushbu raqamlar o‘zi o‘qituvchilar kasbiy mahoratini oshirish borasida talaygina vaziflar turganini ko‘rsatadi. Shu maqsadda, yangi o‘quv yilidan boshlab birinchi marta ishga qabul qilingan o‘qituvchilar bir yil muddat davomida stajyor-o‘qituvchi sifatida

faoliyat yuritishi, o‘qituvchilarni kasbiy sertifikatlash tizimi joriy etilishi belgilandi. Pedagog kadrlarining malaka talablari xalqaro tajribalar asosida takomillashtiriladi.

Xulosa o‘rnida aytish mumkinki, yangi o‘quv yili oldidan maktablar, o‘qituvchilar, o‘quvchilar va ota-onalar uchun ham mazmunga qaratilgan davlat, jamiyat talablaridan kelib chiqqan holda, kechiktirib bo‘lmaydigan umumiy o‘rta ta’limni takomillashtirishning tashkiliy-pedagogik va metodologik asoslarini ishlab chiqib, tatbiq etish zarurdir. Bu ulkan vazifalarni tizimli amalga oshirish va uning samaradorligiga erishish mutasaddilarning va ta’lim jarayoni ishtirokchilarining barchasiga bog‘liq. Asosiysi, yuqorida bayon etilgan mazmunga bog‘liq yangiliklar ta’lim tizimining rivojiga, o‘qitish va o‘rganish jarayonining sifatiga ijobiy ta’sir qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi “Xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish Konsepsiyasi” to‘g‘risidagi PF5712-sonli Farmoni. https://www.lex.uz.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 29-oktabrdagi “Ilm-fanni 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-6097-son Farmoni. https://www.lex.uz.

3. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Qarori “Umumiy o‘rta ta’lim to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida” Toshkent sh., 2017-yil 15-mart, 140-son. 2-band O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 3-iyundagi 345-sonli Qarori tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 04.06.2021 y., 09/21/345/0522-son. https://www.lex.uz.

4. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Qarori “Umumiy o‘rta va o‘rta maxsus ta’lim muassasalari reytingini aniqlash chora-tadbirlari to‘g‘risida” Toshkent sh., 2021-yil 3-iyun, 345-son https://www.lex.uz.

Xolboy IBRAIMOV,
T.N. Qori Niyoziy nomidagi O‘zbekiston pedagogika fanlari ilmiy-tadqiqot instituti direktori, pedagogika fanlari doktori, professor
Feruza IBRAGIMOVA,
T.N. Qori Niyoziy nomidagi O‘zbekiston pedagogika fanlari ilmiy-tadqiqot instituti doktoranti, PhD

GENDER O‘Z-O‘ZINI ANGLASH – GENDER TENGLIKNI TA’MINLASHNING USTUVOR PRINSIPI SIFATIDA

Annotatsiya

Ushbu maqolada gender tushunchasi, gender o‘z-o‘zini anglash va gender tengligi masalalarining mohiyati tahlil qilingan. So‘nggi yillarda hukumatimiz tomonidan qabul qilingan me’yoriy-huquqiy hujjatlarda xotin-qizlarning faolligini oshirishga qaratilgan vazifalar ta’kidlangan.

Kalit so‘zlar. Gender, xotin-qizlar, ijtimoiy himoya, huquq, manfaatlar, gender tenglik, ta’lim-tarbiya, ilm-fan.

В данной статье анализируется сущность вопросов гендерного понимания, гендерного самосознания и гендерного равенства. В нормативно-правовых актах, принятых нашим правительством в последние годы, подчеркиваются задачи, направленные на повышение активности женщин.

Ключевые слова. Гендер, женщины, социальная защита, права, интересы, гендерное равенство, образование, наука.

This article analyzes the essence of issues of gender understanding, gender identity and gender equality. The normative legal acts adopted by our Government in recent years emphasize the tasks aimed at increasing the activity of women.

Key words. Gender, women, social protection, rights, interests, gender equality, education, science.

Hozirgi zamonda jamiyatimizda xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy va ilm-fandagi faolligini oshirish, ularning o‘z qobiliyati va imkoniyatlarini ro‘yobga chiqarishi uchun qo‘llab-quvvatlash, huquq va qonuniy manfaatlarini himoyalash, shuningdek, gender tenglikni amalga oshirish bo‘yicha keng ko‘lamli ishlar amalga oshirilmoqda. Bugungi kunda gender masalalari bo‘yicha o‘tkazilayotgan islohotlar zamirida xotin-qizlarni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash va ijtimoiy himoyalash hamda maqsadli ishlarni tashkil etish bo‘yicha tizimli ishlarning samaradorligini oshirish talab qilinmoqda.

Butun dunyoda gender tengligiga oid tamoyillar, talablarni anglash orqali demokratik jamiyatni barpo etish zarurligi namoyon bo‘lmoqda. Shu jihatdan, gender kamsitish bilan bog‘liq zo‘ravonlik inson huquqlarining buzilishi deb qabul qilingan.

Bugungi kunda O‘zbekiston Respublikasining 2019-yil 20-avgustda “Xotin-qizlarni tazyiq va zo‘ravonlikdan himoya qilish to‘g‘risida”gi qonuni, 2019-yil 2-sentabrdagi “Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to‘g‘risida”gi O‘RQ-561-sonli qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 2-fevraldagi “Xotin-qizlarni qo‘llab-quvvatlash va oila institutini mustahkamlash sohasidagi faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5325-sonli Farmoni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 7-martdagi “Oila va xotin-qizlarni tizimli qo‘llab-quvvatlashga doir ishlarni yanada jadallashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi

PF-87-sonli Farmoni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 18-fevraldagi “Jamiyatda ijtimoiy-ma’naviy muhitni sog‘lomlashtirish, mahalla institutini yanada qo‘llab-quvvatlash hamda oila va xotin-qizlar bilan ishlash tizimini yangi darajaga olib chiqish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5938-son Farmonlari asosida jamiyatda xotin-qizlarni ijtimoiy himoyalanishi, ularning huquqlarini qonunchilik orqali ta’minlanishi, xotin-qizlar manfaatlari muhofaza qilinishi, ularning davlat va jamiyat qurilishida ijtimoiy faolliklarini oshirish, ilm-fan yo‘nalishidagi say-harakatlari qo‘llab-quvvatlanishi ustuvor vazifalar sifatida amalga oshirilmoqda. Shu nuqtayi nazardan, xotin-qizlar bugungi siyosiy-ijtimoiy makonga Yangi O‘zbekistonning inson kapitalini yaratuvchisi, demokratik va fuqarolik jamiyati quruvchilari bo‘lib maydonga chiqadilar.

Shu sababli ularning ehtiyojlarini amalga oshirish, imkoniyatlarini kengaytirish, muammolarini hal etish, ijtimoiylashuvini ta’minlash davlat siyosatining ustuvor vazifalari qatoridan o‘rin olgan.

Yangi O‘zbekistonning yetakchi g‘oyalaridan biri sifatida xotin-qizlar muhofazasi va gender tenglik tamoyillari zamonaviy taraqqiyot mohiyatini belgilab bermoqda. Yangi O‘zbekiston tushunchasining zamonaviy talqinida davlat va jamiyat qurilishida xotin-qizlar mavqeini ko‘tarish, gender tenglikni ta’minlash masalalari ustuvor yo‘nalishlardan biriga aylangan.

Shunga ko‘ra, milliy qonunchilikda “gender” tushunchasi mohiyati belgilanib, unga ko‘ra, “gender – xotin-qizlar va erkaklar o‘rtasidagi munosabatlarning jamiyat hayoti va faoliyatining barcha sohalarida, shu jumladan, siyosat, iqtisodiyot, huquq, mafkura va madaniyat, ta’lim hamda ilm-fan sohalarida namoyon bo‘ladigan ijtimoiy jihati”, deb ta’rif berilgan. Shu asosda, jamiyatimizda xotin-qizlarga teng imkoniyatlar yaratish, ularni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash va gender tenglik tamoyillarining joriy qilinishiga erishish har qanday zamonaviy davlatning ustuvor maqsadi va vazifalaridan biri hisoblanadi.

Gender o‘z-o‘zini anglash tizimida munosabatlar gender mansublik bilan bog‘lanadi. Bu insonning shaxsiy xulq-atvor modelini yaratishi bilan ham bog‘liq. Gender jihatdan o‘z-o‘zini anglash ijtimoiy o‘z-o‘zini anglashning o‘ziga xos ko‘rinishidir. Gender jihatdan o‘z-o‘zini anglash milliy o‘z-o‘zini anglash bilan bog‘liq.

Gender o‘z-o‘zini anglash – shaxsning integral tavsifi bo‘lib, o‘zida shaxsiy o‘zligi, “Men” konsepsiyasi, gender stereotiplar, gender ustanovkalar, gender xulq-atvor, o‘z-o‘zini anglash va gender rollarni mujassamlashtiradi.

Gender jihatdan o‘z-o‘zini anglash yaxlit tizimni tashkil etib, muayyan tarkibiy qismlariga ega. Birinchi navbatda kognitiv, bu shaxsning maskulinlik va femininlikning muayyan modeliga muvofiqligini anglashida namoyon bo‘ladi. Emotsional – shaxsning mazkur tizimga mos kelishi yoki kelmasligini anglashi. Irodaviy – shaxsning muayyan jamiyatdagi gender modelga muvofiq kelishi yoki kelmasligini anglashida namoyon bo‘ladi. Ikkinchidan, gender mansublik va dinamiklikning statistik komponentlarini farqlash.

Jamiyatimizda gender tenglikni ta’minlashda ta’lim tizimidagi yangilanishlar muhim ahamiyat kasb etadi. Jamiyatda gender tenglikka asoslangan demokratik tamoyillarni amalga oshirishda ta’lim muassasalari pedagoglarining hissasi kattadir. Ta’lim muassasalarida pedagoglarning ta’lim oluvchilarga o‘z xulq-atvori va munosabati orqali kuchli ta’sir etish imkoniyatiga ega. Ular gender tenglikni joriy etishdagi o‘zgarishlarning tashabbuskori bo‘lishlari kerak.

Butun dunyoda, shu jumladan, O‘zbekiston ham yoshlarning mentaliteti, gender xususiyatlarini saqlash va himoya qilishga harakat qilmoqda. Ta’lim muassasalarida pedagogik jamoaning barcha a’zolari o‘g‘il va qiz bolalarda o‘ziga xos sifatlarning shakllanishiga harakat qilishlari va buning uchun zarur pedagogik chora-tadbirlarni qo‘llashlariga erishish alohida amaliy ahamiyatga ega.

Xulosa sifatida shuni ta’kidlash mumkinki, jamiyatda gender tenglikni ta’minlashda ta’lim oluvchilar, jumladan, xotin-qizlarning huquqlarini himoyalash ta’lim muassasalari pedagoglarining ajralmas vazifalaridandir. Shunga ko‘ra, mazkur fikrlar asosida quyidagi tavsiyalarni ifodalashimiz mumkin:

– xotin-qizlarning kamsitilishiga yo‘l qo‘ymaslik maqsadida ayollarning huquqiy madaniyatini oshirish;

– ta’lim-tarbiya muassasalarida pedagogik jamoa va ta’lim oluvchilar orasida gender tenglik erkak va ayolning huquqlari va manfaatlarini birdek himoya qiladigan qadriyat ekanligini targ‘ib qilish;

– xotin-qizlarning ilm-fan, ijtimoiy hayotdagi mavqeini ko‘tarish hamda ularning ijtimoiy faolligini oshirish maqsadida ta’lim muassasalarida xotin-qizlarga belgilangan imtiyozlar, gender tenglikni amalga oshirilishidagi ustuvor vazifalar va yo‘nalishlarni yoshlar o‘rtasida muhokama qilish.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 18-fevraldagi “Jamiyatda ijtimoiy-ma’naviy muhitni sog‘lomlashtirish, mahalla institutini yanada qo‘llab-quvvatlash hamda oila va xotin-qizlar bilan ishlash tizimini yangi darajaga olib chiqish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5938-son Farmoni https://lex.uz/docs/4740345

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 27-iyundagi “O‘zbekiston Respublikasida oila institutini mustahkamlash konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PQ-3808-son Qarori. https://lex.uz/docs/3797625

3. O‘zbekiston Respublikasining 2019-yil 20-avgustda “Xotin-qizlarni tazyiq va zo‘ravonlikdan himoya qilish to‘g‘risida”gi Qonuni, 2019-yil 2-sentabrda “Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to‘g‘risida”gi O‘RQ-561-sonli qonunlari https://lex.uz/docs/4494709

4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 7-martdagi “Oila va xotin-qizlarni tizimli qo‘llab-quvvatlashga doir ishlarni yanada jadallashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi PF-87-sonli Farmoni. https://lex.uz/docs/5899498

5. Egamberdiyeva N.M. va b.q. Tazyiq va zo‘ravonlikdan jabrlangan xotin-qizlarga psixologik yordam ko‘rsatish. Uslubiy qo‘llanma. – T.: “Mahalla va oila” nashriyoti, 2022. – 144 b.

6. Ibragimov X., Abdullayeva Sh. Pedagogika nazariyasi (darslik). – T.: Fan va texnologiya, – 288 b. 2008.

7. Ibraimov Kh. ‘‘Theoretical and methodological basis of quality control and evaluation of education in higher education system.’’ International journal of discourse on innovation, integration and education 1 (2020): – S. 6-15 .

Orif G‘ANIYEV,
Jizzax davlat pedagogika universiteti tayanch doktoranti

BO‘LAJAK O‘QITUVCHILAR METAMETODIK KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISHNING DIDAKTIK TA’MINOTI

Annotatsiya

Mazkur maqolada bo‘lajak boshlang‘ich ta’lim o‘qituvchilarida metametodik kompetensiyasini rivojlantirishning metodik va uslubiy jihatlari hamda universal ta’lim faoliyatiga tayyorlash bo‘yicha didaktik tavsiyalar berilgan.

Kalit so‘zlar. Metodika, uslub, universal, boshlang‘ich ta’lim, metametodika, ta’lim sifati, kasbiy mahorat.

В данной статье даны дидактические рекомендации по методике и методическим аспектам формирования метаметодической компетентности у будущих учителей начальных классов, а также подготовки к универсальной учебной деятельности.

Ключевые слова. Методика, метод, универсальное, начальное образование, метаметодика, качество образования, профессиональные навыки.

This article provides didactic recommendations on the methodical and methodological aspects of developing metamethodical competence in future elementary education teachers, as well as preparation for universal educational activities.

Key words. Methodology, method, universal, primary education, metamethodic, quality of education, professional skills.

Bugungi kunga kelib, ta’limni sifatli amalga oshirish nafaqat maktab o‘qituvchilarining ma’lum bir fan sohasidagi bilim va ko‘nikmalariga, balki fanlararo tushunchalarni o‘zlashtirish darajasiga, ko‘nikma va malakalariga hamda metametodik kompetensiyalariga ham bog‘liq. Yosh o‘qituvchilar yaxshi nazariy bilimga ega bo‘lishi mumkin, ammo maktab amaliyoti shuni ko‘rsatadiki, bu muvaffaqiyatli o‘qitish uchun yetarli emas. Maktabda ish boshlagan birinchi kundanoq yosh o‘qituvchiga ham, tajribali o‘qituvchilarga ham xizmat vazifalarini bajarishda bir xil talablar qo‘yiladi, natijada yosh o‘qituvchining nazariy tayyorgarligi va uning pedagogik faoliyatni amalga oshirishga amaliy tayyorligi o‘rtasida ziddiyat, ya’ni qarama-qarshiliklar yuzaga keladi, bu ayniqsa, hozirgi ta‘lim sharoitida keskinlashdi. Sababi, shaxsning shakllanishida, albatta ta’lim va tarbiya o‘ziga xos o‘ringa ega.

Bizga ma’lumki, hozirgi vaqtda ta’lim va tarbiya jarayoni muassasalarda DTS (Davlat ta’lim starti) va Milliy o‘quv dasturi asosida amalga oshiriladi. Ta’lim-tarbiya jarayoni ijtimoiy rivojlanishning asosi hisoblanadi, shuning uchun DTS jamiyat rivoji bilan bog‘liq tarzda o‘zgarib turadi. Bu turli ta’limiy sharoitlarida o‘sgan shaxslar fikrlashida birmuncha tafovutlarning yuzaga kelishiga sabab bo‘ladi. Pedagogik faoliyatini endigina boshlagan o‘qituvchilar, jamiyatda shaxslar fikrlashi o‘zgarganligi, ijtimoiy o‘sish va rivojlanishga xalqning tanqidiy va tahliliy fikrlash orqali yondashayotganligi natijasida o‘qituvchi-pedagoglarga qo‘yiladigan talablarning sezilarli darajada oshishi tufayli ko‘plab muammolarga duch kelishmoqda. O‘qituvchi butun pedagogik faoliyatida doimiy ravishda o‘z kasbiy kompetensiyasini rivojlantirish ustida ishlashi kerak. Ma’lumki, maktabda o‘qituvchilarning kasbiy kompetensiyasini rivojlantirish vositalaridan biri uslubiy ishlar hisoblanadi.

O‘quvchilarning boshqa fan sohalarini o‘zlashtirishlari uchun qanchadan qancha fan bilimlari va faoliyat usullari muhim ahamiyatga ega. Davlat ta’lim standarti talablariga muvofiq, dasturni o’zlashtirishning metodik natijalari bo‘lajak o‘qituvchilar tomonidan o‘zlashtirilgan va shakllangan universal ta’lim faoliyati – shaxsiy, kommunikativ, tartibga soluvchi va kognitiv mavzulararo tushunchalarni o‘z ichiga oladi. Boshqacha qilib aytganda, yaxshi natijalarga erishish uchun o‘quvchilarda fanlararo tushunchalarning ma’lum bir to‘plamini va universal o‘quv faoliyatini shakllantirish strategiyalarini ishlab chiqish kerak.

Universal ta’lim faoliyatini shakllantirishga qaratilgan metametodik yondashuvini amalga oshirish doirasida muammoli maydonni yaratish va aniqlash bo‘yicha yagona va universal ish shakllari mavjud emas, lekin har bir pedagogik jamoaning o‘ziga xos pedagogik ishlanmalari va tizimi mavjud bo‘lishi mumkin.

Oliy ta’lim muassasalarida o‘qitishda metametodik yondashuvni amalga oshirish doirasida o‘qituvchilar va talabalar bilan o‘zaro hamkorlikni tashkil etish bo‘yicha o‘ziga xos uslubiy ish tizimi ishlab chiqilishi zarur.

Har bir o‘qituvchi o‘quvchilarni chuqur bilim, ko‘nikma va malakalar bilan qurollantirish, xulq-atvor madaniyatini shakllantirish, bozor iqtisodiyoti sharoitida hayotga tayyorlash, tez o‘zgarib borayotgan ijtimoiy muhitda o‘z o‘rnini topa olishga o‘rgatishdir. Maktabda ish boshlaydigan bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy-pedagogik tayyorgarligi holatini o‘rganish shuni ko‘rsatadiki, ular yaxshi nazariy tayyorgarlikka ega, yetarlicha nazariy bilimga ega, ammo aynan boshlang‘ich ta’limda fan sohalari turlicha bo‘lganligi sababli, metodik faoliyatni amalga oshirish yetarli darajada shakllanmagan. Natijada yosh mutaxassislar tajribali o‘qituvchilarning doimiy uslubiy yordamiga muhtojlik sezadi. Ushbu holat har jihatdan teng darajada noqulaylik tug‘diradi. Shuning uchun ham bo‘lajak o‘qituvchining metametodik kompetensiyasini rivojlantirishga oliy ta‘lim muassasasi ko‘nikmalarni rivojlantirishga qaratilgan uslubiy ishlarni tashkil etish zarurati mavjud.

V.M. Lizinskiyning pedagogik faoliyatda uslubiy ishlarni amalga oshirishni “Uslubiy ish – pedagogik xodimlarning ilmiy-nazariy, umumiy-madaniy darajasini, pedagogik-psixologik tayyorgarligini va kasbiy mahoratini oshirishga qaratilgan tizimli kollektiv va individual faoliyatidir”, deb izohlagan. Pedagogik qiyinchiliklarni tashxis qilish va kasbiy tayyorgarlik darajasini aniqlash bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy malakasini oshirish bo‘yicha uslubiy ishlarni tashkil etishning yo‘nalishlari va shakllarini aniqlashga yordam beradi. Tashxis qo‘yish jarayonida o‘z ishidagi kamchiliklarni aniqlashga qaratilgan didaktik jarayonlarda o‘z-o‘zini baholash ham muhim sanaladi.

Boshlang‘ich ta’limni amalga oshirishda bo‘lajak o‘qituvchilarda fanlararo integrativ yondashuvni amalga oshirish yuzasidan bir qator muammolar mavjud. Jumladan:

– fan va fan mavzularining mohiyatini o‘quvchilar ongiga yetkazib berish usullarini yetarli darajada bilmaslik;

– dars jarayonida psixologik holatni boshqara olmaslik;

– o‘quvchilar bilan muloqot qilish jarayonida fikriy uyg‘unlikni yuzaga keltira olmaslik;

– so‘z, mimika va pantomimik harakatlarni muvofiqlashtira olmaslik.

Yuqorida ta’kidlangan kasbiy kompetensiyalarni bo‘lajak o‘qituvchilar pedagogik faoliyat jarayonida amaliy tayyorgarlikning yetarli darajada emasligi bilan izohlash mumkin.

Maktabda metodik ishlarni tashkil etishning ko‘plab shakllari mavjud. Maktabdagi metodik ishlarning ijobiy natija beradigan shakllariga quyidagilarni kiritish mumkin: fan

uslubiy birlashmalari, maktabda yagona metodik kun, muammoli seminarlar va amaliy mashg‘ulotlar, ochiq va ko‘rgazmali darslar o‘tkazish, Ilmiy-pedagogik konferensiyalar va pedagogik o‘qishlar, rolli o‘yinlar, ishbilarmonlik va tashkiliy-faoliyat o‘yinlari, pedagogik vaziyatlarni modellashtirish va tahlil qilish, o‘qituvchilarning ijodiy hisobotlari, pedagogik maslahatlar va hokazo. Maktablarda uslubiy ishlarning bunday shakllari mukammallik individual va jamoaviy murabbiylikni tashkil etishga yordam beradi hamda o‘qituvchilarning kasbiy rivojlanishini ta’minlashga xizmat qiladi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risidagi farmonining, ma’naviy taraqqiyotni ta’minlash va sohani yangi bosqichga olib chiqish nomli V-bob 71-maqsad asosida maktablarni chinakam ma’naviyat, ma’rifat va madaniyat o‘chog‘iga aylantirish uchun ta’lim-tarbiyaning interaktiv usullarini qo‘llash belgilab qo‘yilgan. Shu nuqtayi nazardan bo‘lajak o‘qituvchilarning didaktik tayyorgarlik darajasini oliy ta‘limni amalga oshirish, ya’ni bakalavr darajasini olish chog‘ida shakllantirish maqsadga muofiq, deb o‘ylaymiz. Ayni paytda respublikamiz pedagogika oliy ta’lim muassasalarida innovatsion ta’lim muhiti sharoitida talabalarda metametodik kompetensiyasini rivojlantirish texnologiyalarini takomillashtirishning amaliy-texnologik tizimi va didaktik ta’minotini ishlab chiqish zaruratini ta’minlash, bo‘lajak o‘qituvchilarning metametodik kompetensiyasini takomillashtirish prinsiplari, metametodik kompetesiyasini integrativ yondashuv asosida takomillashtirish umumta’lim maktab o‘qituvchilarining didaktik (uslubiy) tayyorgarligini shakllantirishga xizmat qiladi.

Bo‘lajak o‘qituvchilarni uslubiy va metodik jihatdan tayyorlash jarayonida, bizningcha, uslubiy ishlarning faol shakllaridan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Uslubiy yordamni tashkil etishning eng samarali shakllari sifatida rolli o‘yin, amaliy o‘yin, tashkiliy-faoliyat o‘yinlari kabi seminarlarni keltirib o‘tishimiz mumkin.

Bunday shakllarning afzalligi – o‘ynaladigan pedagogik vaziyatlarning o‘zgaruvchanligi, haqiqiy pedagogik amaliyotga imkon qadar yaqinroq vaziyatlarni simulyatsiya qilish va hokazo. Bunday seminarlar malakali pedagoglar rahbarligida o‘tkazilishi kerak. Muammoli seminar va amaliy mashg‘ulotlarning mohiyati metodik va uslubiy kompetensiyalarni shakllantirishga qaratilganligi sababli tashkil etish jarayoniga tayyorgarlik ishlarini talab qiladi.

Bizning fikrimizcha, bolajak o‘qituvchilarni amaliy-didaktik tayyorlashda uslubiy ishning asosiy shakli bo‘lajak o‘qituvchi maktabi – talabalarning kasbiy va shaxsiy o‘sishi uchun sharoit yaratuvchi tizim bo‘lib xizmat qiladi. Amaliyot shuni ko‘rsatadiki, maktabda qo‘llaniladigan ta‘limning zamonaviy shakllari yangi o‘qituvchilarning kasbiy sifatlarini oshirish uchun keng imkoniyatlar yaratadi va pedagogik faoliyatda o‘zini o‘zi rivojlantirish uchun yordam beradi.

Bo‘lajak o‘qituvchilar bilan metodik ishlarning asosiy funksiyalari quyidagilardan iborat:

1) kompensatsion (o‘qituvchilarni tayyorlashdagi kamchiliklarni bartaraf etish);

2) moslashtirish (o‘qituvchini yangi sharoitda ishlashga moslashtirish);

3) rivojlantirish (pedagogik mahorat va ijodkorlikni rivojlantirish).

Ayrim o‘qituvchilarning kasbiy mahorat va ko‘nikmalarini shakllantirish bo‘yicha ishlar, agar uning maqsadi va vazifalari pedagogik faoliyatda yuzaga keladigan qiyinchiliklar bilan bog‘liq bo‘lsa, eng samarali tarzda amalga oshiriladi. Amaliyot shuni ko’rsatadiki, yosh o‘qituvchilar maktabi faoliyatining har bir bosqichida pedagogik qiyinchiliklar va kasbiy tayyorgarlik diagnostikasi majburiydir. Bu maqsad va vazifalarni

loyihalashda, shuningdek, yosh o‘qituvchilar maktabi faoliyatining asosiy yo‘nalishlarini belgilashda va individual yondashuvni amalga oshirishda yordam beradi.

Demak, bo‘lajak o‘qituvchilarning metametodik kompetensiyasini rivojlantirish usullarini takomillashtirish bo‘yicha uslubiy ishlarni tashkil etish jarayonida quyidagi jihatlarga yordam ko‘rsatilishi kerak:

– pedagogik faoliyat asoslarining amaliy va nazariy jihatlarini takomillashtirish;

– bo‘lajak o‘qituvchilarning shaxsiy kasbiy o‘sish dasturini ishlab chiqish;

– bo‘lajak o‘qituvchilar uchun o‘z-o‘zini tarbiyalashga qaratilgan ustuvor uslubiy mavzuni tanlash;

– ta‘limning innovatsion tendensiyalari va so‘ngi yangiliklaridan bevosita foydalanishning imkoniyatini yaratish;

– bo‘lajak pedagoglar bilan ishlash dasturini yanada takomillashtirish;

– murabbiylikni tashkil etish: bo‘lajak o‘qituvchilarga o‘qituvchi-ustozlarni tayinlash va ularning ishini tashkil etishga ko‘maklashish;

– uslubiy yordam ko‘rsatishning ajralmas qismi bo‘lgan “bo‘lajak o‘qituvchi maktabi” dasturi bo‘yicha ishlarni amalga oshirish.

Uslubiy ishning zamonaviy noan’anaviy shakllari bo‘lajak o‘qituvchining pedagogik faoliyatni samarali amalga oshirish jarayonini sezilarli darajada tezlashtirishi mumkin. Shunda bo‘lajak o‘qituvchi maktabning ta‘limiy, pedagogik muhiti va u tarbiyaviy ish jarayonida o‘zini yanada ishonchli his qiladi, uning ishonchi har bir akademik soatlik darsdan keyin mustahkamlanadi. Buning natijasida yosh o‘qituvchilarning kasbiy kompetensiyasi va kasbiy o‘sishi rivojlanadi.

Shunday qilib, ta’lim sifati ko‘p jihatdan o‘qituvchining kasbiy mahorati bilan belgilanadi. Didaktik jarayonlar bo‘lajak zamonaviy maktab o‘qituvchisining kasbiy kompetensiyasini rivojlantirishga qaratilgan bo‘lishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Umumiy o‘rta ta’limning davlat ta’lim standarti. Vazirlar mahkamasining 187-son Qarori. 06.04.2017 y.

2. Зеер Э.Ф., Павлова А.М., Симанюк Э.Э. Модернизация профессионалного образования: компетентностный подход: учеб. Пособие – М.: МПСИ, – 2005 г.

3. Лизинский В.М. О методической работе в школе. – М.: Педагогический поиск, – 2000 г. – С. 160.

4. 2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi. PF-60-son, 28.01.2022 y.

5. Дроздова Н.А. Школа молодого учителя//Методист. – 2012 г. № 6. – С. 55.

6. G‘aniyev O. (2020). Improving technologies for the development of metamethodical competence of future teachers. Архив Научных Публикаций JSPI.

7. G‘aniyev O. (2021). Bolalarni oilada ijtimoiy hayotga tayyorlashning pedagogik-psixologik jihatlari. Журнал Педагогики и психологии в современном образовании,(1).извлечено от.

8. https://ppmedu.jspi.uz/index.php/ppmedu/article/view/1401

Maxsumaxon UMNOVA,
Andijon davlat pedagogika instituti tayanch doktoranti

BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARINING O‘QUV FAOLIYATIDA BILISHGA QIZIQISHLARINING RIVOJLANISH TENDENSIYALARI

Annotatsiya

Ushbu maqolada boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining o‘quv faoliyatida bilishga qiziqishlarini shakllantirish va rivojlantirish masalalari qator adabiyotlar va ushbu muommoni o‘rgangan tadqiqotchi-olimlarning qarashlari nazariy tahlil qilinib, shular asosida turli usul va vositalar orqali rivojlantirish tavsiya etiladi.

Kalit so‘zlar. Bilish, qiziqish, ta’lim, o‘quvchi, motiv, kognitiv faoliyat, muommo, qarashlar, shakillantirish masalalari.

В статье рассматриваются вопросы формирования познавательного интереса учащихся начальных классов в учебной деятельности с теоретическим анализом ряда литератур и взглядов ученых-исследователей, изучавших данную проблему, и на их основе рекомендуется различные методы и средства для ее развития.

Ключевые слова. Познание, интерес, образование, ученик, мотив, познавательная деятельность, проблемы, взгляды, вопросы формирования.

The article deals with the formation of cognitive interest of primary school students in educational activities with a theoretical analysis of a number of literature and views of researchers who have studied this problem, and on their basis various methods and means for its development are recommended.

Key words. Cognition, interest, education, student, motive, cognitive activity, problems, views, questions of formation.

Hozirgi innovatsion ta’lim davrida intellektual, kreativ, izlanuvchan, muntazam o‘zini o‘zi rivojlantirishga intiluvchi komil shaxsni shakllantirish ijtimoiy buyurtma hisoblanadi. Shu munosabat bilan fundamental ta’limning ahamiyati ortib bormoqda, unda o‘quvchilarning aqliy va ijodiy qobiliyati rivojlanishi zarur, bu esa o‘z navbatida bilishga qiziqishni shakllantirish masalasini kun tartibiga qo‘yadi. Demak, qiziqish o‘quv jarayoninig fundamental bazasi, deb hisoblasak, mubolag‘a bo‘lmaydi.

Maktabgacha ta’lim bosqichidan o‘tib endigina maktabga qadam qo‘ygan boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining ta’lim faoliyati jarayonida o‘qituvchilar uchun nafaqat qiziqishni shakllantirish, balki uni maktabning barcha bosqichlarida saqlab qolish ham muhimdir.

O‘quvchilarda bilishga, bilim olishga, izlanishga bo‘lgan qiziqishini rivojlantirish muommosi pedagogika tarixida va hozirgi kunda ham o‘z dolzarbligini yo‘qotmagan. Qiziqishlarga ko‘plab tadqiqotchi olimlar turlicha nuqtayi nazardan izohlab o‘tgan. O‘tgan asrning D. Freyer, S. Byuller, E. Trondayk, I.F. Gerbart kabi mashhur xorijiy olimlarining qarashlari “qiziqishi”ni obyekt, hodisaga bo‘lgan ma’lum bir jalb qilishni ta’minlaydigan ehtiyoj va hissiyotlardan iborat ekanligini ta’kidlaganlar.

Ushbu muammoning dolzarbligi o‘quv mazmuni va o‘quv faoliyatini yangilash va takomillashtirish, shuningdek, maktab o‘quvchilarida mustaqil ravishda bilim olish

ko‘nikmalarini shakllantirish zarurati bilan belgilanadi. Bilishga qiziqish o‘z-o‘zidan ehtiyojlardan kelib chiqmaydi, balki boshlang‘ich sinfdan boshlab ta’lim muassasalari va pedagoglar tomonidan maxsus shakllantiriladi va rivojlantiriladi, shuning uchun boshlang‘ich sinfdan boshlab bilishga qiziqishni shakllantirish muammosiga yechim zarur bo‘lib, aynan shu davrda bolaning aniq bir sohada moyilligi va qobiliyatlari aniqlanadi, uning axloqiy e’tiqodlari va muayyan faoliyat turlariga bo‘lgan ehtiyojlari shakllanadi. Kichik boshlang‘ich sinf o‘quvchilarda qiziqishning shakllanishi o‘quvchining o‘z ichki faoliyat maqsadi paydo bo‘lishiga olib keladi va uni o‘quv faoliyatining dvigateliga aylantiradi. So‘ngra o‘quvchi o‘qish kerakligi uchun emas, balki o‘qish u uchun hayoti mazmuniga aylanadi, uning mazmun-mohiyatini chuqur anglashga hech qanday zo‘riqishlarsiz harakat qiladi.

Demak bilishga qiziqish – bu o‘quv faoliyati jarayonida maktab o‘quvchilarida shakllanadigan shaxsning ijtimoiy ahamiyatga ega fazilatlaridan biridir. Zamonaviy innovatsion maktab ta’limi muhitida maktab o‘quvchilarida bilishga qiziqishni rivojlantirish zarurati aniq ko‘rinadi. Shunga qaramay, bilishga qiziqishni rivojlanishini qanday ta’minlash mumkinligi haqidagi savol hali ham ochiq. Ushbu muammoni yechish uchun “bilishga qiziqish” tushunchasini nazariy tahlil qilish zarurati tug‘iladi.

Ilmiy va pedagogik-psixologik ahamiyatga ega bo‘lgan nuqtayi nazardan, bilishga qiziqish o‘quv jarayonini takomillashtirishning muhim omili va shu bilan birga uning samaradorligi va natijadorligining ko‘rsatkichidir, chunki u mustaqillik, kognitiv faollik, o‘quv materialni o‘rganishga ijodiy yondoshishni rag‘batlantiradi va o‘z-o‘zini yuksalishiga, tarbiyalashga undaydi. Psixologlar ongli faoliyat subyekti sifatida shaxsning yadrosi insonning motivatsion sohasi va, avvalambor, uning qiziqishlari va ehtiyojlari ekanligini ta’kidlaydilar.

Amerikalik psixolog Kerroll Izardning fikricha, qiziqishning perseptiv-kognitiv jarayonlar bilan o‘zaro ta’siri konstruktiv, intellektual, badiiy, ijodiy faoliyat shakllarining rivojlanishiga yoki konstruktiv bo‘lmagan psixopatologik xatti-harakatlarga olib keladi, deb izohlaydi. Qiziqish tuyg‘usining psixologik ahamiyatini muhokama qilishda shuni ta’kidlash kerakki, qiziqish – idrok, e’tibor va bilish jarayonlarining asosiy motivatsion tarkibiy qismidir. Qiziqish tuyg‘usi hatto yangi tug‘ilgan bolani idrok etish jarayoni kabi fundamental jarayonning motivasion asosini tashkil qiladi.

AQShning o‘tgan asr psixolog va shaxs nazariyotchisi Silvan Tomkins ta’kidlashicha: ‘‘Agar insonda qiziqish hissi bo‘lmasa, tafakkurning rivojlanishi va insonning kontseptual apparati shakllanishi jiddiy ravishda buzilishi mumkin. Qiziqish tuyg‘usi, fikrlash va xotira funktsiyalari o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlik hamda shunchalik xilma-xil va yaqinki, qiziqish tuyg‘usidan affektiv qo‘llab-quvvatlashning yetishmasligi, miya to‘qimalarining jismoniy yo‘q qilinishi kabi aqlning rivojlanishiga tahdid soladi. O‘ylash uchun inson tashvishlanishi, hayajonlanishi, doimo bilimlarni mustahkamlashi kerak. Ehtimol, doimiy qiziqish ishtirokisiz o‘zlashtirilishi mumkin bo‘lgan biron bir ko‘nikma yo‘qdir’’ – deya izohlaydi.

K.D. Ushinskiyning so‘zlariga ko‘ra, qiziqishni rivojlantirish uchun bolaning qiziquvchanligiga aylanishi kerak bo‘lgan tabiiy qiziquvchanlikdan foydalanish muhimdir. Qiziqishni diqqat bilan bog‘lab, Ushinskiy bolaga qiziqishning rivojlanishi bolaning mustaqil ta’lim olishga izlanishga bo‘lgan istagini rivojlantirishga yordam berishini ta’kidlaydi.


Psixologik nuqtayi nazardan, qiziqish deganda shaxsning obyektga bo‘lgan tanlo‘vchi, saralo‘vchi munosabati tushuniladi, bu uning hayotiy ahamiyati va hissiy jozibadorligi bilan belgilanadi. Manfaatlar ehtiyojlar tufayli yuzaga keladi. Ehtiyoj zaruratni, qiziqish esa qabul qilish, har qanday faoliyatga moyillikni ifodalaydi. Tasdiqlangan qiziqish ehtiyojga aylanishi mumkin. Shaxsning manfaatlari ular yo‘naltirilgan obyektning xususiyatlari va shaxsning psixik xususiyatlari (uning tarbiyasi, madaniyati, xarakteri, qobiliyatlari) bilan belgilanadi.

I.V. Dubrovina mualliflik tahriridagi psixologiya darsligida ‘‘qiziqish – bu asosan ichki tekislikda rivojlanadigan, yoyiladigan kognitiv faoliyatni rag‘batlantiradigan ehtiyoj munosabati yoki motivatsion holat’’, deb ifodalaydi. Rivojlanayotgan bilish faoliyat sharoitida qiziqish tobora boyitilishi va zamonaviy dunyoning yangi aloqalari va munosabatlarini o‘z ichiga olishi mumkin. Qiziqish hissiy va irodaviy xususiyatlarga ega. Qiziqish – bu intellektual qiyinchiliklarni yengish bilan bog‘liq bo‘lgan intellektual tuyg‘u va tegishli harakatdir. Haqiqatni bilim shaklida o‘zlashtirish bosqichida insonga qiziqish xosdir.

O‘zbekiston milliy ensiklopediyasida (2000-2005) qiziqishga quyidagicha ta’rif beriladi: qiziqish deb shaxsning o‘zi uchun qimmatli va yoqimli bo‘lgan muayyan narsa va xodisaga bo‘lgan munosabatiga aytiladi. Bunda insonning o‘ziga xos xususiyati bevosita mujassamlashadi. Qiziqish bilimlarni ongli, puxta, barqaror, anglagan xolda o‘zlashtirishda, ko‘nikma va malakalarni shakllantirishda qo‘l keladi, shaxs qobiliyati, zehni, uquvchanligini rivojlantirishga, olamni mukammalroq tushunishiga yordam beradi. Qiziqish insonda intilish, faollik, ichki turtki, ehtiyojni ro‘yobga chiqarish manbai vazifasini bajaradi. Qiziqish shaxsning borliqqa tanlab munosabatda bo‘lishida, o‘ziga xos qaror qabul qilishida, o‘zini o‘zi nazorat eta bilishida, maqsadga intiluvchanligida, yuzaga kelgan to‘siqlarni yengishida ifodalanadi. Qiziqishlar shaxsiy va ijtimoiy, bevosita va bilvosita, keng va tor, beqaror va barqaror bo‘ladi. Qiziqish sinchkovlik, qiziquvchanlik, bilishni o‘z ichiga oladi.

Pedagogik bilmlarni chuqur egallagan o‘qituvchi har bir o‘quvchida o‘quv jarayonining har qanday jabhasiga bo‘lgan qiziqishning hattoki zarra kabi kichik uchqunini o‘z vaqtida ko‘ra bilishi, bu qiziqish uchqunini o‘z vaqtida yoqishi va uni fanga, bilim olishga bo‘lgan chinakam qiziqishga aylantirishi kerak. Zero, bilishga qiziqish o‘qitishning eng muhim motivlaridan biri, o‘qitishning eng kuchli vositasidir.

Tadqiqotchilar bilishga qiziqishning rivojlanish tendensiyalarini aniqlaganlar, G. Shukina tavsiya etgan bosqichma-bosqich o‘sish pog‘onalarini biz quyidagi 1-rasmda taqdim etdik:



1-rasm. Qiziqishning rivojlanish bosqichlari.

Shunday qilib, qiziqish – bu biror narsaga tanlan munosabat, biror narsani boshqa bir narsadan afzal ko‘ruvchi munosabat; shaxsning ma’lum bir yo‘nalishi; kognitiv faoliyatning holati; voqelik obyektlari yoki hodisalariga hissiy jihatdan rang-barang munosabatdir.

Bugungi kunda bilishga qiziqish asosan “insonning faoliyatiga ijobiy yo‘nalish bilan birlashtirilgan turli xil holatlari: sevimli mashg’ulotlari, moyilligi, qiziqishi”deb tushuniladi. Shuning uchun, bilishga qiziqish – bu selektivlik va faollik kabi xususiyatlar bilan ajralib turadigan shaxsning atrofdagi dunyoga yo‘naltirilganligi, degan xulosaga kelish mumkin. Agar biz bilishga qiziqishga yondashuvlarni batafsilroq ko‘rib chiqsak, unda ko‘plab mualliflar buni bilish faoliyat bilan birga keladigan ijobiy his-tuyg’ularning ustunligi, unga motivatsiya, atrofdagi dunyoning obyektlari va hodisalarini bilish zarurati va ehtiyoji bilan bog‘lashadi. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarda kognitiv qiziqishni shakllantirish va rivojlantirish jarayoni faqat faoliyatda va birinchi navbatda ta’lim jarayonida amalga oshirishimiz maqsadga muvofiqdir.

Ta’limda bolalarda bilishga qiziqishlarning shakllanishi ikkita asosiy yo‘nalishda sodir bo‘lishi mumkin:

– o‘quv fanlarining tegishli mazmunini tanlash;

– aslida o‘quvchilarning kognitiv faoliyatini tashkil etish.

Tadqiqot muammosi bo‘yicha psixologik va pedagogik adabiyotlarni tahlil qilish jarayonida bilishga qiziqishning quyidagi xususiyatlari kuzatiladi:

– bilishga qiziqish voqelik obyektlari va hodisalarining xususiyatlari, fazilatlari to‘g‘risida yangi, noma’lum va tushunarsiz narsalarni o‘rganish istagida, ularning mohiyatini, orasidagi aloqalar va munosabatlarni anglab borish istagida namoyon bo‘ladi;

– bilishga qiziqishning rivojlanish darajasi va atrofdagi dunyo haqida bilim olish o‘rtasida ma’lum bir bog‘liqlik mavjud. Shunday qilib, bir tomondan, bilishga qiziqish ta’siri ostida, odamning dunyoqarashi sezilarli darajada kengayadi, boshqa tomondan, bu jarayon faqat bilishga qiziqishni rivojlantirish uchun asos bo‘lgan yangi bilimlarni egallash orqali mumkin. Kognitiv qiziqish ta’siri ostida bilim yanada chuqurlashadi;

– bilishga qiziqish turli xil psixik jarayonlarning faollashishiga olib keladi, bular: diqqat, idrok, xotira, tasavvur. Bu o‘z navbatida, atrofdagi dunyo haqidagi bilimlarni olish, saqlash va qo‘llash usullarini belgilaydi; insonning dunyoqarashi qanchalik keng bo‘lsa, uning bilishga qiziqishi shunchalik rivojlanadi, chunki uning paydo bo‘lishining sharti to‘plangan tajriba va yangi olingan bilimlar o‘rtasida aloqalarni o‘rnatish, tanish mavzuda yangi xususiyatlar, tomonlar, mohiyat, munosabatlarni topishdir.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining bilishga qiziqishlarini shakllantirishning samarali vositalariga ijodiy vazifalar, didaktik o‘yinlar, muammoli vazifalar kiradi.

Ijodiy vazifalar o‘quvchida kreativlik kompetensiyalarini namoyon etib, yashirin qobiliyat, ijodga yo‘naltirilgan mayllarni rivojlanishiga zamin yaratadi.

O‘yin darslar esa rivojlanadigan hissiy fon bo‘lib xizmat qiladi. O‘yin har qanday o‘quv materialini qiziqarli qilishga yordam beradi, quvonchli kayfiyatni yaratadi va bilimlarni o‘zlashtirish jarayonini osonlashtiradi. Bundan kelib chiqadiki, darslarda biz didaktik o‘yinlardan foydalanishimiz maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Didaktik o‘yinlar – bu o‘quv mashg‘ulotlarining bir turi bo‘lib, o‘quv o‘yinlari shaklida tashkil etilgan. O‘yin – faol o‘rganish va qoidalar, qat’iy tuzilish mavjudligi bilan ajralib turadigan bir qator prinsiplar asosida amalga oshiriladi. O‘yin faoliyati va baholash tizimlari, faol o‘qitish usullaridan biri hisoblanadi.

Muammoli vazifa o‘quv jarayonining zarur tarkibiy qismi bo‘lib, uning maqsadi o‘quvchilarning fikrlash tarzini rivojlantirishdir. O‘quv jarayonida o‘quvchilar uchun didaktik vosita sifatida o‘quv vazifalari qo‘llaniladi. Agar o‘quv vazifasi muammoli vaziyatni keltirib chiqarsa, unda bunday vazifa “muammoli” deb ataladi. Muammoli ta’lim, har doim faqat faktlar va xulosalarni yodlashga yaroqli bo‘lgan tayyor narsalarni taqdim etish emas, balki o‘quvchilarning doimiy qiziqishini uyg‘otadi va izlanishga chorlaydi. Bunday o‘rganish o‘quvchini va butun jamoani javob yoki muommoning yechimini izlab topishga majbur qiladi. Muammoli vaziyat o‘quvchining topshirig‘ini bajarish jarayonida yuzaga keladigan ma’lum bir ruhiy holatini tavsiflaydi, bu unga topshiriqni bajarish zarurati va uni mavjud bilimlar yordamida amalga oshirishning o‘zi yetarli emasligini va natijada o‘quvchi savol va topshiriqlarga yechim topish uchun yangi bilimlarni kashf etish zaruriyati borligini anglashiga erishish muhim sanaladi. Tajriba-sinov ishlarini tashkil etish, qiziqarli faktlar haqidagi hikoyalar, vizual vositalar, amaliy vazifalar yordamida o‘quvchilarning hayotiy g‘oyalarini ilmiy faktlar bilan maqsadli to‘qnashtirish natijasida muommoli vaziyatlarni tashkil etish mumkin.

Xulosa sifatida shuni aytishimiz mumkinki, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining bilishga qiziqishi bilan bog‘liq bo‘lgan intellektual faoliyatning aniq ko‘rsatkichi ularning bilim va ko‘nikmalari bilan faol ishlashidir. Bilishga qiziqish aniq bir qolip asosida shakllanmaydi, rivojlanishi uchun ularni turli vaziyatlar va vazifalarga jalb qilish, ularning moslashuvchanligini, ulardan erkin foydalanishni ko‘rsatadi va bilimga chuqur kirib borish istagiga hissa qo‘shish orqaligina erishish mumkin ekan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Изард Кэррол Э. Психология эмоций / The Psychology of Emotions / пер. с англ. А.М. Татлыбаев. – 704х100/16. – СПб.: Питер, 2000. – С. 464. – ISBN 5-314-00067-9.

2. Tomkins S.S. Interest-excitement. – In: Affect, imagery, consciousness; Vol. 1, The positive affects. — New York, Springer, 1962, 343 p.

3. Ушинский К Д. Собрание сочинений : в 11 т. / редкол.: А.М. Еголин (гл. ред.), Е.Н. Медынский и В.Я. Струминский ; [сост. и подгот. к печати В.Я. Струминский]; Акад. пед. наук РСФСР, Ин-т теории и истории педагогики. – М.: Л.: Акад. пед. наук РСФСР, 1948 – 1952.

4. Божович Л.И., Морозова Н.Г., Славина JI.C. Развитие мотивов учения у школьников. // Вопросы психологии школьника. – М.: АПН РСФСР, 1951, вып. 36. — С. 29-105.

5. Дубровина И.В. и др. Психология: Учебник / И.В. Дубровина, Е.Е. Данилова, А.М. Прихожан; Под ред. И.В. Дубровиной. – М.: Прогресс, 2007. – С. 367.

6. https://uz.wikipedia.org/wiki/Qiziqish

7. Морозова Н.Г. Учителю о познавательном интересе. – М.: Знание, 1979. – С. 47.

8. Рубинштейн С.Л. О мышлении и путях его исследования. – М.: Просвещение, 1988. – С. 412.

9. Пастушкова М.А. Формирование познавательных интересов младших школьников в учебной деятельности: Автореф. дис. канд. пед. наук. – М., 2009. – С. 17.

Sherali JO‘RAYEV,
Chirchiq davlat pedogogika universiteti,
“Jismoniy madaniyat nazariyasi” kafedrasi o‘qituvchisi

BO‘LAJAK O‘QITUVCHILARNING REFLEKSIV POZITSIYASI FALSAFIY VA PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK MUAMMO SIFATIDA

Annotatsiya

Ushbu maqolada bo‘lajak o‘qituvchilarning refleksiv pozitsiyasi falsafiy va pedagogik-psixologik muammo sifatida yoritilgan. Shuningdek, refleksiya, umume’tirof qilingan pedagogik-psixologik hodisa sifatida, bo‘lajak o‘qituvchining kasbiy-pedagogik pozitsiyasining tarkibiy qismi sifatida tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar. Refleksiya, refleksiv pozitsiya, refleksiv jarayonlar, bo‘lajak o‘qituvchilar, falsafa, pedagogika, psixologiya.

В данной статье рассматривается рефлексивная позитивность будущих учителей как философская и педагогико-психологическая проблема. Также рефлексия, как общепризнанный педагогико-психологический феномен, была проанализирована как составляющая профессионально-педагогической позиции будущего учителя.

Ключевые слова. Рефлексия, рефлексивная позитивность, рефлексивные процессы, будущие учителя, философия, педагогика, психология.

This article examines the reflexive positivity of future teachers as a philosophical and pedagogical-psychological problem. Also, reflection, as a universally recognized pedagogic-psychological phenomenon, was analyzed as a component of the professional and pedagogical position of the future teacher.

Key words. Reflection, reflexive positivity, reflexive processes, future teachers, philosophy, pedagogy, psychology.

Bugungi ta’lim shaxsning barkamol rivojlanishi va umuminsoniy ideallarga yo‘naltirilgan bo‘lib, ta’limga insonparvar yondashuv dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Bularning barchasi bo‘lajak o‘qituvchini kasbiy tayyorlashga o‘zgarishlar kiritish obyektiv zaruriyatini shart qilib qo‘ymoqda. Mazkur sharoitda o‘qituvchi faoliyatining boshqacha mazmunini izlash, uning ishining yangi usullari va texnologiyalarini joriy qilish lozim.

Zamonaviy ijtimoiy-iqtisodiy sharoitda OTMda bo‘lajak o‘qituvchining kasbiy tayyorgarligi quyidagi komponentlardan tashkil topgan: pedagogika sohasida bilim va ko‘nikmalar, pedagogik-psixologik texnologiyalarni bilish va kerakli vaziyatda qo‘llash ko‘nikmasi; ta’lim jarayonida pedagogik o‘zaro ta’sirga kirishish; ko‘p madaniyatlararo dialogli muloqot qilish qobiliyatida namoyon bo‘luvchi kommunikativ madaniyat; fan bilimlari sohasida pedagogik-psixologik va metodik tayyorlash.

Bugungi kunda OTMda kasbiy tayyorgarlik jarayonida pedagogik faoliyat subyekti sifatidagi bo‘lajak o‘qituvchining refleksiv pozitsiyasini rivojlantirishning ham amaliy, ham nazariy-metodologik jihatlarini ochib bera oladigan ilmiy tadqiqotlar yetarli emas.

Refleksiya – shaxs o‘zini o‘zi rivojlantirishning eng muhim omili bo‘lib, shaxsiy kamchilik va yaxshi fazilatlarni emotsional jihatdan qayta ko‘rib chiqishga yordam beradi. ‘‘Refleksiya’’ tushunchasining mohiyati va mazmuni mashhur faylasuflar (S.V. Gegel, R. Dekart, I. Kant, G. Leybnis, Dj. Lokk, Dj. Dyui, L. Feyerbax, P. Teyyar de Shar-

den, V.A. Lektorskiy), pedagoglar (A.K. Markova, S.L. Rubinshteyn, Yu.N. Kulyutkin, G.S. Suxobskaya) va psixologlar (A. Adler, A.A. Bodalev, L.S. Vыgotskiy, L.M. Mitina) asarlarida tahlil qilingan.

‘‘Refleksiya’’ tushunchasi murakkab, ko‘p jihatli bo‘lib, falsafa, psixologiya, pedagogika kabi bir qator fanlarning tadqiqot predmeti hisoblanadi.

Refleksiya (lotincha reflexio – orqaga nazar tashlash) ‘‘inson tafakkurining tamoyili’’ bo‘lib, insonni o‘z shakl va dastlabki shartlarini qayta anglash va tushunishga yo‘naltiradi; bilimni predmet jihatdan ko‘rib chiqish, uning mazmuni va bilish usullarining tanqidiy tahliliga qaratilgan; inson ma’naviy dunyosining ichki tuzilishi va o‘ziga xos xususiyatlarini ochib beradigan o‘zini o‘zi bilish faoliyatidir. Bilish shakli sifatida refleksiya nafaqat tanqidiy, balki evristik tamoyil hamdir: u yangi bilim manbai sifatida namoyon bo‘ladi.

Zamonaviy pedagogika fanida refleksiyaning quyidagi turlari ajratiladi:

– elementar;

– ilmiy;

– falsafiy.

Refleksiya ijtimoiy, estetik, ilmiy, axloqiy yo‘nalishlarga ega. Mazkur yondashuv mahsuldorlikni oshirgan, ma’naviy salohiyatni boyitgan holda ilmiy izlanishlarga ko‘maklashadi. Olim va mutafakkirlarning talqinida refleksiya – bu inson ongida fikr yuritish, o‘zini o‘zi anglash mazmunini tushunishda ifodalangan jarayon hamda tafakkur va nazariy faoliyatning shaklidir. Bundan kelib chiqqan holda, OTMda pedagogik ta’lim maktab faoliyati va umuman madaniyatda o‘z o‘rnini aniq tasavvur qiladigan bo‘lajak mutaxassisni kasbiy tayyorlash masalasini hal qilishi zarur. V.A.Slastenin fikriga ko‘ra, – “Mazkur iboraning mohiyati, insonparvarlikka yo‘nalgan oliy pedagogik ta’lim paradigmasini amalga oshirishdan iborat bo‘lib, uning strategiyasi olamni gumanistik nuqtayi nazardan yaxlit idrok qilish, tushunishga ega va o‘zligini tushungan, ma’naviy rivojlangan o‘qituvchi shaxsini shakllantirishga qaratilgan bo‘lishi kerak”. Zamonaviy o‘qituvchining o‘zligini anglash masalalari bo‘lajak o‘qituvchida pedagogik tafakkurni rivojlantirish, pedagogik faoliyatning refleksiv jarayonlari kabi masalalarga bag‘ishlangan tadqiqotlarda o‘rganilmoqda. “O‘qituvchining kasbiy o‘zligini anglash elementlari o‘z-o‘ziga tanqidiy munosabatda bo‘lish, o‘zini o‘zi tahlil qilish, o‘zini o‘zi nazorat qilish, ‘‘Men’’-konsepsiyasi, “Men” obrazi, o‘zini o‘zi baholash, o‘zini o‘zi har tomonlama rivojlantirish kabi pedagogik refleksiya atamalarida ifodalanadi. Pedagog faoliyatida kasbiy harakatlar va ular natijalari anglanadi, bu jarayonda “Men” obrazi shakllanadi. Kommunikativ sohada o‘z “Menining”, ya’ni “refleksiv Men” va “reversiv Men”larning obyektivatsiyasi namoyon bo‘ladi. Psixofiziologik muhitda jismoniy “Men” lokusi ajralib chiqadi, u “Men” – tirik organizmga shakllanadi. Bunda kasbiy o‘zligini anglashning protsessual komponenti o‘zining kasb doirasida shakllanishini anglash sifatida tushuniladi’’.

Psixologik yondashuv nuqtayi nazardan refleksiya jarayoni – har bir insonga tabiat tomonidan in’om qilingan faoliyatning ichki psixologik tarkibiy qismi bo‘lib, u refleks kabi fiziologik mexanizmda ifodalandi, va inson psixikasi (ruhiyati) individda refleksiv pozitsiyani shakllantirish uchun murakkab yo‘lni bosib o‘tishi kerak.

Refleksiya – bu ‘‘subyektning hamkorlikdagi faoliyat jarayonida uning protsessual va natijaviy o‘ziga xos xususiyatlarini tahlil qilish maqsadida undan unga nisbatan tashqi pozitsiyaga chiqishdir. Refleksiyaning kooperativ jihati haqidagi psixologik bilimlar jamoaviy faoliyatni, subyektlar hamkorlikdagi professional harakatlarini muvofiqlas-

htirish va kooperatsiya qilishni hisobga olgan holda, yanada samaraliroq loyihalashtirish imkonini beradi. Refleksiyaning kommunikativ jihati bir insonning boshqa inson ichki dunyosini aks ettirish jarayoni sifatida tushuniladi. Bunda refleksiya harakat qiluvchi individning muloqot bo‘yicha sheriklari uni qanday idrok qilayotganliklarini anglash sifatida ham namoyon bo‘ladi’’.

Bular refleksiya samarali kommunikatsiya va shaxslararo munosabatlarning eng muhim omili ekanligidan dalolat beradi.

Bugungi kunda refleksiv pozitsiyani tasniflash va strukturizatsiya qilishga yagona yondashuv mavjud emas. S.Yu. Stepanov refleksiyaning quyidagi turlarini ajratib ko‘rsatadi, ular:

– intellektual;

– shaxsiy;

– kooperativ;

– kommunikativ.

Refleksiyaning mazkur tuzilishi va tasnifi bo‘lajak pedagoglarda refleksiv pozitsiyani rivojlantirishda katta o‘rin egallaydi. Chunki bo‘lajak pedagogning o‘z faoliyatiga nazari sifatidagi refleksiv pozitsiyasi turli vaziyatlarda namoyon bo‘lishi mumkin. Pedagog esa hamkasblari, ta’lim oluvchilar va o‘zining faoliyati ustida o‘ylashi, ularni baholashi va tahlil qilishi shart. Refleksiv pozitsiya ma’ruza, chiqish, anjuman, seminar shaklida, shuningdek, o‘z faoliyatini tahlil qilish va hamkasblar bilan norasmiy muloqotda amalga oshirilishi mumkin.

Refleksiv jarayonlar pedagogning butun kasbiy faoliyati bilan parallel ravishda kechadi va quyidagilarda namoyon bo‘lishi mumkin:

a) ta’lim oluvchilar bilan muloqotda, bolalarning his-tuyg‘ulari, fikrlari va xatti-harakatlarini tushunish va tartibga solishga intilishda;

b) bolalar harakatlarini loyihalashtirish jarayonida, ta’lim maqsadlarini, ta’lim oluvchilarning xarakterologik va individual xususiyatlarini hisobga olgan holda, mustaqil ishlab chiqishga urinishlarida;

v) pedagog tomonidan o‘zining pedagogik xatti-harakatlari va o‘z shaxsiga nisbatan o‘zini o‘zi baholashi va o‘zini o‘zi tahlil qilishi jarayonida.

Bo‘lajak pedagog shaxs tahlilini amalga oshirganda va diqqat-e’tiborini o‘ziga qaratgan holdagina, ya’ni refleksiya qobiliyatini namoyon qilgandagina kasbiy rivojlanishi mumkin bo‘ladi. Refleksiya – bu kasbiy rivojlanishning muhim omillaridan biridir, shuning uchun, refleksiv pozitsiyasi OTMdayoq, bo‘lajak mutaxassisning ta’lim olish jarayonida rivojlanishi lozim.

Refleksiya psixologik jarayon sifatida – bu shaxsning o‘zining kasbiy tajribasini tahlil qilish qobiliyati. Refleksiv pozitsiyaning rivojlanishi shaxs natijalarga erishishda qiyinchiliklar bilan to‘qnashgan vaziyatlarda boshlanadi. Bu holda hal qilishning ikki yo‘li yuzaga keladi: a) shaxsiy va o‘zgalar tajribasini tahlil qilish va tahlil natijalarini amalga oshirish; b) tajriba yo‘qligida harakatlarni rejalashtirish va shaxsning yangi, yuqoriroq darajaga chiqishi. Bu ‘‘refleksiv chiqish’’dir, yangi pozitsiya esa – shaxsning refleksiv pozitsiyasi deb ataladi. Refleksiya insonga hayotdan chiqish, ya’ni ‘‘hayotga tepadan, uning ustidan turib qarash pozitsiyasini egallash va unga nisbatan mos munosabatni ishlab chiqish’’ imkonini beradi.

Refleksiv pozitsiyani rivojlantirishga qaratilgan tayyorlash jarayonida refleksiya quyidagi funksiyalarni bajaradi: Loyihalashtiruvchi (pedagogik jarayon ishtirokchilari faoliyatini loyihalashtirish va modellashtirish); tashkillashtiruvchi (hamkorlikdagi faoli-

yatda o‘zaro ta’sirning eng samarali usullarini tashkil qilish); kommunikativ (pedagogik jarayon ishtirokchilarining mahsuldor muloqotining sharti sifatida); ma’noijodkorlik (faoliyat va o‘zaro ta’sirning anglanganligini shakllantirish); motivatsiyali (pedagogik jarayon ishtirokchilari birgalikdagi faoliyatining natijaga yo‘nalganligini aniqlash); korreksiyalovchi (tuzatuvchi) (o‘zaro ta’sir va faoliyatda o‘zgarishlarga undash).

Refleksivlik – o‘z-o‘zini va o‘zgalarni anglash qobiliyati. Bu tafakkurning shunday turiki, unda shaxs o‘zini tushunish va o‘z xatti-harakatlarini tushunish imkoniyatiga ega. Refleksivlik – bu insonning asosiy psixologik xususiyati, shuning uchun pedagogni kasbiy faoliyatga tayyorlashda shaxsning bu xususiyati muhim ahamiyat kasb etadi.

Pedagoglarda refleksiv ko‘nikmalarni kasbiy kompetensiyasi sifatida rivojlantirish muammosi, ayniqsa, dolzarb va oliy kasbiy psixologik-pedagogik ta’lim uchun yangi metodologik masalalarni hal qilishni, shuningdek, mutaxassislar kompetentligi darajasiga yangi talablarni ishlab chiqishni talab qiladi.

Pedagogning refleksiv pozitsiyasi – bu o‘zining ilgarigi shaxsiy va kasbiy tajribasini o‘rnatish va qayta anglash bo‘lib, pedagog shaxsining innovatsion va ijodiy salohiyatini faollashtirish, kasbiy faoliyatda refleksiyani qo‘llash imkoniyatlarini kengaytirishga qaratilgan.

Shunday qilib, zamonaviy tadqiqotlar tahlili asosida refleksiv pozitsiya insonning o‘zini o‘zi bilish, o‘zi va atrofdagilarni aks ettirish, o‘z harakatlarini qayta anglash hamda boshqa odamlar tomonidan ushbu harakatlarni baholashini refleksiya qilish sifatida tushuniladi. Pedagogik faoliyat komponenti sifatida u bo‘lajak mutaxassisga o‘z faoliyatini tushunish, o‘z shaxsining ichki dunyosining o‘ziga xos xususiyatlarini ochish imkonini beradi. Ya’ni refleksiya, umume’tirof qilingan pedagogik-psixologik hodisa sifatida, bo‘lajak o‘qituvchining kasbiy-pedagogik pozitsiyasining tarkibiy qismi sifatida tahlil qilinadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Кулюткин Ю.Н. Психология думающего учителя. – М.,1984. – С. 311.

2.Семенов И.Н., Степанов С.Ю. Типы взаимодействия наук и методологические ориентации в психологии творчества рефлексии. – М., 1989.

3. Словарь практического психолога (2000 терминов)- сост.: Головин С.Ю. Минск, – М.: ‘‘Харвест’’ ‘‘АСТ’’, 2003. – С. 660.

Jurabek SHUKURLLAYEV,
Chirchiq davlat pedagogika universiteti,
“Jismoniy madaniyat nazariyasi” kafedrasi o‘qituvchisi

TALABALARNI ILMIY VA KASBIY FAOLIYATGA TAYYORLASHDA AKMEOLOGIK YONDASHUVNING MAZMUNI

Annotatsiya

Mazkur maqolada talabalarni ilmiy va kasbiy faoliyatga tayyorlashda akmeologik yondashuv bo‘yicha didaktik imkoniyatlari, talablari, mezonlari va bosqichlari yuzasidan ko‘rsatma va takliflar keltirilgan.

Kalit so‘zlar. Akme, magistr, talaba, mukammallik, mahsuldorlik, professionallik, yuksalish, ismoniy tarbiya, natija, sifat.

В данной статье содержатся указания и предложения относительно дидактических возможностей, требований, критериев и этапов акмеологического подхода в подготовке студентов к научной и профессиональной деятельности.

Ключевые слова. Акме, магистр, студент, мастерство, продуктивность, профессионализм, продвижение, исламское образование, результат, качество.

This article contains instructions and suggestions regarding the didactic possibilities, requirements, criteria and stages of the acmeological approach in preparing students for scientific and professional activities.

Key words. Acme, master, student, excellence, productivity, professionalism, advancement, Islamic education, result, quality.

Dunyo miqyosida ta’limning ilmiy rivojlanish tendensiyalari negizida, ta’lim jarayoni subyektlari faoliyatini tashkillashtirishni muvofiqlashtirish, har tomonlama ilmiy va ijodiy potensialga ega mutaxassis tayyorlashga yo‘naltirilgan mexanizmlarini ishlab chiqish vazifalari muhim ahamiyat kasb etadi.

Butun jahon bo‘yicha oliy ta’lim muassasalari tahsil oluvchilarining bilim, ko‘nikma, malaka egallashlarini takomillashtirish, ta’lim sifatini oshirish, uni insonparvarlashtirish, ta’limning uzviyligi va uzluksizligi, rivojlantiruvchi va ijtimoiylashtiruvchi maqsadlarini ta’minlash, mutaxassislarni, shu jumladan, jismoniy madaniyat ta’lim yo‘nalishi talabalarining kreativligi, ijodkorligini oshirishda ilmiy tadqiqot funksiyalarini takomillashtirish vazifalari qo‘yilmoqda.

Mamlakatimizda nafaqat jismoniy madaniyat ta’lim yo‘nalishi balki, boshqa ta’lim yo‘nalishlarida ham talabalar tomonidan olib boriladigan ilmiy tadqiqot (referat, mustaqil ish, kurs ishi, bitiruv malakaviy ishi, magistrlik dissertatsiyasi, tezislar, maqolalar, va o‘quv reja dasturlar) ishlarni amalga oshirishda talabalar qator muammolarga duch kelmoqdalar. Buning asosiy sababi talabalar tomonidan bajariladigan ilmiy ishlarni amalga oshirish mexanizmini tushunmaganliklari bois qanday tartibda rasmiylashtirish borasida yetarlicha bilimga ega emasliklaridadir. Shuningdek, talabalar tomonidan mustaqil bajariladigan referat, mustaqil ish, kurs ishi va bitiruv malakaviy ishlari, magistrlik ishlari, avvalo, biron fan tarkibida alohida mavzu sifatida o‘quv mashg’ulotlarini tashkil etish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Chunki, har qanday insondan o‘zi bilmagan va anglab yetmagan bilim yoki tajribani so‘rashni mantiqsizlik bilan tenglashtirish

mumkin. Shu bois mazkur jarayonni amalga oshirishda, talabalar bilimini takomillashtirishda har bir fan mazmunidan kelib chiqib, referat, mustaqil ish, kurs ishi va bitiruv malakaviy ishlari, magistrlik ishlari qay tartibda rasmiylashtirish va bajarish jarayonida nimalarga e'tibor berish lozimligini izohlash lozim.

Biz tomonimizdan yozilayotgan maqolamizning maqsad va vazifalaridan kelib chiqqan holda talabalarni ilmiy va kasbiy faoliyatga tayyorlashda akmeologik yondashuvning mazmuni asosiy tayanch tushunchalarini quyidagicha izohlash maqsadga muvofiqdir:

Ilm – arab tilida o'rganish, o'qish, hayotiy tajriba orttirish, bilim, ko'nikma hamda malakalar majmuidir.

Ilmiy faoliyat – obyektlar, hodisa (jarayonlar)ning xususiyatlari, o'ziga xosliklari va qonuniyatlarini aniqlash maqsadida borliqni o'rganish va olingan bilimlarni amaliyotda qo'llashga yo'naltirilgan faoliyat hisoblanib, fundamental va amaliy tadqiqotlardan iboratdir.

Jismoniy madaniyat tizimida ilmiy tadqiqot ishlari nazariy hamda amaliy tadqiqotlar asosida amalga oshirilishi belgilangan bo'lib, jismoniy madaniyat sohasidagi talabalar asosan jismoniy tarbiya sohasini nazariy jihatlarini ilmiy tadqiq etishga yo'naltirilgan tizim hisoblanadi. Chunki, jismoniy madaniyat sohasi gumanitar soha bo'lib, jismoniy tarbiya sohasida o'quv mashg'ulotlarini tashkil etishning pedagogik shart-sharoitlarini o'rganadi va bu jarayon mazmunini modernizatsiyalashda turli ta'lim texnologiyalarini amaliyotga tatbiq etish mexanizmlarini ishlab chiqadi. Jismoniy madaniyat tizimida ilmiy tadqiqot ishlari olib borishda talabalar turli tadqiqotlarning metod, shakl va vositalaridan hamda tajribalardan foydalanish asnosida uning takomillashgan parametrlarini ishlab chiqadi. Darhaqiqat, boshqa fanlarda bo'lgani kabi jismoniy madaniyat ta'limi sohasida ham avval talabalarga kelgusi kasbiy faoliyatlarida yoshlarga o'rgatiladigan asosiy fanlarning ham nazariy, ham amaliy tomondan bilimlar majmui berib boriladi. Shuningdek, ular ongida shakllangan ma'lum bir g'oyalarni amaliyotga tatbiq etishlari uchun uning ilmiy tomonlari o'rgatiladi.

Talabalar tafakkuri ilmiy asosga qaratilgan, mustaqil fikrga ega, jarayonni mantiqiy prognozlash xususiyatiga ega bo'lishi muhim ahamiyat kasb etadi. Tafakkurning rivojlanishiga keng imkoniyatlar ochib berishning yo'l yo'riqlari:

– muammoning yuzaga kelishi va fikriy vazifaning shakllanishi;

– vazifa javobini izlash va unga yechim topish;

– ushbu topilgan javobni subyektiv yangilikning ochilishi sifatida idrok etish;

– erishilgan javobning to'g'riligini isbotlash, uni boshqa kishiga asoslab berish, tushintirish;

– jismoniy tarbiya va sport vositalaridan ijodiy va ijobiy foydalanishlar.

Mutaxassislarning ilmiy tafakkurini shakllantirish bilimni egallashga bo'lgan ehtiyojning mavjudligi o'ziga xos omil sifatida e'tirof etilib, uning natijasida bo'lg'usi mutaxassislarni jismoniy tarbiya tizimida pedagogik holatlarni boshqalarga nisbatan chuqurroq anglab yetishi, o'rganiladigan jarayon dinamikasini farqlay olishi xususiyatlarning takomillashishini anglatadi. Shuning uchun ham talabalarning shaxs sifatida shakllanishida asosiy bosqich bo'lib xizmat qiladi. Jismoniy madaniyat ta'limida tahsil oluvchi talabalarni ilmiy tadqiqot ishlarini olib borishlari uchun ularda motivatsion-maqsadlarni tarkib toptirish muhim ahamiyat kasb etadi. Qolaversa, bu holat talabalarda kasbiy kompetensiyalarni bosqichma-bosqich tarkib topishida asosiy omil bo'lib, ulardagi tadqiqotchilik tajribasini shakllantirish yuzasidan qo'yilgan maqsadni tadqiqotchiligi orqa-

li jismoniy tarbiya sohasini anglash bilan uzviy bog‘liq bo‘lgan o‘rganishning shaxsiy muhim maqsadi sifatida qabul qilishi va uni o‘tashi kerak. Vazifa turli xil vositalar yordamida tashqi maqsadlari, talabani o‘qitish jarayonini maksimal darajada faollashtirishi bilan belgilanadi. Ushbu holatning natijasida talabalarning ilmiy-tadqiqot faoliyatiga qiziqishini shakllantirish, uning kasbiy o‘z-o‘zini takomillashtirish rolini belgilash hamda anglash orqali ularning talaba shaxsiyati uchun yangi imkoniyatlarni ochib beradi.

Akmeologik yondashuvning asosiy maqsadi – progressiv rivojlanishga hamda birinchi navbatda shaxsning professionalizmi va muayyan mehnat subyektlari faoliyatining taraqqiyotiga imkon beradigan talablar, sharoit va omillar tizimini namoyon etadi. Akmeogramma doimo individual bo‘ladi, rasmiy ravishda u samarali faoliyat ko‘rsatayotgan subyektning individual kesimini, uning imkoniyatlari va istiqbollarini, o‘rnini qoplaydigan va aksi bo‘lgan xususiyatlarini o‘zida mujassam etadi.

Akmeologik izchillik, ya’ni mukammallik cho‘qqisiga intilish, bu – inson hayotining ajralmas xususiyati bo‘lib, bu ibora orqali shaxsiy, kasbiy rivojlanish va o‘z-o‘zini takomillashtirishga moyillik anglatiladi. Bunday izchillik insonning ijodiy potensialida va kasbiy mahoratida o‘z ifodasini topadi. Akmeologik izchillik inson hayot-mamotining ontologik attributidir, ya’ni insonning tug‘ilganidan toki umrining oxirigacha bo‘lgan individual rivojlanish yo‘lini qamrab oladi. Akmeologiya — tabiiy, umumjamoa va insoniy qoidalar asosida kasbiy mahoratning yuksak muvaffaqiyatga erishishi haqidagi ta’limot bo‘lib, insonning yetuklik bosqichida rivojlanish qonunlari va mexanizmi haqida yanada yuksakroq darajalarni egallash fenomenologiyasini tadqiq etadi. Akmeologiya mahsuldorlik tushunchasini ochib beruvchi kasbiy faoliyat kategoriyasi tahlil qilinadi. Shuningdek, samarador faoliyat, professionalizm va ijod rivojlanishidagi hamda texnologiyani ishlab chiqib, mashg‘ulot faoliyatida yuksaklikka erishishning yo‘nalish va usullarini izlash va ularning bu jarayon qonuniyatlariga tatbiq etish, professionalizmning ijodiy yutuqlari sari yo‘naltirilgan samarador tizimlar darajalarini belgilash bilan shug‘ullanadi. Akmeologiyaning eng muhim jihati — yuksak ijodiy pog‘onaga ko‘tarilishidagi turli jihatlarini o‘rganuvchi muhim zamonaviy tarmoq bo’lib, insonning hunari rivoji, ijobiy ta’sirini kuchaytirishga xizmat qilishini chuqur anglashi, o‘z ijodiy faoliyatini rivojlantirish maqsadida mukammallik va kamolotga erishishi jihatlarini fanlar, ayniqsa, insonshunoslik bilan uyg‘unlikda o‘rganishdan iboratdir.

Shunday qilib, talabalarni ilmiy va kasbiy faoliyatga tayyorlashda akmeologik yondashuv talabalar tafakkuri ilmiy asosga qaratilgan, mustaqil fikrga ega, jarayonni mantiqiy prognozlash xususiyatiga ega bo‘lishi va yuqori natijalarga erishishni hamda ilmiy va kasbiy salohiyatni yaxshilashni taqozo etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Jismoniy tarbiya va sport jurnali. 2018-yil.

2. Shukurllayev J.M. 7-14 yoshli maktab o‘quvchilari ichidan voleybol sport turiga tanlab olish metodikasini takomillashtirish. TDPU magistrlik dissertatsiyasi. 2020-yil.

3. Shukurllayev J.M. 7-14 yoshli maktab o‘quvchilarini voleybol sport turiga tanlab olishning metodik xususiyatlari. “Mug‘allim hem uzliksiz bilimlendirio‘” 2-son. 2019-yil. Nekis.sh. 153-156 b.

4. Shukurllayev J.M. O‘quvchi yoshlarni voleybol sport turiga tanlab olishning metodik xususiyatlari. ACADEMIC RESEARCH in EDUCATIONAL SCIENCES. №.1. 2020 2-oktyabr.

Dilrabo TO‘RAYEVA,
Iqtisodiyot va pedagogika universiteti o‘qituvchisi

BO‘LAJAK BOSHLANG‘ICH SINF O‘QITUVCHILARINING IJODIY KOMPETENTLILIGINI RIVOJLANTIRISH (Integrativ yondashuv asosida)

Annotatsiya

Maqolada integrativ yondashuv asosida bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining ijodiy kompetentliligini rivojlantirish, bo‘lajak o‘qituvchi ijodiy-metodik tayyorgarligi mazmunida tarbiyaviy ish malakalari birlamchi hisoblanishi, o‘qituvchilik mahorati o‘qitish va tarbiyaviy malakalarning umumiyligi, natijada o‘qitishning muhim funksiyalari ta’limiy, tarbiyaviy va rivojlantiruvchi hamda o‘qituvchi faoliyatining mazmuni o‘quvchilarning faol va ongli bilishga oid faoliyatlarini boshqarishdan iboratligi tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar. Integratsiya, o‘quv faoliyati, ijod, kompetensiya, ko’nikma, malaka, bilim, metodika, aql, ta’lim.

В статье на основе интегративного подхода рассмотрено развитие творческой компетентности будущих учителей начальных классов, первоочередное рассмотрение навыков воспитательной работы в содержании творческо-методической подготовки будущих учителей, общность педагогических умений и воспитательных умений, как в результате было проанализировано, что важными функциями обучения являются образовательные, воспитательные и развивающие, а содержанием деятельности учителя является управление активной и сознательной деятельностью учащихся.

Ключевые слова. Интеграция, учебная деятельность, творчество, компетентность, умение, компетенция, знание, методология, интеллект, образование.

Based on an integrative approach, the article considers the development of the creative competence of future primary school teachers, the primary consideration of the skills of educational work in the content of the creative and methodological training of future teachers, the commonality of pedagogical skills and educational skills, as a result, it was analyzed that the important functions of teaching are educational, pedagogical and developing, and the content of the teacher's activity is the management of the active and conscious activity of students.

Key words. Integration, learning activities, creativity, competence, ability, competence, knowledge, methodology, intelligence, education.

Jahon oliy ta’lim muassasalarida integrativ yondashuv asosida bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining ijodiy kompetentliligini rivojlantirish, ta’lim jarayonini modellashtirish, loyihalashtirish, ijodiy tayyorgarlikni takomillashtirish, ijodiy sifatlar va kompetensiyalarni rivojlantirish bo‘yicha ilmiy-tadqiqotlar olib borilmoqda. Shu jihatdan, integrativ yondashuv asosida bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining ijodiy kompetentliligini rivojlantirish va kasbga tayyorlashni xalqaro malaka talablari asosida olib borish, ta’lim sifatini xalqaro darajaga ko‘tarish, savod o‘rgatish ko‘nikmalarini rivojlanish darajasi diagnostikasini amalga oshirish, modulli ta’limni yo‘lga qo‘yish, ijtimoiy kommunikativlikni faollashtirish, boshlang‘ich sinf o‘qituvchisining professionaligini aniqlash bo‘yicha ilmiy-tadqiqotlarga e’tibor berilmoqda.

Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining metodik tayyorgarligini takomillashtirish va integrativ yondashuv asosida bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining ijodiy kom-

petentliligini rivojlantirish masalalari mamlakatimizda B. Abdullayeva, G. Boymurodova, K. Qosimova, X. G‘ulomovalar tomonidan, MDH davlatlarida A.N. Vasilyeva, I.A. Zimnyaya, T.A. Ladijenskaya, M.R. Lvov tomonidan, xorij mamlakatlarida Bonimar T. Afalla, Fitzgerald L. Fabelico, Gabriela Kelemen, Rodrigo Lozano, Michelle Merril, Kaisu Sammalisto, Kim Ceulmans, Francisco J. Lozano, N. Tsankov, Pembe Bozat, Naziyet Bozat, Cigdem Hursen, Benjamin Fauth, Jasmin Decristan, Anna-Theresia Decker, Gerhard Buttner, Ilonca Hard, Eckhard Klieme, Mareike Kunter, Samuel Merk, Simone Poindl, Sebastian Wurster, Thorsten Bohl., Wu-Ying Hsieh, Mary Louise Hemmeter, Jeanette A. Mc Collum, Michaelene M. Ostrosky, Malik Sultanbeklar tomonidan tadqiq qilingan.

O‘zining gnostik yo‘nalganligini yo‘qotmay, bir vaqtda pedagogik faoliyatga aylanadi, uning mazmuni ta’lim oluvchilarning o‘quv faoliyatlarini amalga oshirish uchun optimal sharoitlarni yaratadi. U ta’lim oluvchi va o‘qituvchi rivojlanishi hamda takomillashuvi uning o‘ziga xos xususiyati hisoblanadi.

O‘qituvchi qo‘llaydigan nazorat va baholash nafaqat ta’lim oluvchining o‘quv faoliyatini rag‘batlashtirish vositalari, balki shaxsni tarbiyalash, ta’lim berish va rivojlantirish omillari ham hisoblanadi. Chunki o‘qituvchi nafaqat bilimlarni yetkazuvchi rolida xizmat qiladi, balki o‘tmish ajdodlar madaniyati va tajribasining ifodasi sifatida ta’lim oluvchi uchun tarbiyachi va ustoz hisoblanadi. Natijada, o‘quv faoliyati nafaqat o‘qituvchilik, balki o‘quv shaxsini shakllantiruvchi tarbiyaviy, ta’limiy – to‘liq ma’nodagi pedagogik ishga aylanadi.

Pedagogika OTMlari talabalarining ijodiy tayyorgarlik faoliyatini yanada takomillashtirishning quyidagi yo‘nalishlarini belgilab olish zarur:

– talabalarning pedagogik va kasb darajasini oshirishda ularning nazariya, ilmiy va amaliy tadqiqotlar, texnologik taraqqiyot va o‘qitilayotgan mutaxassislik fanlar bo‘yicha innovatsiyalarni o‘zlashtirish;

– samarali zamonaviy ta’lim va innovatsiya texnologiyalari, ilg‘or xorijiy tajribalarni joriy etgan holda OTM ta’lim yo‘nalishi, mutaxassisligi bo‘yicha malaka talablari, o‘quv rejalari, dastur va uslublarini zamon talabi ehtiyoji asosida takomillashtirish;

– oliy ta’lim muassasalari talabalarining global internet tarmog‘i, multimedia tizimlari va masofadan o‘qitish usullaridan foydalangan holda, zamonaviy innovasion pedagogika, axborot-kommunikasiya texnologiyalarini egallashi va ularni o‘quv jarayoniga faol tatbiq etishi;

– bo‘lg‘usi pedagog kadrlarining chet tilini amaliy o‘zlashtirish darajasini oshirish, o‘z kasb mahorati, pedagogik va ilmiy faoliyatini muttasil oshirib borishi uchun keng foydalanish;

– ta’lim yo‘nalishlarda uzluksiz malakaviy amaliyotni o‘tkazish va tanlangan obektlarda bitiruv malakaviy ishlarni tajriba-sinovdan o‘tkazish;

– magistrantlarni amaliyotlarda ilmiy faoliyat bo‘yicha ish olib borishga, ilmiy adabiyotlarni tahlil qilishga, ilmiy ish bo‘yicha o‘tkazilgan tajriba sinovdan olingan natijalarni ilmiy asoslashga o‘rgatish.

Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining pedagogik faoliyatini tashkil etish ijodiy o‘z-o‘zini rivojlantirishga nisbatan mas’uliyatini oshirishga xizmat qiladi. Pirovard natijada yuqori malakali kadrlarni tayyorlash va salohiyatini oshirishga erishiladi.

I.A. Zimnyayaning fikriga ko‘ra, pedagogik faoliyatning mahsuldorligi darajalari to‘g‘risida N.V. Kuzmina tomonidan ajratilgan mezonlar asosida fikr yuritish mumkin. Birinchisi, reproduktiv – pedagog o‘zi bilganini boshqalarga aytib bera oladi. Bu daraja ‘‘mahsuldor bo‘lmagan”, deb nomlanadi.

Ikkinchisi, moslashuvchi – pedagog o‘z xabarini auditoriyaning xususiyatlariga moslashtirishni biladi. Uni ‘‘kam mahsuldor’’, deb ataydilar.

Uchinchisi, lokal modellashtiruvchi – pedagog ta’lim oluvchilarni kursning alohida bo‘limlari bo‘yicha bilim, ko‘nikma, malakalarga o‘rgatish strategiyalarini egallagan. Ular ‘‘o‘rta mahsuldor’’, deb ataladi.

To‘rtinchisi, ta’lim oluvchilarning bilimlarini tizimli modellashtiruvchi – pedagog ta’lim oluvchilarning fan bo‘yicha umumiy bilim, ko‘nikma, malakalari tizimini rivojlantirish strategiyalariga ega. Bu ‘‘mahsuldor daraja’’, deb ataladi.

Beshinchisi, ta’lim oluvchilarning faoliyatlari va xulqlarini tizimli modellashtiruvchi – pedagog o‘z fanini ta’lim oluvchi shaxsini, uning o‘zini o‘zi tarbiyalash, mustaqil ta’lim, o‘zini o‘zi rivojlantirishga ehtiyojlarini rivojlantirish vositasiga aylantirish strategiyalarini egallagan’’. Mazkur daraja yuqori samarali hisoblanadi.

Pedagogik faoliyatning strukturasi to‘g‘risidagi masalaga, ya’ni o‘qituvchi mehnatining mustaqil, ammo shu bilan birga o‘zaro bog‘liq komponentlarini ajratishga murojaat etganimizda uning batafsil tavsifiga ega bo‘lamiz. Zamonaviy pedagogika fanida pedagogik jarayon o‘zaro aloqador komponentlar tizimi sifatida tushuniladi: faoliyat maqsadi; o‘qituvchi; ta’lim oluvchilar; faoliyat mazmuni; faoliyat vositalari va usullari; faoliyat natijasi. Mazkur tizimda o‘qituvchi faoliyatning ko‘pgina turlarini amalga oshiradi. Ijodiy tilda ular pedagogik funksiyalar deb ataladi.

Ijodiy ta’lim an’anaviy shakllarining muammosi odatda bitiruvchi ijodiy vazifalarni egallashga tayyor bo‘ladi, ammo ularni amalga oshirishga tayyor bo‘lmaydi. Bu holatda xotirjam munosabatda bo‘lib, yangi ishga qabul qilingan oliy ma’lumotli mutaxassisga ish o‘rgatish uchun ko‘pgina vositalar (mablag‘lar) sarflangan. Bunga yetarlicha ko‘p vaqt – to‘rt yil muddat talab etilgan. “Yosh mutaxassis” umumiy talablardan tashqari ishlagan, uning xatolari kechirilgan, unga ta’lim berilgan, malakasini oshirganlar, maxsus ustozlar biriktirilgan. Ma’lum vaqtga qadar bu odatiy holat hisoblangan. Ta’limning o‘ziga xosligi sababli, yakuniy natijani bera olmaydigan bunday uzilishlar bo‘lishi tabiiy hisoblangan. Ammo “ta’limning kamchiliklari sababli uzilishlar”ning hisobi ular ulkan ekanligini ko‘rsatdi.

Ish tajribasiga ega bo‘lganlar “qo‘shimcha ta’lim olish” davridan o‘tgan va darhol samarali ishlashga qodir bo‘lganlarni ishga qabul qilish holati yorqin namoyon bo‘ldi. Umuman olganda, ish beruvchilarning nomzodlarga talablari ro‘yxati quyidagilardan iborat:

1) muayyan ish tajribasining mavjudligi;

2) qo‘shimcha maxsus bilimlar;

3) malakaviy talablar.

Shu tariqa, zamonaviy bozor iqtisodiyoti sharoitlarida “yosh mutaxassis” uchun odatda ish topish qiyin hisoblanadi. Maktab direktorlari pedagoglarni ishga qabul qilishda yosh mutaxassislardan ko‘ra, ish tajribasiga ega bo‘lgan yetuk insonlarga yo‘nalgan.

Ta’lim mazmunini rivojlantirishda bugungi kunda bola o‘zlashtirishi ijtimoiy buyurtmaga qanchalik javob berishi va bolaga keyinchalik nima berishiga asoslanilmoqda. Aynan boshlang‘ich sinfdagi ta’lim o‘quvchilarning har tomonlama rivojlanishlari va o‘quv faoliyatining barcha komponentlarini to‘liq egallashlariga yo‘naltirilgan. Boshlang‘ich ta’limda o‘quvchilar o‘quv faoliyatining zaruriy ko‘nikma va malakalarini egallaydilar, o‘qish, yozish, hisoblashni o‘rganadilar, nazariy fikrlash, madaniy nutq va xulq elementlarini, shaxsiy gigiyena va sog‘lom turmush tarzi asoslarini egallaydilar.

Zamonaviy boshlang‘ich ta’lim o‘qituvchisi doimo o‘zining pedagogik mahoratini oshiradi, yangining ijodiy izlanishlarini olib boradi. Yuqorida belgilangan holatlar ta’siri

ostida pedagogik faoliyatning funksional tarkibidagi yuz bergan ahamiyatli o‘zgarishlarga qaramay, u rasmiy holda eskirgan tarif-malakaviy talablar bilan belgilanishda davom etmoqda. V.I. Blinov hujjatlar tahlili asosida o‘qituvchining tarbiyachi; o‘qituvchi; bolalarning darsdan tashqari faoliyatlari tashkilotchisi; bola tarbiyasida oilaga yordam ko‘rsata oladigan mutaxassis kabi asosiy funksional majburiyatlarini ajratadi. Tadqiqotchining ta’kidlashicha, ‘‘Mazkur funksiyalar ta’lim jarayonini tashkil etishni ma’lum bir shakl bilan cheklamagan holda, pedagogik faoliyat standartining tabiiy tuzilishini belgilaydi’’.

O‘tkazilgan funksional tahlil boshlang‘ich sinf o‘qituvchisining zamonaviy pedagogik faoliyati funksiyalarining ko‘lamini aniqlashga imkon berdi. Boshlang‘ich sinf o‘qituvchisining muhim pedagogik funksiyalari quyidagicha:

- ta’lim va tarbiya funksiyasi;
- sog‘liqni saqlash funksiyasi;
- ota-onalar bilan o‘zaro munosabat funksiyasi;
- mustaqil ta’lim;
- ilmiy-metodik ish funksiyasi.

Pedagogik funksiyalar pedagogik faoliyat tuzilmasida – ta’lim, tarbiya, muloqot, o‘qituvchi shaxsining o‘z-o‘zini namoyon etishi, uning ijodiy o‘sishida amalga oshiriladi.

Boshlang‘ich ta’lim umumiy o‘rta ta’lim olish uchun zarur bo‘lgan savodxonlik, bilim va ko‘nikma asoslarini shakllantirishga imkon beradi. Bunda boshlang‘ich ta’limning o‘quv-metodik ta’minotni yangilash, o‘quv-meyoriy hujjatlari, o‘quv qo‘llanma, metodik ko‘rsatma va tavsiyanomalarni yaratish, mavjud muammolarni aniqlash, ularga bugungi kun nuqtayi nazaridan baho berishni talab etadi. O‘qituvchilik faoliyati, kasb ta’limi, boshlang‘ich maktablar hamda boshlang‘ich ta’lim bilan bog‘liq tarixiy jihatlar O‘zbekiston, Rossiya hamda xorijiy mamlakatlar asosida o‘rganishni taqozo etdi. Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining ijodiy-metodik kompetentligini rivojlantirish universal ijodiy, umumijodiy va maxsus kompetensiyalarning sinergetik integratsiyasiga imkon beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasining Ta’lim to‘g‘risida Qonuni. 2020-yil 23-sentabr O‘RQ – 637-son Qonuni.

2. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga quramiz. – T.: O‘zbekiston, 2017. – 396 b.

3. Abdullayeva B.S. Akademik litsey o‘quvchilarining matematik tafakkurlarini rivojlantirish (umumlashtiruvchi darslar misolida). Dis....ped.fan.nom. –T.: TDPU, 2002. –146 b.

4. Masharipova U. Innovatsion ta’lim sharoitida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining nutq madaniyatini rivojlantirish metodikasi: Dis. ... ped. fan. nom. – T., 2017. – 163 b.

5. Nishonova Z.T. Mustaqil ijodiy fikrlashni rivojlantirish psixologik asoslari: Dis. ... psix. fan. dok. – T., 2005. – 391 b.

6. G‘ulomova X., Yo‘ldosheva Sh., Shermatova U. 4-sinfda ona tili darslari. – T.: O‘qituvchi, 2004. – 192 b.

Gulnoza IBAGIMOVA,
T.N. Qori Niyoziy nomidagi O‘zbekiston pedagogika fanlari
Ilmiy-tadqiqot instituti tayanch doktoranti

O‘ZBEKISTONDA UMUMIY O‘RTA TA’LIM SIFATINI RIVOJLANISHIGA OID TARIXIY MA’LUMOTLAR

Annotatsiya

Ushbu maqolada umumiy o‘rta ta’lim sifatini paydo bo‘lish va rivojlanish tarixi hamda ajdodlarimizning biz avlodlarga qoldirgan boy meroslari haqida so‘z yuritilgan.

Kalit so‘zlar. Kadrlar, oliy o‘quv yurti, maktab, madrasa ta’lim sifati, tarbiya texnologiyasi, tadqiqod, jamoatchilik, tarix, g‘oyaviy, siyosiy, professional daraja, avlod-ajdod, boshqaruv tizimi, islom, o‘quv-tarbiya jarayoni, o‘quvchilar ta’lim-tarbiyasi.

В этой статье рассказывается об истории возникновения и развития общего качества среднего образования, а также о богатом наследии наших предков, которое мы передаем из поколения в поколение.

Ключевые слова. Кадры, высшее учебное заведение, школа, медресе, качество образования, образовательная технология, исследование, общественность, история, идеологический, политический, профессиональный уровень, поколение, система управления, ислам, образовательно-воспитательный процесс, студенческое образование.

This article tells about the history of the emergence and development of the general quality of secondary education, as well as about the rich heritage of our ancestors, which we pass on from generation to generation.

Key words. Frames, higher educational institution, school, madrasah, quality of education, educational technology, research, public, history, ideological, political, professional level, generation, management system, islam, educational process, student education.

Sivilizatsiyalar tarixiga nazar tashlaydigan bo‘lsak, dunyo tarixidagi qadimgi davrlardan boshlab faoliyat ko‘rsatgan maktablar, madrasalar va universitetlar garchi bizning bugungi tasavvurimizdagi universitetlar kabi tashkil etilib, faoliyat yuritmagan bo‘lsada, ular o‘z davri uchun yuksak inqilobiy voqelik edi. Ko‘pchilik tadqiqotchilarning ta’lim dargohlari dastlab Yevropada paydo bo‘lgan, degan fikriga to‘la qo‘shilib bo‘lmaydi. Sababi, ta’limning paydo bo‘lishi ko‘p hollarda hududlardagi faol tarixiy-madaniy jarayonlar, ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlik bilan bevosita bog‘liq edi. Biz e’tibor bermoqchi bo‘lgan masala shundaki, muallif ta’kidlaganidek, yurtimizdan jahon sivilizatsiyasi taraqqiyotiga ulkan hissa qo‘shgan, biz nomlarini bilib-bilmagan ko‘pdan ko‘p allomalar yetishib chiqqanlar. “Lekin, tabiiy bir savol tug‘iladi: ushbu insonlar aql-tafakkur, ilm-fan, ma’naviyat-ma’rifat bobida qanday qilib bunday oliy maqomga erishgan? Ular qayerda o‘qigan, kimlardan ta’lim olgan?”. Ilmiy-ma’rifiy nuqtayi nazardan nihoyatda haqli savollar. Ushbu savollarga to‘la bo‘lmasa-da, qisman javob izlashga harakat qilamiz. Demak, dunyoning turli burchaklaridagi ilk ta’lim dargohlarida, avvalo diniy fanlar, so‘ng esa, dunyoviy fanlar o‘qitilganligi ta’kidlanadi. Bu o‘rinda eslatib o‘tish joizki, VIII asrga qadar O‘rta Osiyo xalqlari turli-tuman dinlarga e’tiqod qilar, har xil g‘oyalar va ta’limotlardan yaxshi xabardor edilar. Bu xususda amerikalik olim Fredrik Starr shunday e’tirof etadi: “Dunyoning har qanday boshqa burchagida intelektual jihatdan bundan-da “bag‘rikeng” mintaqani tasavvur qilish

mushkul”. Islom dinining nihoyatda bag‘rikeng ekanligi esa, hammamizga ma’lum. Shu nuqtayi nazardan qadimgi ta’lim dargohlarida, avvalo, diniy ta’limot ustunlik qilganligi oydinlashadi. Shu bilan birga, dastlabki oliy ta’limda matematika, huquqshunoslik, astronomiya, geodeziya, irrigatsiya va melioratsiya, adabiyot va san’at, me’morchilik kabi dunyoviy fanlar o‘qitilgani ham manbalardan ma’lum.

Taniqli faylasuf A. Erkayevning tadqiqotlariga ko‘ra, islom dini O‘rta Osiyoga yoyilgach, IX-X asrlardan boshlab Buxoro, Samarqand, Marv, Nasaf, Kesh, Urganch, Balx kabi shaharlar diniy va dunyoviy bilimlar markaziga aylanib, bu hududlardan ulkan allomalar yetishib chiqdilar. A. Erkayev islom olamida 8 ta shaharga ‘‘madina’’ nisbati berilgani, bular: Madinai Munavvara, Bag‘dod, Isfaxon, Nishonur, Marv, Buxoro, Samarqand, Nasaf ekanligi haqida ma’lumot beradi. Ushbu ma’lumotlar IX-XI asrlarga oid ekanligini inobatga oladigan bo‘lsak, ushbu “madina”larda hech bo‘lmaganda 2-3 tadan madrasalar faoliyat yuritganligini mushohada qilish mumkin.

Agar Qarshi shahri haqida so‘z yuritadigan bo‘lsak, bu shahar qadimdan ko‘plab nomlar bilan atalib kelingan. Antik davrda Naxshab, Nautaka, o‘rta asrlarda Nasaf, hatto Behbudiy shahri deb ham atalgan. 2700 yillik tarixga ega bo‘lgan Qarshi shahrida ilm-fan o‘rta asrlarda o‘zining yuksak cho‘qqisiga chiqqan. Bu zaminda 300 dan ortiq “Nasafiy” tahallusi bilan ijod qilgan mashhur allomalar turli-tuman diniy va dunyoviy bilimlar sohasida ijod qilganlar.

IX asrda Nasafda hadisshunoslik va fiqhshunoslik maktablari vujudga kelgan. X-XII asrlarda nafaqat Movarounnahrda, balki butun Sharqda “Nasafiy” tahallusi ancha mashhur bo‘lgan. Bu davrda fiqh, hadis, tafsir va islom dinining asosi bo‘lgan aqoid ilmi rivojlangan. XV asrda Nasafiy allomalar islom dini ahkomlari va boshqa ijtimoiy sohalarga oid asarlar ham yoza boshlaganlar. Agar qadimda Kesh shahri “Ilm val adab qubbasi” deb nom qozongan bo‘lsa, Nasaf shahri hadis va fiqh sohasida nafaqat Movarounnahrda, hatto olis yurtlardan olimlar kelib bahs-munozara yuritadigan “Majlis-tadris” (dars yig‘ini), xalqaro ilmiy tadbirlar o‘tkaziladigan shahar hisoblangan. Bunday majlisi tadrislar ko‘pincha dunyoviy ilmlarga bag‘ishlab tashkil etilgan. Nasafda xattotlik maktabi ham ravnaq topib, bu sohada Muhammad bin Said an-Nasafiy (XIII asr), Rajab bin shohim Ali Nasafiy (XVI asr), Muhammad Abdusalom ibn Muhammad an-Nasafiy (XVI asr), Xo‘jamberdi bin Mulla Qora Nasafiy (XVII asr), Ne’matullo al-mufti valadi Qozi Naxshabiy (XVIII asr), Muhammad Sharif Nasafiy (XVIII asr), Muhammad Said Nasafiy (XIX asr), Iskandar Nasafiy (XIX asr), Mirzo Abdulqodir Nasafiy (XIX asr), Mirzo Isomiddin Nasafiylar (XX asr boshi) samarali faoliyat yuritgan. Madrasa yohud oliy ta’lim bilan bevosita bog‘liq xattotlik maktabi Buxoroda ham keng taraqqiy etgan edi. Buxoroda yashab o‘tgan olim Sharifjon Maxdum Sadr Ziyo Buxoroda xattotlik san’ati IX-X asrlarda boshlanganligi, Samarqand va Buxoro madrasalarida xattotlik ilmiga alohida e’tibor qaratilganligi haqida ma’lumotlar beradi.

Bugungi kunda jamiyatdagi obyektiv jarayonlar tufayli ta’lim tizimida o‘zgarishlar yuz bermoqda. Ushbu o‘zgarishlar innovatsion bo‘lib, ta’limni insonparvarlashtirish, axborotlashtirish va shaffofligini ifoda etadi. Innovatsiyalarning yo‘nalishlaridan biri bu ochiq ta’lim g‘oyasini amalga oshirish bo‘lib, u o‘quv jarayonining funksiyalari, mohiyati, xususiyatlari, elementlari va aloqalari to‘g‘risidagi qarashlarni qayta ko‘rib chiqishni talab qiladi. Shaffoflik o‘quv jarayonini axborot muhiti bilan doimiy ravishda bog‘lashni, undagi ekologik o‘zgarishlarni hisobga olgan holda o‘quvchi shaxsini madaniyatga adekvat, kompleks va dinamik ravishda yo‘naltirishni nazarda tutadi. Bugungi kunda axborot muhiti imkoniyatlari ta’lim jarayonini sinf tizimidan tashqariga chiqishga imkon beradi,

bu esa o‘z navbatida o‘quv jarayonini tashkil etishning yangi shakllarini joriy etishga olib keladi. Ular orasida masofaviy o‘qitish, deyarli taqsimlangan o‘qitish, o‘quv jarayonini modulli tashkil etish, maktab o‘quvchilarining loyihaviy faoliyati, sinfdan tashqari ishlar, o‘quvchilar uchun individual o‘quv dasturlarini ishlab chiqish va amalga oshirish, repetitorsiz ochiq studiyalarda o‘qitish va hakozo.

Boshqaruv nazariyasi va amaliyotining tahlili asosida bir nechta bosqichlar ajratib ko‘rsatiladi:

Birinchi davr – eramizdan avvalgi 9-7 ming yilliklardan XVIII asrgacha bo‘lgan qadimiy davr. Olimlar qadimgi yunon faylasufi Suqrot eramizdan avvalgi 470-399-yillar) boshqaruvni maxsus faoliyat turi sifatida tavsiflab berganligini ta’kidlashgan. Suqrot boshqaruvning turli shakllarini tahlil qilish asosida boshqaruvning universalligi tamoyilini ishlab chiqqan. Aflotun (eramizdan avvalgi 428-348-yillar) davlat boshqaruvi tasnifini yaratgan, boshqaruv organlari funksiyalarini farqlab berishga uringan.

Ikkinchi davr – sanoat davri (1776-1890-yillar). Boshqaruv nazariyasi va amaliyoti A. Smit, R. Ouen, Ch. Bebbidj nomlari bilan bog‘lanadi. A. Smit mehnat taqsimoti shakllari tahlili bilan shug‘ullangan va davlatboshi va davlat majburiyatlari tavsifini yaratgan. R. Ouen ishlab chiqarishning gumanistik boshqarish g‘oyasini amalga oshirgan. Ch. Bebbidj “analitik haqiqat” loyihasini ishlab chiqqan. Uning asosida boshqaruv qarorlarini tezkorlk bilan ishlab chiqish imkoniyati paydo bo‘lgan.

Uchinchi davr – tizimlashtirish davri (1890-1960-yillar). Bu davr yangi yo‘nalishlar, maktablar, oqimlar shakllanishi, ilmiy apparat takomillashuvi bilan xarakterlanadi.

To‘rtinchi davr – axborot davri (1960-yillardan xozirgi kungacha). Bu davrda boshqaruv muammolari tizimli yondoshuv, sinergetika va kvalimetriya g‘oyalari nuqtayi nazarida hal etilmoqda.

Tadqiqotimiz maqsadlari uchun boshqaruvga nisbatan mavjud yondoshuvlarni ta’limda bo‘layotgan jarayonlar qobig‘ida ko‘rib chiqish muhim hisoblanadi.

Mazkur tahlil chuqur bo‘lishi va muammo munosib baholanishi uchun davrlashtirish metodiga murojaat qilganmiz. Bu metodda asosiy e’tibor muammo paydo bo‘lishining tarixiy tendensiyalarini aniqlash, uning ishlab chiqib bo‘lingan va kam o‘rganilgan jihatlarini aniqlashga qaratiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Hasanboyeva O. Pedagogika tarixi xrestomatiyasi. – T.: O‘qituvchi, 1993. – 210 b.

2. Hoshimov K, Ochil S. O‘zbek pedagogikasi antologiyasi: 2-to‘ldirilgan va qayta ishlangan nashri. – T.: O‘qituvchi, 2010. – 4 a 21 b.

3. Safo Ochil, Hoshimov K. O‘zbek pedagogikasi antologiyasi. / II. j. – T.: O‘qituvchi, 1999. – 480 b.

4. Ибраимов Х.И., Абдуллаева Ш.А. История педагогики и образования. Учебник для магистрантов. – Т., “Фан ва технология”, 2008, – С. 240.

Asror SUYUNOV,
Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti
mustaqil tadqiqotchisi

INTEGRATIV YONDASHUV ASOSIDA TARIX O‘QITUVCHILARINING O‘ZINI O‘ZI KASBIY RIVOJLANTIRISH DEFINITSIYASINING PSIXOLOGIK-PEDAGOGIK ASPEKTLARI

Annotatsiya

Mazkur maqolada integrativ yondashuv asosida tarix o‘qituvchilarining o‘zini o‘zi kasbiy rivojlantirish definitsiyasining psixologik-pedagogik aspektlari keng yoritilgan.

Kalit so‘zlar. Integrativ yondashuv, rivojlanish, shaxsiy rivojlanish, kasbiy rivojlanish, o‘zini o‘zi kasbiy rivojlantirish, definitsiya, aspekt.

В данной статье широко освещены психолого-педагогические аспекты самоопределения профессионального развития учителей истории на основе интегративного подхода.

Ключевые слова. Интегративный подход, развитие, личностное развитие, профессиональное развитие, самопрофессиональное развитие, определение, аспект.

In this article, the psychological and pedagogical aspects of self-determination of the professional development of history teachers based on an integrative approach are widely covered.

Key words. Integrative approach, development, personal development, professional development, professional development itself, definition, aspect.

O‘qituvchining o‘zini o‘zi kasbiy rivojlantirish masalalari ancha murakkab va bunga turli (aspekt) nuqtayi nazardan yondashish mumkin. Shunga ko‘ra biz ilmiy-tadqiqot mavzusi doirasida “rivojlanish”, “shaxsiy rivojlanish”, “kasbiy rivojlanish”, “o‘zini o‘zi kasbiy rivojlantirish” definitsiyasi (ta’rifi)ning pedagogik va psixologik aspektlarini ko‘rib chiqishni maqsadga muvofiq deb hisobladik.

Rivojlanish – tabiat va jamiyatdagi qonuniyatli o‘zgarish bo‘lib, bir sifat holatidan boshqasiga, eskidan yangiga o‘tish hisoblanadi. Rivojlanish natijasida obyektning tarkibi yoki strukturasining yangi sifat holati vujudga keladi. Ko‘pgina mutaxassislar ta’kidicha, inson resurslarini rivojlantirishga doir keng sohalarning asosiy yo‘nalishlaridan biri – bu shaxsning kasbiy rivojlanishi bo‘lib, odatda insonning kamolot, shakllanish, o‘zini takomillashtirish, o‘zini rivojlantirish kabi progressiv rivojlanishi bilan aniqlanadi.

Psixologik adabiyotlarda “rivojlanish – bu biror narsaning o‘sishi, mustahkamlanishi, taraqqiyoti” deb talqin qilinadi. Rivojlanish konsepsiyasi jismoniy, axloqiy yoki intellektual tartib bilan bog‘liq bo‘ladi va rivojlanayotgan jarayonni anglatadi. Shuning uchun u vazifa, shaxs, jamiyat, mamlakat yoki boshqa narsalarga tegishli bo‘lishi mumkin. “Rivojlanish” ta’rifi maqsadlar, pozitivlik, yangi darajaga chiqish kabi baholash mezonlarini tushunishga asoslangan. Rivojlanish uchun ichki “talab” – bu hayotiy maqsadga intilish. Faqatgina ichki, hayotiy motivatsion stimullarni tushunishgina kasbiy o‘zini anglash uchun shaxsiy asosni taqdim etishi mumkin.

Yuqoridagilardan ko‘rinadiki, “rivojlanish” so‘zi juda katta hajmdagi tushunchani anglatadi. Bu – eng pastdan yuqoriga qarab harakatlanish; bitta sifat holatidan yanada mukammal holatga o‘tish; eskidan yangiga progressiv harakat.

Kasbiy rivojlanish – bu shaxsiy rivojlanish va o‘zini o‘zi rivojlantirishning samarali jarayoni, kasbiy yo‘naltirilgan faoliyatni o‘zlashtirish va o‘zini o‘zi loyihalashtirish, kasblar dunyosida o‘z o‘rnini belgilash, kasbda o‘zini anglash va professionallik cho‘qqilariga erishish uchun o‘z salohiyatini namoyon etishdan iborat.

Kasbiy rivojlanish – bu yo‘nalish salohiyat va muhim kasbiy sifatlarning boyib borishi, mehnat faoliyati samaradorligini oshirib borish bilan belgilanadi. Shuningdek, kasbiy rivojlanish – bu, avvalambor, kasbiy ahamiyatga ega bo‘lgan o‘sish, o‘z shaxsiy fazilatlar va qobiliyatlari, kasbiy bilim va ko‘nikmalarini faol ravishda sifatli o‘zgartirishi, bu pedagogik faoliyatning tubdan yangi tuzilishi va uslubiga olib keladi. Ta’lim, kasbiy bilim va ko‘nikmalar, umumiy va maxsus qobiliyatlar, ijtimoiy ahamiyatga ega va kasbiy muhim fazilatlar mutaxassisning kasbiy rivojlanish potensialini tashkil etadi.

Potensialni ro‘yobga chiqarish ko‘plab omillarga bog‘liq: insonning biologik holati, ijtimoiy vaziyat, kasbiy faoliyat, shaxsning faoliyati, uning o‘zini rivojlantirish va o‘zini o‘zi anglashga bo‘lgan ehtiyoj. Ammo shaxsning kasbiy rivojlanishidagi yetakchi omil bu yangi ijtimoiy talab va ehtiyojlar paydo bo‘lishi jarayonida kasbiy faoliyat bilan belgilanadigan obyektiv talablar tizimidir. Talablarni amalga oshirish usullarini o‘zgartirish yoki qayta qurish, yetakchi faoliyatga bo‘lgan munosabatni o‘zgartirish shaxsiyatni rivojlanish bosqichlarini belgilaydi. Kasbiy rivojlanishda ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlar, ijtimoiy-kasbiy guruhlar, ijtimoiy va ta’limiy muhit hamda shaxsning faoliyati ham katta ahamiyatga ega. Insonning subyektiv faoliyati barqaror ehtiyojlar, motivlar, qiziqishlar, yo‘nalish va boshqalar tizimi bilan belgilanadi. Kasbiy rivojlanish o‘z vaqtida kasbiy muhim bilimlar, ko‘nikmalar, fazilatlar, xulq-atvorni shakllantirish uchun unga kasbiy muhim faoliyat turlarida (kognitiv, o‘quv, kasbiy va hokazo) ta’sir ko‘rsatadigan bir qator ijtimoiy ta’sir usullaridan foydalanishni o‘z ichiga oladi.

Kasbiy rivojlanish jarayoni kasbiy ahamiyatga ega bo‘lgan faoliyat turlari va ijtimoiy vaziyat bilan bog‘liq. Mutaxassisni rivojlantirishning harakatlantiruvchi kuchlari – bu kasbiy ishning tobora murakkablashib borayotgan talablari va individual uslub, tajriba va qobiliyat o‘rtasidagi ziddiyatlar. Kasbiy rivojlanish faoliyatining amalga oshirilishi va samaradorligi bir qancha omillar bilan belgilanadi. Ularga o‘qituvchilarning yosh xususiyatlari, individual-psixologik, kasbiy-texnologik va ijtimoiy-iqtisodiy omillarni kiritish mumkin. O‘qituvchining kasbiy rivojlanishini boshqarishni amalga oshirish o‘qituvchilarga nazariy bilimlarni takomillashtirish va pedagogik mahoratni oshirishda, ilg‘or pedagogik tajribani o‘rganish, umumlashtirish va amaliyotga joriy qilishda, bolalarni o‘qitish va tarbiyalashning yangi shakllari, metod va usullarini o‘zlashtirishda amaliy yordam ko‘rsatishni o‘z ichiga oladi.

Shaxsiy va kasbiy rivojlanish shaxsning kasbiy faoliyat jarayonida uning turli xil harakatlarni bajarishi bilan bog‘liq bo‘lgan psixologik xususiyatlarining miqdoriy va sifatli o‘zgarishi sifatida izohlanadi. Shaxsiy va kasbiy rivojlanish muammosi yaxlitlik g‘oyalari, shaxsning shaxsiy va kasbiy rivojlanishining birligi g‘oyalariga, integrativ yondashuvga asoslanadi. Uning mohiyati insonni o‘zining eng yuqori yutuqlariga, shaxsning o‘zini to‘liq anglashiga bo‘lgan munosabatini safarbar qilish shartlarini aniqlashdan iborat. Bizning fikrimizcha, bu ta’limni modernizatsiya qilish sharoitida o‘qituvchiga qo‘yiladigan talablarga mos keladi.

Pedagogik adabiyotlarda “o‘zini o‘zi rivojlantirish” jumlasining birinchi qismi bo‘lgan – “o‘zini o‘zi” tushunchasi “biror narsaning o‘ziga yo‘nalishi, tashqi yordamlarsiz, beixtiyor, avtomatik ravishda biror narsa qilish”, – deb tushuniladi.

O‘z-o‘zini rivojlantirish – bu shaxsning o‘zini o‘zgartirishi, ma’naviy ehtiyojlarini, ijodkorligini, shaxsiyatini rivojlantirish, shaxsiy salohiyatini boyitishga qaratilgan faoliyat.

Tadqiqot doirasida tarix o‘qituvchilarining o‘zini o‘zi kasbiy rivojlantirishning pedagogik-psixologik aspektlarini o‘rganish, shuningdek, o‘zini o‘zi kasbiy rivojlantirish komponentlarini, ijtimoiy va kasbiy-pedagogik mezonlarini aniqlashtirish, tarix o‘qituvchisining pedagogik faoliyati va kasbiy rivojlanish kombinatsiyasining mazkur jarayondagi imkoniyatlarini inobatga olib, tarix o‘qituvchilarining o‘zini o‘zi kasbiy rivojlantirishi quyidagi bosqichlarda kechishi aniqlandi: o‘z pozitsiyasini aniqlash, tahlil qilish, ustuvorlikni tanlash, translyatsiya, ijodiy, akme, introspeksiya, refleksiya, yangi strategiyalarning shakllanishi.

Tarix o‘qituvchilarining o‘zini o‘zi kasbiy rivojlantirish bosqichlari:

1. O‘z pozitsiyasini aniqlash. O‘zini o‘zi kasbiy rivojlantirish uchun harakat qilishni boshlashdan oldin, uning ichki mohiyatini tushunishi lozim: muammolar, qo‘rquvlar, istaklar va boshqalar. Ushbu bosqichda o‘qituvchi ichki resurslarini xolisona baholashi muhim hisoblanadi. Birinchi bosqich natijasi: kasbiy madaniyat va kasbiy ehtiyojlarni o‘zlashtirish motivatsiyasini shakllantirish; "o‘zini o‘zi tasvirlash" to‘g‘risida xabardorlik; kasbiy, shaxsiy va ijtimoiy qadriyatlarni qabul qilishga tayyorlik.

2. Pedagogik muammolarni hal qilishning turli variantlarini tanqidiy tahlil qilish.

3. Ustuvorlikni tanlash, o‘rganishning o‘z versiyasi asoslarini qurish.

4. Translyatsiya o‘zini o‘zi kasbiy rivojlantirish jarayonida o‘zlashtirilgan kontentdan, olingan tajribalardan pedagogik amaliyotda bevosita foydalanish.

5. Ijodiy daraja. Ijodiy (strategik) darajada ijodiy (strategik) fikrlash yordamida ijodiy fikr faoliyatining odati shakllanadi. Ijodiy (strategik) fikrlash uchinchi darajadagi kasbiy rivojlanish mazmunining asosiy elementi va uchinchi darajadagi kasbiy tajribani shakllantirish mezonidir.

6. Akme daraja – bunda kasbiy malaka, mahoratning rivojlanishi kuzatiladi. O‘qituvchining shaxsiy va kasbiy rivojlanishining tashqi va ichki imkoniyatlarini o‘rganish tizimlashtiriladi, turli xil professional rollarni egallash paydo bo‘ladi, bu professional faoliyatning ijodiy tushunchasi, o‘zini o‘zi anglash, yorqin professional yutuqlarni tavsiflaydi. Bu bosqichda o‘qituvchining o‘zini anglashi, pedagogik faoliyatdan qoniqish paydo bo‘ladi, o‘qituvchining kasbiy faoliyati shakllanadi, uning akmeologik tamoyillar asosida kasbiy deformatsiyalar jarayonlariga qarshiligi shakllanadi. Bu bosqichning natijasi: kasbiy va shaxsiy fazilatlarni rivojlantirish; professional o‘zaro munosabatlarda mas’uliyat va burchni anglash; samarali texnologiyalar va ko‘nikmalarni o‘zlashtirish.

7. Introspeksiya bosqichi: kasbiy rivojlanish darajasini aniqlash, o‘zini o‘zi baholash, o‘z faoliyati va natijani baholash.

O‘qituvchining o‘qitish va kasbiy rivojlanish jarayonidagi butun faoliyati yo‘nalishi, o‘z shaxsi va faoliyatini anglashi, o‘zining refleksiyasiga qaratilgan bo‘lishi lozim. O‘z faoliyatini muntazam tahlil qilish va boshqalar bilan taqqoslash ijod va tashabbusni rivojlantirish vositasi hisoblanadi. O‘zini o‘zi rivojlantirish vazifalari o‘zini o‘zi tahlil qilish va o‘zini o‘zi baholash orqali aniqlanadi. O‘zini o‘zi tahlil qilish pedagog tomonidan kasbiy faoliyatda tashkil etayotgan o‘z amaliy harakatlari mohiyatining o‘rganilishidir. O‘zini o‘zi tahlil qilish orqali pedagog o‘zini o‘zi obyektiv baholash imkoniyatiga ega bo‘ladi. Pedagoglarning kasbiy kompetentlik sifatlariga ega bo‘lishida ularning o‘zini o‘zi baholash malakalariga egaligi ham muhimdir.

O‘zini o‘zi baholash – shaxsning o‘zini o‘zi tahlil qilishi orqali o‘ziga baho berishidir. O‘zini o‘zi baholash subyekt uchun shaxsiy imkoniyatlarini hisob-kitob qilish, o‘ziga

obyektiv baho berish, o‘zidan qoniqishni ta’minlaydi. O‘zini o‘zi baholash shaxsning qobiliyatini o‘z kuchi bilan yuzaga chiqishiga yordamlashishi zarur. Har qanday mutaxassisda bo‘lgani kabi pedagogning ham o‘zini o‘zi samarali baholay olishiga bir qator omillar ta’sir ko‘rsatadi. O‘zini o‘zi samarali baholash omillari: o‘zini tushunish (o‘zi haqida aniq ma’lumotlarga ega bo‘lish); shaxs sifatida o‘z qadr-qimmatini anglash (o‘zi to‘g‘risidagi ijobiy ma’lumotlarni to‘plash); o‘zini-o‘zi nazorat qilish (o‘zi to‘g‘risidagi shaxsiy fikrning atrofdagilar tomonidan unga berilayotgan bahoga mos kelishi).

8. Refleksiya bosqichi. O‘z tajribasini aks ettirish, muallifning metodikasini asoslash va sinab ko‘rish yoki yaxlit pedagogik tizim. Refleksiya – shaxsning o‘z xatti-harakatlari va ularning asoslarini tushunib yetishi, anglashiga qaratilgan nazariy faoliyati; bilishning alohida bir shakli sifatida ta’riflanadi.

Ya’ni refleksiya:

1) fikrlash, o‘zini o‘zi nazorat qilish;

2) o‘zining shaxsiy harakatlari va ularning fikrlashga yo‘naltirilgan inson faoliyatining nazariy shakli;

3) o‘z ruhiy holati haqida o‘ylash, xayol surish, fikr yuritish, uni tahlil qilishga moyillik.

Demak, refleksiv pozitsiya jarayonning doimiy rivojlanib borish pozitsiyani ko‘zda tutadi.

9. Yangi strategiyalarning shakllanishi. Davlat va jamiyatning zamonaviy talablari va ehtiyojlari, zamonaviy strategiya va tendensiyalardan kelib chiqib (kasbiy ehtiyojlarning yangilanishi) yangi kasbiy rivojlanish yo‘nalishini belgilash bosqichi.

Yuqoridagilardan ko‘rinadiki, o‘qituvchining o‘zini o‘zi kasbiy rivojlantirishi (kasbiy salohiyatining shakllanishi va rivojlanishi)ga quyidagi o‘zaro bog‘liq psixologik-pedagogik shartlarni amalga oshirish yordam beradi: faoliyatni, mustaqillikni, ichki erkinlikni rag‘batlantirish, shaxsiy va kasbiy shakllanish hamda rivojlanish jarayonida aks ettirishdan foydalanish, shaxsiy va kasbiy qadriyatlarga asoslangan ta’lim jarayonini loyihalashtirish va tashkil etish. Bu kabi vazifalarni amalga oshirishda o‘qituvchilar tarkibini sifatli tayyorlash, ularning ta’limiy ehtiyojlarini aniqlash, mustaqil o‘zini o‘zi rivojlantirishi, kasbiy o‘sishi uchun individual ta’lim trayektoriyasini yaratishda har bir o‘qituvchiga yordam berish, axborot va metodik ta’minotni ta’minlash, samarali pedagogik o‘zaro munosabatlarni tashkil etish ko‘zlangan natijani beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 25-yanvardagi PQ-4963-son “Xalq ta’limi sohasidagi ilmiy-tadqiqot faoliyatini qo‘llab-quvvatlash hamda uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimini joriy qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida” Qarori

2. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 17-yanvardagi 25-son “Xalq ta’limi xodimlarini uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimini tashkil etish tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida” Qarori.

3. Митина Л.М. Психология труда и профессионального развития учителя. – М.: Академия, 2004. – С. 320.

4. Анцыферова Л.И. Психология формирования личности // Психология личности в трудах отечественных психологов; сост. Л.В. Куликов. СПб.: Питер, 2000. – С. 207-216.

5. Maxmudov S.Y. Xalq ta’limi xodimlari malakasini oshirish jarayonini innovatsion – variativ yondashuv asosida takomillashtirish: ped.fanl.dokt. diss… (DSc). – T.: 2021. – 250 b.

Nafisa YULDASHEVA,
Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti,
"Umumiy tilshunoslik" kafedrasi v.b. dotsenti PhD

PEDAGOGIK JARAYONDA "O'ZBEK TILINING SOHADA QO'LLANILISHI"NI O'QITISHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Annotatsiya

Mazkur maqolada o'zbek tilining sohada qo'llanilishining o'ziga xosligi va turli sohaga oid terminlarning ilmiy-nazariy asoslanishi hamda amalda tatbiq etish, nutqni rivojlantirish bilan bog'liq o'quv fanlarining mutanosiblik mazmuni yoritilgan. Shuningdek, adabiy til me'yorlari (talaffuz, imloviy va grammatik)ni egallash bo'yicha nazariy-amaliy malakalarni hosil qilish, funksional uslublar yuzasidan bilimlarni, nazariy ma'lumot-axborotlarni kengaytirish, og'zaki va yozma nutq shakllarini kommunikativ kompetensiyani o'stirish haqida aytib o'tilgan.

Kalit so'zlar. Lisoniy sathlar mazmuniy izohi, nutq va tafakkur proparsionalligi, pedagogik ong, og'zaki va yozma savodxonlik, nutqiy faoliyat, kommunikativ-informativ yondashuvlar, kasbiy fazilatlar va kreativ sifatlar.

В данной статье освещается специфика использования узбекского языка в сфере и научно-теоретическое обоснование терминов, относящихся к различным областям, а также сбалансированное содержание учебных дисциплин, связанных с практическим применением и развитием специальной речи. Также сказано о формировании теоретико-практических навыков овладения нормами литературного языка (произношением, орфографией и грамматикой), расширении знаний о функциональных стилях, теоретико-информационных, о практическом развитии коммуникативной компетентности устных и письменных форм речи.

Ключевые слова. Языковые уровни включают в себя содержательную интерпретацию, пропорциональность речи и мышления, педагогическое сознание, устную и письменную грамотность, речевую деятельность, коммуникативно-информативные подходы, профессиональные качества и творческие качества.

This article covers the specificity of the use of the Uzbek language in the field and the scientific-theoretical justification of terms related to various fields, as well as the proportionality content of educational disciplines related to the implementation in practice, the development of specialized speech. It was also mentioned about the formation of theoretical and practical qualifications for the acquisition of literary language norms(pronunciation, spelling and grammar), the expansion of knowledge, theoretical information and information on functional methods, the evolutionary cultivation of communicative competence in oral and written forms of speech.

Key words. Linguistic levels are content interpretation, proparsionality of speech and thinking, pedagogical consciousness, oral and written literacy, speech activity, communicative-informative approaches, professional qualities and creative qualities.

Bugungi kunda ta'lim tizimida o'sib kelayotgan yosh avlodning xalqimiz yaratgan madaniy-badiiy yuksak merosni chuqur o'rganishi va har tomonlama bilimli, ijodiy tafakkurga, shaxsiy-kreativ sifatlarga ega, jahon yoshlari bilan raqobat qila oladigan kuchli yoshlar sifatida tarbiyalash asosiy maqsaddir. Zero, ularning til o'rganish va kitobxonlik madaniyatini rivojlantirish bilan birga o'zbek tilining

keng imkoniyatlaridan foydalanish bo‘yicha ko‘nikmalar hosil qilish muhim ahamiyat kasb etadi. Jumladan,“O‘zbek tili amaliyoti” nofilologik oliy o‘quv yurtlarining 1-2 kurs rus guruhlari uchun darslikda o‘zbek tilini davlat tili sifatida o‘qitish tamoyillari va metodlari yoritilgan. Olima G. Qurbonova “Tibbiyot institutlarining rus guruhlarida o‘zbek tilining eng asosiy va yetakchi fan sifatida o‘qitilishi oliy ma’lumotli bo‘lajak shifokorlarning o‘zbek tilida o‘z fikrini erkin va bemalol bayon qilish, o‘zgalar fikrini tushunish zarurati bilan bevosita bog‘langan”. S. Adilova tomonidan rus guruhlarida o‘zbek tili fanini o‘qitishda mashg‘ulotlarni kompyuter vositasida tashkil etishning nazariy asoslari ishlab chiqilgan, ayrim mavzular bo‘yicha elektron ishlanmalar, elektron darslikka kiritilishi mumkin bo‘lgan ta’limiy dasturlar ssenariylar va loyihasi tuzilgan. N. Umarova elektron ta’limiy ishlanmalar yordamida texnika oliygohlari rus guruhlari talabalarining o‘zbekcha yozma nutqini o‘stirish tamoyillari, mazmuni va usullari, ta’limda multimedia va slaydlar turkumi, internetdan foydalanish masalalarini o‘rgangan.

Oliy ta’lim tizimida talabalarning turli nutqiy vaziyatlarda og‘zaki nutqiy faoliyati va o‘zbekcha kasbiy muloqotini rivojlantirish muhim maqsadlardan biri sanaladi. Mazkur maqsad amaliyotida “O‘zbek tilining sohada qo‘llanilishi” fanining ustuvor vazifalari tatbig‘i asosiy o‘ringa ega. Shu bois, o‘zbek tilining lisoniy sathlari, vazifaviy uslublar, yozma nutq savodxonligi, davlat tilida ish yuritish, hujjatlarini mustaqil tuzish va yozish bo‘yicha amaldagi dasturlar va metodik ta’minot manbalari mazmuni tarkibida hajmi qisqa bo‘lgan ilmiy, badiiy, she’riy, rasmiy matnlar ustida ishlash, til o‘rganishga oid qiziqarli topshiriqlar va ta’limiy o‘yinlar ishlab chiqish maqsadga muvofiq.

Darhaqiqat, o‘zbek tilini o‘qitishda tamoyil va metodlarni qo‘llash asosiy o‘rin egallaydi. Shuningdek, tibbiyot o‘quv yurtlarining talabalari uchun” O‘zbek tilidan tahsil dasturi va qo‘llanma”da o‘zbek tili mashg‘ulotlari, asosan, kundalik turmushda zarur bo‘ladigan muomala munosabat, so‘zlash, gaplashish ko‘nikmalarini hosil qilish bo‘yicha mavzular o‘rin olgan”. Asosan olib borilgan muomala munosabatlarida gaplashish, muloqot qilish mustahkamlanib boradi. Bunda suhbat ishtirokchilari o‘rganilgan axborotga tayanadilar. N.I. Gendina to‘g‘ri ta’kidlaganidek, “Bugun axborot jamiyatini “ta’lim oluvchi” jamiyati’’ deb bejiz atalayotgani yo‘q. Bunday deyishga quyidagilar asos bo‘la oladi: axborot va bilimlar – jamiyatning bosh bunyodkor kuchi; yangilik, tezkorlik, jadallashuv – bugungi kunning eng tavsifli belgilari; xoh ishlab chiqarish, xoh ijtimoiy hayot bo‘lsin, texnologiyalarning yangilanish maromi olti-yetti yilni tashkil etmoqda; ta’lim olishning uzluksizligi va qayta tayyorlovdan o‘tishga qodirlik – shaxsning o‘z ijtimoiy maqomini saqlab qolishning ajralmas qismi; har bir insonning taqdiri o‘z vaqtida yangi axborotni qidirib topish, olish, mos ravishda qabul qilish va undan samarali foydalanishiga bog‘liq”. Axborotning ham eng keraklisini topish va uni izohlab o‘rganish o‘zbekcha so‘zlashish ko‘nikmasini o‘stiradi.

Olim G.A. Zolotinaning ta’kidlashicha, “O‘rganilayotgan material nazariy jihatdan o‘rganib chiqilgan va shunday sistemalashtirilgan bo‘lishi kerakki, til o‘rganuvchilarning maqsadga yetishiga qisqa, tejamli va unumli yo‘lni belgilab bersin. Ta’lim amaliyoti va nazariyasining vazifalari turlicha bo‘lgani holda obyekt, material va manfaatlar umumiydir – ushbu obyektning qurilishini yakunlashdir”. Ushbi keltirilgan ta’kidlar asosida o‘quv materialining nazariy o‘rganilishi muayan darajada o‘zbek tilida amaliy ko‘nikmalar hosil qilishga davlat tilida ish yuritishni mustahkamlashga yordam beradi.

Turli ta’lim yo‘nalishidagi oliy ta’lim talabalari uchun o zbek tilining grammatikasini va uning qoida va ta’riflarini, o‘quv darsliklaridagi “Bilib oling”, va “Esda saqlang” rukni ostida berilgan nazariy ma’lumotlarni o‘qituvchi tomonidan qiziqarli tarzda o‘rgatilishi

hamda intrektiv faoliyat natijasida ixtisoslikka va sohaga doir matnlarni aniq va mazmundor tahlil qila olish ko‘nikmasiga ega bo‘lishi bilan quyidagilar izohlanadi:

– o‘zbek adabiy tilning me’yorlarini o‘z nutqida rioya qilish;

– mazmun va mantiqqa asoslangan ixtisosiy nutqni o‘qib, kognitivlikni o‘stirish;

– davlat tilida ish yuritish hujjatlarini mustaqil tuzish, yozish, rasmiylashtirishga o‘rgatish;

– kasbiy muloqot kompetensiyasini rivojlantirish;

– o‘zining mustaqil fikrini erkin bayon qilishi;

– so‘z boyligini oshirish, lug‘at zaxirasini kengaytirishi;

– sharqona nutqiy odob namunalari.

Oliy ta’lim bosqichida o‘zbek tilini o‘qitishda talabalarning bog‘lanishli nutqini, sohaga bilim, ko‘nikma va malakalarini rivojlantirish, ularning og‘zaki, yozma savodxonligi monologik va diologik nutq xususiyatlari bilan tanishtirish, nutqning funksional uslublari bo‘yicha ilmiy-nazariy bilimlarni mustahkamlash, amaliy ko‘nikmalarni hosil qilish uchun o‘zbek tili mashg‘ulotlarida quyidagi kognitiv yondashuvlari, ijodkorlik qobilyatlari, kreativ sifatlarini o‘stirishni amalga oshirishda e’tibor qaratish lozim:

– o‘qituvchi va talabalar orasida interaktiv holatda hamkorlikda ishlashni to‘g‘ri yo‘lga qo‘yish;

– ta’lim jarayoni subyektlarining mustaqil va mantiqiy izchil fikrlash salohiyatini o‘stirish;

– matniy ma’lumotlarni aniq mazmundor bayon qilishni o‘rgatish;

– sohaga oid matnlarning integratsiyalashuvini tahlil qilish ustida ishlash;

– talabalarning nutqini va tafakkurini rivojlantirishga xizmat qiluvchi nostandart o‘quv topshiriqlarini ishlab chiqish va dars jarayoniga tatbiq etish;

– pedagogik jarayonda xato va kamchiliklar ustida ishlashni uzluksiz davom ettirish.

Shuni aytish joizki, ayniqsa, rus guruhlariga o‘zbek tili o‘rgatish tushunarli tarzda soddalashtirib olib borish, professor-o‘qituvchi tomonidan mavzuni mustahkamlovchi savollar ham bir qadar oson bo‘lishini zaruriy jihat, deb bilamiz. Chunki, o‘zbek tilini ularga o‘qitishda ulardagi quyidagi tamoyillarga amal qilish samarali natija beradi:

– nazariy-informativ ko‘nikmalarni rivojlantirish tamoyili. O‘zbek tilining o‘rganilish imkoniyatlaridan unumli foydalanib, ilmiy ma’lumotlar, qarash va dalillar bilan tanishish;

– nutq uslublarini o‘rganish tamoyili. Bu tamoyil bo‘yicha talabalar bilan vazifaviy uslublar: so‘zlashuv, badiiy, ilmiy, publisistik, rasmiyga oid sohaviy kichik matnlarni tanlash va ularni tahlil qilish;

– kreativ fikrlashni o‘stirish tamoyili: badiiy asar, poetik matnlar asosida kontekstli yondashuvni, matn tarkibidagi gaplarni sintez qilish jarayonini takomillashtirish.

N.N. Smetannikovaning fikricha, “...barcha o‘quv fanlari o‘qituvchilari matn ustida ishlash faoliyati usullari va strategiyasini egallagan bo‘lishlari kerak. O‘quv fanini o‘qitish xilma-xil o‘quv materiali, rang-barang va turli-tuman janrdagi matnlar orqali o‘qish va yozuv strategiyasiga o‘rgatishni o‘z ichiga olishi lozimki, bu narsa o‘quv-biluv, ijodiy (kreativ), tanqidiy va kommunikativ faoliyatni faollashtiradi va shu bilan birga ta’lim jarayonining bir butunligini ta’minlaydi”.

Tadqiqotchi U. Masharipovaning e’tiroficha, “Nutqiy faoliyat va nutqiy harakatlar strukturasi umuman olganda, ixtiyoriy harakat strukturasi bilan ustma-ust tushadi, ya‘ni mo‘ljal, rejalash (“ichki dasturlash” shaklida), amalga oshirish va nazorat bosqichlarini o‘z ichiga oladi. Nutq faol, har gal qayta tuziladigan va dinamik nutq stereotip (qolip)lari

zanjirini o‘zida aks ettiruvchi reaktiv(tashqi ta’sirga javob bera oladigan) nutq bo‘lishi mumkin” .

M.V. Gamezo, G.V. Mityuxina, T.S. Mixalchiklar nutqiy faoliyatni quyidagi darajalarga bo‘lishadi:

– erkinlik darajasiga ko‘ra (aktiv va reaktiv);

– murakkablik darajasiga ko‘ra (chorlov nutq, muloqot nutq);

– oldindan rejalashtirish darajasiga ko‘ra (murakkab tashkiliy tuzilma va oldindan rejalashtirilgan, talab qiladigan monolog nutq va dialog nutq).

Bu darajalar nutq turlariga va qo‘llanish sohasiga ko‘ra shakllarga mos keladi. Nutq faoliyatida jamiyatga nisbatan olib qaraganda til o‘ziga xos funksiyani bajaradi. Bular:

1) kommunikativ funksiya;

2) fikrni ifodalash funksiyasi;

3) so‘zlovchining ichki holatini ifodalash funksiyasi yoki ekspressiv funksiya;

4) til vositalari orqali go‘zallik yaratish funksiyasi yoki estetik funksiyadir. Nutqiy faoliyatda kommunikatsiya, kontekstli yondashuv, fikr ifodasi, tasviriy vositalardan unumli foydalanish zaruriy omillardir.

Demak, o‘zbek tilini sohada qo‘llanilishi bo‘lajak mutaxassislarning bilim egallash doirasini kengaytiradi, nutq madaniyatini, muloqot qilish kompetensiyalarini rivojlantiradi, bog‘lanishli monologik, kreativ fikrlashni takomillashtiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Adilova S.A. O‘zbek tili mashg‘ulotlarini kompyuter texnologiyalari vositasida tashkil etish (oliy ta’lim muassasalari rusiyzabon guruhlarida): Ped.fan.nom....dis. – T.: TDPU, 2004. – 152 b.

2. Гендина Н.И. Информационная грамотность или информационная культура: альтернатива или единство (результатў российских исследований) // Школьная библиотека. – М., 2005.- № 3. – С. 18

3. Золотина Г.А. Некоторые вопросы синтактической теории и обучение к русскому языка как иностронного. Синтаксис.:” Русский язык”, 1980, – С. 35.

4. Сметанникова Н.Н. Учиться читать, чтобы учиться, читая // Приложение № 2 // Дети и библиотеки в меняющейся медиасреде: Приложение к журналу “Школьная библиотека”. Серия 1. Вып. 3-4. – М.: Школьная библиотека, 2004. – С. 316-318.

5. Masharipova U. Innovatsion ta’lim sharoitida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining nutq madaniyatini shakllantirish metodikasi Ped.fan.nom. diss. – T.: 2018. – 23 b.

6. Uzoqov H., Mirzakarimova O‘., Saidova R. O‘zbek tili amaliyoti. – T.: O‘qituvchi, 1993. – 240 b.

7. Umarova N.Z. Talabalarning o‘zbekcha yozma nutqini o‘stirishda zamonaviy texnologiyalardan foydalanish metodikasi (texnika oliy o‘quv yurtlarining rusiyzabon guruhlarida): Ped.fan.nom....dis. – T.: TDPU, 2007. – 133 b.

8. O‘zbek tilidan tahsil dasturi va qo‘llanma/(Tibbiyot o‘quv yurtlarining rus tilida gaplashadigan guruhlari uchun). – T.: 1991. – 55 b.

9. Qurbonova G.N. Tibbiyot institutlarining rus guruhlarida “O‘zbek tili” fanini o‘qitish jarayonida talabalarning ixtisosiy nutqi ustida ishlash metodikasi: Ped.fan.nomz . …diss. – T., 2000. – 10-11 b.

Raxmon ESHIMOV,
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti Samarqand filiali,
“Raqamli iqtisodiyot va axborot texnologiyalari’’
kafedrasi dotsenti, PhD
Suxrob ISRAILOV,
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti Samarqand filiali,
“Raqamli iqtisodiyot va axborot texnologiyalar” kafedrasi assistenti

UMUMTA’LIM MAKTABLARIGA DOIR KOMPYUTER IMITATSION MODELLAR YARATISH VA O‘QUV JARAYONIGA JORIY ETISH METODIKASI (7-sinf “fizika” o‘quv predmeti misolida)

Annotatsiya

Maqolada umumta’lim maktablarida 7-sinf fizika fanidan kompyuter imitatsion modellar, multimediali elektron darsliklar yaratish hamda foydalanish texnologiyalarini takomillashtirish to‘g‘risida, shuningdek, umumta’lim maktablari o‘quvchilarini axborot-kommunikatsion texnologiyalari vositalari asosida 7-sinf “Fizika” darsligini taqdimotlar va multimedia vositalari bilan boyitilgan ko‘rinishda yaratish masalalari haqida so‘z yuritiladi.

Kalit so‘zlar. Multimedia, elektron darslik, kompyuter imitatsion model, pedagogik talablar, psixologik talablar, texnik talablar.

В статье речь пойдет о создании и совершенствовании технологий использования компьютерных имитационных моделей, мультимедийных электронных учебников по предмету физика 7-го класса в общеобразовательных школах, а также о вопросах создания учащимися общеобразовательных школ учебника ‘‘Физика’’ 7-го класса на основе средств информационно-коммуникационных технологий в виде презентаций и мультимедийных средств.

Ключевые слова. Мультимедиа, электронный учебник, компьютерная имитационная модель, педагогические требования, психологические требования, технические требования.

The article will focus on the creation and improvement of technologies for the use of computer simulation models, multimedia electronic textbooks on the subject of “physics ” of the 7th grade in secondary schools, as well as on the issues of creating a textbook "Physics" of the 7th grade by students of secondary schools based on information and communication technologies in the form of presentations and multimedia.

Key words. Multimedia, electronic textbook, computer simulation model, pedagogical requirements, psychological requirements, technical requirements.

Kompyuter imitatsion modellar kompyuterlar uchun murakkab programmalar sistemasidan iborat bo‘lib, sistema komponentalarining hulqini o‘rganadi, ular o‘rtasidagi aloqani belgilaydi, turli hildagi boshlang‘ich ma’lumotlar uchun kompyuterda shu programmalar vositasida hisob-kitob ishlarini bajarib, real tizimda ro‘y berishi mumkin bo‘lgan voqealarni ko‘rsatib beradi.

Kompyuter imitatsion modellashtirishning boshlang‘ich ma’lumotlarini o‘zgartirib, obyektni u yoki bu shartlardagi hulqi haqida ishonchli ma’lumotlarni olish mumkin.

Fizik qurilmalarning turli ko‘rsatkichlari o‘rniga kompyuter bergan turli sonli ma’lumotlarga ega bo‘ladi. Albatta, kompyuter imitatsion model fizik tajribalar kabi hamma narsani to‘la ko‘zga ko‘rsatib bera olmaydi, ammo uning imkoniyatlari kengroq, chunki

kompyuter imitatsion modellarda amaliy jihatdan hamma o‘zgarishlarni yuzaga keltirish mumkin. Har bir faktorni tekshiruvchi mutaxassis tomonidan yetarlicha darajada o‘zgartirish mumkin, kompyuter imitatsion modeldagi va boshlang‘ich ma’lumotlardagi xatoliklarni osongina ko‘rish mumkin.

Yaratilgan o‘quv uslubiy qo‘llanma o‘quvchilar mustaqil tarzda 7-sinf fizika darsligidan bilim va saviyalarini oshirishlari mumkin. Bu elektron qo‘llanma umumta’lim maktablari hamda maxsus imkoniyati cheklan yoshlar (zaif eshituvchi, zaif ko‘ruvchi hamda uyda tahsil oluvchi o‘quvchilar) uchun mo‘ljallangan. Kompyuter imitatsion model asosida yaratilgan 7-sinf fizika elektron qo‘llanmasi 7 bob, 54 ta mavzudan iborat. Uning bosh sahifasi quyidagi ko‘rinishdan iborat:



1-rasm. Elektron qo‘llanma bosh sahifasi

1-rasmda tasvirlanganidek, elektron qo‘llanma “I-bob. Harakatlar haqida umumiy ma’lumot”, “II-bob. To‘g‘ri chiziqli harakat”, “III. bob. Aylanma tekis harakat”, “V-bob. Tashqi kuchlar haqida jismlar harakati”, “IV-Harakat qonunlari”, “VII- bob. Ish va energiya haqida”, “Amaliy mashqlar”, “Laboratoriya ishlari,”, “Umumiy test savollari”, “Masalalar to‘plami”, “Taqdimotlar”, “Qo‘shimcha adabiyotlar” hamda “Biz bilan aloqa” tugmalaridan iborat. “I-bob. Harakatlar haqida umumiy ma’lumot” tugmachasini bossak, yangi oyna ishga tushadi. Bu oynada bobga oid barcha mavzular ketma-ketligi aks etgan.



2-rasm. Elektron uslubiy qo‘llanmada mavzular ketma-ketligi.

2-rasmda ko‘rib turganimizdek, 7-sinf ishchi dasturda ko‘rsatilgan mavzular ketmaketligi tasvirlangan. ‘‘Harakatlar haqida umumiy ma’lumot” bobi kompyuter imitatsion model asosida o‘quv materiallarini obrazlar ko‘rinishida taqdim etish orqali o‘quvchilarga tushuntirish mumkin.

Fizika fanini o‘qitish boshqa fanlarga nisbatan alohida o‘rinda turadi. Buning boisi, inson har kuni fizik va mexanik jarayonlarni takrorlaydi va juda ko‘p fizik jarayonlarga duch keladi. Hozirgi zamon ta’lim tizimida imkoniyati cheklangan o‘quvchilarga innovatsion texnologiyalar asosida ta’lim berish, masalani yechish uchun turli ko‘rinishdagi usul va metodikalarni qo‘llash mumkin. Bulardan biri axborot texnologiyalarining multimedia vositalari asosida o‘quv materiallarini kompyuter imitatsion modelini yaratish asosida dars jarayonini tashkil qilishdan iborat.

Ushbu maqolada umumta’lim o‘quvchilarini axborot-kommunikatsion texnologiyalari vositalari asosida 7-sinf Fizika darsligini taqdimotlar, multimedia vositalari bilan boyitilgan ko‘rinishda yaratish masalasi qo‘yilgan. 7-sinf fizika fanining mexanikasi nimani o‘rganadi, mexanik harakatning nisbiyligi, sanoq sistemasi, fazo va vaqt, to‘g‘ri chiziqli tekis harakat haqidagi dastlabki ma’lumotlarni o‘quvchilarga tushuntirishda dastlab uning kelib chiqish tarixi, uning xossalari, usullari, tasvirlash yo‘llari, ularning turlari haqida ma’lumot berib o‘tamiz. Bunday elektron qo‘llanmalarning yaratilishi imkoniyati cheklangan yoshlarni uyida, maktabda ta’lim olishiga va mustaqil shug‘ullanishiga keng imkoniyatlar yaratadi.

Biz ushbu elektron qo‘llanma orqali yuqorida aytib o‘tilgan fizik xodisalarni kompyuter imitatsion model asosida yoritishga harakat qilamiz. Masalan: *“Harakatlar haqida umumiy ma’lumot”* tugmasini bosganimizda, bizga yangi oyna ochiladi. Yangi ochilgan oynaning chap tomonida kompyuter imitatsion model asosida yaratilgan animatsiya va o‘ng tomonida esa mavzuning matn ko‘rinishi chiqadi. Oynaning pastki qismida esa mavzuga oid test savollari, lug‘at so‘zlar va ovoz tugmalari joylashgan (2-rasm). Quyidagi mavzular bo‘yicha kompyuter imitatsion model ishlab chiqilgan. Ushbu kompyuter imitatsion modelda kitobning ilgarilanma harakati aks ettirilgan. Buning uchun biz quyidagi ishlarni amalga oshiramiz:



3-rasm. Kitobning ilgarilanma harakati.

Jismning mexanik harakati deb, uning boshqa jismlarga nisbatan fazodagi vaziyatining vaqt o‘tishi bilan o‘zgarishiga aytiladi.

Qaralayotgan kompyuter imitatsion modelda agar jism ilgarilanma harakat qilsa, uning harakatini ifodalash uchun jismning bitta nuqtasi harakatini ifodalash yetarli. Masalan, stol ustidagi kitobni bir joydan boshqa joyga turlicha ko‘chirish mumkin (3-rasm): (a) holda uning qirralari turlicha harakat qiladi; (b) holda kitob qirralarining harakat trayektoriyasi bir xil bo‘ladi, ya’ni kitobning to‘rttala qirrasi trayektoriyalarini ustma-ust qo‘yish mumkin. Kitobning ikkinchi holdagi harakati ilgarilanma harakatga misol bo‘la oladi. Bunda kitobning qirralarigina emas, boshqa ixtiyoriy nuqtalari ham bir xil harakat qiladi. Harakat davomida jismning hamma nuqtalari bir xil ko‘chsa, bunday harakatga ilgarilanma harakat deyiladi.

Keyingi kompyuter imitatsion modelida “Charxpalakning kabinalar ilgarilanma harakat” jarayoni tasvirlangan. Quyida ushbu kompyuter imitatsion modelini ko‘rishimiz mumkin (4-rasm):



4-rasm. Charxpalakning kabinalari ilgarilanma harakat.

Ilgarilanma harakat qilayotgan jismning ixtiyoriy ikki nuqtasidan o‘tkazilgan har qanday chiziq o‘ziga o‘zi parallel ravishda ko‘chadi. Tepaga ko‘tarilayotgan lift, uchib ketayotgan samolyot va raketa ilgarilanma harakat qiladi. Istirohat bog‘idagi charxpalak savati aylanma harakat qiladi (4-rasm). Lekin shu bilan bir vaqtda u ilgarilanma harakat ham qiladi. Chunki savatning ixtiyoriy ikki nuqtasidan o‘tkazilgan to‘g‘ri chiziq o‘z-o‘ziga parallel ravishda ko‘chadi. Ilgarilanma harakat qilayotgan jismning harakati o‘rganilayotganda, uning faqat bitta nuqtasi harakatini o‘rganish kifoyadir. Shu sababli ilgarilanma harakat qilayotgan jismni moddiy nuqta deb qarash mumkin. Ilgarilanma harakat to‘g‘ri chiziqli va egri chiziqli bo‘lishi mumkin.

Yaratilgan 7-sinf Fizika fani elektron qo‘llanmada ma’lum bir mavzudagi jarayonlarni aks ettiruvchi shunga o‘xshash 54 ta kompyuter imitatsion model ishlab chiqilgan. Shuni alohida ta’kidlab o‘tish mumkinki, ishlab chiqilgan kompyuter imitatsion model masofadan turib onlayn darslarni o‘rganish imkonini ham beradi va inklyuziv ta’limda fizika fanini o‘zlashtirish uchun juda qulay ta’lim vositasi hisoblanadi.

7-sinf Fizika fani bo‘yicha ma’ruza darslarida ko‘rgazmalilik katta ahamiyatga ega. Shuning uchun, ma’ruza darslarida elektron o‘quv uslubiy qo‘llanmalar, elektron stendlar va taqdimot materiallaridan keng foydalanishga erishish kerak.

Tadqiqot mobaynida tajribalar, yangi avlod o‘quv-uslubiy materiallari asosida elektron o‘quv uslubiy qo‘llanma yaratish tuzilmalari ishlab chiqildi. Shu tuzilmalar asosida ma’ruza matnlari, amaliy va laboratoriya mashg‘ulotlari uchun ishlanmalar, mustaqil ish topshiriqlari, o‘quv-uslubiy majmualar yaratildi. Tadqiqot davomida yaratilgan o‘quv-uslubiy materiallardan o‘quv jarayonida foydalanishning amaliy masalalari tavsiya qilindi. Shu bilan birga, ichki tarmoq orqali o‘quvchilar bilan muloqotga kirishish va ularga elektron uslubiy-qo‘llanmadan foydalanib, ta’lim olish asoslari yaratilib, amaliyotga joriy qilindi.

Elektron uslubiy-qo‘llanmaning asosini tashkil qiluvchi o‘quv-uslubiy materiallarni yaratishda zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanildi. Ma’ruza materiallarining har biri taqdimot materiallari bilan to‘ldirildi. Taqdimot materiallari dars jarayonining ko‘rgazmali bo‘lishini ta’minlaydi. Bundan tashqari ta’lim portalida mavzuga mos video materiallar joylashtirilgan. Ta’lim oluvchilar bilimlarini nazorat qilish uchun esa avtomatlashtirilgan tizimlardan foydalanildi.

Elektron uslubiy-qo‘llanma “Fizika” fanini o‘qitishda foydalanish mumkin bo‘lgan multimediali axborot resurslari mavjud. Elektron uslubiy-qo‘llanma mazmuni va ulardan foydalanish metodikasi ishlab chiqildi. Shuningdek, dars jarayonida va darsdan tashqari vaqtlarda “Fizika” fanidan mustaqil ishlarni bajarishda foydalanish bo‘yicha tavsiyalar yoritildi.

Yaratilgan elektron uslubiy-qo‘llanmadan dars jarayonida foydalanish masalasi “Fizika fanining predmeti” mavzusi misolida ko‘rib chiqildi. Dars jarayonida innovatsion texnologiyalardan foydalanish “Rezyume” texnologiyasi misolida keltirilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 19-fevraldagi “Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalari sohasini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5349-son Farmoni.

2. Eshimov R.R. Multimedial Electronic Textbook and Problems of Organizing Education on the Basis// International Journal of Trend in Scientific Research and Development (IJTSRD) Volume 6 Issue 3, March-April 2022 Available.

3. Online: www.ijtsrd.com e-ISSN: 2456 – 6470. Page.1831-1833.

4. Eshimov R.R. Ta’lim muassasalarida kompyuterli o‘qitish vositalaridan foydalanish asoslari // Academic Research in Educational Sciences Volume 3 Issue 4, Cite-Factor: 0,89 | SIS: 1,12. SJIF: 5,7 | UIF: 6,1 2022. ISSN: 2181-1385. DOI: 10.24412/2181-1385-2022-4-496-502 Page.496-502.

Qaxramon MUXAMMADIYEV,
Chirchiq davlat pedagogika universiteti,
‘‘Texnologik ta’lim’’ kafedrasi katta oqituvchisi

TEXNOLOGIYA FANLARNI O‘QITISHDA ZAMONAVIY TA’LIM METODLARIDAN FOYDALANISH

Annotatsiya

Mazkur maqolada bugungi kunda ta’lim jarayonlarini tashkil etishda zamonaviy texnologiyalarning o‘rni va ta’lim metodlardan foydalanishi yoritilgan. Shuningdek, texnologiya fanlarni o‘qitishda zamonaviy interfaol metodlardan foydalanish mexanizimlari ko‘rsatilgan.

Kalit so‘zlar. Zamonaviy ta’lim, ta’lim texnologiyasi, ta’lim metodlari, o‘qitish jarayoni, zamonaviy interfaol metodlar.

В данной статье освещается роль современных технологий и использование методов в организации образовательных процессов на сегодняшний день. Также, показаны механизмы использования современных интерактивных методов в обучении технологии.

Ключевые слова. Современное образование, образовательные технологии, образовательные методики, учебный процесс, современные интерактивные методы.

This article describes the role of modern technologies and the use of educational methods in the organization of educational processes today. Also, the mechanics of the use of modern interactive techniques in the teaching of technology subjects are shown.

Key words. Modern education, educational technology, educational methods, teaching process, modern interactive methods.

Mamlakatimizda ta’lim-tarbiya tizimining sifati va samaradorligini oshirish, o‘quvchi va talaba-yoshlarda zamonaviy bilim va ko‘nikmalarni shakllantirish, ta’lim tizimlari hamda ilm-fan sohasi o‘rtasida yaqin hamkorlik va integratsiyani, ta’limning uzviyligi va uzluksizligini ta’minlash borasida tizimli ishlar amalga oshirilmoqda.

Ta’lim taraqqiyotini harakatlantiruvchi kuch – bu o‘zida didaktik masalalar va ta’lim texnologiyalarini mujassamlashtirgan pedagogik tizim hisoblanadi. Ta’lim texnologiyasining muvaffaqiyatli loyihalanishi va yakuniy natijaning kafolatlanishi o‘qituvchining didaktik masalalar mohiyatini anglab yetish darajasiga, ularni to‘g‘ri belgilash, tanlash va samarali qo‘llay olishga bog‘liqdir[1].

Ta’limni texnologiyalashtirish – bu o‘qitish jarayoniga texnologik yondashish asosida ta’lim maqsadlariga erishishning eng maqbul yo‘llari va samarali vositalarni tadqiq qiluvchi va qonuniyatlarni ochib beruvchi pedagogik yo‘nalishdir.

Texnologiya fanlarni o‘qitishda zamonaviy interfaol metodlardan foydalanish muhim sanaladi. Chunki bunday metodlar o‘quvchilarni ijodkorlikka undaydi.

Ta’lim texnologiyalarining ilmiy xarakteriga e’tibor qaratgan holda, uning amaliy yo‘nalishga xosligini, uni aniq masalalarni hal qilishda qo‘llash mumkinligini e’tirof etish kerak[2].

Hozirgi kunda ta’lim jarayonida interaktiv metodlar, innovatsion texnologiyalar, pedagogik va axborot texnologiyalari o‘quv jarayonida qo‘llashga bo‘lgan qiziqish,

[1] Shoyimova Sh.S., Xoshimova M.K., Mirzayeva Sh.R., Qo‘ziboyeva M.M. ‘‘Ta’lim texnologiyalar’’ –T., 2020. 4-b

[2] Sharopova Z. F. ‘‘TA’LIM TEXNOLOGIYALARI’’ darslik. – T., 2012 ‘‘Navro‘z’’ nashiryoti, 7 b

e’tibor kundan kunga kuchayib bormoqda, bunday bo‘lishining sabablaridan biri, shu vaqtgacha an’anaviy ta’limda o‘quvchi talabalarni faqat tayyor bilimlarini egallashga o‘rgatilgan bo‘lsa, zamonaviy texnologiyalar ularni egallayotgan bilimlarini o‘zlari qidirib topishlariga, mustaqil o‘rganib, tahlil qilishlariga, hatto xulosalarni ham o‘zlari keltirib chiqarishlariga o‘rgatadi.

Bizda kuzatilayotgan kamchiliklardan biri shuki, ta’limda o‘quvchilarga berayotgan ma’lumotlarimizni cheklanganligi yoki ma’lum bir qobiqqa tushib qolganligidir. Zamonaviy ta’lim metodlarida o‘quvchilar mustaqil izlanadilar va shu orqali qiziqishlari va iqtidorlarini namoyon qiladilar. Zamonaviy ta’limda ijodiy fikrlash tushunchasi ham muhim sanaladi. Ta’lim o‘quvchilar ichida yangilik va ijodkorlikni targ‘ib qiluvchi barcha kuchli platformalarni taqdim etadi.

Zamonaviy ta’limni tashkil etish, ayniqsa, interfaol metodlar asosida dars jarayonlarini tashkil etish, interfaol usullarni o‘quv jarayonida liberalizatsiya qilish, demokratlashtirish, hamkorlik va ijodkorlikni tashkil etish, ta’lim jarayonini faollashtirish imkoniyatini beradi.

Interfaol – (‘‘Inter’’ – bu o‘zaro, ‘‘act’’ – harakat qilmoq) – o‘zaro harakat qilmoq yoki kim bilandir suhbat, muloqot tartibida bo‘lishni anglatadi. Boshqacha so‘z bilan aytganda, o‘qitishning interfaol uslubiyotlari bilish va kommunikativ faoliyatni tashkil etishning maxsus shakli bo‘lib, unda ta’lim oluvchilar bilish jarayoniga jalb qilingan bo‘ladilar, ular biladigan va o‘ylayotgan narsalarni tushunish va fikrlash imkoniyatiga ega bo‘ladilar. Interfaol mashg‘ulotlarda tarbiyachining o‘rni qisman tarbiyalanuvchilarning faoliyatini mashg‘ulot maqsadlariga erishishga yo‘naltirishga olib keladi.

Umum ta’lim maktablarida texnologiya fanlarini o‘qitishda quyidagi zamonaviy o‘qitish metodlari tavsiya etiladi:

<table>
<tr><th>№</th><th>Metod nomi</th><th>Metodning xarakteristikasi va maqsadi</th></tr>
<tr><td>1</td><td>“LOYIHA” metodi</td><td>Loyiha usulida ta’lim oluvchilar o‘zlari maqsad qo‘yishadi va unga yerishish yo‘llarini aniqlaydilar. Ular mustaqil ravishda ma’lumotlarni qidirishlari, tanlashlari, umumlashtirishlari va tahlil qilishlari kerak. O‘qituvchining vazifasi o‘quvchilarga yordam berish, savollarga javob berish va maslahat berishdir. Metod o‘quvchilarga o‘z oldiga maqsad qo‘yishga va unga yerishishga o‘rgatadi.</td></tr>
<tr><td colspan="3">Amalga oshirish mexanizimi va vazifalari</td></tr>
<tr><td colspan="3">1. O‘quvchilarga o‘rganilayotgan mavzu bo‘yicha o‘z ratsionalizatorlik loyihasini taqdim etadilar.
2. Loyihani bugungi kundagi real hayotdagi dolzarbligi asoslanadi.
3. Loyihani amalga oshirish bosqichlari ishlab chiqiladi.
4. Loyihani amalga oshirishda yerishilgan vazifalar bayon etiladi.</td></tr>
<tr><td colspan="3"></td></tr>
<tr><td>2</td><td>“SINEKTIKA” metodi (yunoncha - “geterojen” elementlarning kombinatsiyasi)</td><td>Sinektika motivatsiyasiga asoslangan ixtirochilik ijodkorligi usuli. Bu metod ta’lim oluvchilarga muammoning unsurlarini ifodalashga, ijodning bosh maqsad sifatda olishga, qo‘yilgan vazifalarni yechishning har xil variantlarini izlashga yordam beradi. Metod amaliy texnologiya fanlari mavzusi bo‘yicha qo‘yilgan muammoni hal qilish yuzasidan o‘xshashliklarga asoslangan holda o‘z fikrlarini, qarashlarini olg‘a suradi.</td></tr>
<tr><td colspan="3">Amalga oshirish mexanizimi va vazifalari</td></tr>
</table>

1. O‘qituvchi mavzu bo‘yicha amalga oshirilishi kerak bo‘lgan vazifani o‘quvchiga bayon etadi. **2.** Berilgan vazifani hal qilish yuzasidan o‘xshashliklarga asoslangan holda o‘z fikrlarini, qarashlarini ifoda etadi.(*Kavsharlash mavzusi)* **3.** Bunda o‘xshashliklar zamonaviy xorijiy tajribaniki, shaxsiy yoki xayoliy bo‘lishi mumkin **4.** O‘quvchi o‘z g‘oyasini asoslashga harakat qilishga imkon beriladi **5.** O‘quvchilar tomonidan ilgari surilgan g‘oyalar o‘qitivchi va jamoa tomonidan tahlil qilinadi.		
3	**“TEXNIK YECHIMLARNING MORFOLOGIK TAHLILI VA SINTEZI” metodi**	Bu metodni qo‘llashda o‘rganilishi lozim bo‘lgan texnik tizimning tarkibiy qismlari yoki funksional morfologik belgilaridan iborat bo‘lgan tarkibning ro‘yxatidan aniq muqobillari, texnik ifodalari ajratib olinadi, ular morfologik quti yoki ‘‘matritsa’’ deb nomlanadigan jadvallar shaklida joylashadi va ajralib turgan belgilar variantlarini birlashtirib saralab olish orqali yangi vazifalar yechimi aniqlanadi. Morfologik tahlilda bo‘lgusi mutaxassislar texnik vazifalar yechimi unsurlarining har tomonlama kombinatsiyasini yasashga o‘rganadilar.
Amalga oshirish mexanizimi va vazifalari		
1. Vazifalarni aniq ifodalash, yangi ifodalarni topishga urinish, ikkinchi darajali va o‘xshash vazifalarni aniqlash, ulardan eng muhimini ajratib olish. **2.** Yechimlardagi mavjud kamchiliklar, ularning asosiy tamoyillari va yangi takliflarni sanab kursatish. **3**. Texnika modellari xomaki rejalashtiriladi. **4**. Variantlar, mantiqiy o‘xshashliklar ko‘rib chiqilib xulosa qilinadi.		
4	**“BARChA OMILLARNI HISOBGA OL!” (BOHO) METODI**	BOHO – bu shaxs e’tiborini muayyan omillarga qaratishga xizmat kiluvchi metod sanalib, uni qo‘llashdan kuzlangan maqsad shaxs ongini rivojlantirish, tasavvurini kengaytirish, tafakkurini boyitishdir. Metod kanchalik aniq maqsad asosida qo‘llanilsa, uning samaradorligi shuncha yuqori bo‘ladi.
Amalga oshirish mexanizimi va vazifalari		
1. O‘qituvchi mavzudan kelib, chiqib o‘quvchilar uchun bajarilishi kerak bo‘lgan vazifani o‘rtaga tashlaydi. *(ko‘proq amaliy darslarda)* **2.** O‘quvchilar berilgan topshiriqni bajarish chog‘ida uni bir qancha omillar bilan bog‘lab, topshiriqni bajarishda har tomonlama hisob-kitob qiladilar (masalan, Elektr-chilangarlik ishlar o‘quv amaliyotida o‘vuvchilar detal bilan chilangarlik ishini amalga oshirishda nimalarni hisobga olishlari kerak ekanligini aytishlari va ko‘rsatishlari lozim) **3**. O‘qituvchi metodni muofiqlashtirib boradi va ko‘zdan qochirilgan kamchiliklarni to‘g‘irlaydi		

Zamonaviy o‘qitish metodlari qiziqarli bo‘lish xususiyatiga ega ekanligidan unda o‘quvchi faol ishtirok etadi va shuning uchun mashg‘ul bo‘lib qoladi. Zamonaviy o‘qitish metodlari mavzuni chuqurroq tushunishni va muvaffaqiyat hissini kuchaytiradi. O‘rganish haqiqiy natijalar asosida baholanadi va tasdiqlanadi.

Bu esa maktablarda o‘quvchilarda texnologiya faniga nisbatan mehr uyg‘otadi. Chunki zamonaviy metodlarda o‘quvchilar erkin bo‘ladi, o‘zlarining qiziqishlaridan kelib chiqib ma’lumotlar izlaydilar va shu ma’lumotlarni umumlashtirib o‘zlarini takliflarini bildiradilar. Bu esa o‘quvchilarda kompetensiyaviylikni shakllanishiga olib keladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekiston strategiyasi – T.: ‘‘O‘zbekiston’’ nashriyoti. 2021.

2. Shoyimova Sh.S., Xoshimova M.K., Mirzayeva Sh.R., Qo‘ziboyeva M.M. “Ta’lim texnologiyalar”. –T., 2020. 4-b

3. Sharopova Z.F., “Ta’lim texnologiyalari” darslik. – T., 2012 ‘‘Navro‘z’’ nashiryoti.

4. Matchanov B. “Maktabgacha ta’lim tizimiga oid atamalarning izohli lug‘ati”. – T., 2023.

Rixsivoy ZIYAYEV,
Toshkent davlat agrar universiteti,
‘‘Fizika va kimyo’’ kafedrasi professori
Muattar UMAROVA,
Chirchiq davlat pedagogika universiteti talabasi

ORGANIK KIMYODA SPIRTLAR MAVZUSI O‘TILGANDA OKSIDLANISH – QAYTARILISH REAKSIYALARINI O‘RGANISH

Annotatsiya

Ushbu maqolada organik kimyoda spirtlar mavzusi o‘tilganda oksidlanish-qaytarilish reaksiyalari, shuningdek, ularning mohiyati, o‘ziga xos xususiyatini hamda reaksiya tenglamalarini elektron – balans usuli bilan tenglashtirish o‘rganilgan.

Kalit so‘zlar. Oksidlanish – qaytarilish reaksiyalar, spirtlar, propanol-1, propanol-2, 2,2,3-trimetilpentanol-1, kuchli oksidlovchi, propanal, propanon, dimetilketon.

В этой небольшой статье на тему спиртов изучены окислительно-восстановительные реакции, их сущность, характеристики, а также уравнение реакции методом электронного баланса.

Ключевые слова. Окислительно-восстановительные реакции, спирты, пропанол-1, пропанол-2, 2,2,3-триметилпентанол-1, сильный окислитель, пропаналь, пропанон, диметилкетон.

In this short article on the topic of alcohols, redox reactions, their essence, their characteristics, the equation of the reaction equations by the electron balance method are studied


Key words. Redox reactions, alcohols, propanol-1, propanol-2, 2,2,3-trimethylpentanol-1, strong oxidizing agent, propanal, propanone, dimethylketone.

Umumiy kimyoda oksidlanish-qaytarilish reaksiyalar, asosan anorganik moddalar orasida sodir bo‘ladigan oksidlanish-qaytarilish reaksiyalari va ularning tenglashtirish usullari bilan tanishiladi. Organik kimyoda esa bunday reaksiyalar ko‘p uchrasada, lekin ularning mohiyati (elektron berish – oksidlanish; elektron qabul qilish – qaytarilish jarayonlari) yaxshi yoritilmagan. Shu sababli, biz organik kimyoda (spirtlar mavzusi o‘tilganda) oksidlanish-qaytarilish reaksiyalari, ularning mohiyati, o‘ziga xos xususiyatlarini o‘rganish, reaksiya tenglamalarini koeffitsiyentlarining topib tenglashtirishni elektron – balans usuli bilan tanishishni lozim topdik.


Mavzuni o‘rganishda dastlab o‘qituvchi o‘quvchilarga shuni alohida ta’kidlab, misollar asosida tushintirib o‘tish lozimki, organik birikmalarda vodorodning oksidlanish darajasi doimo +1, kislorodniki doimo – 2, uglerod atomlariniki esa ularning birikish tartibiga (tabiatiga) qarab – 4 dan 0 va +4 gacha o‘zgarishi mumkin.

Masalan, uglerodning oksidlanish darajasi metanda – 4 ga, metil spirti CH_3OH da – 2ga, chumoli aldegidda 0 ga, chumoli kislotada HCOOH +2 ga, CO_2 da esa +4 ga tengligini oson hisoblab, topib, isbotlab berish mumkin. Agarda organik birikmalar tarkibida bir necha uglerod atomi bo‘lsa, ularning birikish tartibiga ko‘ra, ularning har biri turlicha oksidlanish darajasiga ega bo‘ladi.

Misollar:




propanol-1 propanol-2



2,2,3-trimetilpentanol-1


Spirtlar misolida (ularning olinish va xossalarini o‘rganish jarayonida) oksidlanish-qaytarilish reaksiyalarini o‘rganish, bu mavzuni chuqur o‘zlashtirishga, degidrolanish, gidratlanish va oksidlanish kabi reaksiyalarning mohiyatini ochib berishga yordam beradi.

Ma’lumki, etil spirti sanoatda etandan quyidagicha o‘zgarishlar bo‘yicha olinadi:




Bu o‘zgarishlar ikki xil reaksiyadan: etanni degidrolanishi va etilenni gidratlanishidan iborat bo‘lib, bunda uglerod atomlari bir gibrid holatdan boshqa gibridlanish holatiga o‘tadi, ya’ni: $sp^3 \rightarrow sp^2 \rightarrow sp^3$.

Yuzaki qaraganda bu reaksiyalarni oddiy reaksiyalar deyish mumkin, lekin uglerod atomining oksidlanish darajasini aniqlab, bu reaksiyalarning mohiyatini bilish, ya’ni etilen etanning oksidlanish, etil spirti esa etilenning oksidlanish mahsuloti ekanligini tushunish mumkin.




Etilenning gidratlanishi (gidrolizi):




Bu reaksiyada etilen molekulasidagi birinchi uglerod atomi qaytarilib CH_3–, ikkinchisi esa oksidlanib, - CH_2OH ni hosil qiladi.


Organik birikmalarning yonish reaksiyalari ham o‘z mohiyati jihatidan oksidlanish – qaytarilish reaksiyalaridir. Bunda doimo kislorod oksidlovchi bo‘lib, yonayotgan organik birikma qaytaruvchi bo‘ladi. Misol uchun, propanol-1 ning yonish reaksiyasi tenglamasi:




Bu reaksiyada propanol -1 tarkibidagi barcha uglerod atomlari oksidlanadi, ya’ni:




Spirtlarning eng muhim xossalaridan biri, ularning oksidlanishidir. Bunda o‘qituvchi kuchli oksidlovchilar ($KMnO_4$, $K_2Cr_2O_7$ va hokazo) ta’sirida birlamchi spirtlar oksidlanib aldegidlarga, ikkilamchi spirtlarning oksidlanishidan ketonlar hosil bo‘lishini o‘quvchilarga tushintirib, organik kimyoda bunday reaksiyalarning tenglamalarini yozishda oksidlovchilarni shartli ravishda atomar kislorod (O) shaklida yozishini ta’kidlab o‘tishi lozim. Masalan:






Aslida, bu reaksiyalarda oksidlovchi $KMnO_4$ yoki $K_2Cr_2O_7$ bo‘lib, bular kislotali muhitda H_2SO_4 ishtirokida sodir bo‘ladi. Shuning uchun o‘qituvchi bu reaksiyalarni to‘liq yozib, ularni elektron – balans usuli bo‘yicha tenglashtirish prinsiplarini tushintirishi lozim.

Misollar:



Elektron tenglamasi :

$$\begin{array}{l|l|l} C^{-1} - 2e^- = C^{+1} & 2 & 3 \\ 2Cr^{+6} + 3e^- \cdot 2 = 2Cr^{+3} & 6 & 1 \end{array}$$



$$\begin{array}{l|l|l} C^0 - 2e^- = C^{+2} & 2 & 5 \\ Mn^{+7} + 5e^- = Mn^{+2} & 5 & 2 \end{array}$$

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, o‘quvchlarning spirtlar mavzusini oksidlanish-qaytarilish reaksiyalarni bog‘lab o‘rganishlari, spirtlarga oid degidrogenlash, gidratlanish, yonish va oksidlanish kabi muhim reaksiyalarning asl mohiyatini tushinishga yordam beradi va ularning bu mavzu bo‘yicha olingan bilim saviyalarini boyitadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ziyayev R., Mirzayev R., Abdusamatov A. Organik kimyo / – T.: “Qaldirg‘och”, – 2019, – 99-108 b.

2. Muftahov A.G. Umumiy kimyo. –T.: O‘qituvchi NMIU, 2004, – 130-145 b.

3. Mutalibov A., Murodov E., Masharipov S., JslomovaH. Organik kimyo / 10-sinf, darslik, “G‘afur G‘ulom” nomli NMIU, – T., – 2017, – 78-84 b.

Lobar MAMBETOVA,
Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti tayanch doktoranti

ONA TILI DARSLARIDA O‘QUVCHILAR NUTQIY KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISHNING NAZARIY ASOSLANISHI

Annotatsiya

Mazkur maqolada ona tili o‘qitish jarayonida o‘quvchilarning og‘zaki va yozma nutqni o‘stirish, tilning lisoniy materiali, grammatikasi, leksikasini o‘rgatish, imlo savodxonligini oshirish, nutqiy kompetensiyalarini rivojlantirish, nutqdagi fonetik va fonologik birliklarning ahamiyatini anglashni o‘rgatish, kommunikativ yondashish, ularning nutq va tafakkurini uyg‘un holda takomillashtirish, metodist olimlar va psixologlarning ilmiy qarashlari tahlil qilinib, shaxsiy mulohazalar bildirilgan.

Kalit so‘zlar. Adabiy til me’yorlari, og‘zaki va yozma savodxonlik, nutqiy ko‘nikma, malaka, tinglab tushunish, o‘qish, so‘zlash va yozish kompetensiyasi, o‘quv topshiriqlari, informativ, kommunikativ, integrativ, kreativ yondashuvlar.

В данной статье рассматриваются вопросы развития устной и письменной речи учащихся в процессе обучения родному языку, обучения языковому материалу, грамматике, лексике языка, повышения орфографической грамотности, развития речевых компетенций, осознания значения фонетических и фонологических единиц в речи, коммуникативного подхода, гармоничного совершенствования их речи и мышления, методических исследований и методических разработок. Были проанализированы научные взгляды и высказаны личные замечания.

Ключевые слова. Нормы литературного языка, устная и письменная грамотность, речевые навыки, компетентность, понимание на слух, умение читать, говорить и писать, учебные задания, информативные, коммуникативные, интегративные, творческие подходы.

This article discusses the development of oral and written speech of students in the process of teaching their native language, teaching language material, grammar, vocabulary of the language, improving spelling literacy, developing speech competencies, awareness of the meaning of phonetic and phonological units in speech, a communicative approach, harmonious improvement of their speech and thinking, methodological research and methodological developments. scientific views were analyzed and personal comments were made.

Key words. Literary language norms, oral and written literacy, colloquial skills, qualifications, listening comprehension, reading, elocution and writing competence, teaching assignments, informative, communicative, integrative, creative approaches.

Ma’lumki, til lisoniy materiali muayyan strukturaviy mazmunga ega bo‘lgan ijtimoiy-kommunikativ aloqa vositasi hisoblanib, nutq esa uning sermahsul manbaidir. Inson butun umri davomida o‘z nutqini takomillashtirib boradi. Fikrning moddiy asosi nutqdir. Nutq faqatgina fikr ifodalash vositasi emas, balki fikrni shakllantiruvchi vosita ham hisoblanadi. So‘zlovchi va tinglovchi o‘rtasidagi axborot uzatish va axborotni qabul qilish jarayoni nutqiy faoliyat sanaladi. Nutqiy faoliyat jarayonida so‘zlovchi va tinglovchi o‘rtasida o‘zaro hurmat, ravon, ma’noli nutq bilan so‘zlash, so‘zlaganda ham so‘zning lug‘aviy ma’nosiga diqqat qilish, rost so‘zlash kabi nutqiy odob-axloq qoidalari yillar davomida ajdodlarimiz tomonidan takomillashib kelgan. Abu Nasr Forobiy foydali so‘zlashning ta’siri va uning ijobiy natijasini quyidagicha izohlaydi: “…so‘zlash quvvati shunday quvvatki, uning yordamida inson bilim va hunar egallaydi, uning yordamida xulq-atvoridagi xunuk va go‘zal harakatlarni ajrata biladi va

bajarilishi zarur bo‘lgan-bo‘lmagan ishlarni ado etadi, shu bilan birga, zararli va foydali narsani, lazzatli va achchiq narsalarni fahmlaydi. Yaxshi so‘z, yaxshi nutq kishiga obro‘ va baxt keltiradi. Ezgu so‘zli bo‘l: So‘zlar ancha mujibi g‘aromat bo‘lmoq, til zabtidadur anga salomat bo‘lmoq”[1]. Darhaqiqat, so‘zlash nutqining samarasi uning yaxshilikka qaratilgani bilan baholanadi. Dastlab nutq yaratilish jarayoni ikki bosqichdan iborat ekanligi haqida K.S. Vigotskiy shunday degan edi: “Jonli nutqiy tafakkur dasturida harakat motividan boshlanib, fikrdan fikr shakllanib ichki so‘zga, keyin tashqi so‘zga va nihoyat so‘zlarga aylanadi”[2]. Nutqiy faoliyat davomida tafakkur, fikrlash yuzaga keladi. Bu esa nutqiy faoliyatning o ‘ziga xosligidir. Tilshunos A. Sodiqov esa nutq faoliyatini: “Nutq faoliyati ikki tomonlama hodisa bo‘lib, u ham psixologik, ham ijtimoiy hodisadir. Nutq faoliyati, avvalo, odamlarning til yordamida bir-biri bilan muloqotda bo‘lish akti, ya’ni ikki ijtimoiy akt jarayonidir”, - deb ta’riflaydi. Nutqiy faoliyat orqali tinglovchi va so‘zlovchi kommunikativligi, o‘zaro muloqoti aks etadi. O‘zbek psixolog olimlaridan R.A. Yo‘ldoshev, L.R. Mirjalolovalarning fikricha, “Nutqiy kompetensiya deganda, bilim, nutqiy birlik, ko‘nikma, malaka chizig‘idagi ishlar mahsuli tushuniladi. Bu yerdagi bilim nutqda bexato yoki xato qo‘llanadigan, shuningdek, o‘quvchilar uchun yangi til hodisasi bilan bog‘lanadi, asosiy e’tibor ayni shu til hodisasini amalda to‘qri qo‘llash ustidagi ishlarga qaratilib, uni anglash, o‘zlashtirish, nutqda qo‘llash jarayonini ifoda etadi; dastlabki ko‘nikma asta-sekin malakaga aylanib boradi”. Nutqiy kompetensiya ijtimoiy hodisa sanalib, amaliy jihatdan layoqatga aylangan faoliyatdir. Nutqiy kompetensiya rivoji o‘z fikrini jonli nutqida erkin, xatosiz, mazmundor holda og‘zaki va yozma bayon qilishi bilan o‘lchanadi. Nutqiy kompetensiya elementlari: tinglab tushunish, so‘zlash, o‘qish va yozish ona tili o‘qitish jarayonida takomillashadi.

Nutqiy kompetensiya tushunchasi ostida tegishli tildagi nutqni amaliy jihatdan erkin egallash, dialog, shuningdek, monolog shaklidagi nutq jarayonida to‘g‘ri, tez, jonli gapira olish, tinglanayotgan nutqni, har qanday funksional uslubdagi nutq namunalarini tushuna olish malakalari tasavvur etiladi.

Og‘zaki holatda tinglangan ma’lumot, biror kontekst so‘zlar, so‘z birikmasi va gaplar, ularning ma’noviy izohi yordamida asosiy mazmun anglashiladi. A.A. Leontev tinglangan axborotni anglash va uni aytib berish og‘zaki nutqning idrok etilish tezligiga bog‘liqligini aytadi, nutqning juda sekin va juda tez talaffuz qilinishi bunga sabab bo‘lishini tushuntiradi[3]. Tafakkuri va aqliy rivojlanishi yuqori darajada bo‘lgan o‘quvchi tinglangan axborotni tezlikda ilg‘ab oladi. Ilmiy O‘zbek tilshunosligida I. Azimovaning tadqiqotida “Eshitish tahlil tizimi orqali nutq tovushlari qabul qilinib olar ekan, u audio-kirish leksikonidagi mavjud so‘zlar bilan solishtiriladi va so‘z nutqiy oqimdan ajratib, so‘z sifatida anglanadi, mazkur shaklga bog‘langan ma’no faollashadi. Mohiyatan olganda biz nutqni turli chastotalarga ega tovush to‘lqinlari sifatida qabul qilamiz. Mazkur to‘lqinlar insonning quloq pardasini turli chastotalarda tebratadi. Bu tebranishlar insonning eshitish tizimi orqali bosh miyaga uzatiladi. Biz eshitib tanigan so‘z – bu bir xilda takrorlangan to‘lqin chastotalari, demak. Uning ma’nosi esa o‘sha to‘lqin chastotalari guruhi qabul qilinganda inson turgan vaziyat bilan bog‘liq holda shakllangan bo‘ladi. Shu zaylda insonda audio-kirish leksika shakllanadi”[4], - deyilgan. Tinglab tushunish

[1] Abu Nasr Farobiy. Fozil odamlar shahri. – T.: Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 1993. – 188 b.

[2] Выготский Л.С. Избранные психологические исследования. – М.: 1956. – С. 84.

[3] Леонтьев А.А. Психолингвистический аспект языкового значения.// Вопросы психолингвистики, – М., 2011. - №1. – С. 8.

[4] Azimova I. Ona tili ta’limida lisoniy malakani rivojlantirishning psixolingvistik asosi.// Global ta’lim va milliy metodika. Respublika ilmiy-amaliy anjumani, 26.04.2020. – 215 b.

orqali bilimlar egallanadi va amaliy faoliyatga tayyorlovga yordam beradi. Tinglab tushunish natijasida mantiqiy fikrlash, keng dunyoqarash, matn g‘oyasini anglab xulosa qilish ko‘nikmalari hosil bo‘ladi.

Yuqorida keltirilgan ta’riflardan ko‘rinadiki, tinglab tushunish muloqotning asosini tashkil etadi, u bilan og‘zaki muloqotni egallash boshlanadi.

T. Buzanning tadqiqot natijalariga ko‘ra, inson bir kunining 9 foizini yozishga, 16 foizini o‘qishga, 30 foizini gapirishga, 45 foizini tinglashga sarflaydi[5]. Bundan xulosa qilish mumkinki, ta’limning eng muhim maqsadlaridan biri o‘quvchini ovozli nutqni tinglab tushunishga o‘rgatishdir. O‘quvchilar tinglagan axborotlarni tushungandan keyingina bajarishi kerak bo‘lgan harakatlarini ketma-ketligini aniqlab oladilar. Bu esa jamiyatda nafaqat o‘quvchilar, balki barcha insonlarning ijtimoiy rivojlanishida tinglab tushunish malakasi yaxshi rivojlangan bo‘lishi kerakligini ko‘rsatadi. Bixevirioristik (til materialini mexanik ravishda ko‘p martalab takrorlash orqali hosil qilinadigan malakalar) indektuv-ongli (misollardan qoidalarni anglashga qarab borish orqali).

Bunday nutqiy ko‘nikma va malakalar ona tili darsliklarida berilgan mashq va topshiriqlar orqali takomillashtiriladi. Shunisi aniqki, nutqiy faoliyatni to‘liq amalda ifodalash uchun turli lisoniy birliklar, jumladan, leksik, morfologik vositalarni hamda grammatik shakllarni nutq vaziyatiga mos ravishda tanlab olishni taqozo etadi. Nutqiy birliklarni bosqichma-bosqich so‘zlarni tanlash va ulardan so‘z birikmasi hosil qilib gap tuzish matn sarlavhasiga oid tayanch so‘zlarni tanlash, so‘zlar yordamida hosil qilingan gaplardan bog‘lanish, nutq yaratish nutqiy faoliyatni xususiyatlari jamlangan holda tavsiflanadi. Shu nutqiy faoliyat asnosida kreativ sifatlar rivoj topadi.

Yuqorida aytilgan fikr va mulohazalardan shunday xulosa qilish mumkinki, umumiy o‘rta ta’lim maktablari uchun ona tilidan tuziladigan o‘quv dasturlari fanga oid darsliklar va ishlab chiqilgan o‘quv qo‘llanmalarda o‘quvchilarining nutqiy kompetensiyalarni rivojlantirish va shular xususida tizimli ishlar olib borish, 9-sinf o‘quvchilarini nafaqat ona tili darslarda so‘zlarni to‘g‘ri qo‘llash qobiliyati, balki ijtimoiy hayotda ham nutqiy vaziyatlarga duch kelganda muammoni muloyim so‘zlash, hikmatomuz maqollarni keltirish, ba’zi o‘rinlarda buyuk siymolarning hikmatli so‘zlaridan namunalar o‘qib berish va o‘quvchilar bilan birgalikda sharhlash, barcha nutq uslublarida o‘zining fikr-mulohazasini, munosabatini izchil ravishda belgilangan talablar asosida ifodalay olishi darkor.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abu Nasr Farobiy. Fozil odamlar shahri. – T.: Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 1993. – 188 b.

2. Azimova I. Ona tili ta’limida lisoniy malakani rivojlantirishning psixolingvistik asosi. // Global ta’lim va milliy metodika. Respublika ilmiy-amaliy anjumani, 26.04.2020. – 215 b.

3. Выготский Л.С. Избранные психологические исследования. – М.: 1956. – С. 84.

4. Sodiqov A., Abduazizov A., Irisqulov M. Tilshunoslikka kirish. – T.: “O‘qituvchi”, 1981. – 76 b.

5. G‘oziyev E. Psixologiya. – T.: O’qituvchi, 2003. – 295 b.

[5] Buzan, Hızlı okuma, İstanbul: Alfa Yayınları. – 2001.

Odil YUSUPOV,
I. Karimov nomidagi TDTU akademik litseyi o‘qituvchisi

TA’LIMDA AXBOROT-KOMMUNIKATSIYA TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANIB GEOMETRIYA FANINI O‘QITISH METODIKASI

Annotatsiya

Maqolada ta’limda akademik litsey o‘quvchilariga matematika fanini o‘qitish va bu fanga bo‘lgan qiziqishlarini oshirish masalasiga e’tibor qaratilgan, hamda ko‘rsatilgan metodlar o‘quvchilarni fikrlash qobiliyatini shakllantirishga yordam berishi aytib o‘tilgan.

Kalit so‘zlar. Axborot-kommunikatsiya, dasturlash, C++, differensial, illyustrativ evristik va loyihalash, texnologiya, qobiliyat.

В статье основное внимание уделяется вопросу преподавания математики учащимся академических лицеев в образовании и повышению их интереса к этому предмету, а также отмечается, что указанные методы помогают формировать у учащихся навыки мышления.

Ключевые слова. Информационные коммуникации, программирование, C++, дифференциальная, иллюстративная эвристика и дизайн, технологии, способности.

The article focuses on the issue of teaching mathematics to students of academic lyceums in education and increasing their interest in this subject, and also notes that these methods help to form students' thinking skills.

Key words. Information communications, programming, C++, differential, illustrative heuristics and design, technologies, abilities.

Ta’lim sohasida axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng qo‘llanilishi ta’lim-tarbiya ishlarini takomillashtirish va samaradorligini oshirish, pedagogik jarayonning samaradorligini ta’minlash imkonini beradi. Shu bilan birga, ta’lim faoliyatining barcha turlarining fikrlash metodi, shakllari va vositalarining o‘zgarishi muqarrar va shuning uchun ma’lum afzalliklar va shu bilan birga muayyan muammolar paydo bo‘ladi.

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish qo‘yilgan maqsadlar va yakuniy natija o‘rtasidagi bog‘liqlik bilan belgilanadi va ta’lim muammolarini hal qilish vositasi hisoblanadi. Bunda bizga biz tomonimizdan ishlab chiqilgan metodik model va pedagogik shart-sharoitlar yordam beradi.

Geometriya o‘qitishda axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish eng maqbul bo‘lgan quyidagi qoidalarni ajratib ko‘rsatishimiz mumkin: bilimlarni egallash; ko‘nikma va malakalarni shakllantirish; bilimlarni qo‘llash; ijodiy faoliyat; mahkamlash; bilim, ko‘nikma, malakalarni tekshirish shu bilan birga, akademik litsey o‘quvchilarining bilish faoliyatining mustaqillik darajasi va o‘quvchilarning aqliy faolligi darajasini o‘z ichiga olgan bilish faoliyati turini hisobga olish muhimdir. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini o‘quvchilarning geometrik tayyorgarligi jarayonida bilish faolligini shakllantirish vositasi sifatida qo‘llash usuli maqsadlar va yakuniy natijalarga mos keladigan aniq o‘qitish metodikalarini talab qiladi. Aynan:

– akademik litsey geometriya kursining illyustrativ bazasini kengaytirish vositasi sifatida axborot texnologiyalaridan foydalanish metodi. Bu kompyuter o‘quv dasturlari

(matematik, grafik va boshqalar) yoki o‘qituvchi tomonidan yuqori darajadagi dasturlash tilidan (C++) foydalanishni nazarda tutadi;

– o‘quvchilarda algoritm bo‘yicha ishlash qobiliyatini shakllantirish imkonini beruvchi kompyuter o‘quv dasturlarini qo‘llash metodi, shunday qilib, o‘quvchilarda aniq fikrlash uslubi shakllanadi, material yanada mustahkamroq o‘zlashtiriladi;

– geometriyaning hisoblash masalalarini yechishda kompyuterdan foydalanish metodi, kompyuter texnologiyasi barcha hisob-kitoblarni mashinaga o‘tkazish imkonini beradi.

– geometrik jismlarni vizuallashtirish, geometrik masalalarini yechishda axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish usuli. Bu segment uzunligini, rasmning maydonini, jismning hajmini va boshqalarni hisoblash uchun muammolarni hal qilish uchun juda muhimdir.

Shunday qilib biz akademik litseylarda geometriya fanini o‘qitishning metodik tizimini ishlab chiqish lozim. Mazkur metodik tizim asosan akademik litseylarda o‘quvchilarning tayanch kompetensiyalarini shakllantirishga qaratiladi (1-rasm).

Dasturlash MathCAD tizimida asosiy o‘rin tutadi. MathCAD tizimining katta imkoniyatlari shundan iboratki, u dasturlashni qo‘llamasdan turib ham aksariyat masalalarni qator usullar bilan yechishga imkoniyat beradi. Biroq shunday masalalar sinfi mavjudki, ularni dasturlashsiz yechib bo‘lmaydi.

MathCAD tizimining Dasturlash bo‘limidan foydalanish har qanday murakkablikdagi dasturni tuzish imkonini beradi. MathCAD tizimida dasturlash juda aniq, ko‘rgazmali va tushunarlidir, chunki undagi dastur bir necha formulalarning ketma-ketligidan iborat bo‘ladi.

Dasturlashning asosiy operatorlari Programming Toolbar (dasturlash paneli)da joylashgan.

MathCAD tizimida +, *, -, / ga o‘xshash oddiy operatorlardan tashqari yana bir qancha operatorlar mavjud. Masalan, matritsani transponirlash, determinantni hisoblash yoki integral va hosilani hisoblashning maxsus operatorlari qo‘llaniladi.

– mathCAD da dasturlash quyidagi ketma – ketlikda amalga oshiriladi:

– dastur ifodasining nomi kiritiladi;


– egallash operatori (:=) kiritiladi;

– dasturlash panelidagi Add Line(sart qatorini qo‘shish) tugmasi, dastur qancha satrga ega bo‘lsa shuncha marta bosiladi;

– paydo bo‘lgan ma’lumot kiritish joyiga, kerakli operatorlarni kiritish, ortiqcha kiritish joyni o‘chirib tashlash bajariladi.

Biz MathCAD muammoli ta’lim va differensial ta’lim texnologiyalaridan foydalandik. Muammoli ta’lim texnologiyasi muammoli vaziyatlarni va ular yuzaga keltirgan o‘quv vazifalarni yaratishga asoslangan. Muammoli ta’lim mohiyati – bilimni ijodiy o‘zlashtirish – o‘quvchining ilmiy ijodining to‘rt bosqichi: muammoni qo‘yish, yechimini izlash, yechimni topish, bilimni (o‘quvchining o‘zi egallagan) ochiq ijodiy qo‘llashdan iborat. MathCAD dasturiy paketidan foydalanib misol tariqasida uchburchak yuzini topishda ko‘rsatib o‘tamiz (2-rasm).

C++ dasturlash tilida eng sodda uchburchak yuzasini hisoblash dasturini keltirib o‘tamiz. Buning uchun quyidagi ketma-ketlikka rioya qilish lozim: 1. Dasturlash tilini ishga tushirish. 2. Dastur kodlarini kiritish; Kompilyatsiya jarayonini amalga oshirish (dastur tilidan kompyuter tiliga o‘tkazish). 3. Testlash.



1-rasm. Geometriya o‘qitishning metodik tizimi

C++ dasturlash tili bilan geometriya fanini integratsion o‘qitishda asosan loyihalash metodi samarali hisoblanadi. Zamonaviy metodika va texnologiyalarning turli yo‘nalishlari orasida eng maqbul maqsadlarga erishtiruvchi metod -loyihalash metodi hisoblanadi.

Loyihalash metodi – o‘quvchilarni bosqichma-bosqich murakkablashib boradigan amaliy masalalarni ishlab chiqish, rejalashtirish va amalga oshirish jarayonida bilim, ko‘nikma va malakalar bilan qurollantiradigan ta’lim tizimidir.

O‘quvchilar keng ko‘lamdagi muammoli masalalar: ijodiy, axborot, kommunikatsiya bo‘yicha loyihalarni amalga oshiradilar. Mazkur texnologiyaning qimmati o‘quvchilarni rivojlantirishning asosiy vositasi sifatida ularning mustaqil loyihalashtirish faoliyatidan foydalanish sanaladi.

Loyihalash metodikalarining samaradorligi quyidagi sabablarga asoslanadi:

– loyihalash metodikasi shaxsga yo‘naltirilgan bo‘lib, bunda ta’limni rivojlanish jihati kasbiy ta’limda yetakchilik qiladi;

– loyihani amalga oshirish jarayonida ta’lim shaxsning o‘zi tomonidan motivlashgan bo‘lib, bu o‘z navbatida ishni bajarish jarayonida unga bo‘lgan qiziqish va ishga berilishni kuchaytiradi;

– loyihalash metodikasida ‘‘o‘qituvchi-o‘quvchi’’ munosabatlari iyerarxiyasi (pog‘onalari, ketma-ketligi) an’anaviy ta’lim metodlaridan tubdan farq qiladi.

Tadqiqotchilik metodi egallangan bilimlardan birgalikda yoki individual faoliyatda foydalanish, mustaqil tanqidiy fikrlash, muammoni ilmiy tahlil qilish, ijodiy izlanishlarni rivojlantiradi.

Tadqiqotchilik metodidan foydalanib o‘quvchilarga bitiruv ishini yozishlari jarayonida jamoatchilik asosida ilmiy loyihaga jalb qilish orqali tayanch kompetensiyalari bosqichma-bosqich rivojlantiriladi:

1. Kuzatish. Bunda o‘quvchilar mavjud shart-sharoitlarni o‘rganadilar.
2. Tajriba. Tajriba jarayonida o‘quvchilar ma’lumotlarni yig‘ish bilan shug‘ullanadilar.
3. Tahlil qilish. Hisoblash natijalarini tahlil qiladilar.
4. Sintez qilish. Parametrlarning o‘zaro aloqasini o‘rganadilar.
5. Formallashtirish. Bunda o‘quvchilar olingan natijalarni qayta ishlaydilar.
6. Modellashtirish. Formallashtirilgan natijalarni o‘zaro funksional bog‘lash orqali umumiy xulosaga keladilar.
7. Avtomatlashtirish. Modellashtirilgan jarayonni jadval hamda grafik ko‘rinishdagi kompyuterda qayta ishlaydilar.

Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkunki, ta’limda axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanib geometriya o‘qitish orqali o‘quvchilarning tayanch kompetensiyalarini shakllantirish metodikasini samarali qo‘llash zarur, hamda bugungi kunda dunyoda ta’limda zamonaviy axborot vositalarini keng ravishda qo‘llash muhum o‘rin tutadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Понарин Я.П. Элементар геометрия. – М., -2004 г.
2. Xusanov D.X., Shamsiddinov N.B. “Yoshlarning mustaqil ijodiy fikrlash faoliyatini rivojlantirishda geometrik masalalarning o‘rni”. “Xalq ta’limi” ilmiy-metodik jurnal. 2020-yil. 5-son. – 16-24 bet.
3. Khayitov B.Y. Modeling the Formation of Professional Competence of Future Programmers Through the Development of Fundamental Knowledge and Skills. In volume 14, of Eurasian Journal of Learning and Academic Teaching (EJLAT) November 2022. ISSN (E): 2795-739X, JIF: 8. 225 https://www.geniusjournals.org/index.php/ejlat/article/view/2683
4. Hayitov B.Y. Masofaviy ta’lim texnologiyalari vositasida talabalarning fundamental bilimlarini rivojlantirish metodikasi. O‘zMU xabarlari. Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston milliy universiteti ilmiy jurnali. ISSN 2181-7324. –T., 2022.-№ 1/11. (13.00.00; №15)
5. Xusanov D.X., Shamsiddinov N.B. “Geometrik masalani turli yechish usullari yordamida o‘quvchilarning ijodiy fikrlash faoliyatini rivojlantirish”. “Xalq ta’limi” ilmiy-metodik jurnal. 2022 yil. 3-son.
6. Husanov J., Shamsiddinov N. On the role average values in solving geometric extreme. Internatsional Journal on Integrated edication. Vol.6.2022.

Gulruh BUVORAYEVA,
Chirchiq davlat pedagogika universiteti,
“Jismoniy madaniyat nazariyasi” kafedrasi o‘qituvchisi

UMUMTA’LIM MAKTABLARIDA O‘QUVCHILARNING TARBIYAVIY KOMPETENSIYALARINI UYG‘UNLASHTIRISH TEXNOLOGIYASI (Jismoniy tarbiya fani misolida)

Annotatsiya

Ushbu maqolada umumta’lim maktablarida o‘quvchilarning tarbiyaviy kompetensiyalarini uyg‘unlashtirish texnologiyasi (jismoniy tarbiya fani misolida) haqida qisqacha mazmuni yoritib berilgan. Shuningdek, jismoniy tarbiya darslarini to‘g‘ri tashkil etish va o‘quvchilarning jismoniy sifatlarini rivojlantirishni tadqiqot asosida isbotlab berish kabi dolzarb masalalari haqida so‘z boradi.

Kalit so‘zlar. Maktab, sifat, bilim, tarbiya, yoshlar, texnologiya, kompetensiya, pedagog, tizim.

В данной статье дается краткое изложение технологии гармонизации воспитательных компетенций учащихся в общеобразовательных школах (на примере науки о физическом воспитании). Также речь пойдет об актуальных вопросах правильной организации уроков физкультуры и научно-доказательной обоснованности развития физических качеств учащихся.

Ключевые слова. Школа, качество, знания, образование, молодежь, технологии, компетентность, педагог, система.

This article provides a summary of the technology of harmonization of educational competencies of students in secondary schools (using the example of the science of physical education). It will also focus on topical issues of the correct organization of physical education lessons and the scientific and evidence-based validity of the development of physical qualities of students.

Key words. School, quality, knowledge, education, youth, technology, competence, pedagogue, system.

Mamlakatimizda zamonaviy ta’lim tizimini amaliyotga tatbiq etish asosida bilim berish jarayonining potensial imkoniyatlarini yuzaga chiqarish bosqichi davom etmoqda. Pedagoglar ayni paytda innovatsion texnologiyalarni ta’lim-tarbiya jarayoniga kiritish orqali o‘quv samaradorligi va sifatini oshirishni ko‘zlamoqdalar.

Yoshlarni tarbiyalash va ularga zamonaviy bilimlar berishning sifatini oshirish hamda jamiyatimiz uchun barkamol shaxsni shakllantirish ta’lim tizimining eng asosiy maqsadlaridan hisoblanadi. Uzluksiz ta’lim jarayonida olib borilayotgan barcha harakatlar shu maqsadni amalga oshirilmoqda.

O‘quvchilarni jismoniy tarbiya darslarini tashkil etish yo‘llari va shart-sharoitlarini tadqiq etish muammosini o‘rganilishi milliy tarbiya muamosiga yanada chuqurroq kirib borishga va bu muammoga ilmiy-amaliy jihatdan oydinlik kiritishga asos bo‘la oladi. Jismoniy tarbiya darslarini to‘g‘ri tashkil etish va o‘quvchilarning jismoniy sifatlarini rivojlantirishni tadqiqot asosida isbotlab berish kabi dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Maktab o‘quvchilarining jismoniy tarbiya darslarida kuch qobiliyatlarini rivojlantirish bo‘yicha ilmiy tadqiqot ishlari kam yoritilgan bo‘lib, faqat yosh sportchilarni

yoshi, jinsi, jismoniy tayyorgarligi bo‘yicha ishlarga e’tibor qaratilgan. Jismoniy tarbiya darslarida kuch qobiliyatlarini rivojlantirish bo‘yicha ishlar yetarli darajada emas. Ta’lim muassasalarida jismoniy tarbiya darslarining sifatini yaxshilash, maktabdan tashqari ishlarni tashkil qilish va ularning samaradorligini oshirish, sport turlarini rivojlantirish, ommaviyligini oshirish, iqtidorli sportchilarni tanlash va tarbiyalash muhim hisoblanadi. Maktab yoshi harakatga o‘rgatish uchun eng qulay yoshdir. Xuddi mana shu yillarda bolalar yuqori egiluvchanlikga, kuchli va tez nerv qo‘zgalishiga ega bo‘ladilar va shunga ko‘ra harakatlarning shartli reflekslarini yengil hosil bo‘lishi bilan ajralib turadilar. 14-15 yoshda harakat analizatorlarining rivojlanganligi me’yoriga yetadi. Maktabni tugallash davriga kelib o‘quvchilar xilma-xil darajadagi harakat malakalariga ega bo‘ladilar. Bu o‘z navbatida jismoniy mashqlarni, mehnat faoliyatida va ijtimoiy hayotda, turmushda, o‘zlarining sog‘ligini mustahkamlashga, jismoniy tayyorgarlikni oshirishga qo‘llay oladilar.

Darsni yuqori saviyada o‘tkazish, dars davomida o‘quvchilar faolligini taminlash, beriladigan vazifa, ko‘rsatma va mashqlar ijrosiga ularni ongli yondoshishlariga erishish, jismoniy tarbiya darsiga mehr va hurmat uyg‘otish o‘qituvchining nafaqat kasbiy mahorati va sifatli ishlab chiqilgan dars bayonnomasiga, balki uning shaxsi va insoniy fazilatlariga ham bevosita bog‘liqdir.

Bunda asosiy e’tiborni ish qobiliyatini tez va to‘liq tiklab olishga yordam beruvchi vositalarga qaratish lozim. Jismoniy sifatlarni rivojlantirishda asosan e’tibor tezkorlik, tezkor-kuchlilik va maxsus chidamkorlikni (ayniqsa, sakrashda va zarbali harakatlarda) sifatlarini rivojlantirishga yo‘naltirilishi kerak.

O‘rgatish uslublari yordamida, bilim, ko‘nikma va malakalarni egallash, harakat qobiliyatlrini, irodaviy va ahloqiy sifatlarni rivojlantirish vazifalari amalga oshiriladi. Murabbiy mashg‘ulotlarda u yoki bu harakat faoliyatini o‘rgatadi, tushuntiradi va ko‘rsatadi, shug‘ullanuvchilar esa uni egallab oladilar. Mashg‘ulotlarda o‘rgatish uslublarini tanlashda, pedagogik vazifa, material mazmuni va o‘quvchilar tayyorgarligini e’tiborga olish lozim. Jismoniy tarbiya darslari va sport mashg‘ulotlari jaryonida asosan uchta o‘rgatish uslublari mavjud, bular: so‘z uslubi, ko‘rgazmali uslub va amaliy uslublar. So‘z va ko‘rgazmalilik uslublari bevosita harakatlarni amalda qo‘llash, ya‘ni mashqlarni bajarish uchun zamin yaratadi. Barcha uslublar o‘zaro bir-biri bilan bog‘liq holda kompleks qo‘llaniladi.

Pedagogning kasbiy tarbiyalanganlik layoqatliligini tadqiq qilishga bag‘ishlangan asarlarda uning quyidagi turlari bilan farq qilinadi:

– maxsus tarbiyalanganlik layoqatliligi – kasbiy faoliyatini yetarlicha yuqori darajada egallaganlik, o‘zining kelgusi kasbiy rivojlanishini loyihalash qobiliyati;

– ijtimoiy tarbiyalanganlik layoqatliligi – birgalikdagi kasbiy faoliyatni, hamkorlikni, shuningdek, mazkur kitobda qabul qilingan kasbiy muloqat uslublarini egallaganlik, o‘z kasbiy kasbi natijalari uchun ijtimoiy mas’ullik.

Bo‘lajak o‘qituvchining kasbiy kompetentligi, irodaviy sifatlar, intellektual salohiyat, hissiy sifatlar, amaliy ko‘nikmalar, o‘z-o‘zini boshqara olish layoqatlarining o‘zaro bog‘liqligi va shaxsning ijtimoiy-madaniy faollik darajasini aks ettiruvchi individual sifatlar asosida shakllantiriladi.

Pedagogik kompetensiyalar – bilimlar, malaka va ko‘nikmalar hamda o‘zlashtirilgan qadriyatlar asosida mustaqil harakatlanishga bo‘lgan motivatsiyaning uyg‘unlashgan majmuini o‘zida aks ettiradi. Kompetentli kadr kasbiy vazifalarni samarali va sifatli bajarishi mumkin. Zamonaviy kompetensiya nafaqat malaka, bilim va ko‘nikmalarni, balki qadriyatlar va axloqiy fazilatlarni ham o‘z ichiga oladi. Har bir tarbiyachi shaxsi, temperamenti va tarbiyachilik uslubi boshqalarnikidan farqlanadi. Biroq bolaga, uning

ta’limiga va rivojlanishiga yondashuv barcha tarbiyachilarda bir xil bo‘lishi lozim. Shuning uchun ham kasbiy standart barcha tarbiyachilar uchun bir xil talabni qo‘ydi. Amaliyot shuni ko‘rsatadiki, zamonaviy bolalar bog‘chasini yangi axborot texnologiyalarisiz tasavvur qilish qiyin. AKTga egalik qilish ta’lim jarayoni samaradorligini oshirishga, tarbiyachilarning kasbiy malakasini oshirishga yordam beradi.

Tarbiyachilarning malakasini rivojlantirishning turli shakllari va usullari mavjud bo‘lib, ularni bosqichma-boqich amalga oshirish mumkin. Tarbiyachilar bilan ishlashda malakani rivojlantirishga qaratilgan ko‘plab shakl va usullardan quyidagilarni ajratib ko‘rsatish mumkin:

Seminar – ijodiy darslar ijodiy fikrlashni rivojlantirish va innovatsion loyihalarni yaratishga qaratilgan.

O‘yinlarni modellashtirish – ishbilarmonlik va rol o‘ynash o‘yinlari haqiqiy jarayonni modellashtirishni o‘z ichiga oladi, bu davrda sun’iy ravishda yaratilgan pedagogik vaziyatlarni tahlil qilish asosida maqbul kasbiy qarorlar quyidagicha qabul qilinadi.

Kollektiv – muammolarni hal qilish, guruh muhokamasi yoki aqliy hujum; kasbiy mahoratni oshirish uchun kichik guruhlarda treninglar; o‘z-o‘zini tarbiyalash ishlarining usullari; maktabgacha ta’lim muassasasining innovatsion faoliyati natijalariga bag‘ishlangan ilmiy va amaliy konferensiyalar.

Pedagogik halqa – tarbiyachilarni psixologiya va pedagogika sohasidagi so‘nggi tadqiqotlarni, uslubiy adabiyotlarni o‘rganishga yo‘naltiradi, pedagogik muammolarni hal qilishning turli xil yondashuvlarini aniqlashga yordam beradi, mantiqiy fikrlash va o‘z pozitsiyalarini dalil qilish ko‘nikmalarini yaxshilaydi, bayonlarning ixchamligi, aniqligi, to‘g‘riligini o‘rgatadi. Ushbu shakl ishtirokchilarning javoblari, nutqlari va harakatlarini baholash mezonlarini quyidagicha taqdim etadi:

– umumiy bilim;

– kasbiy bilim, qobiliyat, ko‘nikma;

– qiyin vaziyatdan chiqish qobiliyati, tezkorlik.

O‘qituvchining kasbiy kompetentligi tushunchasiga berilgan ta’rif va tavsiflarni umumlashtirib, uni quyidagicha talqin etish mumkin: O‘qituvchining kasbiy kompetentligi – pedagog faoliyatida kasbiy kompetentlik muhim jihatlaridan biri bo‘lib, pedagogning faqatgina kasb va kasbiy faoliyatni amalga oshirish bilan bog‘liq barcha ehtiyoj, qobiliyat, mahorat, bilish va qiziqishlarini ifodalaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abdullayev A., Xonkeldiyev Sh. Jismoniy madaniyat nazariyasi va metodikasi – T.: O‘z DJTI, 2005 y. – 300 b.

2. Axmatov M.S. Monografiya. Uzluksiz ta’lim tizimida ommaviy sport-sog‘lomlashtirish ishlarini samarali boshqarish. – T., 2005 y. – 235 b.

3. Goncharova O.V. Yosh sportchilarning jismoniy qobiliyatlarini rivojlantirish. O‘quv qo‘llanma. O‘zDJTI, – T., 2005 y. – 171 b.

4. Юнусова Ю.М. Организация и методика физической культуры в общеобразовательных школах республики Узбекистана. – Т.: 2002. – С. 120.

5. Шолих М. Круговая тренировка (Теоретические, методические и организационные основы одной из современных форм использования физических упражнений в школе и спортивной тренировке). - 2-е изд., стер. – М.: Спорт, 2021 .– С. 217.

Barno AMIRULLAYEVA,
A. Avloniy nomidagi pedagoglarni kasbiy rivojlantirish va yangi metodikalarga o‘rgatish milliy-tadqiqot instituti tayanch doktoranti

TABIIY FAN O‘QITUVCHILARINING O‘QUV METODIK TAYYORGARLIGINI RIVOJLANTIRISHDA KONSTRUKTIV YONDASHUV

Annotatsiya

Ushbu maqolada bugun ta’lim tizimiga yangi kirib kelgan tabiiy fanlar (Science) va uni o‘qitishda fan o‘qituvchilarining o‘quv metodik tayyorgarligi, fanni konstruktiv yondoshuv asosida o‘qitish va o‘qituvchilar malakasini oshirish dasturlariga ham konstruktiv yondoshuvni singdirish bo‘yicha ma’lumotlar keltirilb o‘tilgan.

Kalit so‘zlar. Konstruktivizm, konstruktiv yondashuv, kognitiv konstruktivizm, ijtimoiy konstruktivizm, o‘qituvchi o‘quv-metodik tayyorgarligi.

В данной статье представлена наука (Science) , которая в последнее время внедряется в систему образования, и учебно-методическая подготовка учителей естественных наук в ее преподавании, преподавание науки на основе конструктивного подхода, а также привитие конструктивного подхода в программах подготовки учителей.

Ключевые слова. Конструктивизм, конструктивный подход, когнитивный конструктивизм, социальный конструктивизм, методическая подготовка учителей.

In this article, science, which has recently entered the education system, and the educational methodical training of science teachers in its teaching, teaching science based on a constructive approach, and instilling a constructive approach in teacher training programs information on.

Key words. Constructivism, constructive approach, cognitive constructivism, social constructivism, teacher training methodical training.

Bugungi kunda XXI axborot asri odamlari uchun uzluksiz o‘rganish va o‘z-o‘zini rivojlantirish ehtiyojga aylandi. Bu ta’lim maqsadini muayyan bilim, ko‘nikma, malaka yoki qadriyatlarni uzatishdan ko‘ra, ilmiy yangiliklar, g‘oyalar va kelajagini ishlab chiqish qobiliyatiga ega odamlarni tarbiyalashga o‘zgartiradi.

Hozirda fan va texnologiya inqilobi ketmoqda. So‘nggi yigirma yil ichida texnologiya ijtimoiy va madaniy hayotning barcha jabhalariga, shuningdek, ko‘proq darajada ta’lim tizimiga keskin ta’sir ko‘rsatdi. Ammo shu bilan birga o‘qitish va boshqa ta’limga tegishli bo‘lgan ishlar bu o‘zgarishlardan to‘liq foydalana olmadi. Bizning maktablarimizdagi ta’lim tizimi hali ham o‘tmishda, bolalarimiz esa ancha oldinda. Sinfda biz o‘quvchilarimizga o‘z bilimlarimizni chiziqli, didaktik tarzda taqdim etamiz, bu bolalarning maktabdan tashqaridagi hayotiy tajribasidan keskin farq qiladi. Natijada o‘quvchi va o‘qituvchi o‘rtasida nomuvofiqlik yuzaga kelmoqda. Aslida bugungi kunda ta’lim muassasalariga mos kelmaydigan o‘quvchilar emas, aksincha, ta’lim muassasalari o‘quvchilarga mos kelmayapdi. Farzandlarimiz va ta’lim tizimimiz o‘rtasidagi bu qarama qarshilik ta’lim tizimini o‘zgartirish orqali ta’limni jamiyatga moslashtiradigan keskin islohotni talab qiladi. Biz bu bo‘shliqni yo‘qotib, maktablarimizni o‘quvchilarimiz va jamiyatning qolgan qismi bilan birlashtira olamiz. O‘qituvchi fan va texnologiya asrida

ma’lum o‘qitish tartib-qoidalariga amal qilishi uchun eng zamonaviy tadqiqot amaliyotini bilishi kerak. Bunday maqsadlarga erishish oson emas. Bu yangi pedagogika va globallashuv muammolarini inobatga olgan holda o‘qituvchilarni o‘quv metodik tayyorgarligini rivojlantirish, ularning malakasini oshirish va malaka oshirish dasturlarini hamda maktab ta’lim tizimini qayta tashkil etishni talab qiladi.

Ushbu fikrlar konstruktivistik nazariyani, o‘quv dasturlarini, sinfdagi mashg‘ulotlarni, hamda malaka oshirish kurslarini loyihalashda muhim omil sifatida ta’kidlaydi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 11-maydagi “2022-2026-yillarda xalq ta’limini rivojlantirish milliy dasturini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 134-sonli farmoni tasdiqlanishi o‘qituvchilardan o‘quvchilarning o‘z bilimlarini yaratishlariga imkon berish uchun turli xil o‘qitish yondoshuvlarini qo‘llashni, o‘qituvchining o‘quv metodik tayyorgarligini konstruktivizm doirasida qayta ko‘rib chiqishni talab qiladi. Yangi o‘quv dasturining nazariyasi konstruktivistik yondashuvga asoslangan holda, bilim va ko‘nikmalarni hayotiy vaziyatlarda amalga oshirish uchun sharoit va imkoniyatlar yaratadi.

Konstruktiv yondashuv an’anaviy o‘qitishdan o‘quvchiga yo‘naltirilgan ta’limga o‘tishga imkon beradi. Konstruktivizm – bu ‘‘inson izlanishlari natijalari, ham shaxsiy, ham tajribaga asoslangan ijtimoiy o‘zaro ta’sirlar orqali olingan bilim’’dir.

Ta’limda konstruktiv yondoshuv ta’lim muhitini – o‘qituvchi, o‘quvchi, o‘quv jarayonlari va o‘quv dasturi vazifalarini o‘zgartirish imkoniyatiga ega. Dunyo bo‘yicha ta’lim tizimi o‘quvchilarga XXI asr ko‘nikmalarini shakllantirish uchun zamonaviy texnologiyalar va raqamli texnologiyalardan foydalanmoqda. YuNESKO ning 1998-yilgi Jahon ta’lim hisoboti ‘‘O‘zgaruvchan dunyoda o‘qituvchi va o‘qitish’’da an’anaviy o‘qitish va o‘qitishda konstruktiv yondoshuvning tub oqibatlarini tavsiflaydi. U o‘qitish jarayonining o‘zgarishini, o‘qituvchilar va o‘quvchilar uchun ta’lim jarayonida ishtirok etish usullarini bashorat qiladi. Rivojlanayotgan raqamli texnologiyalar bilan o‘qituvchilik kasbi o‘qituvchiga yo‘naltirilgan o‘quv muhitidan o‘quvchilarga yo‘naltirilgan ta’lim muhitiga rivojlanmoqda. Ta’limni o‘rgatishda konstruktiv yondoshuvdan to‘liq foydalanishlari uchun zamonaviy ta’lim texnologiyalari, vositalari va usullaridan samarali foydalanishlari kerak. Tegishli pedagogik ta’lim muassasalari va ular tomonidan yaratiladigan o‘quv dasturlari bu yo‘nalishda tayyorlov va malaka oshirish o‘qituvchilariga rahbarlikni ta’minlashi shart.

Jon Dyui va Jan Piaget konstruktivizm evolyutsiyasiga olib keladigan bolalikning yoshiga mos ravishda rivojlanishi va ta’lim nazariyalarini ishlab chiqdilar. Piaget bolalarning g‘oyalarni birin-ketin mantiqiy tuzilmani qurish orqali konsepsiyalashiga ishongan, shuningdek, u bolalarning fikrlashi kattalarnikidan butunlay farq qiladi, degan xulosaga keladi. Ushbu nazariyaning ta’siri va u ularni qanday qo‘llaganligi konstruktiv ta’lim uchun asos yaratdi. Dyui ta’limni tajriba orqali o‘rganishga da’vat etadi. U shunday deb yozgan edi: “Agar siz o‘rganish qanday sodir bo‘lishini bilmoqchi bo‘lsangiz doimiy so‘rov bilan shug‘ullaning: o‘rganing, mulohaza yuriting, muqobil imkoniyatlarni ko‘rib chiqing va dalillarga asoslanib xulosa chiqaring”. So‘rov konstruktiv ta’limning asosiy qismidir.

Jerome Bruner ta’lim faol, ijtimoiy jarayon bo‘lib, unda o‘quvchilar o‘zlarining hozirgi bilimlari asosida yangi g‘oyalar yoki tushunchalarni tuzadilar, degan tushunchaga asoslanib, tabiiy fanlar o‘quv dasturlarini spiralsimon o‘qitish asosida o‘zgartirishni boshlagan. Biz hozir amalda foydalanayotgan milliy o‘quv dasturi asosida tuzilgan tabiiy fanlar (Science) ham aynan konstruktiv yondoshuv asosida spiralsimon o‘qitishga qaratilgan.


Ausubel Mazmunli ta’lim jarayoni va o‘quvchining mavjud kognitiv rivojlanishi o‘rtasidagi bog‘liqlikni o‘rganib chiqdi, u o‘rganish yangi materiallar va o‘quvchilarning kognitiv tuzilishida mavjud bo‘lgan tegishli oldingi bilimlar o‘rtasidagi o‘zaro ta’sir orqali amalga oshiriladi, deb ta’kidlaydi. Mazmunli o‘rganish tushunish bilan o‘rganishdir.

Vygotskiy konstruktivizmga ta’limning ijtimoiy jihatini kiritdi. U “proksimal ta’lim zonasi”ni aniqladi, shunga ko‘ra, o‘quvchilar o‘zlarining o‘zlashtira olish va yechimini topa olish darajasidan yuqori bo‘lgan muammolarni yanada qobiliyatli tengdoshlari bilan hamkorlikda hal qilishadi.

XX asr pedagogikasi obyektivizm hukmron bo‘lgan o‘rganish nazariyasiga asoslanadi. Yaxshi tuzilgan ta’lim tizimi, o‘quv maqsadlari, o‘qituvchiga yo‘naltirilgan ta’lim, mashqlar bajarish va amaliyot, mustahkamlash, eslab o‘rganish va berilgan bilimlarni yodlash kabilar muhim xususiyatlar edi. Ta’limning maqsadi bilim va ko‘nikmalarni egallashi va o‘qituvchi faol va bilimlarni uzatuvchi, o‘quvchilar esa bilimlarni passiv qabul qiluvchilar edi.

Bugungi kunda ta’lim tizimida quyidagi: behaviorizm, kognitivizm, konstruktivizm va konnektivizm kabi yondoshuvlar mavjud bo‘lib (1-rasm), ushbu ming yillikda konstruktiv ta’lim o‘qitish va o‘rganishga samarali yondashuv sifatida paydo bo‘ldi. Konstruktivizmning asosiy vakillari Immanuel Kant, Ernst fon Glasersfeld, Jon Dyui, Mariya Montessori, Jan Piaget, Jerome Bruner va Lev Vygotskiy bo‘lib, bu sohada Lev Vygotskiy va Jan Piaget tomonidan amalga oshirilgan ishlar alohida e’tirof etiladi.

Hozirda Konstruktivizm uch turga bo‘linadi: kognitiv konstruktivizm, ijtimoiy konstruktivizm va radikal konstruktivizm (2-rasm). Dyui, Piaget va Vygotskiy tomonidan taqdim etilgan faktlardan kelib chiqqan holda, ta’limga konstruktivistik yondashuv o‘quvchilarning faol ravishda bilimlarni individual tarzda yaratishi, tahlil qilishi va qayta tashkil etishidir. Konstruktivizm Piagetning kognitiv rivojlanish nazariyasida va Vygotskiyning ijtimoiy-kontekst nazariyasida, shu jumladan, ikkalasining kombinatsiyasidan kelib chiqadi (3-rasm).




1-rasm. Ta’limda o‘rganish yondashuvlari

Ko‘pgina tadqiqotchilar konstruktiv ta’lim strategiyalari o‘quvchilarning o‘zaro hamkorlik munosabatlarini samarali qo‘llashi va natijalarga erishishi mumkinligini ko‘rsat-

di. Bugungi kunda bir qancha ta'lim tadqiqotchilari bilim qanday olinishini muhokama qilish o'rniga, ular qanday tuzilganligi haqida gapirishadi. Ushbu yondashuvga ko'ra, o'rganish dunyo bilan bog'liq tushunchani yaratishdir. Ta'lim o'z-o'zini boshqarish orqali amalga oshiriladi va o'qituvchilarning vazifasi bolaning o'rganishini osonlashtirish va yo'naltiruvchi sifatida harakat qilishni o'z ichiga oladi.

So'nggi yillarda butun rivojlangan yevropa hamda MDH mamlakatlarida o'qituvchilar malakasini oshirish bo'yicha qator tadqiqotlar olib borilmoqda. O'qituvchining malakasini oshirish o'qituvchilarning o'qitish usullarini o'zgartirishda va o'qituvchilarga yangi g'oya yoki innovatsiyaning shunchaki yuzaki xususiyatlarini tushunish emas balki, mavzuni chuqurroq tushunishga yordam berishda muhim rol o'ynaydi. O'qituvchilarning o'quv metodik tayyorgarligini rivojlantirish o'qituvchilarga yangi vazifalarni o'rganish, yangi o'qitish usullarini ishlab chiqish, o'z amaliyotini takomillashtirish va o'qituvchi sifatida o'z ilmiy hamda metodik bilimlarini kengaytirish imkoniyatlarini beradi.




2-rasm. Konstruktivizm turlari

O'qituvchilarning malakasini oshirishning an'anaviy va ilmiy paradigmasida o'qituvchilar odatda standart talablaridan kelib chiqib ishlab chiqilgan o'quv dasturini va o'qitish tartib qoidalarini amalga oshiradigan byurokratlar sifatida qabul qilinadi. Ushbu paradigma o'quv rejasi va ta'lim o'qituvchi tomonidan belgilab qo'yilgan kichik, ketma-ket bosqichlarga bo'lingan holda o'rganishning xulq-atvor (behaviorizm) nuqtai nazariga mos keladi. O'qituvchilarning e'tiqodlari, amaliyotlari va munosabatlari ta'lim jarayonlarini tushunish va takomillashtirish uchun juda muhimdir. Munosabatlar o'qituvchilarning kundalik kasbiy hayotidagi qiyinchiliklarga qarshi kurashish strategiyalari va ularning umumiy farovonligi bilan chambarchas bog'liq bo'lib, ular o'quvchilarning o'quv muhitini shakllantiradi hamda o'quvchilar motivatsiyasi va yutuqlariga ta'sir qiladi.

Piaget va Vygotskiy nazariyalari kombinatsiyasi.

- Biz hayotiy tajribalar va o`zaro hamkorlikda ishlash orqali o`rganamiz
- O`quvchilar ta'lim jarayoni faol ishtirokchilaridir
- Tadqiqot o`tkazish va kashfiyot qilish
- O`quvchilar yangi ma'lumotlarni o`qituvchi yordamida topadi
- Kognitiv rivojlanishga e'tibor berish
- Til bizning taraqqiyotimizda muhim rol o'ynaydi.



3-rasm. Piaget va Vygotskiy konstruktivizm nazariyalari kombinatsiyasi

Turli tadqiqotlarda o‘qituvchilarning mehnatga munosabati, o‘qituvchilik kasbiga munosabati yoki o‘qituvchining ta’limga munosabati o‘qituvchilarning o‘qitish qobiliyatiga va o‘quvchilarning o‘rganish qobiliyatiga munosabatini bildiradi, ba’zan esa o‘qituvchining samaradorligi deb ataladi. Ijobiy munosabat samarali o‘qitish uchun asos bo‘lib, munosabatlar ob’yektga javob berishga o‘rganilgan moyillik sifatida qaraladi. Shu sababli, mohiyat o‘qituvchilarning o‘quv metodik tayyorgarligini rivojlantirish asosida o‘qituvchilik mahoratiga ega bo‘lishidir, ular o‘rganuvchilarga o‘qituvchilik kasbi va konstruktivistik yondashuv bo‘yicha o‘z ma’lumotlarini shakllantirishga yordam beradi. Konstruktiv ta’lim muhiti o‘qituvchilar va o‘quvchilarni diagnostika va tadbirlarni rejalashtiruvchi bo‘lishga tayyorlashi kerak.

O‘qituvchi konstruktiv ta’lim orqali bolalarni o‘zlarining mavjud bilimlarini tanqidiy tahlil qilishga va nima bo‘layotganini so‘rashga undaydigan vaziyatlarni o‘rnatish orqali kognitiv nomutanosiblikni rivojlantirishga intiladi. Bolalar oldingi tushunchalariga asoslanib, vaziyat haqida bashorat qilishga harakat qilishadi. Bu bashoratlar ish bermasa, bolalar avvalgi bilimlarini qayta ko‘rib chiqadilar. Konstruktivistik yondashuvda o‘qituvchi o‘quvchilarni kognitiv imkoniyatlarini kengaytirishga undashda ajralmas rol o‘ynaydi.

Ta’lim sohalarida konstruktivizm hamkorlikdagi ta’lim, muammoli ta’lim, loyihaga asoslangan ta’lim, tadqiqot o‘tkazish va izlanish hamda boshqa ta’lim modellari kabi ko‘plab ta’lim modellarini ishlab chiqishning falsafiy asosi sifatida qaraladi.

‘‘Men hech qachon o‘quvchilarimga o‘rgatmayman, men faqat ular o‘rganishlari mumkin bo‘lgan shart-sharoitlarni ta’minlashga va osonlashtirishga harakat qilaman ...’’ , Albert Eynshteyn.

Konstruktivist o‘qituvchining roli o‘qituvchilardan fasilitatorga sezilarli darajada o‘zgaradi, fasilitatorlar o‘quvchilarga konstruktiv muhit yaratish va bu muhitni boshqa-

rish uchun bir nechta ko‘nikmalarga ega bo‘lishi kerak. Uning roli “markazdagi donishmand” emas, balki “yon tomondagi boshqaruvchi” kabi bo‘ladi. O‘qituvchi bilishi kerakki, “bir o‘lcham hammaga to‘g‘ri kelmaydi” shunga mos ravishda muammoni hal qilish, hamkorlikda o‘rganish, izlanish va tadqiqot o‘tkazishga asoslangan, so‘rovga asoslangan ta’lim, kvestlar, faoliyatga asoslangan ta’lim strategiyalari kabi turli xil o‘qitish strategiyalari kerak. O‘quvchilarning turli ehtiyojlariga qarab ishlab chiqilishi, tabaqalashtirilgan ta’limdan foydalanishi kerak, chunki o‘quvchilarning egallagan oldingi bilimlari, qarashlari, o‘zlashtirish darajalari va boshqalar turli darajada bo‘ladi. Ta’limni muammoni hal qilish uchun boy, hayotiy va tabiiy muhit bilan birlashtirish kerak. Bu yerda o‘qish va o‘rganish mas’uliyati faqatgina o‘quvchilarga yuklanmaydi. Xuddi shunday mas’uliyat o‘qituvchilarga ham yuklanadi. O‘qituvchi aytadi, fasilitator so‘raydi; o‘qituvchi old tomondan ma’ruza qiladi, fasilitator orqa tomondan qo‘llab-quvvatlaydi; o‘qituvchi belgilangan o‘quv rejasiga muvofiq javob beradi, fasilitator ko‘rsatmalar beradi va o‘quvchining o‘zi xulosa chiqarishi uchun sharoit yaratadi; o‘qituvchi monolog asosida dars o‘tadi, fasilitator o‘quvchilar bilan uzluksiz muloqotda va hamkorlikda bo‘ladi. Konstruktiv o‘qituvchi butun sinfni dars davomida o‘quvchilarni baholashi kerak; doimiy va har tomonlama baholash bo‘lishi kerak. O‘quvchiga muammo va uni hal qilish jarayoniga egalik qilishi o‘quvchini mustaqil fikrlovchi, tabiiy savodxon bo‘lib yetishishida qo‘llab-quvvatlashdir.

Bugungi kunda XXI asr o‘qituvchilari o‘z faoliyatining asosiy qismini ta’limga bag‘ishlashlari kerak. Ushbu shiddat bilan rivojlanayotgan fan texnologiyalari sharoitida o‘qituvchilar o‘quv metodik tayyorgarligi doimiy rivojlantirib borilmasa, bir necha yil o‘tgach, bilim va o‘qitish qobiliyatlari ma’lum darajada eskirib zamon talabi darajasidan orqada qoladilar. Ta’lim tizimidagi har qanday o‘zgarish o‘qituvchilar ta’limining o‘quv dasturiga tegishli tuzatish kiritishni talab qiladi, shuning uchun o‘qituvchilar ta’limining o‘quv dasturlarini yangilash doimiy jarayon sifatida rejalashtirilishi kerak va o‘qituvchilar ta’limining o‘quv rejasi aniq belgilanishi kerak. O‘qituvchilarning malakasini oshirish doimiy ravishda ta’limda bo‘layotgan o‘zgarishlarga moslashishi va malaka oshirish tashkilotlari hamda maktab ta’limidagi amaliyot o‘rtasida tafovut bo‘lmasligi kerak. Ya’ni, “Kattalar ta’limi” o‘quv dasturi maktab ta’limining o‘quv dasturiga mos bo‘lishi kerak. O‘qituvchi umumta’lim maktablarida yuzaga keladigan ehtiyoj va talablarga muvofiq tayyorlanishi, pedagogik bilimi, o‘quvchi va o‘quv jarayoni bilan shug‘ullanishi kerak. Maktab ta’lim tizimi tomonidan o‘qituvchidan kutadigan talablari vaqti-vaqti bilan o‘zgarib turadi, bu o‘zgarish jamiyatda sodir bo‘layotgan ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy o‘zgarishlarga bog‘liq bo‘ladi.

O‘rganilgan adabiyotlar tahlili asosida rivojlangan davlatlar tajriba natijalariga tayanib shuni xulosa qilish mumkinki, oldingi tajribalar asosida bilimlarni faol qurish, munozarada qatnashish, mulohaza yuritish, hayotiy topshiriqlar asosida o‘rganish, tadqiqot topshiriqlari va loyihalarini bajarish kabi konstruktiv amaliyotlar ta’lim natijalariga erishishga ta’sir ko‘rsatadi. Tabiiy fanlar (Science) o‘qituvchilarining konstruktivistik amaliyotga munosabati ko‘pincha o‘qituvchining dars va adabiyotlarni o‘quvchilar ehtiyojlarini qondirish uchun moslashtirishda yordamchi rolini ta’kidlaydi. Bunday yondashuv o‘quvchilarning bilimlarni qurishdagi faol rolini kuchaytiradi va o‘quv faoliyati davomida passiv subyekt faol subyektga aylanadi. Konstruktiv yondashuv an’anaviy o‘qitishdan o‘quvchiga yo‘naltirilgan o‘qitishga o‘tish imkonini beradi va o‘qituvchilarning ushbu turdagi o‘qitishni amalga oshirishga munosabati ijobiydir. Konstruktiv yon-

dashuv o‘quvchilarning axborotni hayotiy vaziyatlar bilan bog‘lashda faol ishtirok etishlari, hamkorlik qilishlari, tadqiqot topshiriqlari va loyihalari ustida guruhlarda ishlashlari, o‘quvchilarga o‘z g‘oyalari va nuqtayi nazarlarini ifodalashlari uchun o‘rin berishlari hamda muammolarni yechishlari uchun keng imkoniyatlar yaratdi. Ushbu xulosalarning barchasini hisobga olgan holda konstruktivistik yondashuvni amalga oshirishda konstruktiv ta’lim uchun qulay muhit yaratish va ularning ehtiyojlarini qondirish uchun tabiiy fanlar (Science) o‘qituvchilarini tayyorlash va malakasini oshirish tavsiya etiladi. Bu o‘qituvchilarning bilimlarini oshirish uchun konstruktivistik strategiyalar bo‘yicha seminarlar tashkil etish va o‘qituvchilar malakasini oshirishni, malaka oshirish o‘quv dasturlariga konstruktiv yondoshuvni singdirishni o‘z ichiga oladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Kim J. (2016). Development of a global lifelong learning index for future education. Asia Pacific Education Review 17 (3), 439-463. DOI:10.1007/s12564-016-9445-6.

2. Buckner E. (2016). The changing discourse on higher education and the nation-state, 1960 – 2010. Higher Education 74 (3), 473-489. DOI:10.1007/s10734-016-0056-2.

3. Palmaru R. (2016). Constructivism as a key towards further understanding of communication, culture and society. Constructivist Foundations 12 (1), 30-38.

4. Jonassen D. (1991). Objectivism versus constructivism: do we need a new philosophical paradigm? ETRandD 39 (3), 5-14.

5. Yalavarthi Nirmala (2016). Constructivist Approach to Teaching of Science. The American Journal of Science and Medical Research, 2(1):246-249. doi:10.17812/ajsmr2016215.

6. Ling L Liang (2005) Effectiveness of a Constructivist Approach to Science Instruction for Prospective Elementary Teachers. International Journal of Science Education Vol 27, No. 10, 19 August 2005, pp. 1143–1162.

7. Anagün Ş.S. (2018). Teachers’ perceptions about the relationship between 21st century skills and managing constructivist learning environments. International Journal of Instruction, 11(4), 827. http://dx.doi.org/10.12973/iji.2018.11452a.

8. Retnawati H. (2020). A meta-analysis of constructivism learning implementation towards the learning outcomes on civic education lesson. International Journal of Instruction, 13 (2), 835-846.

9. Shah R.K. (2019). Effective constructivist teaching: Learning in the Classroom. Online Submission, 7(4), 1-13.https://doi.org/10.34293/.

Madinabonu TAIROVA,
Andijon davlat pedagogika instituti v.b. dotsenti, PhD

BO‘LAJAK TARBIYACHILARNI MUTAXASSISLIKKA TAYYORLASHDA ZAMONAVIY DIDAKTIK VOSITALARDAN FOYDALANISH

Annotatsiya

Ushbu maqolada bo‘lajak tarbiyachilarni mutaxassislik fanlarini zamonaviy didaktik vositalar asosida o‘qitish va gumanitar bilim sohalarini takomillashtirish hamda oliy ta’lim muassasasi maktabgacha ta’lim yo‘nalish talabalari, ya’ni bo‘lajak tarbiyachilarni kasbiy faoliyatga tayyorlashda didaktik imkoniyatlarini zamonaviy ta’lim asosida o‘qitishni takomillashtirish to‘g‘risida so‘z boradi.

Kalit so‘zlar. Kasbiy faoliyat, kasbiy kompetensiya, pedagogik kompetensiya, aks ettirish qobiliyatlari, kasbiy jozibadorlik, kasbiy javobgarlik.

В данной статье речь пойдет о совершенствовании обучения будущих воспитателей специальным предметам на основе современных дидактических средств и совершенствовании гуманитарных знаний, а также дидактических возможностей студентов дошкольного образовательного направления высшего учебного заведения, то есть будущих воспитателей, в подготовке к профессиональной деятельности.

Ключевые слова. Профессиональная деятельность, профессиональная компетентность, педагогическая компетентность, рефлексивные навыки, профессиональная привлекательность, профессиональная ответственность.

This article will focus on improving the training of future educators in special subjects on the basis of modern didactic tools and improving humanitarian knowledge, as well as the didactic capabilities of students of the preschool educational direction of a higher educational institution, that is, future educators, in preparation for professional activity.

Key words. Professional activity, professional competence, pedagogical competence, reflexive skills, professional attractiveness, professional responsibility.

O‘zbekiston kelajak avlodlarining sog‘lom o‘sishlari bilan birgalikda ularni barcha sohada yetuk, bilimdon bo‘lib ulg‘ayishlari uchun pedagog-tarbiyachilarni o‘rni beqiyos.

Shunga ko‘ra, oliy ta’lim muassasasi maktabgacha ta’lim yo‘nalish talabalari, ya’ni bo‘lajak tarbiyachilarni kasbiy faoliyatga tayyorlashda didaktik imkoniyatlarini zamonaviy ta’lim asosida o‘qitishni takomillashtirish kunning muhim masalalaridandir. Ya’ni vertual ochki yordamida bo‘lajak tarbiyachilarni mutaxassislik fanlaridan har bir mavzusiga mos media dastur yaratish va dasturiga joylashni maqsad etib olindi. Vertual ochki – bu inglizcha VR vertual reality so‘zidan olingan bo‘lib, sun’iy reallik, texnik vositalar yordamida insonlarning sezgi organlari: ko‘rish, eshitish, teginish va boshqalar orqali uzatiladigan ma’lumotlar hisoblanadi.

Haqiqat tuyg‘ularining ishonchli to‘plamini yaratish uchun real vaqt rejimida virtual haqiqat husususiyatlari va reaksiyalarining kompyuter sintezini amalga oshiradi. Vertual haqiqat (VR) – bu kompyuter texnologiyalari yordamida modellashtirilgan dunyo, unga foydalanuvchi maxsus sensorli qurilmalar yordamida o‘zini singdirishi mumkin.

Vertual ochki texnologiyalari XX asrning 60-yillaridagi birinchi tajribalardan zamo-

naviy vertual haqiqat dubulg‘alariga qadar uzoq yo‘lni bosib o‘tdi va rivojlanishda davom etmoqda. Bo‘lajak tarbiyachilarni mutaxassislik fanlarini har bir mavzusiga mos 3D, 7D ishlanma ko‘rinishida elektron dasturini vertual ochkiga solish, innovatsion tarzda ta’limni takomillashtirish uchun samarali didaktik vosita hisoblanadi.

Vertual ochki yoki VR virtual reality (bundan buyon VR nomlanadi) VR-dan foydalanishning muvaffaqiyatli misollaridan: Yelskom (AQSh) universitetida o‘t pufagida jarrohlik operatsiyasini bajarish uchun VR treningi sinovdan o‘tkazildi. VR-dan foydalangan guruh 29 foiz tezroq va 6 karra xato qilish ehtimoli kamayganligi o‘z isbotini topdi. Bu muvaffaqiyatli natija demakdir.

Pekinda o‘quvchilarni ikki guruhga bo‘lib, ta’lim jarayoni tekshirildi. Birinchi guruh klassik usul yordamida, ikkinchi guruh esa VR yordamida o‘qitilgan. Tajriba so‘ngida test sinovi o‘tkazildi. Birinchi guruhda 73 foiz, ikkinchi guruhda esa 93 foiz ijobiy natija bo‘ldi. VR guruhi mavzuni chuqurroq tushunishini ko‘rsatdi va o‘z bilimlarini yaxshiroq ko‘rsata olgani isbotlandi.

Google korporatsiyasi bir necha yillardan buyon dunyo attraksionlarining vertual sayohatlarini yaratish ustida ish olib bormoqda. Masalan, 2019-yil oxirida ‘‘Versal’’ saroyiga virtual sayohat boshlandi, buning uchun 132000 fotosurat yaratildi. AQSh va Yevropa mamlakatlari ta’limda virtual haqiqatni joriy etishda yetakchi bo‘lib qolmoqda. Lekin Rossiya ham bu borada zamon bilan hamnafas bo‘lishga intiladi. 2018-yildan beri bir qator yirik ta’lim VR loyihalari boshlandi:

‘‘Ta’lim-2024’’, ‘‘Raqamli Maktab’’, ‘‘Zamonaviy raqamli ta’lim muhiti’’, ‘‘Rossiya Federatsiyasining raqamli iqtisodiyoti’’ abi loyihalar yaratildi. ‘‘Raqamli maktab’’ loyihasi eng shijoatli loyihalardandir.


Yuqorida tavsiflangan ma’lumotlardan kelib chiqib, ushbu ilmiy loyiha ta’lim jarayoniga tadbiq etish samarali ekanligidan dalolat beradi. Amaliy qo‘llash natijasida bir qancha qulaylik va ta’lim samaradorligini yuqori ko‘rsatkichga olib keladi.



Standalone

VR-dubulg‘a – bitta protsessor barcha zarur texnik komponentlarini o‘z ichiga oladi (Markaziy ishlash birligi) va grafik protsessor ko‘rsatadi.

Ushbu dubulg‘alar juda mashhurlikka erishdi, chunki ular juda arzon va ulardan foydalanish qulay hisoblanadi.



Virtual Haqiqat dubulg‘asi HTC Vive

Ular quyidagilar:

– mutaxassislarda pedagogik faoliyat hissini shakllantirish uchun ijtimoiy-gumanitar sohaga oid bo‘lgan fanlarni chuqurlashtirib o‘qitish;

– kasbiy fanlar bilan bog‘liq bo‘lgan mustaqil ta’lim mazmuniga didaktik tizimini o‘zlashtirishga oid mavzularni kiritish;

– aksiologik madaniyatni tarkibiy qismi sifatida “ kasbiy va shaxsiy pedagogik faoliyat”, “qadriyatlarga nisbatan ijobiy munosabat” va “kasbiy e‘tiqod” tushunchalari mazmunini izohlash hamda talabalar ongiga singdirish;

– darsning turli shakllari mazmunida aksiologik yondashuvlardan foydalanish masalalariga alohida e‘tibor qaratish va mutaxassislarning akciologik madaniyatini shakllantirishga oid trening va anjumanlar o‘tkazib borishni yo‘lga qo‘yish.

Quyidagi mexanizmlar yordamida aksiologik madaniyatga ega pedagogik faoliyatli mutaxassis shakllantiriladi:

Sharq mutafakkirlari qarashlarida pedagogik faoliyatni shakllantirish muammosi har bir inson uchun, jamiyat taraqqiyoti va farovonligi, ayniqsa, ustoz-murabbiylarning farzandlar tarbiyasidagi faoliyatining muhim sharti ekani haqidagi g‘oyalar ilgari surilgan.

Pedagogik oliy ta’lim muassasalari mutaxassislarining faoliyatiga doir qadriyatlar: muallim va murabbiylarni mehnat qilishga undash, egallab turgan kasbiga pedagogik faoliyatli bo‘lishi, dars o‘tish san’ati, mahorati, ilmiy va innovatsion faoliyati, muloqotchanligi hamda xulqidagi ijobiylik kabilar kasbiy faoliyatga tayyorlashda zamonaviy yondashuv mazmunini aks ettiradi.

Tadqiq etilayotgan muammo yuzasidan o‘quv dasturlarini o‘rganib, tahlil qilish natijasida berilgan taklif va tavsiyalarimiz oliy ta’limda mutaxassislik bo‘yicha o‘qitilayotgan qator fanlar mazmunini boyitishga xizmat qildi (“Maktabgacha ta’limda komparativistik pedagogika”).

Tadqiq etilgan ma’lumotlardan ta’limiy jarayonda foydalanishda bir qator texnologiyalardan (shaxsga yo‘naltirilgan, muammoli va modulli ta’lim texnologiyalaridan) foydalanildi. Xususan, muammoli ta’lim metodini qo‘llash jarayonida talabalarning bir-birlarini qo‘llab-quvvatlashlari, faolligi, erkinligi va o‘z mustaqil fikriga tayanishlariga e‘tibor qaratildi. Muammoli vaziyatlar havola etish orqali talabalarning yuqorida keltirilgan jihatlari baholandi.

1-vaziyat: milliy pedagogikani singdirilgan zamonaviylik ta’minlangan hozirgi sharoitda kasbiy muhim sifatlaridan biri bo‘lgan pedagogik vazifalar asosida shakllantirishga kengroq e‘tibor qaratilsa, yanada yuqori natijalarni qo‘lga kiritish mumkin.

2-vaziyat: aksiologik meroslar o‘z ichiga insoniyat tomonidan yaratilgan barcha ma’naviy, moddiy, ilmiy, diniy, badiiy va shu bilan birga zamonaviy didaktik o‘qitish vositalarini qamrab oladi hamda uzoq yillik tarixiy davrlarda ta’lim-tarbiya sohasida egallangan tajribalar ayni kunda pedagogik jarayonda yuqori o‘rinda turadi. Bu boradagi bilimlaringizni qanday baholaysiz? O‘zingizda dars jarayonida zamonaviy didaktik o‘qitish vositalardan foydalanish ko‘nikmasi qay darajada shakllangan, deb o‘ylaysiz? Didaktik jarayondalardan foydalanishning ahamiyatini baholang.

3-vaziyat: kasbiy sifatlarni shakllantirishda bo‘lajak tarbiyachilarni mahoratli ustozlarga biriktirish, ularning tajribasi asosida berilgan ko‘rsatmalar, takliflariga muvofiq amaliy ko‘nikmalarni va kasbiy malakalarni ortishida asosiy omil ekani isbotlandi. Bunday vaziyat kasbiy faoliyatni kreativ tashkil etish imkonini beradimi? Ular tayyor ko‘rsatmalarni bajaruvchi shaxsga aylanib qolmaydimi?

Tadqiqot davrida interfaol ta’lim metodlaridan ham foydalanildi.

Interfaol ta’lim metodlaridan Andijon davlat pedagogika instituti maktabgacha ta’lim yo‘nalishi talabalariga “Maktabgacha ta’limda komparativistik pedagogika” fanining pedagogik tizimlarni taqqoslash texnologiyasi va tadqiq qilish bosqichlarining didaktik imkoniyatlarini o‘quv-tarbiya jarayoniga tatbiq etish” nomli 2-modulni o‘qitishda foydalanildi. 201-guruhda o‘tkazilgan mashg‘ulot namuna sifatida keltiriladi va quyidagi reja asosida o‘qitilib boriladi:

1. Pedagogik tizimlarni taqqoslash texnologiyasi va tadqiq qilish bosqichlari.

2. “Maktabgacha ta’limda komparativistik pedagogika” fanining dolzarbligi, maqsadi va vazifasi asoslari tushunchalari bilan tanishtirish orqali tarbiyachi faoliyatiga oid ko‘nikma va malakalarini shakllantirish.

3. Komparativistik pedagogikada tadqiqotlar tipologiyasi va oliy o‘quv yurtlarida (OTM) ta’lim variativligi.

Yuqoridagi rejalarini har biriga ma’lumotlar yig‘ildi va jamlab, mavzuga mos animatsion rasmlar to‘planildi. Olib borilgan dars mashg‘ulotlari an’anaviy dars mashg‘ulotlaridan farqli o‘laroq zamonaviy didaktik vositalarni dastur asosida olib borganimizda talabalarning barchasi qiziqish va ishtiyoq bilan tinglagani namoyon bo‘ldi. Demak, bu nafaqat maktabgacha ta’lim talabalariga, balki, barcha yo‘nalish talabalarining mutaxassislik o‘qitish fanlari uchun tadbiq qilish zarur ekanligini ko‘rsatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Tairova M. Metodika fanlarini o‘qitish texnologiyasi. Darslik. – T., – 2023 y. – 320 b.

2. Tairova M. Bo‘lajak tarbiyachilarni bolalarda matematik tasavvurlarni rivojlantirish bo‘yicha kasbiy tayyorlash jarayonlarini takomillashtirish”. Monografiyasi. – 2022 y. – 100 b.

3. https://codemaker 2016.medium.com/introduction-to-virtual-reality-vr-2dc55f-5f0f51

4. https://gitjournal.tech/ochki-virtualnoj-realnosti-gde-oni-ispolzujutsja-i-kak-rabotajut/

Nilufar KADIROVA,
ToshDO‘TAU mustaqil tadqiqotchisi
“Temurbeklar maktabi” HAL o‘qituvchisi

O‘QUVCHINING TANQIDIY TAFAKKURINI RIVOJLANTIRISHDA YANGICHA YONDASHUV TAJRIBASI

Annotatsiya

Adabiy ta’limda o‘quvchilarning tanqidiy tafakkurini rivojlantirish bugunning dolzarb vazifalaridan biridir. Ushbu maqolada konstruktivistik ta’limga asoslangan interfaol metodlar orqali kitobxon tanqidiy tafakkuriga rag‘bat beradigan usullardan birining qo‘llanishi, vazifalari va natijalari to‘g‘risida fikr yuritiladi.

Kalit so‘zlar. Tanqidiy tafakkur, adabiy ta’lim, o‘quvchi-faol, Eydos-konspekt, konstruktivistik yondashuv, faol jarayon.

Развитие критического мышления учащихся в литературном образовании является одной из актуальных задач современности. В данной статье рассматриваются применения, задачи и результаты одного из методов стимулирования критического мышления читателя через интерактивные методы, основанные на конструктивистском образовании.

Ключевые слова. Критическое мышление, литературное образование, студенческий актив, Эйдос-резюме, конструктивистский подход, активный процесс.

The development of students’ critical thinking in literary education is one of the urgent tasks of our time. This article discusses the application, objectives and results of one of the methods of stimulating the reader’s critical thinking through interactive methods based on constructivist education.

Key words. Critical thinking, literary education, student asset, Eidos resume, constructivist approach, active process.

Bugungi kunda adabiyot darslarida o‘quvchining tanqidiy tafakkurini rivojlantirishda zamonaviy ta’lim usullaridan foydalanish dolzarb vazifalardan biriga aylangan. Bunda adabiyot o‘qituvchilaridan katta izlanish, yangicha ta’lim texnologiyalarini, jahon pedagogikasining ilg‘or usul va yondashuvlarini o‘rganib, darslarda qo‘llab ko‘rish talab etiladi. Zero, yosh avlodni mustaqil izlanadigan, voqelikni real anglab, xolisona fikr bildiradigan, unga tanqidiy baho bera oladigan, har qanday hayotiy vaziyatlarga yangicha “original” yechim topa oladigan, o‘quvchilarni o‘z hayotiy pozitsiyasiga ega qilib tarbiyalash zamonaviy adabiy ta’limning maqsadlaridan biridir. Bugungi kunda axborotlar miqyosi kengayib borayotgan bir pallada o‘quvchini adabiyot darslarida badiiy asarni tahlil qilishga chorlash, qiziqtirishda konstruktivizm yondashuviga asoslangan interfaol metodlardan, turli gadjet va qulay texnik vositalardan mohirlik bilan foydalanish ta’lim sifati uchun ahamiyatlidir. Demak, adabiyot darslarida an’anaviy ta’limdan shaxsga yo‘naltirilgan ta’limga o‘tish tanqidiy fikrlovchi, o‘z intellektual imkoniyatlari orqali yangi g‘oyalarini kashf etish va hayotga tatbiq etishga intiluvchi, muammolarni yechishdagi qarorlarini mantiqiy va amaliy jihatdan to‘g‘riligiga tengdoshlarini ishontirish quvvatiga ega yoshlarni tarbiyalash imkonini beradi.

Kitobxonning intellektual qobiliyati, intilishi va tashabbuskorligiga asoslangan konstruktivistik yondashuv masalasi jahon psixolog, faylasuf va pedagoglari qatori mil-

liy metodikamizda ham tadqiq etilayotgan mavzulardan biridir. Garchi, konstruktivizm mohiyatiga yaqin, insonning yangi bilimlari o‘zining oldin egallangan bilim va tajribalari orqali kashf etishi haqidagi qarashlar Muso al-Xorazmiy, Abu Nasr Forobiy, Abu Ali ibn Sino, Abu Rayhon Beruniy kabi Sharq allomalarining ilmiy izlanishlarida aks etgan bo‘lsa, bugungi kunda metodist olimlarimizning izlanishlarida ham tadqiq etilmoqda. Konstruktivizm yondashuviga interfaol usullarning falsafiy metodologik negizi sifatida ustoz Q.Yo‘ldoshev o‘z qarashlarini “Adabiyot o‘qitish metodikasi” (2022-yil) darsligida, adabiyotshunos olima, ustoz Z.Mirzayevaning “Adabiyot o‘qitish metodikasi (an’anaviylikdan zamonaviylikka)” uslubiy qo‘llanmasida (2020-yil) o‘qish – konstruktiv jarayon sifatida izohlanib, kitobxonning badiiy asardan “yangi asar” yaratishi, kashf etishi o‘quvchilarning tafakkuri, tajribasi, qolaversa, tashabbusiga asoslanishi haqidagi qarashlarini bayon etgan. Rus tadqiqotchilardan A. Poberejniy, F.N. Kozirev, A.A. Gorbachyova, pedagog N.P. Shatalovalarning maqolalari hamda xorijiy olimlardan: M.Magirius, Ernst fon Glazersfeld, S. Gatt, L.J. Turnerlarning tadqiqotlarida o‘quvchi konstruvistik ta’limning subyekti sifatida bilimlarni mustaqil ravishda o‘zi yoki boshqalar bilan munosabatlarda qurishi asosida yuzaga kelishini ta’kidlaydilar.

Bugun Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasining asosiy vazifalaridan biri bo‘lmish ta’limni rivojlantirish o‘qituvchi oldiga o‘qitish metodikasini takomillashtirish, zamonaviy va ilg‘or tendensiyalarni tatbiq etish vazifasini qo‘ymoqda. Bu esa zamonaviy avlod ta’limi va tarbiyasida g‘oyatda muhimdir. Ayniqsa, adabiyot fanini o‘qitish tajribasini dunyo adabiy ta’limi tajribasida samarali bo‘lgan, shuningdek, bizning milliy an’analarimizga mos keladigan g‘oyalar bilan to‘ldirishni taqozo etmoqda. ‘‘Endilikda faqat o‘qituvchining talanti va mahorati emas, balki ta’lim mazmunining strukturasi hamda pedagogik muhit va sharoitning uyushtirilishi, ilg‘or usullarni qo‘llash orqali o‘qitishning samaradorligini ta’minlashga erishish asosiy maqsad sifatida belgilanmoqda”.

Yuqorida ta’kidlab o‘tilganidek, ta’lim mazmuni, pedagogik muhit hamda ilg‘or usullarning joriy qilinishi bugungi kun o‘quvchisini mustaqil fikr, tanqidiy tafakkur egasi qilib tarbiyalashga xizmat qiladi.

Adabiyot darslarida badiiy asarni o‘qish bosqichidan uni uqishigacha, bo‘lgan badiiy g‘oyaviy zalvori, xususiyatlari va badiyatini idrok etishgacha bo‘lgan jarayonlar o‘rganuvchidan va ayni damda o‘rgatuvchidan ham jiddiy mehnat, yuksak badiiy didni talab qiladi.

Xo‘sh, adabiyot darslarida shaxsning tanqidiy fikrlash iqtidorini yuzaga chiqarishda qanday zamonaviy yondashuvlar samarali bo‘ladi?


Avvalambor, o‘qituvchi darsda badiiy asar mutolaasini faol jarayonga aylantirishi lozim. “Faol jarayon o‘quvchi va matnning bir-biriga o‘zaro ta’siriga asoslanadi va har qanday badiiy asardan kitobxonlar o‘z tafakkur sarhadi, dunyoqarashi, hayotiy tajribasi, avvaldan mavjud bilimlari va badiiy asarni o‘qiyotgan paytdagi ruhiy-emotsional holatidan kelib chiqib, shaxsiy talqinlarini yaratadi”. Har bir insonning egallashi lozim bo‘lgan bilimlari shu paytga qadar o‘zlashtirilgan bilim, malaka, ko‘nikma, bir so‘z bilan aytganda, hayotiy tajribalari asosiga qurilishini ifodalovchi konstruktivizm yondashuvi o‘quvchiga tafakkur jihatidan erkinlik beradi. O‘quvchi(retsipiyent)ning badiiy asar idroki qolipga solinmay, o‘zining xulosa chiqarishi va mustaqil tarzda hayotiy haqiqatni kashf etishiga imkon beradi. Zero, “o‘quvchiga tayyor bilimlar berilmay, DTS talablari asosida dasturda o‘rganishga taqdim etilgan bilimlarni o‘z mehnati bilan o‘zlashtirishiga ergashish maqsadga muvofiqdir”.

Adabiyot darslarida badiiy asar qahramonlariga tanqidiy baho berish ko‘nikma-

sini shakllantirish asarni o‘qish, obrazlarning xarakter xususiyatlari va voqealardagi harakatlarini o‘rganish jarayonida shakllanib boradi. Fikrimizni 7-sinf yangi avlod Adabiyot (7-sinf uchun darslik / Z.I. Mirzayeva, K.Q. Djalilov. – Toshkent: Respublika ta’lim markazi, 2022.) darsligida berilgan Qamchibek Kenjaning “Baliq ovi” hikoyasi tahlilida qo‘llangan usullardan biri bilan izohlaymiz. Darsni tashkil etishda guruhlarga bo‘linib ishlash maqsadga muvofiq bo‘ladi. Kichik loyiha ishi sifatida hikoyadagi qahramonlar va voqelikka munosabat aks ettirilgan “Eydos-konspekt” yaratish topshirig‘i o‘quvchilarning mustaqil aqliy faoliyat ko‘rsatishiga, shaxsiy fikrlash tajribasining ortishiga, asar voqealaridan ta’sirlanish sur’atini aniqlashga xizmat qiladi.


“Eydos-konspekt(EK) – asardagi iqtiboslar asosida o‘z obrazlarini yaratish bilan birga matnning obrazli tasviri natijasida vujudga kelgan fikr-mulohaza va mushohada”.

Eydos konspekt(EK) o‘quvchining badiiy asar voqealaridan ta’sirlanishi natijasida yuzaga kelgan taassurotlarining aksi, kitobxon qarashlarining tasvirli ko‘rinishi, asarning kitobxon kashf etgan topilmasi, tasvir va obrazli mulohazalarining uyg‘un holatdagi namunasi, ijodiy-badiiy talqinidir. O‘qilgan asarning g‘oyasi, adabiy qahramoni, badiiy dunyosini assotsiativ namunasi sifatida kitobxon javobini belgilab beradi. Kitobxon o‘z tafakkur sarhadi, dunyoqarashi, hayotiy tajribasi, avvaldan mavjud bilimlari va badiiy asarni o‘qiyotgan paytdagi ruhiy-emotsional holatidan kelib chiqib shaxsiy talqinlarini yaratadi. Bu usulning o‘ziga xos xususiyati shundaki, talqinlar faqat so‘z yordamida emas, tasvir, diagramma, ranglar yoki asarda o‘quvchi muhim deb hisoblagan kalit so‘zlar, jumlalar vositasida ifodalanishi mumkin. Quyida maktab o‘quvchilarining “Baliq ovi” hikoyasi asosida yaratgan eydos-konspektlarida kitobxon-o‘quvchilar orasida xilma-xil talqinlarni kuzatish mumkin. Bu jarayonda o‘quvchilar e’tibori hikoya qahramonlari, ularning tutumlariga tanqidiy baho berishga asos bo‘la oladigan dalillarga qaratiladi. Yaratilgan ijodiy ishlarda ayrim hollarda o‘quvchilar orasida o‘zaro munozaraga sabab bo‘ladigan fikrlarga ham duch kelish mumkin. Hikoya qahramoni bo‘lmish Komilning fojiali o‘limida kimdir Bo‘ronbek akani ayblasa, ba’zi hollarda “baliqxo‘r kishi”ni, hatto Komilbekning onasini ayblaydigan holatlar uchraydi. Shu tariqa, o‘quvchilar aniqlangan dalillar va chiqarilgan hukmlarni o‘zaro qiyoslaydilar.



1-rasm. Mirza Kenjabekning “Baliq ovi” hikoyasi asosida 1-guruh Eydos-konspekti

Birinchi guruh loyiha ishida o‘quvchilar hikoyaga turli rakursdan nigoh tashlab, hikoyadagi fojiaga nisbatan fikr-mulohazalarini ifodalagan. Guruh a’zolari do‘ppi timsolida aks ettirilgan o‘zbek xalqiga xos haddan tashqari mehmondo‘stlik, obro‘-mansabni saqlab qolish uchun majbur bo‘lgan ota va nafs bandasiga aylangan “baliqxo‘r kishi” obrazlarini Komiljonning erta hayotdan ko‘z yumishiga sabab bo‘lgan timsollar, deb belgilashgan. O‘quvchilar hikoyadagi voqeadan ta’sirlangani, qattiq ruhiy hayajonga tushganini obrazli tasvirlarni shisha siniqlarida aks ettirishga uringan. Komilning o‘limida otasi o‘zini o‘zi aybdor his etayotganini qo‘lida qizil rangda baliq va ota qalbining ruhiy azoblarini qon tomchilayotgan yurak tasviri orqali ifodalashgan.



2-rasm. Mirza Kenjabekning “Baliq ovi” hikoyasi asosida 2-guruh Eydos-konspekti

Ikkinchi guruhning loyiha ishida o‘quvchi-kitobxonning diqqati Komil obrazining rangli-rangsiz suratlardagi qiyofasiga qaratilgan bo‘lib, o‘quvchi o‘z-o‘ziga “Kim aybdor?” degan savol bilan murojaat qiladi. Savollarga berilgan javobda Komilning otasiga, “baliqxo‘r kishi”ga ayb qo‘yish bilan birga yuzaga kelgan vaziyatda to‘g‘ri qaror chiqara olmaganlikda Komilning o‘zini ham aybdor deb biladi.

O‘quvchilar nazdida asarda tasvirlangan Komil obrazi ikki xil ko‘rinishda gavdalangan: rangli tasvirda qahramonning sog‘lom, kuchga to‘lgan, atrofdagilarni havasini keltiradigan darajada qo‘rqmas, dovyurak sifatida tasvirlangan bo‘lsa, oq-qora rang tasvirda Komilning hayoti baliq ovi tufayli erta xazon bo‘lishi aks etgan. Achinish hissini o‘quvchilar “maqtov va olqishlar Komilni o‘limdan saqlab qololmadi” fikri bilan qizil rangda ifodalashgan. Shuningdek, o‘quvchi obrazli tafakkurini ranglar orqali sayqallashtirib, hovuzdagi baliqlarni qizil rangda tasvirlaydi. Bunday bo‘yoq orqali retsipi kitobxon hayot qarmog‘iga ilingan oilaning ayanchli qismatini tasvirlash yo‘li orqali ifodalagan. II guruh xulosasida baliq obraziga ham urg‘u berib, “Baliq. U sababli bir baliqxo‘r kimsaning qorni to‘ydi, lekin bir oila jigarbandidan ayrildi” jumlalari orqali undan hamma o‘z manfaati yo‘lida foydalanganini ko‘rsatgan.

Uchinchi guruh o‘quvchilari hikoyadagi oilaning fojiaviy qismatini botayotgan qonli quyosh tasviri vositasida ifodalashga uringan. Otaning berahmliligiga, onaning haddan tashqari yumshoqligi va yuvoshligiga hamda “baliqxo‘r-qonxo‘r” obrazlari ga sentimental baho berib, botayotgan quyosh yuzidagi qonli dog‘larda aks ettirgan.



3-rasm. Mirza Kenjabekning “Baliq ovi” hikoyasi asosida 3-guruh Eydos-konspekti

Loyiha ishi jarayonida guruh vakillari bir-birlarining kichik loyiha ishlari (EK) javoblarini tinglab, izohlaydilar. Shu zaylda barcha o‘quvchilar hikoyadan kashf etgan hayotiy haqiqatlari bilan bo‘lishadilar, natijada bir o‘quvchi ifodalagan fikr boshqa bir o‘quvchi uchun yangilik, yana bir boshqa o‘quvchida ayni real paytda yangi bir fikrning tug‘ilishi uchun zamin yaratadi. Ahamiyatli tomoni shundaki, o‘quvchilar nafaqat o‘qituvchi, balki bir-birlari bilan hamkorlikka kirishadilar, yangi bilimlarni o‘zlashtirishda o‘zaro ko‘mak beradilar. Ana shu tinimsiz jarayon ularning jamiyatda shaxs sifatida shakllanishiga, tashabbuskorligi oshishiga, eng muhimi hayotiy haqiqatni o‘zi kashf eta olishi va tanqidiy fikrlashi uchun xizmat qiladi.

“Konstruktiv tafakkur – faqat bitta, yagona to‘g‘ri xulosaga olib kelmaydigan, turli xil teng qiymatli xulosalarni ko‘rib chiqish va ulardan afzalrog‘ini tanlash imkoniyati”. Yuqorida ko‘rib chiqilgan tahlillar o‘quvchilarning konstruktiv tafakkuri mahsuli sifatida yuzaga kelib, tanqidiy fikrlash faoliyatlarini izchillik asosida shakllanayotganini ifodalaydi.

Xulosa o‘rnida aytish mumkinki, adabiyot darslarida tanqidiy fikrlash ko‘nikmasini shakllantirish natijasida adabiy ta’limning sifat va samaradorlik darajasi ortishi bilan birga bugungi jadal globallashuv davrida o‘quvchilarning axborotlar, dalillar, bilimlarni mustaqil ravishda talqin va tahlil qilish, qolaversa, ular qalbida badiiy asarga bo‘lgan muhabbatning ortishiga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Yo‘ldosh Q., Yo‘ldosh M. Adabiyot o‘qitish metodikasi. Darslik – T.: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2022. – 371 b.

2. Mirzayeva Z., Jalilov K. Adabiyot o‘qitish metodikasi (An’anaviylikdan zamonaviylikka) uslubiy qo‘llanma. – T., 2020. – 165 b.

3. Husanboyeva Q., Niyozmetova R. Adabiyot o‘qitish metodikasi. Darslik – T.: Innovatsiya-Ziyo, 2022. – 352 b.

4. Шаталова Н.П. Азбука конструктивного обучения.Монография – К.: ООО Научно-инновационный центр. 2011. – С. 204.

Ziroatxon KOMILOVA,
Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika
universiteti mustaqil tadqiqotchisi

INNOVATSION TA’LIM-TARBIYA JARAYONIDA 10-11-SINF O‘QUVCHILARINING AXBOROT MADANIYATINI RIVOJLANTIRISH

Annotatsiya

Mazkur maqolada ‘‘axborot madaniyati’’ tushunchasi keng tahlil qilingan. Shuningdek, ‘‘axborot madaniyati’’ tushunchasining to‘rtta asosiy tarkibiy qismi ajratib ko‘rsatilgan va mazmuni keltirilgan va globallashuv sharoitida ta’limda axborot madaniyati muammolari har qachongidan dolzarb ahamiyatga egaligi va bu masalani ilmiy asosda o‘rganishi masalalari tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar. Axborot madaniyati, motivatsion-qadriyat, kognitiv, instrumental-faoliyat, muammo, tushunish, modernizatsiya.

В данной статье проведен обширный анализ понятия ‘‘информационная культура’’. Также выделены и приведены в содержании четыре основных компонента понятия ‘‘информационная культура’’ и проанализированы вопросы о том, как в условиях глобализации проблемы информационной культуры в образовании приобретают более актуальное значение, чем когда-либо прежде, и исследуется этот вопрос на научной основе.

Ключевые слова. Информационная культура, мотивационно-ценностная, познавательная, инструментальная-деятельность, проблема, понимание, модернизация.

In this article, the concept of ‘‘information culture’’ is widely analyzed. Also, the four main components of the concept of ‘‘information culture’’ and the questions of how, in the context of globalization, the problems of information culture in education are becoming more relevant than ever before, and this issue is being investigated on a scientific basis.

Key words. Information Culture, motivational-value, cognitive, instrumental-activity, problem, understanding, modernization.

Mamlakatimizda siyosiy va ijtimoiy-iqtisodiy sohalarda olib borilayotgan keng islohot va o‘zgarishlar, jamiyatimizni demokratik yangilash va modernizatsiya qilish jarayonlari jadal sur’atlar bilan rivojlanib bormoqda. Bunda kuchli fuqarolik jamiyatini shakllantirish yo‘lida belgilab olingan va izchil ravishda amalga oshirilayotgan ulkan vazifalar mustahkam zamin yaratmoqda. Har bir jamiyat uchun ta’lim bilan birga bu sohadagi axborot madaniyati muammolari muhim strategik ahamiyatga ega masalalardan biri hisoblanadi. Globallashuv sharoitida ta’limda axborot madaniyati muammolari har qachongidan dolzarb ahamiyatga ega bo‘lib, bu masalani yetarlicha ilmiy asosda o‘rganishni taqozo etadi. Bu esa albatta muammoning naqadar murakkab ekanligini ko‘rsatibgina qolmay, balki uning yechimlarini izlashning ilmiy mexanizmlarini yaratishni kun tartibiga qo‘ymoqda.

Zamonaviy jamiyat axborot va bilimlarga tayanadi. Bugungi kunda media, turli axborot va kommunikatsion texnologiyalari turli xil shakllarining tez ommalashishi, ularning shaxsiy, iqtisodiy, siyosiy va ijtimoiy hayotimizga o‘tkazayotgan ta’sirini inkor etib bo‘lmaydi. Shu bois insonlarning axborot jamiyati hayotida faol va samarali ishtirok etishi uchun yangi bilim, ko‘nikma va ko‘rsatmalar zarur. Tez-tez qo‘llaniluvchi ‘‘savodxonlik’’ atamasi bugunda ‘‘raqamli’’, ‘‘kompyuter’’, ‘‘vizual’’, ‘‘texnologik’’, ‘‘kommunikatsion’’, ‘‘media’’ va ‘‘axborot’’ kabi tushunchalar bilan birga qo‘llanilmoqda. Bunday an’ana

mazkur yo‘nalishda izlanishlar olib borishga ortib borayotgan qiziqishdan va zamonaviy jamiyatning shiddat bilan o‘zgarib borayotganidan dalolat beradi.

Mazkur metodologik g‘oyalar asosida hozirgi zamon o‘quvchilarini axborot madaniyatini rivojlantirish hamda unga qo‘yilgan talablar qator xalqaro hamda milliy huquqiy-meyoriy hujjatlarda belgilab berilgan. Jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi ‘‘2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida’’gi PF-60-son Farmoniga muvofiq, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 22-avgustdagi “2022-2023-yillarda axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sohasini yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-357-son Qarori asosida axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sohasini yangi bosqichga olib chiqish bo‘yicha ustuvor vazifalarni amalga oshirish, raqamli savodxonlik, sun’iy intellekt, axborot iste’moli madaniyatini shakllantirish kabi muhim vazifalarni amalga oshirish ko‘zda tutildi.

Mamlakatimizda raqamli iqtisodiyotni faol rivojlantirish, barcha tarmoqlar va sohalarda, eng avvalo, davlat boshqaruvi, ta’lim tizimida zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Xususan, elektron hukumat tizimini takomillashtirish, dasturiy mahsulotlar va axborot texnologiyalarining mahalliy bozorini yanada rivojlantirish, respublikaning barcha hududlarida IT-parklarini tashkil etish, shuningdek, sohani malakali kadrlar bilan ta’minlashni ko‘zda tutuvchi ustuvor loyihalar amalga oshirilmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 10-maydagi ‘‘Raqamli O‘zbekiston – 2030’’ strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risidagi PF-6079-son Farmonining qabul qilinishi ushbu sohada katta rivojlanish va ko‘plab izlanizlari hamda o‘quvchilarning axborot madaniyatini rivojlantirish bo‘yicha tadqiqot ishini olib borish dolzarb vazifalardan biri ekanligini anglatdi.

Ko‘rinadiki, davlat talablari va jamiyat ehtiyojlari o‘quvchilarda axborot madaniyatini rivojlantirishning maqsadi va mazmunini o‘zgartiradi. Maktab o‘quvchilarining axborot madaniyatini rivojlantirish masalalari ko‘p jihatdan nazariy yoritilishiga qaramay, globallashuv jarayonining tezligi, axborotlashgan jamiyat, fan va ta’limning yangi yo‘nalishlari o‘quvchilarning axborot madaniyatini rivojlantirishga qo‘yiladigan zamonaviy talablarni ishlab chiqish zaruriyatini kuchaytiradi.

Axborotlar jamiyat hayotining ajralmas qismiga aylanib, uni uzatish va qabul qilishning XXI asrdagi imkoniyatlari samarali ravishda o‘sib bormoqda. Axborot maydoni fan va ijtimoiy hayot taraqqiyotining muhim omiliga aylandi. Ijtimoiy taraqqiyot barcha sohalar rivojlanishida aks etib boradi. Xususan, ta’lim sohasi ham ijtimoiy hayotning bir qismi sifatida doimiy ravishda ijtimoiy hayot yutuqlarini o‘zida aks ettiradi.

Axborot madaniyati umumiy insoniyat madaniyatining bir qismi, zamonaviy axborot jamiyati madaniyatining muhim elementidir. Tadqiqot mantig‘i ‘‘axborot’’, ‘‘madaniyat’’, ‘‘axborot madaniyati’’ ta’riflarini ko‘rib chiqishni va ‘‘o‘quvchilarning axborot madaniyati’’ tushunchasining mohiyatini oydinlashtirishni talab qiladi.

Ilmiy adabiyotlarda ‘‘axborot madaniyati’’ tushunchasi nisbatan yaqinda paydo bo‘ldi. Uning paydo bo‘lishining asosiy sababi jamiyat hayotida axborotning, axborot texnologiyalari va axborot faoliyatining roli ortib borayotganligidir. Biroq, boshidanoq bu hodisaga ta’rif berishda (ifodalashda) qiyinchiliklar paydo bo‘ldi, chunki bu tushuncha ‘‘axborot’’ va ‘‘madaniyat’’ kabi ikkita universal tushunchalar asosida paydo bo‘lgan va ilmiy adabiyotlarda ular aniq talqin etilmagan.

Ta’lim o‘quvchilarning axborot olish, qayta ishlash ko‘nikmalarini shakllantirish va rivojlantirish vazifasini uzluksiz bajarib boradi hamda ta’lim oluvchilar tomonidan axborotlarning o‘zlashtirilganlik darajasining oshishi, axborotlardan foydalanish ko‘lamining kengayishi ta’lim samaradorligini belgilashga xizmat qiladi.

Ilmiy-pedagogik adabiyotlar tahlili asosida bugungi kunda biz umumiy madaniyatining ajralmas qismi bo‘lgan shaxsning axborot madaniyatini shakllantirish haqida so‘z yuritishimiz mumkin. Axborot madaniyati jamiyat hayotining real negizi asosiga kirib, unga yangi sifat baxsh etmoqda. U ko‘plab o‘rnashib qolgan ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va ma’naviy aqidalarning o‘zgarishiga olib keladi va insonning hayot tarziga sifat jihatidan yangi xususiyatlarni kiritadi.

Hozirgi kunda ‘‘axborot madaniyati’’ tushunchasining ko‘plab ta’riflari mavjud. Ba’zi mualliflar axborot madaniyatini jamiyatda umumiy madaniyatning axborot faoliyati (amal qilishi, funksiyasini amalga oshirishi) bilan bog‘liq tarkibiy qismlaridan biri deb hisoblashadi (I.G. Ovchinnikova, L.U. Gluxova va boshq.). Boshqalar esa, axborot madaniyatini zamonaviy axborot jamiyati talablariga javob beradigan yangi g‘ayrioddiy fikrlash uslubi sifatida tushunadilar (Y.Y. Slabudina, A.A. Paraxin va boshq.). Olim S.M. Konyushenko insonning axborot madaniyati rivojlanishi inson qobiliyatining rivojlanishiga bog‘liq ekanligini va axborot madaniyatini o‘zlashtirishning natijasi qancha yuqori bo‘lsa, bu jarayon talab qilingan qobiliyatlarning rivojlanishiga shunchalik yuqori darajada bo‘ysungan bo‘ladi, deb taxmin qiladi.

‘‘Axborot’’ va ‘‘axborot madaniyati’’ni rivojlantirish bo‘yicha respublikamiz olimlari tomonidan tadqiqot ishlari olib borilgan va mazkur tushunchaga turli yondashuvlarga ko‘ra mualliflik ta’riflarini keltirganlar.

R. Samarovning ta’kidlashicha, axborot madaniyati xabarlarni saralash, ularning ahamiyatli jihatlarini belgilab olish, sohalarga ajratish, sofligiga e’tibor qaratib munosabat bildirish, g‘oyaviy asoslarini aniqlash, xabar manbaini topishda namoyon bo‘ladi. Axborot madaniyatining bir qator vazifalari mavjud:

– bilish vazifasi (axborot iste’molchilarining faoliyatini ta’minlash uchun tarixiy vorisiylikni saqlashga qaratilgan bilimlarni yetkazadi);

– tartibga solish vazifasi (real ideallar yordamida ijtimoiy, siyosiy, huquqiy me’yorlarning amalda ifodalanishini ta’minlaydi);

– tarbiyaviy vazifasi (shaxsning intellektual rivojiga yordam berib, ijtimoiy, siyosiy, huquqiy meyor va qadriyatlarni o‘zlashtirishga, qiziqishning yuzaga kelishiga, faoliyat uchun ma’lum ustanovka (yo‘l-yo‘riq)larni tarkib toptirishga ko‘maklashadi);

– mafkuraviy vazifasi (dunyoning ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy hayotiga oid ma’lumotlarni biron-bir g‘oya manfaati asosida yetkazadi);

– xabar berish vazifasi (subyektlarga dunyoda sodir bo‘layotgan voqea-hodisa hamda ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy jarayonlar haqida ma’lumot yetkazadi);

– tashxis qo‘yish vazifasi (joriy ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy va madaniy voqeliklarni baholaydi);

– prognostik vazifasi (ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy jarayonlarning yo‘nalishini oldindan belgilash, ularning yuzaga kelishi, kechish bosqichlariga oid ehtimoliy ma’lumot taqdim etadi) va b.

O‘. Karimov tadqiqotlarida “Axborot madaniyati” xabarlarni saqlash, ularning ahamiyatli jihatlarini belgilab olish, sohalarga ajratish, sofligiga e’tibor qaratib munosabat bildirish, g‘oyaviy asoslarini aniqlash, xabar manbaini topishda namoyon bo‘ladi. Shuningdek, axborot madaniyati – texnik-texnologik va ijtimoiy-madaniy jihatlarga ega.

Texnik-texnologik jihatdan axborot madaniyati axborotni olish, qayta ishlash va yetkazib berishga xizmat qiladigan texnik-axborot vositalari va ulardan oqilona foydalanish usullari haqidagi bilimlar tizimini anglatadi.

MDH davlatlari olimlari ham ‘‘axborot’’, ‘‘madaniyat’’, ‘‘axborot madaniyati’’ bo‘yicha turli qarashlarni ilgari surib kelganlar.

S.M. Konyushenko axborot madaniyatiga quyidagi ta’rifni beradi: madaniyat – inson va insoniyat madaniyati haqidagi bilimlarni integratsiya qiladigan murakkab tizimli hodisa hisoblanadi; u ijtimoiy hayotning rivojlanish darajasini, jamiyatning milliy, iqtisodiy, ekologik, texnik va boshqa rivojlanish jihatlarini aks ettiradi.

O.I. Tarasovaning fikriga ko‘ra, axborot madaniyati tushunchasi XX asrning ikkinchi yarmida kompyuter texnologiyalari va axborot texnologiyalarining jadal rivojlanishi munosabati bilan shakllandi. S.M. Olenevning fikriga ko‘ra, axborot madaniyati tushunchasi hayvonot dunyosiga xos bo‘lgan vaziyat signaliga rasmiy munosabatning mutlaqo insonga xos bo‘lgan mazmunli tarzda o‘zgartirish vaqtida (davrida) paydo bo‘ldi. Mazmunli birliklarining almashinuvi tilning rivojlanishi uchun asos bo‘lib xizmat qildi. Yozuv paydo bo‘lishidan oldin tilning rivojlanishi og‘zaki (verbal) metodlarning keng doirasini (gammasini) vujudga keltirdi, ma’no va matn bilan muomala madaniyatini yuzaga keltirdi. Axborot madaniyatini shakllantirishda keyingi bosqich og‘zaki axborot madaniyatining barcha xilma-xilligini o‘z ichiga olgan yozma bosqich, deb qarash mumkin.

Insoniyatning axborot madaniyatini turli davrlarda axborot inqirozlari larzaga keltirgan. O‘ta jiddiy miqdoriy axborot inqirozlaridan biri yozuvning (alifboning) paydo bo‘lishiga olib keldi. Bilimlarni saqlashning og‘zaki usullari tobora miqdori, hajmi oshib borayotgan axborotnining xavfsizligini va uni moddiy axborot tashuvchida qayd qilib qo‘yishni ta’minlay olmasligi tufayli madaniyatining yangi davri – hujjatlar bilan ishlash davrini yuzaga keldi. Uning tarkibiga hujjatlar bilan ishlash madaniyati kiradi: qayd qilingan bilimni olish, axborotni kodlash va qayd qilib qo‘yish; dokumentografik qidirish madaniyati. Axborot bilan ishlash osonlashdi, fikrlash tarzi o‘zgardi, biroq axborot madaniyatining og‘zaki shakllari nafaqat o‘z ma’nosini yo‘qotmadi, balki yozma o‘zaro aloqalar tizimi bilan ham boyitildi.

Axborot jamiyatida yuqorida sanab o‘tilgan o‘zgarishlar shaxsning axborot madaniyatini shakllantirish zaruratini keltirib chiqaradi. ‘‘Axborot madaniyati’’ tushunchasining mazmunida to‘rtta asosiy tarkibiy qismni ajratib ko‘rsatish mumkin.

Motivatsion-qadriyat komponenti axborot ehtiyojlari va qiziqishlari, qadriyat oriyentatsiyalari va ideallari tizimini shakllantirish, ijtimoiy amaliyotida o‘z qarashlarining tegishliligiga (adekvatligiga) ishonch, baholash mezonlarining moslashuvchanligi va xilma-xilligi, ijtimoiy ahamiyatga erishish uchun maqsadlar va imkoniyatlarni ko‘rib chiqish bilan belgilanadi.

Kognitiv komponent axborotni tahliliy-sintetik qayta ishlash usullari, yuqori axloqiy-ma’naviy fazilatlarni shakllantirish, axborotning ijtimoiy mohiyatini anglash, axborotni tanqidiy baholash malakasi, axborot sohasidagi bilimlarining katta miqdori, axborot bilan ishlash texnologiyalari haqida batafsil, aniq tizimlashtirilgan ma’lumotlar, o‘z zaif tomonlarini kompensatsiya qilish yo‘llarini bilishni o‘z ichiga oladi.

Instrumental-faoliyatga asoslangan komponent tarkibiga axborot manbalari haqidagi keng bilimlarni, kasbiy ta’lim olish va muloqot qilishning yaxshi rivojlangan ko‘nikmalari, axborot faoliyatining individual uslubi, ratsional, etik va estetik aspektlarni hisobga olgan holda muammolarni hal qilish uchun yangi yo‘llarini topish, axborot faoliyatining turli

vositalaridan mohirona foydalanish malakasi, kasb-hunarga yo‘naltiruvchi faoliyatda yuqori darajadagi mustaqillik, o‘zlashtirilgan kompetentlik, ulardan erkin foydalana olish kiradi.

Konativ (xatti-harakat, xulq-atvor) komponenti – o‘z xatti-harakatini (xulq atvorini) ongli boshqarish, o‘z xatti-harakatlari natijalarini oldindan his qilish darajasini bashorat qila olish, axborot munosabatlari sohasida xulq atvorni ixtiyoriy mustaqil (o‘zini o‘zi) tartibga solish, o‘z axborot faoliyatida maqsadni tanlashda onglilik va mas’uliyat hissi va ularga erishishda ijimoiy maqbul vositalarni, uning reklama faoliyati va ijtimoiy maqbul vositalari, qadriyatlar va ma’nolar kurashi vaziyatida o‘z e’tiqod va nuqtayi nazarini faol himoya qilish qobiliyati, o‘z nuqtayi nazarini boshqalarning nuqtayi nazarlari bilan taqqoslash, muloqot uchun umumiy asoslar topish, ijodiy o‘z-o‘zini rivojlantirish usullarini egallaganlik, axborot hodisalari va jarayonlariga doir o‘z baho va fikrlarida avtonomlik va mustaqillikni o‘z ichiga oladi.

Bu komponentlar bir-biri bilan dialektik birlikda bo‘lib, o‘zaro bog‘langan va bir-birini to‘ldiradi. Motivatsion – qadriyat, kognitiv va instrumental-faoliyatli komponentlari shaxsning asosiy sohalarini aks ettiradi, konativ komponent esa shaxsning shakllangan axborot madaniyatining tashqi ifodasi sifatida tushuniladi.

Xulosa shuki, axborot madaniyatining muhim ijtimoiy jarayon sifatida shakllanishi bir qator omillarning shaxsga (guruhga) ta’siri oqibatidir. Umuman olganda, butun yoki uning alohida tomonlarini (jihatlarini), xususiyatlarini va fazilatlarini rivojlantirish va takomillashtirishga qaratilgan har bir narsa bir vaqtning o‘zida shaxsning butun madaniyatiga ham, uning tarkibiy qismlariga ham ta’sir qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi ‘‘2022 – 2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida’’gi PF-60-son Farmoni.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 10-maydagi ‘‘Raqamli O‘zbekiston – 2030’’ strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risidagi PF-6079-son Farmoni.

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 22-avgustdagi “2022-2023-yillarda axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sohasini yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-357-son Qarori.

4. Samarov R., Sattorov Y. Axborot madaniyati va uni shakllantirishning nazariy-amaliy ahamiyati. Zamonaviy ta’lim jurnali. 2014, №1. – 13-17 b.

Intizor JUMANIYAZOVA,
A.Qodiriy nomidagi ijod maktabi oliy toifali o‘qituvchisi, Alisher Navoiy nomidagi til va adabiyot instituti mustaqil tadqiqotchisi

MILLIY MUMTOZ ADABIYOT NAMUNALARINING O‘QITILISHIGA DOIR TADQIQOTLAR TAHLILI

Annotatsiya

Ushbu maqolada o‘tmishdagi va hozirgi paytdagi adabiyotshunos va metodist olimlarning pedagogika fani taraqqiyotiga qo‘shgan ulkan hissalari, ular yaratgan ma’naviy meros va ularning bugungi kundagi ahamiyati haqida fikr yuritiladi. Shuningdek, ko‘plab metodist olimlarning tadqiqot ishlaridan namunalar keltirib o‘tilgan hamda ijod maktablarida adabiyot fanini zamonaviy usulda o‘qitish, milliy metodika va xorijiy tajriba asosida adabiy ta’limni tashkil etish, adabiyot darslarida o‘quvchilarning mantiqiy, kreativ, ijodiy tafakkurini o‘stirish haqida mulohazalar bayon qilingan.

Kalit so‘zlar. Kreativ fikrlash, aql tarbiyasi, fanlararo integratsiya, ko‘rgazmalilik, milliy mumtoz adabiyot namunalari.

В этой статье рассматривается огромный вклад ученых-литературоведов и методистов в развитие педагогической науки в прошлом и настоящем, духовное наследие, которое они создали, и их значение сегодня. Также были приведены примеры исследовательской работы многих ученых-методистов и высказаны соображения по современному методу преподавания литературы в школах творчества, организации литературного образования на основе национальных методик и зарубежного опыта, развитию логического, творческого мышления учащихся на уроках литературы.

Ключевые слова. Креативное мышление, интеллектуальное образование, междисциплинарная интеграция, демонстрация, образцы национальной классической литературы.

TThis article examines the enormous contribution of literary scholars and methodologists to the development of pedagogical science in the past and present, the spiritual heritage they created, and their significance today. Examples of the research work of many methodologists were also given and suggestions were made on the modern method of teaching literature in creative schools, the organization of literary education based on national methods and foreign experience, the development of logical, creative thinking of students in literature lessons.

Key words. Creative thinking, intellectual education, interdisciplinary integration, visuality, examples of national classical literature.

Mamlakatimizda ta’lim sohasida olib borilgan islohotlar natijasida 2018-2019-yillarda ijtimoiy-gumanitar fan sohalarini o‘zida qamrab olgan Abdulla Qodiriy, Halima Xudoyberdiyeva, Hamid Olimjon, Erkin Vohidov, Abdulla Oripov, Ogahiy, Muhammad Yusuf nomli ijod maktablari tashkil etildi. Ijod maktablarining asosiy maqsadi iqtidorli yoshlarni kashf etish, o‘quvchilarning intellektual salohiyatini o‘stirish, ijodiy faoliyatini rivojlantirishdan iborat. Mazkur ijod maktablarida adabiyot fanini zamonaviy usulda o‘qitish, milliy metodika va xorijiy tajriba asosida adabiy ta’limni tashkil etish, adabiyot darslarida o‘quvchilarning mantiqiy, kreativ, ijodiy tafakkurini yuksaltirish masalasini hal etish asosiy vazifa sanaladi.

Adabiyotning boshqa fanlardan farqi shuki, inson qalbiga ta’sir ko‘rsatib, ruhiy va ma’naviy olamiga kirib boradi. O‘quvchilarda badiiy adabiyotga muhabbat tuyg‘usi adabiyot darslarida paydo bo‘ladi. Badiiy asar mutolaasi davomida badiiy-estetik did shakllanadi. Ta’lim tizimida an’anaviy darslardan uzoqlashish, zamonaviy adabiyot

darslarini tashkil etish ehtiyoji oshib bormoqda. Xususan, adabiyot darslarida mumtoz asarlarni o‘qitish, ta’lim texnologiyalari asosida tushuntirish, mumtoz namunalarni o‘rgatishning samarali usullarini ishlab chiqish masalasi dolzarblik kasb etadi.

Mumtoz adabiyot asrlar davomida insoniyat kamoloti, ma’naviy rivoji uchun xizmat qilib kelgan. Uzluksiz ta’lim tizimida mumtoz asarlarni o‘rganish, adabiyot darslarida mumtoz matnni kontekstual tahlil etish va sharhlab o‘qitish, o‘tmish asarlardagi an’anaviylik va obrazlilik, ramziylikka e’tibor qaratish, xolislik, tizimlilik, aniqlikni talab qiladi.

Ta’lim tizimida mumtoz siymolar, adib va shoirlar ijodiy merosini o‘rganish, o‘rgatish, o‘qitish masalasini tadqiq etish uzoq tarixga borib taqaladi. Musulmon dunyosining muqaddas kitobi Qur’oni Karim, Muhammad alayhissalom hadislari, buyuk allomalarimizning tasavvufona g‘azallari va hikmatlari yosh avlod ma’naviyatining barkamol bo‘lishida, to‘g‘ri tarbiya topishida muhim ahamiyat kasb etib kelmoqda. Qadim manbalar, tarixiy, nasriy, lirik asarlar mazmun-mohiyatini chuqur tushuntirish, mumtoz matn nafosatini his qildirish kabi masalalarning ilmiy-nazariy asoslarini ishlab chiqish, ta’lim tizimida joriy qilish adabiyotshunos va metodist olimlarning doimiy ravishda diqqat markazida bo‘lib kelgan. Jumladan, Mahmudxo‘ja Behbudiy, Munavvar qori Abdurashidxon o‘g‘li, Ishoqxon Ibrat, Saidahmad Siddiqiy, Abduqodir Shakuriy, Abdulla Avloniy, Abdurauf Fitrat kabi atoqli mutafakkirlar o‘zlari yaratgan ulkan ma’naviy meros bilan adabiyot fanini o‘qitish va adabiy ta’lim jarayonini tashkil etishda ulkan hissa qo‘shganlar. Ular yosh avlod tarbiyasida va ilm olishidagi muhim masalalar haqida qimmatbaho asarlar yaratganlar. Eng o‘g‘ir davrlarda o‘zlarining mablag‘laridan maktablar ochib xalqqa ma’rifat tarqatganlar. Hur fikrli pedagoglardan Shakuriy yangi usuldagi maktablar tashkil qilishda, o‘qish-o‘qitishning yangi tartiblarini joriy etish va o‘qituvchilarning katta guruhini tarbiyalab yetishtirishda xizmatlari juda katta bo‘lgan va gazeta redaksiyasi tomonidan yuqori baholangan.

Hamzaning fikricha, bolalarni barkamol inson qilib tarbiyalash uchun o‘qituvchining o‘zi chuqur bilimga ega, qobiliyatli va yuksak fazilatli bo‘lishi kerakdir. Ma’rifatparvar pedagog Abdulla Avloniy “Turkiy Guliston yoxud axloq” asarida “Fikr tarbiyasi eng kerakli, ko‘b zamonlardan beri tadbiq qilinib kelingan, muallimlarning diqqatiga suyalgan, vijdonlariga yuklangan muqaddas bir narsadir. Fikr insonning sharofatlik, g‘ayratlik bo‘lishiga sabab bo‘ladur. Bu tarbiya muallimlarning yordamiga so‘ng daraja muhtojdurkim, fikrning quvvati, ziynati, kengligi muallimning tarbiyasiga bog‘lidur. Ta’lim ila tarbiya orasida biroz farq bor bo‘lsa ham, ikkisi biridan ayrilmaydurgan, birisining vujudi biriga boylangan jon ila tan kabidir”[1]. Tilga, madaniyatga muhabbat har bir kishining xalqiga bo‘lgan muhabbatdir. Avloniyning ta’kidlashicha, har bir millatning dunyoda borlig‘ini ko‘rsatadurg‘on oyinayi hayoti til va adabiyotidur.

Abdulla Avloniy “Maktab va Guliston” darsligida adabiy asarlarni ifodali o‘qishning yakka va ko‘pchilik bo‘lib o‘qish, ifodali o‘qish, dialog, drama holiga keltirish turlarini ko‘rsatdi. Avloniy “Adabiyot” kitobining I juz’ida bolalarni aruz vaznida yozilgan she’rlar bilan tanishtiradi. Masalan, “bo‘lak” radifli she’rni o‘rganishdan oldin bolalar uning mazmuni bilan tanishadilar, so‘ngra “foilotun, foilotun, foilun” bahrini o‘qishni o‘rganadilar. Avloniy “Adabiyot” kitobining II juz’ida ham aruz vaznida yozilgan she’rlarni o‘qish yo‘llarini aytib o‘tgan.[2] Abdulla Avloniy o‘z asarlarida zamonaviy pedagogikaning nazariy va amaliy asoslarini yaratdi va bu asarlar zamonaviy pedagoglar tayyorlashga, darslik,

[1] http://marifat.uz/marifat/ruknlar/fan/Abdulla-Avloniy-milliy-uyg-onish-davri-o-zbek-pedagogikasining-asoschisi.htm

[2] A.Zunnunov, N.Xotamov, J.Esanov, A.Ibrohimov. Adabiyot o‘qitish metodikasi: – T.: O‘qituvchi.1992.30 b.

qo‘llanmalar yaratilishiga asos bo‘ldi. Avloniyning mumtoz namunalarni o‘rganish va o‘rgatish, tarbiya haqidagi fikrlari bugungi kunda ham o‘z ahamiyatini saqlab qolmoqda.

A. Zununov, N. Hotamov, J. Esonov, A. Ibrohimovlarning “Adabiyot o‘qitish metodikasi” qo‘llanmasida izohli o‘qish haqida qimmatli ma’lumotlar berilgan: “Izohli o‘qish jarayoni qismlari o‘zining tuzilishiga ko‘ra shunday xususiyatga ega edi: kirish mashg‘ulotida o‘quvchilarga bilim tayyor holda emas, balki ma’nosi yoritilgan, sharhlangan, isbotlangan holda beriladi, bilim berishda ko‘rgazmalilikdan foydalaniladi. Ta’limda bu usulni qo‘llash o‘quvchida xotira bilan birga, kuzatish va fikrlash qobiliyatini rivojlantirishga yordam beradi”[3]. Darhaqiqat, nutqning boy bo‘lishi “… o‘zbek xalqining qochiriq so‘zlari va ko‘chma ma’noli so‘zlaridan, o‘xshatish, sifatlash, jonlantirish, istiora, mubolag‘a kabi badiiy til vositalaridan, ritorik so‘roq gaplardan foydalanishda namoyon bo‘ladi. Tilning bu tasviriy vositalari nutqqa go‘zallik, joziba va rang-baranglik baxsh etadi”[4].

Adabiyot darslarida mumtoz matnlarning til xususiyatlari o‘rganilganda ona tili darslarida fonetika, leksikologiya, morfologiya, sintaksis, punktuatsiya, badiiy uslub haqidagi bilimlarga e’tiborni qaratish kerak. Qozoqboy Yo‘ldashev, O. Madayev, A. Abdurazzoqovlar tomonidan tayyorlangan “Adabiyot o‘qitish metodikasi” nomli dasturiy qo‘llanma o‘zbek adabiyotini maktablarda bugungi kun talabi darajasida o‘qitishni nazarda tutadi. Unda maktablarda adabiyot o‘qitishdan bosh maqsad o‘quvchining qalbini shakllantirish ekanligi, adabiyot darslarida o‘quvchilar badiiy asarlarni, adiblarning tarjimai hollarini, nazariy bilimlarni shunchaki bilib qo‘ya qolishlari kifoya emasligini, yosh avlod his qilishga odatlanishi lozimligini ta’kidlaydi.

Metodist olimlar A. Zununov, J. Esonovlarning “Maktabda adabiyot o‘qitish metodikasi” kitobida badiiy matnlarni sharhlab o‘qitish haqida qimmatli ma’lumotlar keltirib o‘tilgan: “Sharhli o‘qish o‘qituvchidan ham, o‘quvchidan ham puxta tayyorgarlikni talab etadi. O‘quvchilarni asarni bevosita idrok qilish, o‘qish mashg‘ulotini asarni analiz qilishga, mustaqil aqliy faoliyatga tayyorlaydigan darajada tashkil etishni talab qiladi”.[5]

Metodist olim Q. Yo‘ldashev ta’kidlaganidek, “O‘quvchilar diqqati asarda aks etgan voqealar oqimigagina qaratilib qolmay, ana shu voqealar bayoni asnosida qo‘llanilgan badiiy san’atlar hamda ijodkorning mahoratini namoyon qiluvchi jihatlarga yo‘naltirilsa, ularning ko‘ngil ko‘zi ochiladi. Shunda bolalar so‘zning sehrini his etadi, uning badiiy ichki imkoniyatini, yashirin qirralarini topa oladigan bo‘lib boradi”.

Metodist olima Z. Mirzayevaning ilmiy qarashlariga ko‘ra, “Bugun adabiyot fanini o‘qitishda yangicha yondashuvlar, talablar o‘quvchilarda ham adabiyotga munosabatni o‘zgartirdi. Xususan, bugun yoshlarimiz adabiyot fanini faqat oliy ta’lim muassasalariga kirish uchun bo‘ladigan test sinovlariga tayyorgarlik nuqtayi nazaridan emas, balki o‘z tafakkuri, tasavvuri, didi, saviyasi, umuman, ma’naviy qarashlarini yuksaltirish maqsadi bilan o‘rganish zarurligini his qila boshladilar”.[6]

Ushbu qo‘llanmada bugunga qadar adabiy ta’lim sohasida milliy manbalarda aks etgan ma’lumotlarni to‘ldirish maqsadida, ko‘proq o‘qitishning xorijiy tajribasiga qaratilgan va milliy adabiy ta’limda mavjud bo‘lmagan yoki u qadar keng yoritilmagan nazariy

[3] A. Zunnunov, N.Hotamov, J.Esonov, A.Ibrohimov. Adabiyot o‘qitish metodikasi: – T.: O‘qituvchi,1992. – 38-b..

[4] G‘ulomov A.,Qodirov M., Ernazarova M., Bobomurodova A., Alavutdinova N., Karimjonova V. Ona tili o‘qitish metodikasi: –T.: Fan va texnologiya – 2012.-380 b.

[5] Zununov A., Esonov J. Adabiyot o‘qitish metodikasi: – T.: O‘qituvchi, 1985.196 b.

[6] Z. Mirzayeva, K. Jalilov Adabiyot o‘qitish metodikasi (an’anaviylikdan zamonaviylikka). Uslubiy qo‘llanma. – T.: 2020. – 6 b.

qarashlar tahliliga e’tibor berilgan. Mazkur ilmiy risola ikki bo‘limdan iborat bo‘lib, uning birinchi bo‘limida adabiyot o‘qitish metodikasining nazariy asoslari haqida ma’lumot berilsa, ikkinchi bo‘limida nazariy tushunchaning amaliyotga tadbiqi bilan bog‘liq ma’lumotlarga e’tibor qaratiladi. Umumta’lim maktablarining quyi va yuqori bosqichlarida amaldagi adabiyot darslarining kutilgan darajada emasligi, adabiyot darsliklaridagi savol-topshiriqlar bolani tanqidiy fikrlashga, tafakkurini rivojlanishiga ta’sir etmayotganligi bizga sir emas.

Metodist olima Z. Mirzayevaning tadqiqot ishida “Keyingi o‘n yillikda yaratilgan adabiyot o‘qitish metodikasi yo‘nalishida amalga oshirilayotgan tadqiqotlar, darsliklar, o‘quv, o‘quv-uslubiy qo‘llanmalarni jahon adabiy ta’limi bilan qiyosiy o‘rganish natijasida milliy metodika kutilgan darajada xalqaro standartlarga mos rivojlana olmayotganligining eng muhim sabablari quyidagicha tasniflab o‘tilgan:

– birinchidan, adabiy ta’lim, jumladan, badiiy asarni o‘qitish yoki o‘rganishga qaratilgan muayyan konseptual yondashuvlarning nazariy asoslari yaratilmayotganligi;

– ikkinchidan, fan va ta’lim integratsiyasi faqat qog‘ozlarda qolib ketayotganligi, metodika sohasida amalga oshirilayotgan tadqiqotlar amaliyotga izchil tatbiq etilmayotganligi, aniqroq qilib aytganda, adabiy ta’lim va pragmatizm o‘rtasidagi aloqaning butkul uzilib qolganligi;

– uchinchidan, yaratilayotgan tadqiqotlar adabiy ta’limning faqat ichki imkoniyatlari bilan cheklanganligi, milliy adabiy ta’lim muammolari rivojlangan xorijiy mamlakatlardagi o‘qitishning ilg‘or tajribalari, boy ilmiy nazariy fikrlar, yondashuvlarning qiyosiy tahlilga asoslanmaganligi va ayrim holatlarda samarasiz o‘qitish usullari qobiqlaridan chiqib keta olmaslik holatlari va yana bir qator no’malum sabablar”.[7]

Buyuk olimlarimizning ta’lim sohasidagi eng qimmatli va purhikmat fikrlari yosh avlodni barkamol, vatanga muhabbatli va sadoqatli qilib tarbiyalashda yillar o‘tsa-da, o‘z qimmatini va ahamiyatini yo‘qotmaydi. Yosh murabbiylarning yo‘lini yorituvchi mayoq bo‘lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Hashimov K., Nishanova S. Pedagogika tarixi. II-qism. Darslik. – T.: Alisher Navoiy, 2005.

2. A. Zununov N., Hotamov J., EsonovA., Ibrohimov. Adabiyot o‘qitish metodikasi, – T.: O‘qituvchi. 1992.

3. G‘ulomov A., Qodirov M., Ernazarova M., Bobomurodova A., Alavutdinova N., Karimjonova V. Ona tili o‘qitish metodikasi. – T.: Fan va texnologiya, 2012.

4. Abu Rayhon Beruniy. “Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar. Tanlangan asarlar. 1-jild. (Mas’ul muharrirlar: I. Abdullayev, O. Fayzullayev). – T.: Fan, 1968.

5. Yo‘ldashev Q. Adabiy saboqlar: Umumta’lim maktablarining 7-sinf “Adabiyot” darsligi uchun metodik qo‘llanma. – T.: Bilim, 2003.

6. Mirzayeva Z., Jalilov K. Adabiyot o‘qitish metodikasi (an’anaviylikdan zamonaviylikka). Uslubiy qo‘llanma. – T., 2020.

7. http://marifat.uz/marifat/ruknlar/fan/Abdulla-Avloniy-milliy-uyg-onish-davri-o-zbek-pedagogikasining-asoschisi.ht

[7] Mirzayeva Z., K. Jalilov K. Adabiyot o‘qitish metodikasi(an’anaviylikdan zamonaviylikka). Uslubiy qo‘llanma. – T.: 2020. – 14 b.

Muxabbat XALILOVA,
Navoiy davlat pedagogika instituti, ‘‘Pedagogika-psixologiya’’
kafedrasi mudiri, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent

MAKTABGACHA TA’LIM TIZIMIDA INSON KAPITALINI RIVOJLANTIRISHDA IKKINCHI TILNI O‘RGANISHNING PSIXOFIZIOLOGIK AHAMIYATI

Annotatsiya

Ushbu maqolada respublikamizda chet tillarini o‘qitishni tubdan isloh qilish to‘g‘risidagi fikr yuritiladi. Shuning bilan birgalikda, maktabgacha ta’lim muassasalarida ikkinchi tilni o‘rgatish ishlarining tashkil etilishining mazmun metodikasi tahlil qilinib, amaliy jihatlari psixofiziologik rivojlanishi ilmiy asosda yoritib berilgan.

Kalit so‘zlar. O‘yin faoliyati, metod, tizim, hamkorlik, ong, tafakkur, bilish jarayonlari, xorijiy til, etnik madaniyat, kapital, psixofiziologik.

В данной статье рассматривается вопрос о радикальной реформе преподавания иностранных языков в нашей республике. Вместе с тем проанализирована содержательная методика организации работы по обучению второму языку в дошкольных учреждениях, на научной основе освещены практические аспекты психофизиологического развития.

Ключевые слова. Игровая деятельность, метод, система, сотрудничество, сознание, мышление, познавательные процессы, иностранный язык, этническая культура, капитал, психофизиологический.

This article discusses the issue of radical reform of foreign language teaching in our republic. At the same time, the informative methodology of organizing work on teaching a second language in preschool institutions is analyzed, practical aspects of psychophysiological development are highlighted on a scientific basis.

Key words. Game activity, method, system, cooperation, consciousness, thinking, cognitive processes, foreign language, ethnic culture, capital, psychophysiological.

O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimining 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi hamda 2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasida fan-ta’lim-ishlab chiqarish integrasiyasini yo‘lga qo‘yish va yanada mustahkamlash, inson kapitalini rivojlantirish va uzluksiz ta’lim tizimida sifat va samaradorlikni oshirish bo‘yicha aniq vazifalar belgilab berilgan.

Shuning uchun bugungi kunda ta’lim-tarbiyaning sifatini belgilovchi inson kapitali – ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy, global kategoriyalardan biri bo‘lib, muommoning mexanizmlarini shakllantirish dolzarb vazifalardan biridir.

Global miqyosda uzluksiz ta’lim tizimida inson kapitalini rivojlantirish mexanizmlarini shakllantirishga, bolalarda ikkinchi tilni o‘rgatish inson va uning ijodiy fazilatlari, kuchlari va qobiliyatlari, ular yordamida individda hosil bo‘ladigan o‘z-o‘zini anglash, o‘zining ichki imkoniyatlarini yuzaga chiqarishga zamin yaratadi.

Albatta bu masalaning ilk tayanch shakli maktabgacha ta’lim hisoblanadi. Davlatimiz tomonidan bugungi kunda maktabgacha ta’lim tizimiga alohida e’tibor qaratilmoqda. Buning huquqiy asosi sifatida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil

23-dekabrdagi “2017-2021-yillarda maktabgacha ta’lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-2707-sonli, 2017-yil 30-sentabrdagi “Maktabgacha ta’lim tizimi boshqaruvini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5198-son Farmonlarining amaliyotga joriy etilishi buning yaqqol isbotidir.

Darhaqiqat, bular o‘z navbatida yosh avlodni intellektual jihatdan rivojlanishi bilan birga, inson kapitalining huquqiy asoslarini tashkil etadi. Shuning bilan birgalikda maktabgacha ta’lim tizimida til o‘rgatishga ham alohida e’tiborning davlat siyosati darajasiga yetganligi qo‘yidagi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarorlarida ham o‘zining qoniniy asoslarini ifoda etadi.

“O‘zbekiston Respublikasida xorijiy tillarni o‘rganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish to‘g‘risida’’gi 19.05.2021-yildagi PQ-5117-son hamda mamlakatimizda xorijiy tillarni o‘rgatishni ommalashtirishni yangi bosqichga olib chiqish va sohani rivojlantirish uchun tizimli ishlarni tashkil etish, ulg‘ayib kelayotgan yosh avlodni har tomonlama barkamol qilib tarbiyalash, buning uchun barcha shart-sharoitlarni yaratish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Chet tillarini o‘rganish tizimini yanada takomilolashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida’’gi PQ 1875-sonli Qarorlari ham bugungi kunning huquqiy talablaridan biridir.

Maktabgacha yoshdagi bolalarga xorijiy tillarni o‘qitish muhim masalalardan biri bo‘lib, bolalarning ongi va tafakkurini o‘zgartirishga, dunyoqarashini kengaytirishga atrof-olam haqidagi tasavvurlarini oshirib, miya faoliyatini takomillashtirishga xizmat qiladi.

Chet tilini o‘rgatishning eng qulay usullaridan biri – bu axborot kommunikatsiya usullaridan foydalanish hisoblanadi, bular:

– Kompyuter texnikasi;

– Multimedia vositalari.

To‘g‘ridan-to‘g‘ri ta’lim faoliyatida audio, video hikoyalar, ertaklar, kognitiv materiallardan foydalanish ta’limni rivojlantirishga xizmat qiladi.

Bolalarga ingliz tilini o‘rgatishda multfilmlardan foydalanish, bu ko‘rish, eshitish, rang ajratish, harakat sezgilarini rivojlantirish bilan birga, bilishga bo‘lgan motivatsiyani yuzaga keltiradi. Obrazli syujetlar bolalarni til o‘rganishga bo‘lgan mashg‘ulotlarini yanada qiziqarli va ichki imkoniyatlarini rollar orqali tasavvur va tafakkur qilishga undaydi.

Bolalarga til o‘rgatish mashg‘ulotlarini rejalashtirishda metodik jihatdan to‘g‘ri tashkil etish lozim. Mashg‘ulotlar shaklini tez-tez o‘zgartirib turish syujetli o‘yinlar, harakatli o‘yinlar, stol ustida qo‘yib o‘ynaladigan o‘yinlar, musiqa mashg‘ulotlari va shunga o‘xshash faoliyat turlari shular jumlasidandir.

Inson kapitalini rivojlantirishda ongli, maqsadli va samarali faoliyatga qaratilgan mehnat ko‘zlangan natija samaradorligining negizi hisoblanadi.

Jahonda uzluksiz ta’lim tizimida inson kapitalini rivojlantirish mexanizmlarini takomillashtirish, jamiyatning tarixiy rivojlanishida shaxsning mavqei, intelliktual salohiyati, bilim, ko‘nikma, malakalari, pedagogik-psixologik jihatlari, salomatligi, jismoniy faolligi, siyosiy yetukligi, milliy, umuminsoniy jihatlarinini rivojlantirishga doir qator ilmiy izlanishlar olib borilmoqda.

M. Vohidov “Bola o‘yinda qanday bo‘lsa, o‘sib-ulg‘aygach, ishda ham ko‘pincha, ko‘p jihatdan shunday bo‘ladi” (Ehtiyoj, moddiy dunyoga munosabat, o‘z-o‘ziga munosabat, iroda, hissiy tuyg‘u, bilish jarayonlari) deb ta’kidlaydi[1]. Dar haqiqat, o‘yin jaronida bola har tomonlama rivojlanadi, atrof-olam haqidagi tasavvurlari kengayib o‘ziga va o‘zgalarga bo‘lgan munosabat jarayonlari shakllanib boradi.

[1] Вохидов, 1981, б. 34

Bu borada, A.M. Leont'ev – "Har bir sog'lom bola xorijiy tilni o'rganishi shart hamda bemalol muloqotga kirisha olishi zarur…, ammo shunday hodisa amalga oshadimi, yo'qmi, bu ko'p jihatdan pedagog mahorati va o'qitishning metodik qo'llanmasiga bog'liq" deb ta'kidlaydi[2].

Albatta birgina ingliz tilini emas, boshqa tillartni ham o'rganish bolaning o'ynab turib, dunyo tanishiga olib keladi. Lekin shuni unitmaslik lozimki, bolalarning psixofiziologik rivojlanishini ham unitmasligimiz o'rinli bo'ladi. Bolaning birinchi biologik, genitik, tarixiy, psixofiziologik rivojlanish nuqtai nazardan yondashadigan bo'lsak, o'z ona tilini ravon so'zlasha oladigan, menlik, o'zlik tushunchalarini anglagandan so'ng boshlash ilmiy, amaliy jihatdan to'gri bo'ladi. Chunki ona allasi orqali bola o'zligini tanisa, o'z ona tilida ravon gapirib tushunchalar shakllansagina sharqona qadriyat, an'ana, madaniyat vujudida shakllanadi.

Bolaning ovoz paylari, nutq apparatlari ichki a'zolar faoliyati, miya faoliyati ham biologik rivojlanishni talab etadi.

Darhaqiqat ikkinchi tilni o'rganishning ham tayyorlanish bosqichi vazifasini o'taydi. Shundagina bolada etnik munosabatlarning ilk tushunchalari metodik, psixofiziologik, genitik jihatdan to'g'ri shakllanadi.

Oddiy tilda inson oshqozoni har xil taomni hazm qila olmaganidek, bola organizmida ham rivojlanishida aralash menlik shakllanadi. Bu esa ma'lum yoshga borganida o'z qadriyatlari, an'ana va urf-odatlarimizga nisbatan munosabatlarida ma'lum ma'noda kamchiliklari sezilib qoladi.

Albatta bugungi kunning talabi ham har tomonlama sog'lom, jismonan barkamol, global miqyosda fikrlay oladigan, etnik munosabatlari shakllangan inson qiyofasini shakllantirishni taqozo etmoqda.

Ushbu muammolarni hal etishda maktabgacha ta'lim tizimida inson kapitalini shakllantirish va uning mexanizmlarini metodologik jihatdan to'g'ri yondoshishni talab etadi.

Ingliz olimi Ch. Bramfitning ta'kidlashicha, bolalar o'yin orqali xorijiy tilni o'rgana olishadi, ular shu til bilan do'stlashib olishadi. "O'yin shunday kuchga egaki, u nafaqat bolalarning kayfiyatini ko'tara oladi, balki ularga xorijiy tilni o'rganishlarida ruhiy kuch bag'ishlay oladi"[3].

Til o'rganishda o'yin faoliyatini tashkil etishning samaradorligi:

– bolalarning yosh va individual rivojlanishiga o'yin faoliyatini mavsumiy xarakteriga davomiyligi, hafta kunlari, kunning qaysi vaqt oralig'i tashkil etilishi kabi metodik ta'minoti ham ikkinchi tilni o'rganishda muhimligi;

– xonaning jihozlanishi ham til o'rganishda katta ahamiyat kasb etadi. Bolalar o'ynaydigan xonada til o'rganish texnologiyalarni qo'llash, jihozlarni o'rnini tez-tez almashtirib turish, mazmun va shakl tanlashda oddiydan murakkabga ketma-ketlik asosida tashkil etish;

– ingliz tilida tadbirlar tashkil etish;

– mashg'ulot davomida harakatli mashqlardan foydalanish.

Bolalarni diqqatini jamlashga, kayfiyatini ko'tarib, emotsiyalarini rivojlantirishga olib keladi.

Bola ko'tarinki kayfiyatda bo'lishi faoliyatga nisbatan harakat aktivligini rivojlantirib, kommunikativ qobiliyatlarini ham rivojlantiradi.

[2] Leontyev,1985, – 24-29 b.

[3] Bramfit,1991y.

Xulosa qilib aytganda, inson kapitalini maktabgacha ta’lim tizimida ikkinchi tilni o‘rgatish asosida shakllantirish insoniyatning va har bir davlatning kelajagi va ertangi kuni uchun raqobatbardosh kadrlar salohiyatini yuksalishiga xizmat qiladi. Inson kapitali – bu millatning birlashgan imkoniyatlar yig‘indisidir.

Zamonaviy dunyoda yuqori texnologiyalrni ixtiro qilish, ishlab chiqarishga joriy etish va ularni yanada mukammallashtirib borish, iqtisodiy hayotning barcha sohalarida innovatsion yangi turdagi mahsulotlar va texnologiyalarni joriy etish, kamida bir necha tillarni mukammal egallagan inson kapitalining mexanizmlari shakllangan mamlakatda va uning mahsuli sifatida yuqori salohiyatga ega kadrlarni talab etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar :

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-4947-sonli Farmoni.

2. 2019-yil 8-oktyabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PQ-5847-sonli Farmonlari.

3. 2020-yil 27-fevraldagi “Pedagogik ta’lim sohasini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4623-sonli Qarori.

4. 2018-yil 5-iyundagi “Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta’minlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida’’gi PQ-3775-sonli Qarorlari.

5. Shavkat Mirziyoyev “Yangi O‘zbekiston – Taraqqiyot Strategiyasi”. To‘ldirilgan ikkinchi nashri. – T.: ”O‘zbekiston” nashriyoti, – 2022 y.

6. Jabborova D., Ergasheva G. , Ergasheva X. Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida ingliz tilini o‘rgatish metodikasi. – 2021 y. (o‘quv qo‘llanma).

Kenjabek MASHARIPOV,
T.N. Qori Niyoziy nomidagi O‘zbekiston pedagogika fanlari ilmiy-tadqiqot instituti Qoraqalpog‘iston filiali mustaqil izlanuvchisi

UZLUKSIZ TA’LIM TIZIMIDA KASBGA YO‘NALTIRISH ISHLARINI TAKOMILLASHTIRISHNING DOLZARBLIGI

Annotatsiya

Maqolada uzluksiz ta’lim tizimida kasbga yo‘naltirishning mazmun mohiyati, maktabgacha ta’lim muassasalarida hamda maktab o‘quvchilarini kasbga yo‘naltirish va maktab o‘quvchilarini kasbni mustaqil tanlashga tayyorlashning nazariy-metodologik yondashuvlari, shuningdek, yuqori sinf o‘quvchilarini kasbni mustaqil tanlashlari to‘g‘risida fikr yuritilgan.

Kalit so‘zlar. Shifokor, bog‘bon, oshpaz, haydovchi, kashtachilik, kulolchilik san’ati, o‘t o‘chiruvchilar, uchuvchi, quruvchi, kommunikativ, kasbiy moslashish.

В статье отражена сущность профориентации в системе непрерывного образования, профориентации в дошкольных учреждениях, теоретико-методологические подходы к профориентации школьников, подготовка школьников к самостоятельному выбору профессии и самостоятельный выбор профессии учащимися старших классов.

Ключевые слова. Врач, садовник, повар, водитель, вышивка, гончарное искусство, пожарный, летчик, строитель, коммуникабельность, профессиональная адаптация.

The article reflects on the essence of vocational guidance in the system of continuing education, vocational guidance in preschool institutions, theoretical-methodological approaches to vocational guidance of schoolchildren, preparation of schoolchildren for independent selection of the profession, and independent choice of the profession for upper-class students.

Key words. Doctor, gardener, Cook, driver, embroidery, pottery art, firemen, pilot, builder, communicative, professional adaptation.

Respublikamizda so‘ngi yillarda ta’lim sohasiga katta e’tibor qaratilmoqda. Zamonaviy maktablar qurilishi, maktablarning moddiy texnika bazasini mustahkamlash, pedagoglar uchun sharoitlar yaratish, o‘quv-laboratoriya jihozlari va o‘quv majmualar bilan ta’minlash shular jumlasidandir. Shuningdek, umumta’lim maktablari 11 yillik ta’limga o‘tilgandan so‘ng o‘quvchilarni kasb-hunarga yo‘naltirish ishlari dolzarb vazifa sifatida qaraldi. Hozirgi kunda umumta’lim maktablarida o‘quvchilarni kasbga yo‘naltirish ishlari jadal olib borilmoqda. Bu ishlarni amalga oshirish maqsadida bir qancha qarorlar qabul qilindi. Jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-4947-son Farmoni hamda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 15-martdagi “Umumiy o‘rta ta’lim to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida”gi, 2017-yil 24-oktabrdagi “Umumiy o‘rta ta’lim muassasalarining 10-11-sinf o‘quvchilariga kasbiy ta’lim berishga ixtisoslashgan o‘quv-ishlab chiqarish majmualarini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 868-son Qarorlari aynan shu masalalarga qaratilgandir. Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Umumiy o‘rta ta’lim muassasalarining 10-11-sinf o‘quvchila-

rini kasb-hunarga tayyorlash” 2021-yil 30-dekabrdagi 792-sonli Qarorida o‘quvchilarni kasb-hunarga tayyorlash, uzluksiz ta’lim tizimida ularning kasb-hunar o‘rganishga bo‘lgan ehtiyojini qondirish, boshlang‘ich kasbiy bilim va ko‘nikmalarga ega kadrlarni shakllantirishga e’tibor qaratilgan.

O‘quvchilarni kasbga yo‘naltirish uzluksiz ta’lim tizimida boshlang‘ich sinflardan boshlanadi. Umumiy o‘rta ta’lim maktablarida uzluksiz kasb-hunarga yo‘naltirish to‘rt bosqichdan iborat bo‘lib, maktabgacha ta’lim muassasalari tarbiyalanuvchilari, boshlang‘ich, o‘rta va yuqori sinf o‘quvchilarining yosh xususiyatlarini inobatga olgan holda uzluksiz kasb-hunarga yo‘naltirish ishlarini olib borish hamda mehnat qilish ko‘nikmasini, malakalarini rivojlantirishga mo‘ljallangan dastur amaliyotga kiritilgan. Mazkur dasturda kasb-hunarga yo‘naltirishning aniq maqsadlari, vazifa va yo‘nalishlari, maktab o‘quvchilari bilan olib boriladigan kasb-hunarga yo‘naltirish ishlarining bosqichlari belgilab berilgan. “Maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo‘yiladigan davlat talablari” asosida, maktabgacha ta’lim tizimidagi barcha muassasalarda kasb-hunarga yo‘naltirish “Bolajon” tayanch dasturi asosida quyidagicha olib borilgan:

– kichik (3-4 yosh) guruh bolalarini enaga, oshpaz, qorovul, hamshira, bog‘bon, sotuvchi mehnati haqida tanishtirish hamda kir yuvuvchi va haydovchilar mehnati haqida suhbat qilish;

– o‘rta (4-5 yosh) guruh bolalarda kattalar mehnatiga hurmat va qiziqish hissini tarbiyalash, o‘zbek xalqining milliy hunarmandchiligi, duradgorlik, dehqon mehnati bilan tanishtirish, o‘z tarbiyachisi va boshqalar mehnati haqidagi tushunchalarini kengaytirish hamda bog‘bon va quruvchi mehnatini kuzatish ishlarini olib borish;

– katta (5-6 yosh) guruhda (mashinasoz, tikuvchi, kosib, nonvoy, oshpaz, o‘ymakor, bo‘yoqchi, haydovchi) kasblar bilan tanishtirish ishlarini olib borish;

– tayyorlov (6-7 yosh) guruh bolalarining kattalar mehnati haqidagi tasavvurlarini rivojlantirish, kishilar mehnatiga hurmat hissini tarbiyalashni davom ettirish.

Umuman maktabgacha ta’limda bolalarga dehqonchilik, chorvachilik, kulolchilik, tikuvchilik, shifokor, bog‘bon, oshpaz, haydovchi, kashtachilik va kulolchilik san’ati va boshqa kasb bilan tanishtiriladi va ularda kasbga bo‘lgan qiziqishlari o‘yg‘otiladi hamda umumiy o‘rta ta’lim maktabida kasb-hunarni mustaqil tanlashlariga zamin bo‘ladi.

Ta’limda uzviylik va uzluksizlikni ta’minlash yaxshi natijalar beradi. Shu boisdan yuqorida qayd etilgan dasturning ikkinchi bosqichining vazifasi “Kim bo‘lsam ekan?” boshlang‘ich kasb-hunarga yo‘naltirishdir. Kasb-hunarga yo‘naltirish ishlari boshlang‘ich sinflarda (1-4-sinflar) kichik maktab yoshidagi o‘quvchilar uchun (6-9 yoki 7-10 yoshlilar) tashkil etadi. Boshlang‘ich kasb-hunarga yo‘naltirishning asosiy maqsad va vazifalari quyidagilardan iborat:

– umumiy o‘quv, mehnat va kommunikativ malaka va ko‘nikmalarini rivojlantirish (biror bir kasb uchun ahamiyatli bo‘lgan o‘quv fanlarini o‘zlashtirish bilan bog‘liq);

– kichik maktab yoshidagi o‘quvchilarning iqtidorini, qobiliyatini aniqlash, ota-onalar uchun tavsiyalar ishlab chiqish;

– rivojlantiruvchi va o‘rgatuvchi kasbiy o‘yinlar (kichik maktab o‘quvchilariga o‘yin, o‘quv va kommunikativ faoliyatlari bilan birgalikda kasbiy ma’lumot berish);

– o‘quv darslari, “texnologiya darsi”, “kasbga yo‘naltirish darslari” konkurslar (mehnat va ijodiy, o‘quv faoliyat jarayonida kasbiy ma’lumot).

Bunda kasb-hunarga yo‘naltirish ishlari o‘rta sinflarda (V-VI-VII-sinflar) kichik umumiy o‘rta ta’lim maktablarining kichik va o‘rta yoshdagi o‘smirlar uchun 11- 12, 13 -14 yoshlilar) tashkil etiladi va amalga oshiriladi.

Dasturdagi uzluksiz ta’limning to‘rtinchi bosqichi: “Men orzu qilgan kasb”, “Shaxsning kasbiy yo‘nalganligini shakllantirish va rivojlantirish”. Kasb-hunarga yo‘naltirish ishlari umumiy o‘rta ta’lim maktablari (8-9-sinflar) katta yoshdagi o‘smirlar uchun (15-16 yoshlilar) tashkil etiladi va quyidagicha amalga oshiriladi:

– kasbiy faoliyatning taniq sohasiga kasbiy qiziqishni shakllantirish va rivojlantirish, aniq kasb, mutaxassis va tayyorlov yo‘nalishini ongli ravishda tanlashi (akademik litsey yoki kasb-hunar maktabi).

Uzluksiz va uzviylik printsipiga asoslangan dasturning keyingi beshinchi bosqichi:

– “Kasbiy moslashish, kasbiy o‘sish va shaxsning o‘z-o‘zini rivojlantirish”; yoshlarning kasbiy moslashishi, kasbiy o‘sish va shaxsning o‘z-o‘zini rivojlantirishi kasb-hunar ta’limi muassasalarida amalga oshiriladi.

Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, o‘quvchilarni kasb-hunarga tayyorlashning maqsadi kasb bo‘yicha ijodiy fikrlaydigan, tashkilotchilik, tadbirkorlik ko‘nikmalariga ega bo‘lgan shaxsni tarbiyalash hamda ularning qiziqish va qobiliyatlaridan kelib chiqib kasb-hunar tanlashda ko‘maklashishdan iborat.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-4947-son Farmoni.

2. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Umumiy o‘rta ta’lim muassasalarining 10-11-sinf o‘quvchilarini kasb-hunarga tayyorlash” 2021-yil 30-dekabrdagi 792-sonli Qarori.

3. Turg‘unov A.A. “Kasbga yo‘naltirish”. O‘quv qo‘llanma. – T., – 2019 y.

Dilara SHARIPOVA,
Pedagogika fanlari doktori, professor
Ibrohim IBROHIMOV,
IIV Akademiyasi, "Avtomobil tayyorgarligi" kafedrasi o'qituvchisi

YO'L HARAKATI XAVFSIZLIGIDA PIYODALARNING O'RNI – PEDAGOGIK ASPEKT (Koriya tajribasi asosida)

Annotatsiya

Ushbu maqolada mamlakatimizda piyodalar o'rtasidagi yo'l-transport hodisalarining kelib chiqish sabablari, Koreya tajribasi orqali yo'l transport hodisalarini oldini olish borasida amalga oshirilgan ishlar, yo'l-transport hodisalarini oldini olish borasida ta'lim dargohlarida targ'ibot-tashviqot ishlarini olib borilishi yoritilgan.

Kalit so'zlar. Piyoda, yoshlar o'rtasida yo'l-transport hodisasi, yangicha yondashuv, Koreya tajribasi, ta'lim muassalarida targ'ibot.

В данной статье разъясняются причины возникновения дорожно-транспортных происшествий между пешеходами в нашей стране, предпринимаемые действия по предупреждению дорожно-транспортных происшествий, проведение пропагандистской работы в образовательных учреждениях по предупреждению дорожно-транспортных происшествий.

Ключевые слова. Пешеход, дорожно-транспортное происшествие среди молодежи, новый подход, продвижение в образовательных учреждениях.

This article explains the causes of road traffic accidents between pedestrians in our country, the actions taken to prevent road accidents, the conduct of propaganda work in educational institutions for the prevention of road accidents.

Key words. Pedestrian, traffic accident among young people, new approach, promotion in educational institutions.


Bugungi kunda O'zbekistonda avtomobil sanoati o'sgani sari insonlarning yo'l transport hodisalaridan jabr ko'rish ehtimoli oshib bormoqda. Bu kabi yo'l-transport hodisalarini kamaytirish bo'yicha 2022-2026-yillarga mo'ljallangan dastur tasdiqlandi.

Eng mushkul muammo kunning qorong'i vaqtida haydovchilarga piyodalar ko'rinishi hisoblanadi. Statistik ma'lumotlarga ko'ra, qorong'ida piyodalar bilan bog'liq YTHlari umumiy YTHlarning 39,5 foizni tashkil qiladi, tunda esa bu ko'rsatkich taxminan 10 foizga oshadi. Buni ham hisobga olsak, piyodalar uchun kunning qorong'i paytida YTHga uchrash xavfi 43,9 foizgacha ortadi. Bu esa, YTHga uchragan piyodalar o'limining uchdan ikki (2/3) qismini, ya'ni 69,1 foizni tashkil qiladi.



Yo'l harakati xavfsizligini ta'minlash maqsadida piyodalar o'tish joylarida harakat xavfsizligini yaxshilash uchun maxsus vositalar bilan jihozlash bo'yicha ko'plab usullar ishlab chiqilgan.

Bugungi kunda piyodalar o'tish joylarini tashkil qilishning quyidagi usullari mavjud:



Yo‘l transport hodisalarining sutka vaqt oralig‘ida oladigan bo‘lsak, kuning soat 07:00-12:00 gacha 60,7 foizni, 19:00-24:00 ga qadar 39.3 foizni tashkil etadi.

Bu kabi yo‘l transport hodisalarini oldini olishda quyidagi ishlar amalga oshirilmoqda.

Yon tomonlarda asosiy yoritgichlarning led chiroqlari va lampalarini joylashtirish; haydovchilarni piyodalar o‘tish joyi borligi haqida oldindan ogohlantiruvchi majmualarni o‘rnatish kabi usullardan foydalaniladi.

Sun’iy yo‘l noravonlik (Лежачий политсейский) – yo‘l harakati tezligini majburan cheklash maqsadida yo‘lga o‘rnatilgan avtomobil tezligini sun’iy so‘ndirish vositasi.



Piyodalar o‘tish joylarini yoritish.

Yuqori sifatli rezinadan tayyorlanadi va alohida qismlardan kerakli yo‘l qismiga yig‘iladi, nisbatan ko‘p harajat talab qilmaydi. Sun’iy yo‘l noravonliklar maktablar atrofida, gipermarketler va tartibga solinmagan piyodalar o‘tish joylarida qo‘llaniladi.


Shovqin tasma (шумовые полосы). Shovqin tasmaning kengligi 120 mm va balandligi 20 mm bo‘lgan monolit kauchukdan tayyorlanadi. Uning uzunligi 150 sm dan boshlanadi. Shovqin tasma yo‘l yuzasida uning butun kengligi bo‘ylab ketma-ket joylashtiriladi. Tezlik chegarasiga qarab uchtadan olti tasmali qilib o‘rnatiladi. Xavfli yo‘l bo‘laklari oldidan uchta shovqin tasma bir-biridan qisqa teng masofada, boshqa uchta tasma esa, bir-biridan 1,5, 2 va 2,5 marta ortiq masofada joylashtiriladi.



Shovqin tasma quyidagilar uchun mo‘ljallangan:

1. Xavfli hududga kirishdan oldin (tartibga solinmagan piyodalar o‘tish joylari, tartibga solinmagan kesishmalarda);
2. Xavfli hududga yaqinlashganda, avtomobil tezligini majburiy kamaytirish;
3. Avtoturargohlarda to‘xtash joylarini ajratish;
4. Aholi yashash punktlaridaga yaqin joylarda (jamoat joylari-do‘konlar, gaz taqsimlash punktlari, maktablar va hokazolar).

Qatnov qisminining butun kengligi bo‘ylab birbiriga parallel bo‘lgan bir necha bo‘laklarni o‘rnatish orqali bir xil chastota bilan harakatlanganda shovqin ta’siriga (yengil zarb) erishiladi. Shovqin haydovchini yuqori xavfli hududda ekanligi haqida ogohlantiradi.



Shovqinli tasma maxsus yorug‘lik qaytaruvchi plyonka bilan jihozlangan bo‘lib, u avtomobil chiroqlari (faralari)da ko‘zga ko‘rinadi.

Yo‘l transpolrt hodisasi turlari bo‘yicha tahlil qilinganda:

– Yo‘l-transport hodisalrining 54,5 foiz Piyodalar ishtiroki oqibatida sodir etilganligi, bu yo‘l-transport hodisalarining kelib chiqish sabablari o‘rganilganda 18 foiz haydovchilarning piyodalarga yo‘l bermasligi;

– 17 foiz haydovchilarning tajribasizligi, 3 foiz haydovchilar tomonidan svetafor va yo‘l belgilariga rioya qilinmasligi;

– 8 foiz harakatni tashkil etishdagi muammolar; 31 foiz haydovchilar tomonidan belgilangan tezlikka rioya etmasligi;

– 7,8 foiz piyodalar va velosipedchilar xavfsiz harakatlanishi uchun yo‘lkalar yaratilmaganligi;

– 6,7 foiz piyodalar tomonidan yo‘l harakati qoidalarini buzgan holda belgilanmagan joydan harakatlanib o‘tganligi;

– 5,3 foiz piyodalar o‘tish joyi yaratilmaganligi sababli belgilanmagan joylardan o‘tish oqibatida sodir etilgan bo‘lib, shuningdek 3,1 foiz mast holda transport vositasini boshqarish; 4.2 foiz yo‘lovchi yoki yuk tashish qoidalarini buzganligi;

– 2 foiz harakat davomida telefondan foydalanish oqibatida sodir bo‘lganligi, yo‘l-transport hodisalaring sodir etilishiga imkon bergan shart-sharoitlarni o‘rganish davomida yo‘l-harakatini tashkil etish va yo‘l infrotuzilmasidagi kamchiliklar sabab bo‘lganligi;

– 24,7 foiz yo‘l chiziqlari chizilmaganligi, eskirib ko‘rinmaydigan holatga kelib qolganligi;

– 18,09 foiz yo‘lning sun’iy yoritilmaganligi;

– 12,7 foiz yo‘l belgilari yo‘qligi yoki svetafor nosozligi;

– 4,4 foizi yo‘l qoplamasining nosozligi oqibatida sodir etilgan.

O‘zbekiston Respublikasi hududidagi avtomobil yo‘llarida piyodalar va bolalarning o‘rni beqiyos. Birlashgan millatlar tashkilotining 1989-yildagi Bola huquqlari to‘g‘risidagi konvensiyasida har bir bola o‘z farovonligi uchun zarur himoya va g‘amxo‘rlikka ega bo‘lishi lozimligi ta’kidlangan. Bundan tashqari, xalqaro hujjatda “har bir bola yashash uchun ajralmas huquqa ega” va “tomonlar bolalarni parvarish yoki himoya qilish uchun mas’ul bo‘lgan muassasalar, xizmatlar va tashkilotlarning vakolatli organlari belgilab bergan standartlarga bo‘ysunishni, xususan, xavfsizlik sohasida muvofiq bo‘lishni ta’minlaydilar” deb ko‘rsatilgan. Olib borilgan islohotlar natijasida bolalarning avtohalokatdagi o‘limi holatlarini sezilarli kamaytirishga erishishgan. Birgina Koreya Respublikasini misol qiladigan bo‘lsak, mazkur davlat bolalarning avtohalokatdagi o‘limi holatlarini 1988-2022-yillar mobaynida 95 foizga tushirishga muvaffaq bo‘lgan.

Bolalar ishtirokidagi yo‘l-transport hodisalarini kamaytirish uchun Koreyada turli choralar ko‘rib borilgan. Maktablar yaqinidagi yo‘llar holatini yaxshilash, bolalar uchun maktab avtobuslarining xavfsiz qatnovini ta’minlash, bolalarga yo‘l harakati xavfsizligi bo‘yicha sifatli ta’lim berish, yo‘l harakati xavfsizligiga ixtisoslashgan fuqarolik guruhlarini qo‘llab-quvvatlash, tegishli qonunchilik bazasini mustahkamlash dasturlari shular jumlasidan.



Qonunchilikdagi islohotlar natijasida bolalarning nafaqat piyoda sifatidagi huquqlari, balki ularning harakatlanish huquqlari ham kengroq ishlab chiqilgan. Oddiy piyoda yu-

rish konsepsiyasidan ko‘ra ko‘proq masalalarni o‘z ichiga qamrab oluvchi normativ hujjatlar qabul qilingan. Misol sifatida ‘‘Yo‘l harakati to‘g‘risidagi qonun’’ (Road Traffic Act), ‘‘Yo‘l-transport hodisalarini bartaraf etishga oid maxsus ishlar to‘g‘risidagi qonun’’ (Act on Special Cases Concerning the Settlement of Traffic Accidents), ‘‘Yo‘l harakati xavfsizligi to‘g‘risidagi qonun’’ (Traffic Safety Act), ‘‘Avtotransport vositalarini boshqarish to‘g‘risidagi qonun’’ (Motor Vehicle Management Act) kabilarni sanab o‘tish mumkin.

Bu qonunlarda ishlab chiqarilayotgan avtomobillarda bolalar o‘rindiqlari o‘rnatilishi lozimligi, tezyurar avtomagistrallarda harakatlanish tartibi, maktab va bog‘cha avtobuslari va ularning haydovchilariga bo‘lgan talablar, bolalar va piyodalarga yo‘l-harakati xavfsizligi bo‘yicha bilim berish mexanizmlari, yo‘l infratuzilmalarining talablari va shunga o‘xshash tartiblar belgilab qo‘yilgan.

Maktab zonalari loyihasi.

Avtohalokatlarni kamaytirish va oldini olish maqsadida hukumat 1995-yilda maktab zonasi dasturini joriy qildi. 1997-yilda esa Koreyada ro‘yxatdan o‘tgan transport vositalari 10 milliondan oshganda huquqni muhofaza qilish organlari tezlikni oshirish yoki chorrahalarni noqonuniy kesib o‘tish natijasida kelib chiqqan to‘qnashuvlarning oldini olish uchun avtomatik yo‘l harakati xavfsizligi kameralaridan foydalanishni boshladi.



Bu dasturga asosan, ‘‘maktab zonasi’’ deganda bolalarni ta’lim muassasalariga borishda va undan qaytishda yo‘l harakati xavfsizligi vositalari o‘rnatiladigan va boshqariladigan joy tushuniladi. Koreyaning ushbu tizimi bolalar bog‘chalari, boshlang‘ich maktablar, maxsus maktablar va xususiy maktablar yoki 100 va undan ortiq bolalar foydalanadigan bolalar muassasalariga xavfsiz yo‘nalishlarni ta’minlash orqali bolalar ishtirokidagi yo‘l-transport hodisalarining oldini olishga qaratilgan.

Maktab zonalarida avtomobil va boshqa turdagi transport vositalarning harakat tezligi maksimum 30 km/s etib belgilangan. Shu maqsadda yo‘l harakati xavfsizligi vositalari va belgilari ushbu obyektlarning asosiy darvozasidan 300 m radiusda yo‘lning ma’lum qismlariga o‘rnatiladi. Hozirgi kunda Koreyaning ko‘pgina katta va yangi qurilayotgan shaharlarida koreyalik olimlar va davlat xizmatchilari maktab zonalari tizimini yanada takomillashtirish va ‘‘Aqlli shahar’’ (Smart City) talablariga mos keladigan ravishda barpo etish ustida ish olib borishmoqda.

Vonju shahridagi maktablarning biridagi ko‘cha Yo‘lga ‘‘Bolalar uchun xavfsiz maskan’’ yozuvi tushirilgan.



Koreyadagi yana bir muhim tamoyillardan biri – bu haydovchilar tomonidan yo‘l harakati qoidalari maktab zonalari va bolalar ko‘p bo‘lgan maxsus hududlarda buzilgan taqdirda jarimalar 2 yoki 3 barobar to‘lanishidir.

Birinchi toifa – bu politsiya (yoki boshqa davlat tashkilotlari) yoki maktab talablaridan kelib chiqib tashkil etilgan fuqarolik jamiyati tashkilotlari. Koreyada eng ko‘zga ko‘ringan bunday tashkilotlarga **Koreya yashil onalar jamiyati** (the Korea

Green Mothers Society) va **Koreyaning eng yaxshi haydovchilari uyushmasi** (the Korea Best Driver Association)ni misol qilib olish mumkin.

Koreya yashil onalar jamiyati boshlang‘ich maktablardagi onalar guruhlaridan tashkil etilgan bo‘lsa, ikkinchi tashkilot to‘g‘ridan-to‘g‘ri politsiya bilan bog‘liq. Bu jamiyatlar Koreya hukumatining yo‘l xavfsizligi bo‘yicha o‘tkaziladigan tadbirlarida faol ishtirok etishadi va ularni tashkil etishda muhim rol o‘ynashadi. Misol uchun, Koreya yashil onalar jamiyatining mamlakat bo‘ylab deyarli 5700 ta filiali va 530 ming a’zosi mavjud bo‘lib, xalqaro olimpiada va FIFA Jahon kubogi kabi global tadbirlarni tashkillashtirishda ham bevosita qatnashib, yo‘l harakati xavfsizligini ta’minlashga o‘z hissalarini qo‘shib kelishadi. Buning rag‘batiga esa, ular Koreya hukumati tomonidan turli xil qo‘llab-quvvatlovchi yordam hamda sovg‘alar olishadi.



Koreyaning eng yaxshi haydovchilari uyushmasi a’zolari esa asosan tijoriy avtotransport haydovchilaridan iborat bo‘lib, hafta kunlaridagi kunning tig‘iz vaqtlarida yuzaga keladigan tirbandliklarning oldini olish, yo‘l harakatining o‘z maromida davom etishi va bolalar ishtirokida baxtsiz hodisalar yuzaga kelmasligini ta’minlash maqsadida politsiya xizmatiga yordam berib turishadi.

Koreya yashil onalar jamiyati a’zosining Seul shahridagi faoliyati.

Ikkinchi toifaga esa yo‘l avtotransporti bilan bog‘liq baxtsiz hodisalarda o‘z farzandlarini yo‘qotishdan azob chekkan oilalar tomonidan tashkil etilgan fuqarolik jamiyatlari kiradi. Koreyada ushbu toifadagi eng ko‘zga ko‘ringan guruhlar – **Koreya bolalar harakati xavfsizligi uyushmasi** (the Korea Association for Children’s Traffic Safety) va **Koreya bolalar xavfsizligi fondi** (the Korea Child Safety Foundation). Bu tashkilotlar a’zolari o‘z mablag‘lari evaziga bolalarning yo‘l harakati xavfsizligini ta’minlashga harakat qiladilar.

Uchinchi toifadagi guruhlar bolalar ishtirokidagi yo‘l-transport hodisalari muammosini hal qilishda yuzaga keladigan ijtimoiy zaruriyatlar asosida tuzilgan jamiyatlar hisoblanadi. **Yashil transport** (Green Transport), **Koreyaning xavfsiz farzandlari** (Safe Kids Korea) va **Bolalar xavfsizligi maktabi** (the Kids Safety School) kabi tashkilotlar uchinchi toifani tashkil etadi.

Ushbu fuqarolik guruhlari transport bilan bog‘liq amalga oshirilishi kerak bo‘lgan islohotlar bo‘yicha Koreya hukumatiga o‘z takliflarini bildirib borishadi. Bolalarning yo‘l harakati xavfsizligi masalalarini olib chiqish va yo‘l-transport hodisalarini bartaraf etish bo‘yicha ko‘ngilli xizmat ko‘rsatish dasturlarida ishtirok etadilar.

Birgina Koreya misolida ko‘rishimiz mumkinki, fuqarolik jamiyati va hukumat o‘rtasidagi faollik va birlashuv asosida qurilgan hamkorlik jamiyatdagi katta muammolardan biriga salmoqli yechim topishga va to‘g‘ri boshqaruv tizimini yo‘lga qo‘yishga yordam beradi.

Xulosa o‘rnida shuni shuni ta’kidlash joizki, bolalar ishtirokida yo‘l harakati xavfsizligi Koreyaga xos bo‘lishi, Koreya tajribasi singari bolalar yo‘l harakati xavfsizligini ta’minlash modelini bizda tadbiq etish, ‘‘Piyodalar ishtirokida yo‘l transport hodisalarini oldini olish” mavzusida konkurslar tashkil etilib, eng yashi ishtirokchi naminatsiyasi aniqlanib, har bir ishtirokchini taqdirlash, maqsadga muvofiq, deb hisoblaymiz.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining ‘‘O‘zbekiston Respublikasi jamoat xavfsizligi konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida’’ 2021-yil 29-noyabrdagi PF-27-son Farmoni hamda ‘‘Avtomobil yo‘llarida inson xavfsizligini ishonchli ta’minlash va o‘lim holatlarini keskin kamaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida’’ 2022-yil 4-apreldagi PQ-190-son Qaroriga asosan O‘zbekiston Respubldikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 26-apreldagi “Ta’lim muassasalarida yo‘l harakati qoidalari targ‘ibotini kuchaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 212-son Qarorning mazmun mohiyati va undagi talablarga qat’iy rioya qilinsa, yo‘l transport xodisalarini sodir etilishi kamayishiga olib keladi, bu esa o‘z navbatida jamiyatimizda yashayotgan har bir fuqaroning hayoti va sog‘lig‘i hamda moddiy ahvoli saqlanib qolinishiga olib keladi

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyev rahbarligida 2022-yil 11-fevral kuni o‘tkazilgan videoselektor yig‘ilishida “Xavfsiz va ravon yo‘l” tamoyili.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyev tomonidan 2022-yilning 4-aprel kunidagi “Avtomobil yo‘llarida inson xavfsizligini ishonchli ta’minlash va o‘lim holatlarini keskin kamaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risda”gi PQ-190-sonli Qarori.

3. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 26-aprelda “Ta’lim muassasalarida yo‘l harakati qoidalari targ‘ibotini kuchaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 212-son Qarori.

4. WWW.Gov.uz .

5. WWW.KUN.uz .

Voxid KARAYEV,
Chirchiq davlat pedagogika universiteti,
"Jismoniy madaniyat nazariyasi" kafedrasi v/b dotsenti, PhD

SPORT HAKAMLARINI TAYYORLASHDA KOMPETENSIYAGA ASOSLANGAN YONDOSHUV

Annotatsiya

Maqolada sport hakamlarini tayyorlashda kompetensiyaga asoslangan yondashuv asoslab berilgan, hamda ushbu yondashuvning nazariy asoslari tahlil qilinib, uning samaradorligini sinab ko'rish uchun eksperimental ma'lumotlar keltirib o'tilgan.

Kalit so'zlar. Hakamlik kompetentligi, kasbiy kompetentlik, modernizatsiya, mintaqaviy xususiyatlar, vatanparvarlik ruhi, innovatsiya.

В статье обоснован компетентностный подход в подготовке спортивных судей, а также проанализированы теоретические основы этого подхода и приведены экспериментальные данные для проверки его эффективности.

Ключевые слова. Судейская компетентность, профессиональная компетентность, модернизация, региональные особенности, патриотизм, инновация.

The article substantiates the competence-based approach in the training of sports referees, as well as analyzes the theoretical foundations of this approach and provides experimental data to test its effectiveness.

Key words. Judicial competence, professional competence, modernization, regional peculiarities, patriotism, innovation.

Bugungi kunda umumta'lim muassasalari faoliyatini samarali tashkil etishda ta'lim sifatini yuqori bosqichga ko'tarish hamda mavjud muammolarni o'z vaqtida hal etish talab etilmoqda. Oliy ma'lumotli mutaxassis kompetentligining ushbu ta'rifida kasbiy tayyorgarlikning natijasi ifodalangan bo'lib, uning asosiy maqsadi shaxsning turli kasbiy muammolarini ko'rish, tushunish, baholash hamda ularni konstruktiv ravishda hal qilish, har qanday qiyinchilikni keyingi rivojlanishning rag'batlantiruvchi omili sifatida oldindan ko'ra olish ko'nikmalarini shakllantirishdan iborat. Kompetensiyali yondashuv bilimlarni inkor qilmaydi, lekin olingan bilimlarni amaliyotda qo'llashga asosiy urg'u beradi. Shundan kelib chiqqan holda aytish mumkinki, jismoniy tarbiya o'qituvchisining hakamlik kompetentligi uning pedagogik faoliyatini amalga oshirishga nazariy hamda amaliy jihatdan tayyorligini ifodalaydi va uning individual professiogrammasini tavsiflashi bilan ahamiyatlidir.

Yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash va aholi jismoniy tarbiyasini amalga oshirish orqali sog'lomlashtirish, shaxsni barkamol va har tomonlama kamol toptirishda sportni uzluksizligini ta'minlash jismoniy tarbiya va sport majmualarini joriy etish orqali amalga oshirilganligini, yaxshi samara berganligini jahonning ko'pgina rivojlangan mamlakatlarida kuzatish mumkin.

Ushbu maqsadga erishish quyidagi vazifalarni hal qilish jarayonida amalga oshiriladi:

a) odamlar sonining ko‘payishi, jismoniy tarbiya va sportga muntazam qiziqish;

b) aholining jismoniy tayyorgarligi darajasini oshirish;

v) aholida tizimli jismoniy tarbiyaga ongli ehtiyojlarni shakllantirish, madaniyat va sport, jismoniy o‘zini-o‘zi rivojlantirish va sog‘lom turmush tarzini saqlash;

d) aholining umumiy bilim darajasini oshirish, mustaqil ta’limni tashkil etish vositalari, usullari va shakllari, shu jumladan, zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanish;

e) jismoniy tarbiya, yoshlar, maktab va talabalar ommaviy sportini rivojlantirish tizimini modernizatsiya qilish, ta’lim muassasalari.

Kompleksning o‘ziga xosligi katta ta’lim salohiyati, shaxs, fuqarolik va vatanparvarlik, dunyoqarash asoslarini shakllantirishning eng kuchli mexanizmlaridan biri, chunki ixtiyoriylik va foydalanish imkoniyati, salomatlik va shaxsga yo‘naltirilgan yo‘nalish, majburiy tibbiy nazorat va mintaqaviy xususiyatlar va an’analarni hisobga olish tamoyillariga asoslanadi.

Kasbiy kompetensiya asosida jismoniy tarbiya va sport tadbirlarining asosiy hakamlar hay’ati va hakamlar jamoasi, ijtimoiy voqelikni tizimli idrok etish va unda tizimli ravishda harakat qilish, yo‘nalishi bo‘yicha erkin harakat qilish va standartlarni qabul qilish jarayonida tananing jismoniy holatini baholash insoniy xususiyat va zamonaviy texnologiyalarni o‘zlashtirish qobiliyat deb tushunamiz.

“Pedagog tomonidan kompetentlik sifatlari egallanishining asosiy omili nafaqat maqsadga erishish, balki, butun pedagogik faoliyatning qadrlanishini ta’minlash hisoblanadi. Yaqin kelajakdagi maqsadlar asosida kasbiy faoliyatning to‘liq natijalarini ta’minlash bevosita jarayonda usul va vositalarni to‘g‘ri tanlash bilan bog‘liq holda amalga oshiriladi. Shuning uchun mazkur faoliyatning maqsadini to‘g‘ri qo‘yish va mos ravishda vazifalarini belgilash kutilayotgan natijaga erishishni ta’minlaydi hamda o‘quv-tarbiya jarayonining samaradorligini oshishiga olib keladi”. Natijada esa pedagoglar kasbiy kompetentligida pedagogik empatiya va ijtimoiy refleksiya, kasbiy faoliyatga talabchanlik, umumiy madaniyat darajasi kabi uch asosiy sifat ko‘rsatkichi aks etadi. Yanada aniq ko‘rsatkichlarga esa motivatsiya, kognitivlik, va metodik kompetensiyalarga egalik, rivojlantiruvchi ta’lim dasturlari hamda o‘quv materiallarini tanlashga tayyorliklar kiradi: Ushbu sifatlarning har biri talabalar, otaonalar va pedagoglar o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlarrning mazmuni va natijasini belgilab beradi. Pedagog kompetentligiga tegishli asosiy sifat ko‘rsatkichlari ma’lum bir mezonlar asosida baholanadi. Kompetentlikni baholashda pedagogik faoliyat turlari hamda yo‘nalishlaridan kelib chiqqan holda, umumiy va xususiy mezonlarga tayaniladi.

Bizning fikrimizcha, kasbiy kompetentlik predmet sohasida erkin yo‘nalish olishni o‘z ichiga oladi deb hisoblanadi. Kompetentlik o‘qituvchi uchun nihoyatda muhim bo‘lgan uchta asosiy mezon bilan bog‘liq bo‘lib, zamonaviy pedagogik texnologiyalarni egallaganlikni ko‘zda tutadi. Ushbu mezonlarga quyidagilarni kiritish mumkin:

– o‘z predmet sohasi bo‘yicha yetarli ma’lumot olish, uni ta’lim mazmuniga aylantirish hamda undan mustaqil ta’lim olishda foydalanish ko‘nikmasi;

– kishilar bilan o‘zaro aloqaga kirishishdagi madaniy kommunikatsiya;

– o‘quv predmetiga oid ma’lumotlarni boshqalarga uzatish ko‘nikmasi.

Demak, bundan kasbiy-pedagogik kompetentlik quyidagi to‘rt asosiy komponentdan tarkib topadi, degan xulosaga kelish mumkin. Ular quyidagilar:

– predmet sohasining yo‘nalganligi;

– insonparvarlikka va shaxsga yo‘nalganlik;

– pedagogik texnologiyalarni qo‘llay olish;

– pedagogik voqelikni tizimli idrok qilish.

Zamonaviy ta’lim sharoitida kasbiy-pedagogik kompetentlik tarkibiga yana quyidagi uchta komponentni kiritish maqsadga muvofiq:

– innovatsion tajriba bilan unumli o‘zaro ta’sirda bo‘lish qobiliyati hamda hamkasblar tajribasi;

– kompetentlikni tajriba bilan o‘zaro integrasiyalashni bilish, ya’ni o‘z faoliyatining xalqaro pedagogik madaniyati bilan respublika pedagogikasi darajasidagi tajribaning o‘zaro nisbatini aniqlash;

– umumlashtirishni va o‘z tajribasini boshqalarga uzatishni, o‘rtoqlashishni bilish.

K.S. Todjibayevaning fikrlariga ko‘ra, “mutaxassislar kasbiy kompetentligi – bu mehnat subyektining tez rivojlanayotgan, integrallashgan, dinamik tavsifi bo‘lib, u maxsus, kommunikativ, individual-shaxsiy kompetentliklardan tarkib topadi hamda ular tufayli kasbiy faoliyat muvaffaqiyatli va samarali amalga oshiriladi. Maxsus kompetentlik kasbiy faoliyatni amalga oshirishga nazariy hamda amaliy jihatdan yetarli darajadagi tayyorlikni ifodalaydi”. Shuni alohida ta’kidlab o‘tish muhimki, o‘qituvchining maxsus kompetentligi mehnat bozori talab va ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda egiluvchanlik bilan yo‘nalish olishi hamda ta’limni davom ettirishga, ixtisoslikni o‘zgartirishga, mustaqil ta’lim olish, o‘z-o‘zini har tomonlama rivojlantirishga tayyor turish imkonini beradigan asosni yaratadi. Bunda mutaxassislar ijtimoiy-shaxsiy kompetensiyalarni kasbdan tashqaridagi raqobatbardoshligining umumijtimoiy omillariga kiritish lozim.

V.N. Vvedenskiyning fikriga ko‘ra, pedagog uchun asosiy kompetensiyalar komponentlarni to‘ldiradi va rivojlantiradi, ya’ni:

– axborotga oid kompetensiyalar: bilimlar hajmi va ularga shaxsning o‘zi, ta’lim oluvchilar, ularning ota-onalari, boshqa pedagoglar tajribasi haqidagi, ilmiy-metodik sohadagi, umumiy dunyoqarashga oid bilimlar yo‘nalishlari bo‘yicha ega bo‘lish qobiliyati;

– kommunikativ kompetensiyalar: ijtimoiy vaziyatlar va jarayonlarda to‘g‘ri yo‘nalish olishni bilish, boshqa kishilarning shaxsiy xususiyatlari hamda emotsional holatini aniqlash, ular bilan muloqotga kirishish uchun mos usullar, yo‘llarni tanlash hamda o‘zaro munosabatlarda ularni qo‘llay olish, diqqat-e’tiborni jamlash va taqsimlash, psixologik aloqani o‘rnatish, jamoa yig‘ilgan vaziyatlarda harakat qilish, nutq madaniyati, e’tiborni o‘ziga jalb qilish;

– intellektual-pedagogik kompetentlik: pedagogik kompetentlikning intellektual-mantiqiy va intellektual-evristik majmui bo‘lib, tahlil va sintez, qiyoslash, mavhumlashtirish, umumlashtirish va aniqlashtirish, g‘oyalarni generasiya qilish, xayol qilish, tafakkur inertligini yengish, o‘xshatish, tanqidiy tafakkur kabilarni ifodalaydi;

– operatsional kompetentlik: kasbiy faoliyatni amalga oshirishda pedagog uchun zarur harakatlar to‘plami, ya’ni, mohiyatan pedagogik malakalar;

– tartibga soluvchi kompetensiyalar: maqsad qo‘yish, rejalashtirish, safarbarlik va natijalarga erishishda barqaror faollik, faoliyat natijalarini baholash va refleksiya.

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda aytish mumkinki, kasbiy-pedagogik kompetentlik pedagogik voqelikni tizimli idrok qilish hamda unda tizimli harakat qilish malakalarini o‘z ichiga oladi. Ushbu o‘ziga xos xususiyat pedagogik jarayonlar mantig‘ini yaxlit, strukturali ko‘rishni, pedagogik tizimning rivojlanish qonuniyatlari va tendensiyalarini tushunishni ta’minlaydi. Faoliyatni maqsadga muvofiq amalga oshirishni osonlashtiradi, biroq “kasbiy kompetentlik” tushunchasi ta’riflarining xilma-xilligiga qaramasdan,

uning mohiyatiga doir hamma birdek e'tirof qilgan tavsiflari quyidagilardan iborat:

– kasbiy faoliyatni samarali amalga oshirish imkonini beruvchi individual qobiliyatlardan samarali foydalanish;

– kasbiy bilim, ko'nikma va malakalarni egallash, kasbiy muammolarni hal qilishda egiluvchan bo'lish, hamkasblar bilan o'zaro hamkorlikning yaxshi rivojlanganligi;

– kasbiy funksiyalarni yetarli darajada bajarishga mos keladigan bilimlar, qobiliyatlarning integrasiyalangan holda birikishi.

Kasbiy kompetentlikning rivojlanishi dinamik jarayon hisoblanib, u bilim darajasining muntazam oshib borishi hamda o'z-o'zini kamol toptirishga ko'maklashadi. Individual kasbiy sifatlarning shakllanishiga hamda kasbiy tajribaning takomillashishini ta'minlaydi. O'qituvchining kasbiy-pedagogik kompetentligi darajasini mutaxassislik bo'yicha fanlar asosini chuqur bilish, pedagogik faoliyatni tashkil qilishga qiziqish, pedagogik odob, o'z kuchiga ishonish, kirishimlilik, tashkillashganlik, ta'limiy natijalarga erishishdan manfaatdor bo'lish, xolislik, o'z faoliyati natijalari uchun javobgar bo'lish kabi mezonlar asosida baholash mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Андрияновой В.И., Джураева Р.Х. "Андрияновкие педагогичекие чтения": борник научных трудов Международной научно-практичекой конференсии, повящённой 85-летию о дня рождения доктора педагогичеких наук, профеора, академика Международной академии наук педагогичекого образования 28 августа 2020 года / Под общ. – Т.: УзНИИПН, 2020. – 932 ч.

2. Введенкий В.Н. Моделирование профеионалной компетентноти педагога / – Педагогика. – 2003. – №10. – С. 51-55.

3. Образование в сифрах: 2016: краткий статистический сборник / Л.М. Гохберг, И.Ю. Забатурина, Г.Г. Ковалева и др.; Натс. исслед. ун-т «Высшая школа экономики" – М.: НИУ ВСҲЕ, 2016.

5. Turg'unov C.T., Maqsudova L.A. va boshq. Pedagogik jarayonlarni tashkil etish va boshqarish texnologiyalari. – T.: Sano-standart, 2012. – 48 b.

Shavkatjon MIRZAKULOV,
Chirchiq davlat pedagogika universteti,
“Jismoniy madaniyat nazariyasi” kafedrasi dotsenti

5-7-SINF O‘QUVCHILARIDA CHIDAMLILIKNI RIVOJLANTIRISH TEXNOLOGIYASI

Annotatsiya

Ushbu maqolada 5-7-sinf o‘quvchilarida chidamlilikni rivojlantirish texnologiyasi uslubiyoti, shuningdek, pedagogik tajriba davomida olingan natijalar taqdim etilgan va eksperimental ravishda sinovdan o‘tganligi aytib o‘tilgan.

Kalit so‘zlar. O‘quvchilarda chidamlilikni rivojlantirish texnologiyasi, chidamlilikni tarbiyalovchi usullar.

В данной статье представлена и экспериментально проверена методика технологии развития выносливости у учащихся 5-7 классов, а также полученные в ходе педагогического эксперимента результаты.

Ключевые слова. Технология развития выносливости у учащихся, методы воспитания выносливости.

This article presents and experimentally tested the technique of endurance development technology for students of grades 5-7, as well as the results obtained during the pedagogical experiment.

Key words. Technology of endurance development in students, methods of endurance education.

O‘quvchilarda chidamlilikni rivojlantirish uchun bir qator mutaxassislar o‘z uslubiyatini tavsiya etishgan. Lekin hozirgi kunda o‘quvchilarni tayyorlashda umumiy chidamlilikka kam e’tibor berilmoqda. Eng avvalo bolalik davridan boshlab sport yuklamalarini yaxshi taqsimlash kerak, umumiy chidamlilikni rivojlantirishga katta e’tibor qaratish lozim. Inson chidamli bo‘lishi uchun organizmdagi turli tizimlarning yaxshi rivojlanishiga erishish lozim.

Chidamlilik darajasini oshishi: birinchidan yurak-qon tomiri faoliyatini kuchaytirishni; ikkinchidan, funksional tizimlarning faoliyati jarayonida paydo bo‘ladigan quvvatni tejab-tergab sarflashni; uchinchidan, funksional imkoniyatlardan iloji boricha to‘la foydalanishni ko‘zda tutadi.

Chidamlilikni tarbiyalash uchun quyidagi metodlardan foydalaniladi: Bir tekis bajariladigan mashq metodi umumiy chidamlilikni tarbiyalashda qo‘llaniladi. Bu metod kurashchining tomir urishi bir daqiqada 130 dan ko‘p bo‘lmagan holda muntazam muddatda bajariladigan maksimal tinimsiz mashg‘ulotning tayyorgarlik davrida o‘quv bellashuvlarida qo‘llaniladi.

Ko‘pchilik holatda bir tekis bajariladigan mashq metodida bajariladigan yuklanishni kam deb xisoblash mumkin.

O‘zgaruvchan mashq metodlari umumiy va maxsus chidamlilikni tarbiyalash uchun qo‘llaniladi. U maksimal tomir urishi daqiqada 180 bo‘lganda o‘zgaruvchan shiddat bilan bajarilgan uzluksiz ish bilan xarakterlanadi. Intervalli mashqlar metodi kurashchining maxsus chidamliligini bir yo‘nalishda oshirish maqsadida qo‘llaniladi. U hamma takroriy mashq metodi kabi bir xil mashqlarni qaytarish bilan xarakterlanib,

ma’lum dam olish oralig‘i bilan bajariladi.

– O‘quvchilarning jismoniy tayyorgarligi jarayonida o‘yin metodi umumiy va maxsus jismoniy tayyorgarlikni oshirish maqsadida qo‘llaniladi hamda o‘z vaqtida tegishli himoya va qarshi hujum bilan javob berishga majbur qiluvchi o‘yin xarakterlaridan foydalaniladi.

– Mashqning hajmi va mazmuni pedagogni topshirig‘i bilan belgilanadi. Masalan besh polvon uchun besh gimnastika snaryadidan bekatlar tuziladi, ularda kuch va kuch-chidamliligini tarbiyalash vazifasini hal qilish mumkin.

– Aylancha mashg‘ulot metodida musobaqa metodining metodik xususiyatlari mavjud. Shuningdek, takroriy va dam olish oralig‘i bilan bajariladigan metodlar bilan aralashtirib qo‘llansa ham bo‘ladi.

Ushbu vazifalarni amalga oshirish uchun quyidagi uslublardan foydalanildi:

1. Ilmiy-uslubiy adabiyotlarni o‘rganish va tahlil qilish.

2. O‘quvchilarning jismoniy rivojlanish darajasini antropometrik uslublar orqali aniqlash.

3. Pedagogik tajriba.

4. Matematik statistik uslublari.

Tadqiqotning o‘tkazilishi 2021-2022-o‘quv yillarning davr oralig‘ida olib borildi. Chirchiq shahrining 11-sonli umumiy o‘rta ta’lim maktab o‘quvchi-yoshlarini chidamlilik qilib tarbiyalashga qaratilgan, jismoniy tarbiya darslari va sinfdan tashqarida olib boriladigan mashg‘ulotlar kuzatildi va tajriba o‘tkazildi. Pedagogik kuzatishlar o‘quvchilarning umumiy chidamliligini tayyorgarlik dinamikasining yoshiga qarab tahlil qilish, maxsus funksional xususiyatlarini amalga oshirish uchun foydalanildi. Kuzatishda 150 ta o‘g‘il va qiz bolalar qatnashdi.

O‘quv mashg‘ulotlari tajriba dasturi:

Shu maqsadda quyidagi usullardan foydalaniladi:

– mashqlar bajarishni vaqtini oshirish;

– mashqlar bajarishni intensivligini oshirish;

– yuklamalarni oshirish.

Mashqlar bajarishda vaqtni oshirish usuli mashg‘ulotlarda asta-sekinlik bilan ko‘p marta mashq qilish vaqtining uzayib borishini tahlil qiladi. Bunda mashqlarning intensivligi o‘zgarmaydi. Bu usul nafas tizimi ishini yaxshi yo‘lga qo‘yishi maqsadida ma’lum bir ishni bir qancha vaqt birligi ichida bajarishni ta’minlaydi. Shu sababli ishdagi shiddat o‘quvchilar bilan kerakli miqdorda bajarilishi shart.

Anaerob imkoniyatlarini rivojlantirish uchun quyidagi usullardan foydalanildi:

– ish intensivligining oshishi (intervalli, takroriy, tanaffusli usullar). Bunday holatda ko‘p miqdordagi mushaklar dinamik rejimi ostida katta ish bilan ta’minlandi;

– intensivlik saqlangan holda ish hajmini oshirishda anaerob imkoniyatlarni rivojlantirish uchun quyidagilardan foydalaniladi;

– me’yoriy va me’yoriga qarab yaqin bo‘lgan intensivlikdagi ish. Bu tiklanish jarayonlari o‘z o‘rniga qaytarishga ulgurmasdan yoki to‘liq tiklanib ulgurmasdan yuzaga keladi;

– statik rejimdagi ish tiklanish jarayoni qiyinlashgan bo‘ladi. Katta bo‘lmagan mushak guruhlarining statik hajmida katta yualama bilan ishlashi anaerob sharoitlarda yuzaga keladi.

1.-jadval. Chidamlilikni rivojlantirish uchun mashqlar

Oyoqlar	tana	qo‘llar
1. Ikkita oyoqda sakrash – 200-300 marta, arqonchada sakrash.	2. Qo‘lni boshdan baland ko‘tarib, yon tomonga egilish (40-60 marta).	3. ‘‘Imkoniyat boricha’’ yerga yotib turish.
4. Elkada shtanga bilan o‘tirib turish ‘‘imkoniyati boricha’’.	5. Gavdaning orqa mushaklari uchun egilish.	6. Arqondan tirmashib chiqish (oyoq yordamisiz 2 marta).
7. To‘siqlardan sakrab o‘tish (joyidan 15 marta va ko‘proq).	8. Qorin mushaklari uchun: ot ustiga o‘tirib, ikkala oyoq bilan qattiq qisib olib, oldinga engashish.	9. Toshni yerdan yuqoriga ko‘tarish (24 kg) imkoniyati.
10. Zal atrofidan bitta oyoqda uzunlikka sakrab o‘tish (100 ta sakrash).	11. 16,24,32 kgli toshni o‘ynatish 15 marta o‘ng, 15 marta chap qo‘lda.	12. Perekladinada ‘‘imkoniyati boricha’’ tortilish.

Ilova: Mashqlarni yuqori tempda bajarish tavsiya etiladi. Qaytarilish miqdori sportchining tayyorgarligiga qarab individual ravishda aniqlanadi.

5-7 sinf o‘quvchilarining jismoniy rivojlanishi.

12-14 yoshli o‘g‘il bolalarda jismoniy rivojlanishi har xil ko‘rsatkichlar bo‘yicha bir tekisda o‘smaydi. Talabalarning gavda uzunligi, og‘irligi o‘rganilgan davr ichida o‘sishi aniqlandi.

2.-jadval. 5-7 sinf o‘quvchilarining jismoniy rivojlanish darajas

Yoshi	jinsi	Gavda uzunligi		Vazni
5-sinf	o‘g‘il bolalar	136,7	137,51	39,94
	qiz bolalar	135,2	135,45	35,75
6-sinf	o‘g‘il bolalar	144,10	145,10	41,6
	qiz bolalar	142,09	143,09	35,75
7-sinf	o‘g‘il bolalar	154,40	159,43	51,51
	qiz bolalar	149,0	150,7	39,94

Ushbu ko‘rsatkichlarning o‘rta arifmetik qiymati bo‘yicha bo‘yi – 5-sinfda 136,7 ga teng bo‘lsa, og‘irligi 39,94 ga teng bo‘ladi. 7-sinfda o‘g‘il bolalarni bo‘yi 154,4 bo‘lsa, qiz bolalarniki 149,0 ga teng bo‘ldi.

3.-jadval. 1600-30 m ga yugurish bo‘yicha bajargan natijalar

Yoshi	Jinsi	1600 m		30 m	
		Tajriba guruhi	Nazorat guruhi	Tajriba guruhi	Nazorat guruhi
5-sinf	o‘qil bolalar	15,19,00	14,50,00	10,75	10,63
	qiz bolalar	15,19,00	14,50,00	10,75	10,70
6-sinf	o‘g‘il bolalar	11,2,00	10,94,00	10,7	10,60
	qiz bolalar	15,2,00	14,70,00	10,8	10,71
7-sinf	o‘g‘il bolalar	11,43,00	11,30,00	8,9	8,87
	qiz bolalar	10,22,00	10,98,00	10,7	10,68

3-jadvaldan ko‘rinib turibdiki, 11-14 yoshdagi o‘quvchilarning jismoniy tayyorgarlik nazorat guruhining dastlabki natijalari o‘quvchilarning 1600 m ga yugurishining o‘rta arifmetik qiymati 15,79 ga teng bo‘lsa, nazorat guruhida 14,50 ga teng bo‘ladi.

Ushbu ko‘rsatkichlarning o‘rta kvadratik qiymati 1600 m ga yugurishda 0,3 ga va 30 m ga yugurishda 3,9 ga to‘g‘ri keladi. Shuningdek, o‘rta kvadratik qiymat 5,5 ga teng bo‘lsa, o‘rtacha arifmetik qiymatining xatosi 9,9 ga tengdir.

Yuqorida qayd etilgan chidamlilikni aniqlash va uni ko‘tarish uchun qabul qilingan eng oddiy testlardan biri bo‘lib, ular asosan o‘tkaziladigan barcha tadqiqotlarni yengillashtiradi. Ushbu testlar barcha o‘quv muassasalarida ishlatish uchun tavsiya etilishi mumkin.

Xulosa shuki, ilmiy-uslubiy adabiyotlarni tahlil etish va 5-7-sinf o‘quvchilarini jismoniy tarbiya amaliyotini umumlashtirish natijasida shu narsa aniqlandiki, 5-7-sinf o‘quvchilari jismoniy tarbiya darslarida beriladigan yuklamaning tarkibiy qismi va o‘lchamlaridan foydalanishda mashqlarning tanlab berishning aniq ko‘rsatmalari va tavsifnomalari deyarli mavjud emas. Shuningdek, jismoniy tarbiya darslarida o‘quvchilarning jismoniy tayyorgarligini oshirishning asosiy yo‘nalishlaridan biri o‘rta masofadagi mashqlardan yoki intervalli metoddan foydalanishdir. Hamda chidamlilik imkoniyatlarini rivojlantirishda somatik tiplarga ajratish va talabalar chidamliligi tipini baholash ko‘rsatkichlariga asoslangan konstitutsional-funksional yondoshishlarga tayangan holda bolalar guruhini tashkil etish maqsadga muvofiq.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi “Jismoniy tarbiya va sport to‘g‘risida”gi qonuni 2015-yil 04.09 yangi tahriri qabul qilingan.

2. Abdullayev A. “Jismoniy madaniyat nazariyasi va metodikasi” (2-jild)/ Darslik. – T.: /Navro‘z nashriyoti, 2018. – 416 b.

3. Mahkamdjanov K.M. Jismoniy madaniyat nazariyasi va metodikasi. – T.: “Iqtisod -moliya” – 2008 y.

4. Матвеев Л.П. Теория и методика физической културы. Учебник для институтов физической культуры. – М., 1991. – С. 543.

5. Новиков А.А. и др. Отсенка уровня спесиалной выносливости борсов по резултатам выполнения спесифических тестов с бросками манекена // Теория и практика физкултуры. – М., 1988. №9. – С. 29-31.

Aloviddin SABIROV,
Chirchiq davlat pedagogika universiteti,
“Jismoniy madaniyat nazariyasi” kafedrasi o‘qituvchisi

BO‘LAJAK JISMONIY TARBIYA O‘QITUVCHILARINING INNOVATSION KASBIY FAOLIYATINI SHAKLLANTIRISHNING USLUBIY AHAMIYATI

Annotatsiya

Zamanoviy ta’lim tizimini isloh qilish jarayonida pedagog kadrlar nazariy va amaliy, mas’uliyati kasbiy ko‘nikmasini shakillantirish hamda imkoniyatlarni takomillashtirishda uzviy ta’lim islohotlarni joriy etish yuzasidan ushbu maqolada innovatsion faoliyat va uning shakllanish omillari zaruriyati haqida fikrlar yuritilgan.

Kalit so‘zlar. Pedagogik innovatsion faoliyat, innovatsiya, modernizatsiya, kasbiy faoliyat, ta’lim sifati.

В процессе реформирования современной системы образования в данной статье рассматривается инновационная деятельность, факторы ее формирования, а также необходимость формирования профессиональных навыков педагогов в процессе формирования теоретических и практических, ответственных профессиональных навыков и возможностей их совершенствования.

Ключевые слова. Педагогическая инновационная деятельность, инновации, модернизация, профессиональная деятельность, качество образования.

In the process of reforming the modern education system, this article discusses innovative activities, the factors of its formation, and the necessity of forming the professional skills of pedagogues in the process of forming theoretical and practical, responsible professional skills and improving opportunities.

Key words. Pedagogical innovative activity, innovation, modernization, professional activity quality of education.

Bugungi kunda zamonaviy ta’lim tizimida asosiy omillardan biri o‘qituvchilarni innovatsion faoliyatga yo‘naltirish va bu faoliyatga tayyorlash orqali ta’lim jarayoniga ilg‘or pedagogik texnologiyalarni tadbiq etish, talabalarga bilim berishni kafolatlash hamda ta’lim samaradorligiga erishishdan iborat. Ta’lim tizimini mazmunan isloh qilish jarayonida pedagog kadrlar nazariy va amaliy bilim hamda kasbiy ko‘nikmasini shakillantirish. Bu borada o‘qituvchi faoliyatini yangi innovatsiyalarni ta’lim jarayoniga kiritish asosiy vazifalardan biri hisoblanadi.

Ta’lim dasturlarini tuzishi jihatidan kiritilayotgan yangiliklarni tajriba-sinov bosqichlariga ajratib, uning rejasini ishlab chiqish, yangilikni tahlil qilish, pedagogik jarayonga yangilikni kiritish,va amalga oshirish, pedagogik tajriba-sinov ishlari natijalarini baholash talab etiladi. Bu jamiyatda boshqa soha mutaxassislari bo‘lgani kabi pedagoglarning ham kasbiy tayyorgarlik darajasi ularning bilim, ko‘nikma hamda malakalarini, ilmiy salohiyati va tafakkurlarida o‘zida aks ettiruvchi kasbiy layoqati bilan baholanadi. Jismoniy tarbiya o‘qituvchilarni innovatsion faoliyatini tahlil qilish orqali ularning shakllanishidagi bosqichlarini quyidagicha belgilash mumkin:

– vazifalarni bajarishi lozim bo‘lgan pedagogik faoliyatda yo‘nalishni shakllantirib borish;

– pedagogik jarayonda – subyekt hamkorligini yo‘lga qo‘yish;

– pedagoglik faoliyatini rivojlantirish va bunga qiziqishni orttirib borish;

– pedagogik muloqotda ochiqlikni ta’minlash;

– o‘qituvchining potentsial imkoniyatlari va rivojlantirish bo‘yicha mutaxassislarni talab qiladi, talaba va ularning ta’lim jarayonida o‘zaro ta’siri amalga oshirishning innovatsion tarbiyaviy jarayoni;

– ijodiy fikrlash yo‘nalishini rivojlantirib borish;

– pedagogik vazifalarni hal qilishga ijodkorlik bilan yondashuv, tahlil qilish malakalarini rivojlantirib borish;

– ijodiy ishlash texnologiyasini shakllantirish.

Bu jarayonda shaxsiyatni o‘stirish treningi, muammoli o‘qitish texnologiyasi, faol ta’lim metodikasidan foydalanish va yangilik kiritish jarayoni bilan tanishtirib borish lozim. Birinchi bosqichning asosiy mazmunini umumiy psixologik-pedagogik bilimlarni egallash, o‘z faoliyatini tahlil qilish ko‘nikma va malakalarini shakllantirishni tashkil etadi. Mazkur bosqich oliy ta’lim muassasalaridagi ta’lim jarayonida shakllantirilishi lozim.

O‘qituvchilarda innovatsion faoliyatni shakllantirishning ikkinchi bosqichida quyidagi vazifalar bajarilishi lozim:

– pedagogik faoliyatni variativ rivojlantirish, – ma’naviy-madaniy bilimlarni oshirish;

– pedagogik yangiliklarni o‘zlashtirish ehtiyojini shakllantirish, pedagogik refleksni rivojlantirish;

– yangi turdagi faoliyat sifatida innovatsion axborot kommunikatsiyalarni shakllantirish.

O‘qituvchilarni mazkur vazifalarini bajarishga tayyorlashda muammoli o‘qitish, o‘zini anglash bo‘yicha treninglar tashkil etish, o‘qitishning rivojlantiruvchi texnologiyalari bilan tanishtirib borish, o‘qitishning shaxsga mo‘ljallangan texnologiyalaridan foydalanish, konsepsiyalarini izohlash, o‘qitish metodlarini tanlashga o‘rgatish, darsni kompozitsiyalash, pedagogik texnika va texnologiya treninglarini, mustaqil ishlarni tashkil etish orqali pedagogik faoliyatni muntazam takomillashtirib borish lozim.

Bunda ta’lim dasturlarini tuzish metodikasini bilish, kiritilayotgan yangiliklarni tajriba-sinov bosqichlariga ajratib, uning rejasini ishlab chiqish, yangilikni tahlil qilish, pedagogik jarayonga yangilikni kiritish, tuzatishlarni amalga oshirish, pedagogik tajriba-sinov ishlari natijalarini baholash talab etiladi. Bu bosqichni shakllantirishda, asosan, quyidagi texnologiyalardan foydalanish maqsadga muvofiq: tashkiliy-faoliyatli o‘yinlar, innovatsion refleksli amaliyot, mualliflik konsepsiyalarini o‘rganish, mualliflik dasturlari, ishlanmalarini yaratish, innovatsion tipdagi o‘quv muassasalarida amaliyot o‘tash, malaka oshirishning turli shakllarida va muammoli kurslarda ishtirok etish, pedagogik mahoratni mustaqil oshirish.

Innovatsion faoliyatga tayyorlashdagi mavjud muammolardan biri – bu psixologik to‘siqning mavjudligi. Jismoniy tarbiya o‘qituvchilarni innovatsion faoliyatga tayyorlashda qiyinchiliklarga duch kelinishining qator sabablari bor.

Ular quyidagilardan iborat: pedagoglarda konservatizmning mavjudligi, ya’ni ularda adaptatsiya shakillanmaganligi ta’lim beruvchi va ta’lim oluvchilarning orasidagi tafovut samarali ta’sirini tashkil eta olmaslik; yangi pedagogik texnologiyalarni o‘zlashtirishga nisbatan qiziqishning passiv holatdaligi ta’lim berishning an’anaviy metodlaridan voz kechib, zamonaviy metodlarini qo‘llay olmaslik.

Pedagogik jarayonda innovatsion faoliyat muhim o‘rin egallaydi. Ayni bir vaqtda,

bir xil sharoitlarda o‘qitish sifat-samaradorligi har bir o‘qituvchida turli xil bo‘lishi mumkin. Bilimning barcha sohalaridagi jadal jarayon tufayli amalda qo‘llanilayotgan o‘quv materiallarida keltirilgan axborotning ma’lum bir qismi tezda o‘z dolzarbligini yo‘qotadi va yangilashni taqozo etadi. Ayniqsa, bu ijtimoiy-gumanitar fanlarga taalluqli.

Asosiy maqsad talabaga beriladigan bilim sifatini oshirish va samaradorlikka erishishdan iborat ekan, o‘qituvchilarni innovatsion faoliyatga tayyorlash va qayta tayyorlash jarayonida pedagogika va texnologiya sohasidagi so‘nggi yutuqlarga, o‘quv jarayonida zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo‘llash mexanizmiga katta e’tibor berish kerak.

Jismoniy tarbiya o‘qituvchilarini innovatsion faoliyatga va innovatsion jarayonlarga tayyorlash ishlarining ancha murakkabligi haqida xulosa chiqarish mumkin. Bu bir qancha obyektiv va subyektiv sabablar, eng avvalo, o‘qituvchilarning axborot texnologiyalari bo‘yicha boshlang‘ich tayyorgarlik darajasining pastligi, ta’lim jarayonida zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish borasida malakasining yetarli emasligi, zaruriy o‘quv axborotlarini mustaqil holda o‘zlashtira olish malakasi yo‘qligi bilan bog‘liq. Jismoniy tarbiya o‘qituvchilarining innovatsion faoliyati haqida gapirganda bu faoliyatning ilmiy-metodik o‘ziga xosligi haqidagi savol paydo bo‘ladi.

Bu faoliyatning imkoniyatlari ta’lim tizimi ko‘lamida innovatsion g‘oyalar, loyihalar, texnologiyalarni joriy qilishda va shaxsni rivojlantirishda namoyon bo‘ladi. Bu faoliyat imkoniyatlari o‘zida quyidagilarni jamlaydi:

– o‘qituvchining yangilikni qo‘llashga tayyorgarligi;
– o‘qituvchining pedagogik yangilikni qabul qilishi;
– jamoada o‘qituvchining novatorlik darajasi;
– o‘qituvchi kommunikativ qobiliyatining rivojlanganligi;
– o‘qituvchining ijodkorlik darajasi.

O‘qituvchilarning yangilikni o‘zlashtirishga tayyorgarlik mezonlari esa o‘qituvchi motivatsiyasi, malaka tayyorgarligi, pedagogik tajriba-sinov ishlarini amalga oshirish borasidagi bilim va malakalari, innovatsiya yo‘lidagi to‘siqlarni bartaraf eta olish mahorati bilan belgilanadi.

O‘qituvchi innovatsion faoliyatining asosiy belgilaridan biri uning ijodiy faolligi, ijodkorligi hisoblanadi. O‘qituvchidan yangiliklarni o‘zlashtirib borish bilan birga ularni o‘z faoliyatida qo‘llashi va pedagogik jamoa o‘rtasida targ‘ib qilishi talab etiladi. Innovatsion faoliyat pedagogik mahoratning yuqori bosqichi bo‘lib, bunda jamoa a’zolari bir-birini qo‘llab-quvvatlashi, kiritilayotgan yangilikning maktabda o‘z o‘rnini topishiga ishonch bilan qarash, qiyinchiliklarga duch kelganda ruhan tushkunlikka tushmasdan, o‘z xatolarini ko‘ra bilish va ularni tuzatishga harakat qilish talab etiladi. O‘z-o‘zini tarbiyalab borish, o‘z ustida tinmay ishlashga harakat qilish innovatsion faoliyatning asosiy sharti hisoblanadi.

Ta’lim sifatini oshirish jamiyatning barcha jabhalarida hayotni yaxshilashga olib keladi. Yangilik kiritish ta’lim sifatini oshirishning samarali vositasi bo‘lganligi uchun ham rivojlangan davlatlar ta’lim jarayoniga uzluksiz yangilik kiritishga harakat qiladilar. Ko‘pgina mamlakatlar tajribasi shuni ko‘rsatadiki, innovatsion jarayonlarda ta’lim tizimidagi barcha bo‘g‘inlar ishtirok etishi lozim. Ammo innovatsion jarayonlar yuqoridan pastga qarab harakatlansa va bunda o‘qituvchi bo‘ysunuvchi, ya’ni yangilikning faqat iste’molchisi bo‘lib qolsa, u holda bu jarayon byurokratik tus oladi.

Innovatsion faoliyatga tayyorlash jarayonida maqsad aniq belgilanib, o‘qituvchining oldingi faoliyatini tashxislash asosida tashkil etilishi maqsadga muvofiq. O‘qituvchi innovatsion faoliyatining natijasi quyidagilarda ko‘rinadi:

– bajarilishi lozim bo‘lgan ishning maqsadini aniqlay olishida;

– nostandart vaziyatlarni tahlil etib, tezkor xulosalar chiqara bilishida;

– o‘quv jarayoni bilan bog‘liq masalalarni yechish usullarini egallaganligida;

– muammolarni hal etishning maqbul vosita va usullarini izlab topish, kuzatish va tajriba natijalarini tizimlashtirishda;

– o‘z ustida mustaqil ishlashni rejalashtira olishida;

– o‘z ishi natijasini nazorat va tahlil qila olishida;

– yangi axborot texnologiyalaridan foydalanish malakasining mavjudligida;

– yangi g‘oyalarni izlab topa olishi, pedagogik masalalarni algoritmlashtirish malakasiga egaligida.

Innovatsion faoliyat bir necha bosqichlarda tarkib topadigan faoliyat bo‘lib, o‘zining nazariy va amaliy asoslariga ega bo‘lgan pedagogik faoliyatning alohida bosqichi. Innovatsion faoliyat infratuzilmasini shakllantirish, ya’ni innovatsion faoliyatni amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan xizmatlarni taklif etuvchi tashkilotlar faoliyatini takomillashtirish taqozo etiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Sabirov Aloviddin Abdulraxmonovich, Germaniya – Journal of Advanced Research and Scientific Progress (JARSP)// The Sequence of Movement in Teaching Gymnastics Exercises, Volume: 01 Issue: 04 2022.

2. Sabirov Aloviddin Abdulraxmonovich. Pedagogical and management technology. International Conference on “Ethics and Integrity in the Competitive //World” International Conference on Research Identity USA 2022-10-28.

3. Sabirov A.A. Gimnastika mashqlarini o‘rgatishda harakatning ketma-ketligi// “Muallim ham uzluksiz bilimlendiriy”, 2022. №6/3, – 93-96 b.

4. Uljayevna R.F. Maktabgacha talim tashkiloti tarbiyachisining kasbiy pedagogik kompetensiyani takomillashtirish xususiyatlari //science and innovation. – 2022. – T.; 1. – №. B2. – 88-91 b.

5. Uljayevna R.F., Saydamatovna Z. Maktabgacha yoshdagi bolalarning ijodiy faoliyatini shakllantirishning o‘quv-uslubiy ta’minoti //science and innovation. – 2022. – T.; 1. – №. B3. – 349-355 b.

6. Feruzaxon Uljayevna O‘rinova, Dilyora Iskandarovna. Bo‘ajak tarbiyachilarda aqliy faoliyat madaniyatini shakllantirish. Central asian academic journal of scientific research. Issn: 2181-2489. Volume 2 | issue 3 | 2022. Www.caajsr.uz

Sherzod RO‘ZIYEV,
Shahrisabz davlat instituti o‘qituvchisi

VOLEYBOL MURABBIYINING KASBIY-PEDAGOGIK TAYYORGARLIGI

Annotatsiya

Maqolada valeybol o‘qituvchi-murabbiyiga qo‘yiladigan talablar hamda voleybol bo‘yicha iste’dodli sport zaxiralari va yuqori malakali, raqobatbardosh sportchilarni tayyorlash, shuningdek, ommaviy voleybol geografiyasini yanada kengaytirish, mashg‘ulot va musobaqalarni ilmiy asosda tashkil qilish zaruriyati, yuksak kasbiy-pedagogik salohiyatga ega mutaxassis-kadrlar yetishtirish muhimligiga e’tibor qaratish xususida fikr yuritilgan.

Kalit so‘zlar. Konstruktiv ko‘nikma, kommunikativ ko‘nikma, gnostik ko‘nikma, voleybol.

В статье рассматриваются требования к преподавателю-тренеру по волейболу и подготовка талантливого спортивного резерва и высококвалифицированных, конкурентоспособных спортсменов по волейболу, а также необходимость дальнейшего расширения географии массового волейбола, организации тренировок и соревнований на научной основе с акцентом на важность подготовки кадров специалистов с высоким профессионально-педагогическим потенциалом.

Ключевые слова. Конструктивный навык, коммуникативный навык, гностический навык, волейбол.

The article discusses the requirements for a volleyball teacher-coach and the training of a talented sports reserve and highly qualified, competitive volleyball athletes, as well as the need to further expand the geography of mass volleyball, organize training and competitions on a scientific basis with an emphasis on the importance of training specialists with high professional and pedagogical potential.

Key words. Constructive skill, communication skill, gnostic skill, volleyball.

XXI asr inson va jamiyat taraqqiyotida ilm-fan, texnika va innovatsion texnologiyalarning global miqyosda jadal sur’atlar bilan shakllana borishi, ishlab chiqarish, uy-ro‘zg‘or, yo‘l harakatlari, hatto intellektual jarayonlarni “avtomatlar”, kompyuterlar va robotlar “qo‘liga” topshirmoqda. Ushbu vaziyat bir tomondan, odamzot uchun barcha qulayliklarni muhayyo etsa, ish sifati va samaradorligini oshirsa, ikkinchi tomondan, jismoniy mehnat – mushaklar faoliyatini nihoyatda chegaralab qo‘ymoqda. Aynan ikkinchi holatning ustuvorligi asta-sekin gipokineziya (kam harakatlanish) dardiga mubtalo qiladi. Gipokineziya esa, o‘z navbatida, hayotga xavf soluvchi zamon sivilizatsiyasiga xos xastaliklar (ishemiya, gipertoniya, bronx astmasi, nevroz, osteoxondroz va h.k.)ni keltirib chiqarishi isbot talab qilmaydi. To‘g‘ri, ushbu kasalliklardan xalos bo‘lish uchun “o‘tkir” dori-darmonlar va zamonaviy muolaja usullari mavjud. Lekin bunday vositalar bir darddan “ozod” qilib, ikkinchi bir dardni “chaqirishi” ehtimoldan holi emas. Olimlar tomonidan azaldan ilmiy asosda isbot qilinganki, gipokineziyani oldini oluvchi yoki davolovchi yagona va o‘ta samarali “dori-darmon” me’yorlangan jismoniy tarbiya va sport mashqlaridir.

Voleybol o‘zining hammabopligi, kamxarajatligi, go‘zal o‘yin mazmuni, katta-yu kichik diqqatini o‘ziga rom qiluvchi hujum va himoya kombinatsiyalari bilan yurtimiz shahar-qishloqlarida, mahalla-yu maskanlarda, to‘y va bayramlarda bahs-raqobat, sihat-salomatlik, jismoniy va ruhiy barkamollik vositasi sifatida xizmat qilib kelmoqda.

Voleybol – o‘quv fani sifatida barcha ta’lim muassasalari o‘quv rejasiga kiritilgan, darsdan va ishdan tashqari vaqtlarda faoliyat ko‘rsatadigan sport to‘garaklari, BO‘SM-lar, sport klublarida maxsus rejalashtiruv hujjatlariga asoslangan o‘quv-trenirovka jarayoniga joriy etilgan.

Shu bilan bir qatorda, ayni kunda voleybol bo‘yicha iste’dodli sport zaxiralari va yuqori malakali, raqobatbardosh sportchilarni tayyorlash hamda ommaviy voleybol geografiyasini yanada kengaytirish, mashg‘ulot va musobaqalarni ilmiy asosda tashkil qilish zaruriyati yuksak kasbiy-pedagogik salohiyatga ega mutaxassis-kadrlar yetishtirish muhimligiga e’tibor qaratadi. Jismoniy tarbiya va xususan, voleybol bo‘yicha tayyorlanadigan o‘qituvchi-murabbiyning modeli “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonun, “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi”ga muvofiq ta’lim yo‘nalishiga mo‘ljallangan DTS va namunaviy dastur talablari bilan belgilanadi.

Voleybol bo‘yicha oliy ma’lumotga ega o‘qituvchi-murabbiyning kasbiy-pedagogik faoliyati barcha ta’lim va sport muassasalarida amalga oshirilishi mumkin.

O‘qituvchi-murabbiy amaldagi o‘quv rejasida qayd etilgan fundamental, maxsus va ixtisoslik fanlari bo‘yicha belgilangan nazariy bilim, kasbiy-pedagogik ko‘nikma va malakalarni o‘zlashtirgan bo‘lishi, jismoniy tarbiya va sportga oid hamda aloqador huquqiy, me’yoriy va ma’muriy hujjatlar mohiyatini bilishi va ularga amal qilishi, ommaviy sport mashg‘ulotlarini o‘tkazish, sport zaxiralari va yuqori malakali sportchilar tayyorlash tajribasini o‘rganib borishi darkor. Shaxs sifatida shakllangan, yuksak ma’naviy va madaniy xislatlarga ega, aqlan teran, mustaqil fikrlovchi, ijodkor, milliy va umumbashariy qadriyatlarni o‘zida jo qilgan, murakkab vaziyatlarda tashabbus va mas’uliyatni o‘ziga olishga qodir va keng dunyoqarashga ega inson bo‘lib yetishishi talab qilinadi.

O‘qituvchi-murabbiyga qo‘yiladigan malakaviy talablar uning kasbiy-pedagogik faoliyatiga xos turli yo‘nalishli ko‘nikmalar bilan belgilanadi: boshqaruvchilik, loyihalash, tashkilotchilik, konstruktiv, kommunikativ, gnostik, targ‘ibot-tashviqot, tadqiqotchilik.

Murabbiyning loyihalash ko‘nikmasi o‘z ichiga ko‘p yillik sport trenirovkasi tizimida yuqori malakali va sport zaxiralarini tayyorlash, yillik tayyorgarlik sikli (makrotsikl), mezotsikl va mikrotsikllarga mo‘ljallangan mashg‘ulotlar loyihasini ishlab chiqish, ommaviy voleybol tadbirlarini rejalashtirish hamda sportchilarni ertalabki gimnastika va jismoniy sifatlarni rivojlantiruvchi mashqlar majmualarini mustaqil rejalashtirishga o‘rgatish kabi masalalarni kiritadi.


Konstruktiv ko‘nikma – bu shug‘ullanuvchilarni voleybolga oid va unga aloqador bilimlar bilan qurollantirish, mashqlarning murakkabligi va organizmga ta’sir etish xususiyati bo‘yicha ularni tanlashga o‘rgatish, mehnat, ta’lim olish, ovqatlanish, uxlash va dam olish jarayonlarini to‘g‘ri tashkil qilish ko‘nikmalarini shakllantirish, sportchilarni mashg‘ulot va musobaqa jarayonlarida mustaqil qaror qabul qilishga o‘rgatish muammolarini o‘z ichiga oladi.


Tashkilotchilik qobiliyati – bu shug‘ullanuvchilarning ko‘pqirrali va ko‘pyo‘nalishli faoliyatini to‘g‘ri tashkil qilish, ta’lim-tarbiya va sog‘lomlashtirish jarayonlarini maqsadli amalga oshirish kabi chora-tadbirlar bilan ifodalanadi.

Kommunikativ ko‘nikma – bu murabbiyda sportchilar, ota-onalar, turli toifa va mansabga ega xodimlar, jamoat tashkilotlari bilan to‘g‘ri munosabat o‘rnatish masalalari bilan izohlanadi.

Gnostik ko‘nikma voleybolga oid turli yosh va malakali voleybolchilar mashg‘ulotlari nazariyasi va uslubiyatiga xos bilimlarni o‘zlashtirish, ilmiy va uslubiy adabiyotlardan foydalanish, ilmiy tadqiqotlar o‘tkazish, o‘z tajribasi va ilg‘or tajribalar mohiyatini tahlil qilish masalalarini o‘z ichiga oladi.

O‘qituvchi-murabbiy faoliyatiga xos ushbu ko‘nikmalar bir-biri bilan chambarchas bog‘liqdir. Bundan tashqari, talabalar ta’lim jarayonida tanishtiruv amaliyoti, o‘qituvchilik va murabbiylik kasbi bo‘yicha malakaviy amaliyotlar talablarini bajarishi va fanning barcha boblari va tuzilmasidan ham amaliy, ham nazariy jihatdan ma’lumotga ega bo‘lishi shart.





“Voleybol nazariyasi va uslubiyati” fanida (shu jumladan, voleybol amaliyotida ham) tez-tez takrorlanib turadigan tushunchalar va atamalar mohiyatini bilish, ularning mantiqiy ma’nosini anglab olish ushbu darslik mavzulari va materiallarini yanada chuqurroq o‘zlashtirish imkonini yaratadi.

Quyida qator tushunchalar va atamalar mohiyati ochib berilgan:

Texnika – yunoncha “tehnus” so‘zidan kelib chiqqan bo‘lib, o‘zbek tilida “san’at” ma’nosini anglatadi. Sport amaliyotida va xususan, voleybolda “texnika” harakat ma-

lakalari, o‘yin usullarining tuzilish shakli, mazmuni va ijro etish tartibini ifodalaydi. Muayyan harakat (o‘yin usuli – zarba, to‘p uzatish, to‘p kiritish va h.k.) texnikasi maxsus mashqlar yordamida qanchalik ko‘p va uzoq vaqt takomillashtirilsa, u shunchalik go‘zal, chiroyli, yengil, bioenergetik jihatdan tejamli, samarali, aniq va “san’at” darajasida ijro etiladi.

Taktika – yunoncha “taktikus” so‘zidan olingan bo‘lib, o‘zbek tilida “tartiblashtirish’’ ma’nosini anglatadi.

Strategiya – yunoncha “strategia” so‘zidan olingan bo‘lib, harbiy sohada, siyosiy partiyalarda eng samarali yo‘l, usul yoki vositani tanlab, g‘alaba sari olib borish ma’nosini ifodalaydi.

O‘yin malakalari – o‘yin vositalari (to‘p uzatish, to‘p qabul qilish, zarba, to‘siq, to‘p kiritish)ni ifodalovchi harakat turlarini anglatadi.

O‘yin usullari – o‘yin malakalarini turlicha usullar (yuqoridan va pastdan ikki qo‘llab hamda bir qo‘llab to‘p uzatish, to‘g‘ri yo‘nalishda zarba berish yoki burib zarba berish, to‘p kiritish turlari va h.k.)da ijro etishni ifodalaydi.

Taktik harakat – samarali natija yoki g‘alabaga qaratilgan hamda yakka, guruh va jamoa ishtirokida ijro etiladigan malakalarni anglatadi.

Texnik tayyorgarlik – texnik mahoratni shakllantirishga qaratilgan pedagogik jarayon.

Ushbu jarayonning natijasi texnik mahoratni o‘sganlik darajasini ko‘rsatadi.

Taktik tayyorgarlik – taktik mahoratni shakllantirishga qaratilgan pedagogik jarayon.

Ushbu jarayonning natijasi taktik mahoratni o‘sganlik darajasini ko‘rsatadi.

Mashg‘ulot yuklamasi – muayyan hajm, shiddat, muddat, takrorlanish, yo‘nalishda ijro etiladigan va sportchi organizmiga (ish qobiliyatiga) ta’sir etuvchi mashqlar yig‘indisini ifodalaydi.

Musobaqa yuklamasi – musobaqa davomida bajariladigan va ish qobiliyatiga ta’sir etadigan o‘yin yuklamasini anglatadi.

Tanlov va o‘yin ixtisosligi (amplua)ga yo‘naltirish – nasliy va hayot davomida erishilgan jismoniy (bo‘yi, vazni, kuch, tezkorlik, sakrovchanlik, chaqqonlik, chidamkorlik, egiluvchanlik va h.k.) va psixofiziologik (harakat reaksiyasi, ko‘rish doirasi, ko‘rish o‘tkirligi, diqqatni jamlanishi, eslab qolish qobiliyati, yurakni qisqarish chastotasi, nafas olish chastotasi, arterial qon bosimi va h.k.) ko‘rsatkichlarni baholash asosida sport turiga saralab olish hamda boshlang‘ich tayyorgarlik yakuniga borib va o‘quv-trenirovka bosqichi davomida o‘yin ixtisosligiga yo‘naltirish jarayonlarini o‘z ichiga oladi. Tanlov ko‘p qirrali, keng qamrovli va ko‘p bosqichli jarayon bo‘lib, har o‘quv-trenirovka yil yakunida o‘tkazilishi tavsiya etiladi. Terma va klub jamoalariga qabul qilish (saralash.) ham tanlov asosida amalga oshiriladi.

Bundan tashqari, voleybol amaliyotida “Zarbaga qisqa, uzun, tezkor to‘p uzatish”, “Morita” (yapon o‘yinchisi ismi bilan atalgan) finti, “Kesim” (krest), “To‘lqin” (volna), “Ketma-ket” (eshelon) va boshqa shu kabi atamalar qo‘llaniladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Pulatov A.A., Israilov Sh.X. Voleybol nazariyasi va uslubiyati. //O‘quv qo‘llanma. – T., 2007. – 148 b.

2. Isroilov Sh.X. Voleybol. //Olimpiya zaxiralari talabalari uchun o‘quv qo‘llanma. – T.: Tasvir, 2008. – 144 b.

Azizjon SHADIYEV,
Chirchiq davlat pedagogika universiteti,
"Jismoniy madaniyat nazariyasi" kafedrasi dotsenti

MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNING RIVOJLANISH DINAMIKASIGA XOS XUSUSIYATLARI

Annotatsiya

Ushbu maqolada barkamol avlodni tarbiyalashga, maktabgacha yoshdagi bolalarni jismoniy rivojlantirish muammolarini hal etishning yangi yo'llarini izlashga qaratilgan ma'lumotlardan iborat. Shuningdek, sog'lom bolani tarbiyalash jarayonida bolalar bilan jismoniy mashqlarni bajarish, ularning salomatligini kuzatib borish, tashqi ko'rinishiga, kayfiyatiga, charchashi, ishtahasi, uyqusiga e'tibor berish muhimligi aytib o'tilgan.

Kalit so'zlar. Bolalik, barkamol avlod, muvozanat, sog'lom, bo'y, ontogenik, imkoniyatlar, tarbiyalash jarayoni.

Данная статья содержит информацию, направленную на воспитание гармоничного поколения, поиск новых путей решения задач физического развития дошкольников. Также в процессе воспитания здорового ребенка отмечается важность выполнения физических упражнений с детьми, наблюдения за их здоровьем, внимания к внешнему виду, настроению, утомляемости, аппетиту, сну.

Ключевые слова. Детство, идеальное поколение, равновесие, здоровье, рост, онтогенные, возможности, процесс воспитания.

This article contains information aimed at the upbringing of a harmonious generation, the search for new ways to solve the problems of physical development of preschoolers. Also, in the process of raising a healthy child, the importance of performing physical exercises with children, monitoring their health, attention to appearance, mood, fatigue, appetite, sleep is noted.

Key words. Childhood, ideal generation, balance, health, growth, ontogenic, possibilities, the process of education.

Ma'lumki, bola kattalarning bevosita ta'siri natijasida, mustaqil faoliyat jarayonida, shuningdek, atrof-muhitdan olayotgan axborotlari ta'sirida rivojlanadi. Bolalar ko'p o'yinchoq o'ynaydilar, harakatlanadilar va shu bilan birga atrofdagi voqealarni qiziqish bilan kuzatadilar, suratlarni tomosha qiladilar, turli sabablar yuzasidan ota-onalariga murojaat qilib, ularning topshiriqlarini bajaradilar.

3 yoshdan 6 yoshgacha – maktabgacha bo'lgan davr rivojlanishga ontogenetik imkoniyatlarning to'xtovsizligi orqali amalga oshiriladigan umumiy sensitivlik nuqtai nazaridan ilk go'daklik davrining to'g'ridan-to'g'ri davomi hisoblanadi. Bu davrda bolada barcha harakat ko'nikmalari rivojlanib, takomillashishda davom etadi, biroq uning tevaragini o'rab turgan olam bilan muloqoti hozircha cheklangan. Asta-sekin bolalar mustaqil bo'la boradilar, ularning organizmi mustahkamlanadi, harakatlari ancha aniq, ishonchli, tezkor bo'ladi. Uy ro'zg'or buyumlari, o'yinchoqlar bilan bajariladigan harakatlarning takomillashuvi hayotiy tajribaning boyishiga yordam beradi. Harakatlar yanada aniq, ongli, maqsadli bo'lib qoladi.

To‘g‘ri tashkil etilgan jismoniy tarbiya maktabgacha yoshdagi bolalarda tafakkur, xotira, tashabbus, tasavvur, mustaqillikning rivojlanishiga asosiy gigienik ko‘nikmalarning paydo bo‘lishiga ko‘maklashadi. Xuddi ilk go‘daklik davridagi kabi maktabgacha yoshda ham atrofdagi olam to‘g‘risida yorqin tasavvurlarning shakllanishida bolalarning hissiy tajribalari katta ahamiyatga ega bo‘ladi. Bu davrda o‘yin faoliyatning yetakchi turiga aylanadi, lekin bu odatda bola ko‘p vaqtini qiziqarli o‘yinlar bilan o‘tkazgani uchun emas, o‘yin bola psixikasida sifat o‘zgarishlarini yuzaga keltiradi. Maktabgacha yoshdagi bolaning o‘yini ancha murakkablashadi: unda hayotiy tajriba qo‘lga kiritiladi, muayyan maqsad aniqroq namoyon bo‘ladi, ijodiy tasavvur ko‘zga tashlanadi va rivojlanadi. Yildan-yilga bolaning aqliy rivojlanishida kattalarning og‘zaki tushuntirishlari va topshiriqlari kattaroq ahamiyat kasb etib boradi.

Sog‘lom bolani tarbiyalashda eng muhim vositalardan biri jismoniy mashqlar, harakatli o‘yinlar va sport ermak o‘yinlari sanaladi. Bolalar bilan jismoniy mashqlarni bajarganda, ularning salomatligini kuzatib borish, tashqi ko‘rinishiga, kayfiyatiga, charchashi, ishtahasi, uyqusiga e’tibor berish juda muhim. Mutlaqo sog‘lom bola ham yilda 2-3 marta tibbiy ko‘rikdan o‘tkazilgani ma’qul. Bunda bolaning bo‘yi, og‘irligi, ko‘krak qafasining aylanasi ko‘rsatkichlarini yozib borish tavsiya etiladi, bu uning to‘g‘ri rivojlanishini kuzatib borish imkonini beradi.

Shartli ravishda bolalik quyidagi davrlardan iborat deb qabul qilingan:

– yangi tug‘ilganlik (chaqaloqlik) davri – hayotning dastlabki 3-4 haftasi. Bola yangi sharoitga moslashadi (u o‘pkasi bilan nafas oladi, ovqat hazm qilish tizimi ishlay boshlaydi, tanada issiqlik boshqaruvi yo‘lga qo‘yiladi); uning asab tizimi hali yetilmagan – bosh miya po‘stlog‘ining takomillashmaganligi tufayli faqat shartsiz reflekslar namoyon bo‘ladi;

– emish davri – bir yoshgacha bo‘lgan davr. Markaziy asab tizimi faoliyati takomillasha boshlaydi; shartli reflekslar ishga tushadi, harakatlar shakllanadi, bo‘y va og‘irlik tez orta boradi;

– maktabgacha yoshdan oldingi davr – 1 yoshdan 3 yoshgacha. Bo‘y o‘sishi bir oz sekinlashadi, harakat ko‘nikmalari takomillashadi; nutq shakllanadi; bola ayrim gigiyenik ko‘nikmalarni egallaydi;

– maktabgacha bo‘lgan davr – 3 dan 7 yoshgacha. Undan avvalgi davrdagi kabi u bo‘y o‘sishining bir oz sekinlashuvi bilan tavsiflanadi. Bola ortiqcha og‘irlikni yo‘qotadi, uning mushaklari mustahkamlanib, skeleti kuchli rivojlanadi. Maktabgacha davr oxiriga kelib sut tishlarining almashinishi boshlanadi. Bola kattalar yeydigan ovqatga o‘tadi, kasalliklarga tez chalinmaydigan bo‘ladi.

3-6 yoshli bolalarning rivojlanishi. Maktabgacha davrda go‘yo sog‘lomlik va to‘laqonli jismoniy rivojlanishning poydevori qo‘yiladi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarda tana hali yetarlicha turg‘un emas, harakat imkoniyatlari ham cheklangan. Ularning asab tizimi tez rivojlanadi, skeleti o‘sib, mushak tizimi mustahkamlanadi, harakatlar takomillashadi. Diqqat ancha barqarorlashib, bolalar eng sodda mehnat ko‘nikmalarini egallay boradilar. Gavdaning umumiy statik beqarorligi hamda dinamik imkoniyatlari cheklanganligi 3-4 yoshli bolalarga xos bo‘lib, bu yoshdagi bolalarda gavdaning yuqori qismi, elka sathi mushaklari va bukuvchi mushaklar nisbatan yaxshi rivojlangan, 3-4 yoshli bolalarda harakatlar yetarlicha muvofiq bo‘lmagani holda harakat faolligi yuqori darajada bo‘lib, bu harakatlarda yirik mushak guruhlari ishtirok etadi. Mazkur davrda uzoq muddat bir xil vaziyat saqlab turilsa yoki bir turli harakatlar bajarilaversa, tez toliqish kuzatiladi.

7 yoshgacha o‘pka to‘qimasining tuzilishi hali to‘la rivojlanmagan holda bo‘ladi; burun yo‘llari, traxeya va bronxlar nisbatan tor, shu sababli o‘pkaga havoning kelishi bir

oz qiyinroq; qovurg‘alar birmuncha qiyaroq, diafragma yuqoriroq joylashgan, shuning uchun nafas olish harakatlari amplitudasi katta emas. Bola kattalarga nisbatan yuzaki va ancha tez-tez nafas oladi: 3-4 yoshli bolaning nafas olish sur’ati – bir daqiqada 30 marta, 5-6 yoshda – 25 marta, kattalarda – 16-18 marta. Bolalarning yuzaki nafas olishi o‘pkada havo aylanishining nisbatan yomon bo‘lishi, havoning o‘pkada bir oz turib qolishiga olib keladi, o‘sayotgan organizm esa to‘qimalarning kislorod bilan yetarlicha ta’minlanishini talab qiladi. Aynan shuning uchun ham ochiq havoda o‘tkaziladigan jismoniy mashqlar juda muhim bo‘lib, ular havo almashinishini faollashtiradi. 3-4 yoshli bolalarda o‘pkaning tiriklik sig‘imi (O‘TS) 400-500 sm3 ni, 5-6 yoshda esa 800-900 sm3 ni tashkil etadi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarning yurak-qon tomir tizimi faoliyati o‘sayotgan organizmning talablariga yaxshi moslashgan, to‘qimalarning qon bilan ta’minlanishiga bo‘lgan kuchli ehtiyoj osonlik bilan qondiriladi, chunki bolaning tomirlari kattalarnikiga nisbatan kengroq bo‘lib, ulardan qon erkinroq oqib o‘tadi. Bola organizmidagi qon miqdori kattalarnikiga nisbatan ko‘proq, uning tomirlar bo‘ylab o‘tadigan yo‘li qisqaroq. Masalan, agar katta odamning tomir urishi bir daqiqada 70-74 zarbaga teng bo‘lsa, maktabgacha yoshdagi bolada o‘rtacha 90-100 zarbani tashkil etadi. Yurak asab boshqariluvi takomillashgan emas, shuning uchun uning qo‘zg‘alishi tez, qisqarishlar ritmi osongina buzilishi mumkin, jismoniy yuklama ostida yurak mushagi ancha tez toliqib qoladi. Lekin faoliyat o‘zgarishi bilan bolaning yuragi tez tinchlanib, o‘z kuchini tiklab oladi. Shuning uchun ham bolalar bilan shug‘ullanganda jismoniy mashqlarning xilma-xilligiga e’tibor berish: harakatli o‘yinlarni birmuncha tinch sur’atli o‘yinlar bilan navbatlash va bolaga tez-tez qisqa muddatli dam olish tanaffuslari berib turish lozim.

Maktabgacha yoshdagi bolalarda 3 yoshgacha bo‘lgan bolalarga nisbatan asab tizimi yaxshiroq rivojlangan bo‘ladi. Bu davrda bosh miyada asab hujayralarining yetilishi jarayoni nihoyasiga yetadi, bosh miya tashqi ko‘rinishi va og‘irligiga ko‘ra, katta odam miyasiga yaqinlashib qoladi, biroq asab tizimi hali ancha kuchsiz bo‘ladi. Shuning uchun maktabgacha yoshdagi bolalarning o‘ta ta’sirchanligini hisobga olish, ularga nihoyatda ehtiyotlik bilan muomala qilish: uzoq muddatli, og‘ir yuklamalar bermaslik, haddan ortiq toliqtirmaslik kerak, chunki bu yoshda ta’sirlanish jarayonlari tormozlanish jarayonlaridan ustun bo‘ladi.

Bolalarda 7 yoshgacha, garchi ularda qon bilan ta’minlanish kattalarnikidan yaxshiroq bo‘lsa-da, suyaklarning shakllanish jarayonlari tugallanmaydi. Skeletda tog‘aysimon to‘qimalar ko‘p bo‘lib, shu tufayli uning keyingi rivoji ro‘y beradi; ayni vaqtda suyaklarning yumshoqligi ham shu bilan tushuntiriladi. Mushak to‘qimasining o‘sishi asosan mushak tolalarining yo‘g‘onlashishi hisobiga yuz beradi. Ammo suyak-mushak apparatining nisbatan kuchsizligi va tez toliqishi sababli maktabgacha yoshdagi bolalar uzoq muddatli mushak zo‘riqishlariga bardosh berolmaydilar.

Kichik maktab yoshidagi bolalar yurish paytida hali aniq harakatlana olmaydilar: ular ritmik tarzda yugurolmaydilar, tez-tez muvozanatni yo‘qotib yiqiladilar. Ularning ko‘pchiligi pol yoki yerdan yaxshi itarila olmaydilar, oyoq kaftiga to‘la tayanib yuguradi. Ular o‘z tanalarini hatto arzimas balandlikka ham ko‘tara olmaydilar, shuning uchun balandlikka to‘siqlar osha hamda bir oyoqlab sakrashlarni bajarishga qiynaladilar. Bu davrda maktab yoshidagi bolalar qiziqish bilan koptok o‘ynaydilar, lekin hali ularning harakatlari o‘zaro muvofiqlashmagan, ko‘z bilan mo‘ljal olish rivojlanmagan: ularning koptokni ilib olishlari qiyin. Bolalar har turli harakatlardan tez toliqadilar, chalg‘iydilar.

4,5 - 5 yoshlarga kelib bolalarning harakatlari ancha muvofiqlashib qoladi, ular sakrash, to‘siqlar osha sakrab o‘tish, to‘pni ilish ko‘nikmalarini o‘zlashtiradilar. 6 yoshlilarda yengillik paydo bo‘lib, yugurish ritmi barqarorlashadi, yon tomonga tebranishlar kamayadi, ular balandlikka, uzunlikka, to‘siqlar osha sakraydilar, koptokni nishonga

urishni o‘zlashtiradilar, ko‘z bilan mo‘ljal olish kuchayadi. Katta maktab yoshidagi bolalarning kichiklarga qaraganda gavdasi baquvvat, mushaklari mutanosib rivojlangan. Yurish va yugurish chog‘idagi asosiy harakatlari asta-sekin avtomatik darajasiga yetadi, harakatlar muvofiqligi kuchayadi, qo‘l mehnatiga qobiliyat sezilarli darajada ortadi. Turg‘unlik ortgani uchun oddiy muvozanat mashqlarini, chaqqonlik bilan yugurishni amalga oshirish osonlashadi. Bolalar chidamliroq bo‘la boradilar, biroq ular dastlabki holatlarini tez-tez o‘zgartirib, rang-barang harakatlarni bajarishlari lozim. Bu yoshda ularning faoliyati asta-sekin mazmun bilan boyib, ongliroq bo‘la boradi.

Jismoniy tarbiya va sport sohasining ko‘pgina olimlari fikricha, o‘sib kelayotgan yosh avlodni jismoniy tarbiyalashdan maqsad shaxsning jismoniy va ma’naviy madaniyati asoslarini shakllantirish, salomatlik zahiralarini sog‘lom turmush tarzida faol hamda uzoq muddat davomida amalga oshirilayotgan qadriyatlar tizimi sifatida yuksaltirishdan iboratdir. Ularning mulohazalaridan kelib chiqib, maktabgacha yoshdagi bolalarga nisbatan tatbiq etilsa, jismoniy tarbiyaning asosiy vazifalari quyidagilardan tarkib topadi:

– bolalarda salomatlik, jismoniy tarbiya va sport qadriyatlarini o‘zlashtirishda ongli ehtiyojni shakllantirish;

– boladagi jismoniy sifatlar, harakat ko‘nikma va malakalari rivojining zarur hamda yetarli darajasini ta’minlovchi jismoniy imkoniyatlarning tabiiylikka muvofiq va individual – mos rivojlantirilishi;

– maktabgacha yoshdagi bolalarga umumiy jismoniy ma’lumotlarni berish, bunda ularning jismoniy tarbiyasiga oid aqliy, texnologik, axloqiy, etik va estetik qadriyatlarni o‘zlashtirishiga erishish;

– bilimlarning mustaqil mashg‘ulotlar o‘tkazishning boshlang‘ich ko‘nikmalari darajasida dolzarblashuvi.

Maktabgacha yoshdagi bolalar jismoniy tarbiyasi tizimi, tuzilishining innovatsion qo‘shimchalariga xos asosiy muammolar quyidagilardir:

a) bolalarning psixik rivojlanishi jarayoni sharoitlarini maqbullashtirish uchun jismoniy tarbiya vositalaridan foydalanish imkoniyatlari;

b) maktabgacha yoshdagi bolalar jismoniy sifatlarini rivojlantirish va asosiy harakatlarini shakllantirishning yosh xususiyatlari;

v) maktabgacha bolalar muassasalarida jismoniy tarbiyaning metodologik muammolari;

g) maktabgacha jismoniy tarbiya mutaxassislarini tayyorlashning tashkiliy-mazmuniy asoslari.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Kadrlar tayyorlash milliy dasturi. – O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, – 2013 y.

2. O‘zbekiston Respublikasining “Jismoniy tarbiya va sport to‘g‘risida”gi Qonuni – O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2015 y.

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-4947, 07.02.2017 y. O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2017 y., 6-son, 70-modda, 20-son, 354-modda, 23-son, 448-modda.

4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni “Jismoniy tarbiya va sport sohasida davlat boshqaruvi tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5368-son, 05.03.2018 y.

Dilfuza KAMOLJONOVA,
T.N. Qori Niyoziy nomidagi O‘zbekiston pedagogika fanlari ilmiy-tadqiqot instituti, tayanch doktoranti

XORIJIY TAJRIBALAR ASOSIDA BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARIDA KITOBXONLIK KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISH (AQSh va Yevropa misolida)

Annotatsiya

Ushbu maqolada bolani mutolaaga qiziqishini oshirishdan avval, unda kitobxonlik ko‘nikmalarini shakllantirish lozimligi, kichik yoshdagi bolalar ko‘proq katta hajmdagi, rangli bezakli, rasmli, kichik matnli kitoblarni o‘qishdan boshlashi maqsadga muvoffiqligi, to‘plamdan joy olgan matnlar qisqa so‘zlardan iborat bo‘lishi, unda qo‘llanilgan so‘zlar ma’nosi o‘quvchi uchun tushinarli ravon va sodda tilda ifodalanishi zarurligi, shuningdek, ota-ona bolasi uchun badiiy adabiyotlar tanlaganida kerakli mezonlarga amal qilishi kerakligi haqida so‘z yuritilgan.

Kalit so‘zlar. Bolalar kitobxonligi, audio va elektron kitob, mutolaa va rag‘bat, badiiy kitob, ilmiy-ommabop nashrlar, kitob illyustratsiyasi va dizayni.

В данной статье отмечается, что прежде чем развивать интерес ребенка к чтению, необходимо сформировать у него навыки чтения, детям младшего возраста желательно начинать с чтения книг большего объема, красочно оформленных, иллюстрированных, небольших текстов, тексты содержащиеся в сборнике, должны состоять из коротких слов, значение слов употребляемых в нем, должно быть выражено понятным читателю беглым и простым языком, также упоминалось, что родители должены следовать необходимым критериям при выборе художественной литературы для своего ребенка.

Ключевые слова. Детское чтение, аудио и электронная книга, чтение и стимулирование, художественная книга, научно-популярные публикации, книжная иллюстрация и дизайн.

This article notes that before developing a child's interest in reading, it is necessary to form his reading skills, it is advisable for younger children to start by reading books of a larger volume, colorfully decorated, illustrated, small texts, the texts contained in the collection should consist of short words, the meaning of the words used in it should it should be expressed in a fluent and simple language understandable to the reader, it was also mentioned that a parents should follow the necessary criteria when choosing fiction for their child.

Key words. Children's reading, audio and e-book, reading and stimulation, fiction book, popular science publications, book illustration and design.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining ‘‚2020-2025-yillarda kitobxonlik madaniyatini rivojlantirish va qo‘llab-quvatlash milliy dasturini tasdiqlash to‘g‘risida’’gi Qarorida 2020-2025-yillarda kitobxonlik madaniyatini rivojlantirish va qo‘llab-quvvatlash milliy dasturini 2020-2021-yillarda amalga oshirish bo‘yicha “yo‘l xaritasi” 2-ilovaga muvofiq tasdiqlandi va dasturni amalga oshirishning ustuvor yo‘nalishlari quydagicha etib belgilandi:

– aholi, avvalo, yoshlarning ma’naviy-ma’rifiy, badiiy-estetik talablariga javob beradigan kitoblarni yuksak sifat bilan chop etish, nashriyotlar va ijodkorlar

faoliyatiga ko‘maklashish, bolalarga mo‘ljallangan adabiyotlarni chop etishni qo‘llab-quvvatlash;

– milliy va jahon adabiyotining eng sara namunalarini tarjima qilish, mutolaa madaniyatini yuksaltirish, respublikaning olis hududlarida yoshga doir kitobxonlik madaniyatini rivojlantirish;

– kitob savdosini tashkil etish, tartiblarini soddalashtirish, yangi nashr etilgan kitoblarni yetkazish va axborot manbalarini tarqatish tizimini takomillashtirish;

– kitob yetkazib beruvchilarni zamonaviy ijtimoiy ehtiyojlarga moslashtirish, infratuzilmani yaxshilash, axborot-kutubxona markazlarini chop etiladigan bosma nashrlar va ularning elektron nusxalari bilan to‘ldirib borish, elektron kitoblar yaratish, kitoblarni raqamlashtirish va elektron kataloglarni tuzish hamda tizimli ravishda yangilab borish;

– aholining kitobxonlik darajasi va kitobga qiziqishini tizimli o‘rganib borish, kitobxonlik madaniyatini rivojlantirishga qaratilgan loyiha va tanlovlarni tashkil etish, kutubxonachi kadrlar salohiyatini oshirish;

– xorijiy asarlarga onlayn buyurtma berish, ularni respublika hududiga olib kelish va tarqatish tizimini hamda kitobxonlik madaniyatini rivojlantirish bo‘yicha xalqaro hamkorlikni kengaytirish.

Bola ulg‘ayib, esini taniy boshlagach, atrof-muhit va unda ro‘y berayotgan voqea-hodisalarga qiziqishi ortib boradi. Kun va tunning almashishi, tabiat hodisalari va jonivorlarning yashash tarzi, atrofdagi olam haqida tezroq va ko‘proq ma’lumot olishni, bu jarayonlarning qay tartibda kechayotganini bilishni istaydi. Ertak, hikoyalar va ularning qahramonlari orqali dunyoqarashi boyib, yaxshi va yomon, oq va qora o‘rtasidagi tafovutni farqlab boradi.

Yevropalik yozuvchi Josh Vayt “Bolani mutolaaga o‘rgatish” nomli maqolasida “Kichkintoy uchun mustaqil o‘qishni o‘rganish hayotda erishishi mumkin bo‘lgan eng katta yutuqlardan biridir”, – deydi. Ruxshunos va pedagoglarning olib borgan tadqoqotlariga ko‘ra, bolalarda 6-7 yoshda harf tanib, mustaqil o‘qish qobiliyati shakllanadigan davr hisoblanadi. Bolani mutolaaga yanada qiziqishini oshirishdan avval, unda kitobxonlik ko‘nikmalarini shakllantirish lozim. Kichik yoshdagi bolalar ko‘proq katta hajmdagi, rangli, bezakli, rasmli, kichik matnli kitoblarni o‘qishdan boshlashi maqsadga muvofiq. To‘plamdan joy olgan matnlar qisqa so‘zlardan iborat bo‘lishi, unda qo‘llanilgan so‘zlar ma’nosi o‘quvchi uchun tushinarli ravon va sodda tilda ifodalanishi zarur.

Ota-ona bolasi uchun badiiy adabiyotlar tanlaganida quyidagi mezonlarga amal qilishi zarur:

– bolaning yosh hususiyatiga ko‘ra (Kichkintoyning yosh hususiyatidan kelib chiqqan holda 0+,3+,5+ va 7+ tarzida kitoblar muqovasiga bu kitob aynan qaysi yoshdagi bolalar uchun mo‘ljallangani beriladi.);

– bolaning qiziqishiga ko‘ra (Ba’zi bolalar ertak yoki rivoyatlarga qiziqsa, boshqalariga ensiklopedik kitoblar yoqadi. Ota-ona farzandining qiziqishi va qobiliyatini inobatga olgan holda farzandiga kitob tanlashi lozim);

– Illyustratsiya va dizayniga ko‘ra (Kompyuter texnologiyalari va undagi dasturlar takomillashishi bilan noshirlar kitobning tashqi va ichki ko‘rinishiga alohida e’tibor qarata boshladilar. Bola yorqin ranglarni yoqtirgani sabab kichik yoshdagi kitobxonlar uchun mo‘ljallangan kitoblar alohida dizayn va badiiy bezakni talab qiladi. Muqova uchun tanlanadigan rasmdan tortib, kitobdagi matn harflari, matnlarning orqa foni o‘qish uchun qulaymi yoki yo‘qmi, shrifti keglli 14-16 va 18 dan kichik emasmi shularga

alohida e’tibor qaratish zarur. Chunki bolalar kitob o‘qiganlarida kitobga tanlangan rasmlar va matn shrifti bolaning ko‘rish qobiliyatiga salbiy ta’sir ko‘rsatmasligi zarur);

– kitob ko‘rinishi (3D, audio, vezual kitoblar va hakazo).

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari (7-12 yosh) atrofdagi hodisalarni bilishga intiladigan va olgan ma’lumotlarini xotirasida mustahkam saqlab qoladigan yoshda bo‘ladi. Aynan shu vaqtda bolada bilish va bilganlarini xotirada saqlash, ularni hayotda qo‘llash ko‘nikmalari shakllandi. Shu sabab bu yoshda bolalar ko‘rgan va eshitgan film va asar qahramonlariga tahlid qilish hissi kuchli bo‘ladi. Farzandining fe’l-atvori shakllanayotgan ayni bir paytda ota va ona uni kitobxon qilib tarbiyalasa, bola ham aqlan ham ma’nan barkamol farzand bo‘lib voyaga yetadi.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari uchun tavsiya qilinadigan kitoblarni ikki katta tur badiiy va ilmiy-ommapob kitoblarga ajratamiz.

Bolalar uchun badiiy kitoblar, ularning turlari va badiiy kitoblarga qo‘yiladigan talablar:

– badiiy kitoblar bolaning dunyoqarashi va tassavurini boyitib, undagi ijodkorlik (kreativlik) qobiliyatini rivojlantiradi. Bolaning nutqi ravonlashib, so‘z boyligi boyiydi. Rivoyat, ertak, cho‘pchak, asotir va hikoyalarda tilga olingan biron bir voqea hayotiy yoki to‘qima bo‘lishidan qat’iy nazar, qahramonlarning xatti-harakati va fe’l-atvori kitobxonni voqea-hodisa va harakatlardan saboq chiqarishga undaydi. O‘zbek xalq ertaklaridan “Ur to‘qmoq” asarini misol qilib keltirsak, ertakda chol laylakka yaxshilik qiladi. Bu yaxshilikdan biron bir manfaatni ko‘zlamaydi. Laylak ham chol qilgan yaxshilikni qaytarmoqchi bo‘ladi. Va unga “Qaynar xumcha”ni sovg‘a qiladi. Bu ertakning pedagogik ahamiyati shundaki, bolalar yaxshilikka yaxshilik bilan javob qaytarish kerakligini o‘rganadilar. Cholni uchratgan ayyor boy esa sehrli xumchani oddiy xumchaga almashtirib qo‘yadi, ertak yakunida qilgan qing‘ir ishlari evaziga “Ur to‘qmoq”dan jazosini oladi. Bu syujet orqali biron bir egrilik albatta yomon oqibitlar bilan tugashi muqarrarligini bolaga hayotiy misollar bilan tushintirib beriladi.

– she’riy kitoblar kichik kitobxonga estetik zavq berishi bilan undagi xotirani mustahkamlaydi. Bolalar she’r yod olishi bilan xotirasiga ko‘plab badiiy misralar yod bo‘lib boraveradi.

– topishmoqlar topqirlikka chorlasa, tez aytishlar nutqni rivojlantiradi. Nutqida nuqsoni bor bolalar uchun logopetlar tez aytish aytishni mashq qildirishlari ham shundan.

– ilmiy-ommapob kitoblar bolaning aqliy qobiliyatini rivojlantirishga qaratilgan bo‘ladi. Ilmiy-ommapob kitoblar ichida eng ko‘p tarqalgan turi bu – ensiklopedik kitoblardir. Bola astronomik hodisalar yulduzlar, sayyoralar harakatini bilishga intiladi. Texnik hodisalar, ixtirolarga qiziqadi. Mana shu qiziqishni yanada rivojlantirish uchun bolalarga ilmiy-ommabop kitoblar va ensiklopediyalar tavsiya etiladi. “U kim, bu nima?”. “Mening birinchi ensiklopediyam”, “Jonivorlarning katta kitobi” shular jumlasidan. Bu kabi adabiyotlar bolada kitobxonlik kompetensiyasini yanada shakllantirib, ilmiy bilim ko‘nikmalarini mustahkamlab boradi.

Bolaning yosh hususiyatiga qarab kitoblarning tasniflanishi. 7 yoshli o‘quvchilar endigina harf tanib, o‘zida o‘qish ko‘nikmalarini mustahkamlayotgan bo‘lishadi. Shu sabab bolalarga tavsiya qilinadigan kitoblar mavzu va hajm jihatidan o‘quvchi qabul qilish darajasida bo‘lishi lozim. Quyidagi jadvalda birinchi va to‘rtinchi sinf o‘quvchilariga bir o‘qishda nechta so‘zdan iborat matnlar xalqaro va milliy standartlari jadvali misol keltiriladi.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari o‘qishi uchun tavsiya qilinadigan matnlar hajmi (so‘zda)

1-sinf (7- 8 yosh o‘quvchilar)	50-100-120-150 tagacha
2-sinf (8-9 yosh o‘quvchilar)	150-200 tagacha
3-sinf (9-10) yosh o‘quvchilar	250-350 tagacha
4-sinf (10-11) yosh o‘quvchilar	350-400 tagacha so‘z

Bolalar uchun tayyorlanadigan matnlar ushbu standartga qat’iy amal qilmasa, me’yoridan ortiq so‘z bolalar uchun og‘irlik qilishi, mutolaadan zerikishga olib kelishi mumkin.

Bolalar uchun nashr qilinadigan fan, soha, kasb-hunarga oid kitoblarning tasnifi, bolalarni kasbga yo‘naltirish: boshlang‘ich sinf o‘quvchilari aqlini tanib, ulg‘ayishi bilan ularda qaysidir fan, soha va kasbga qiziqishi ortib, shakllanib boradi. Bolaning qiziqishlarini qo‘llab-quvvatlash uchun ota-ona unga shu sohaga mo‘ljallangan kitoblar olib berishi zarur.

Ilmiy (fanga ixtisoslashtirilgan) kitoblar: matematika, musiqa, tasviriy san’at, atrofimizdagi olam va yoki jonivorlar, o‘simliklar, qushlarning turmush tarziga ixtisoslashgan ilmiy kitoblar. Bunday kitoblarni mutolaa qilgan o‘quvchilarda kasb-hunarni erta yoshidan to‘g‘ri tanlab olishiga, tabiatni sevishga, texnika yutuqlari bilan tanishib borishga undaydi. Bu kitoblar bolalarni ma’lum bir sohaga yo‘naltirilib, undagi so‘nggi yangilik va ma’lumotlar bilan tanishtirib boradi. Bu kabi kitoblarni o‘qib boradigan bolada biror fan yoki sohaga ixtisoslashish ko‘nikmasi paydo bo‘ladi.

Bolalarni mutolaaga qiziqtirishda kitoblardan o‘rin olgan rasmlar, muqova va illyustratsiyasi ham muhim rol o‘ynaydi. Suratlar kitobning mazmun-mundarijasi bilan jajji kitobxonni tanishtirishi bilan birga o‘qiganlarini ko‘z oldida yanada yaqqol jonlanishiga yordam beradi. Shu sabab xorijda boshlang‘ich sinf yoshidagi bolalar uchun 3D formatdagi kitoblar nashr qilinadi. Kitoblarga suratni qanday joylashtirish, qay bir ranglar bola ruhiyatiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi, qanday ranglar ko‘rish qobiliyatiga salbiy ta’sir etmaydi, matn qanday fonga joylanadi – bu kabi masalalarga noshirlar alohida e’tibor qaratadilar.

7-10 yoshdagi o‘quvchilar uchun mo‘ljallangan kitoblarning 50-60 foizini rasm, qolgan qismini matn tashkil etadi. Mazkur mezonlar bolalar uchun mo‘ljallangan adabiy-badiiy, bezakli jurnallar uchun ham qo‘llaniladi. Shu sabab bunday kitoblarni bolalar bajonidil mutolaa qiladilar.

Yuqoridagilarni inobatga olgan holda, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida kitobxonlik kompetensiyasining rivojlantirish uchun avvalo kitobxonlik muhitini to‘g‘ri yaratish kerak. Bu muhit oilada bolaning ota-onasi yordamida, maktabda esa o‘qituvchi va murabbiylari tomonidan tashkil qilinsa, bolalarda kitob o‘qish malakasi va kitobxonlik kompetensiyasi samarali shakllanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Ta’lim to‘g‘risidagi qonuni. – T., 2020-yil 23-sentabr, O‘RQ-637-son.

2. Ibragimov R. Boshlang‘ich maktab o‘quvchilarida bilish faoliyatini shakllantirishning didaktik asoslari. Diss. – T., 2009-yil.

3. http://blog.allaboutlearningpress.com

4. http://www.readandspell.com

A’zam XOLMURODOV,
Jizzax viloyati pedagoglarni yangi metodikalarga
o‘rgatish milliy markazi direktori, pedagogika fanlari doktori

PEDAGOG KADRLAR MALAKASINI OSHIRISHNING ILG‘OR XORIJIY TAJRIBALARI

Annotatsiya

Ushbu maqolada pedagog kadrlar malakasini oshirish tizimini rivojlantirish va zamonaviy yondashuvlar asosida takomillashtirish rivojlangan mamlakatlar ta’lim islohotlarining asosiy yo‘nalishlaridan biri sifatida qaralishi tahlil qilinadi, shuningdek, pedagog kadrlar malakasini oshirishda ko‘plab xorijiy davlatlar tajribasi haqida so‘z boradi.

Kalit so‘zlar. Pedagog, pedagog kadrlar malakasini oshirish, xorijiy tajriba, uzluksiz ta’lim, rasmiy ta’lim, norasmiy ta’lim.

В данной статье анализируется, как развитие и совершенствование системы повышения квалификации педагогических кадров на основе современных подходов рассматривается как одно из основных направлений образовательной реформы развитых стран, а также рассказывается об опыте многих зарубежных стран в деле повышения квалификации педагогических кадров.

Ключевые слова. Педагог, повышение квалификации педагогических кадров, зарубежный опыт, непрерывное образование, формальное образование, неформальное образование.

This article analyzes how the development and improvement of the system of advanced training of teaching staff on the basis of modern approaches is considered as one of the main directions of educational reform in developed countries, and also tells about the experience of many foreign countries in the field of advanced training of teaching staff.

Key words. Teacher, professional development of teaching staff, foreign experience, continuing education, formal education, non-formal education.

Dunyo tajribasida malaka oshirishning ko‘p turlari amaliyotda uchraydi, bular – tajribasiz yosh o‘qituvchilar uchun boshlang‘ich malaka oshirish kurslari, qo‘shimcha kasbiy ta’lim, qayta tayyorlash, tajribali o‘qituvchilar uchun mo‘ljallangan malaka oshirish kurslari kabilardir.

Pedagog kadrlar malakasini oshirish tizimini rivojlantirish va zamonaviy yondashuvlar asosida takomillashtirish rivojlangan mamlakatlar ta’lim islohotlarining asosiy yo‘nalishlaridan biri sifatida qaraladi. Malaka oshirish ko‘plab xorijiy davlatlar tajribasida mavjud bo‘lib, kasbiy rivojlanish, o‘qituvchilarni rivojlantirish, uzluksiz kasbiy rivojlanish kabi tushunchalarda talqin qilinadi. Pedagog kadrlar malakasini oshirish borasidagi xorijiy tajribalar evolyutsiyasi ularning o‘ziga xos differensial xususiyatga ega ekanligini ko‘rsatadi.

Malaka oshirish kurslarining institutsional tuzilishi nuqtayi nazaridan olib qaralganda, pedagog kadrlarning, xususan, umumiy o‘rta ta’lim maktablari o‘qituvchilarining malakasini oshirish Yaponiya, Germaniya, Buyuk Britaniya, Fransiya, Italiya kabi davlatlarda qonunchilik bilan nazoratga olingan bo‘lsa, Shvetsiyada bu narsa davlat aralashuvisiz amalga oshiriladi.

Ma’lumki, malaka oshirish tizimidagi xorijiy tajribalar tahlili mazkur sohadagi zamonaviy tendensiyalarning rivojlanish bosqichlari bilan uzviy bog‘liq holda yoritiladi.

Rivojlangan davlatlarning malaka oshirish tizimidagi asosiy tendensiyalardan biri – bu uzluksiz ta'lim konsepsiyasi bilan belgilanadi.

Uzluksiz ta'lim – bu shaxsga yo'naltirilgan ta'lim konsepsiyasi bo'lib, davlat va jamoat institutlari tizimidan foydalanish asosida, shaxs va jamiyat ehtiyojlariga muvofiq, butun umr davomida shaxsning ta'lim (umumiy va kasbiy) salohiyatini oshirish jarayoni hisoblanadi. Uzluksiz ta'limga bo'lgan ehtiyoj fan-texnika taraqqiyoti, innovatsion texnologiyalarning keng qo'llanilishi bilan bog'liq holda belgilanadi. Chunki innovatsion bilimlar va mehnat bozoridagi rivojlanish yangi kasbiy bilimlarni, kompetensiyalarni o'zlashtirishga nisbatan ehtiyojni shakllantiradi.

Uzluksiz ta'lim tushunchasining kelib chiqishi qadimgi faylasuflar davriga borib taqaladi. ''Hayot davomidagi ta'lim'' atamasi birinchi marta 1968-yilda YUNESKO Bosh konferensiyasi materiallarida qo'llanilgan deb talqin etiladi. 1972-yilda Parijda "Uzluksiz ta'lim kontekstida kattalar ta'limi" bo'yicha III xalqaro konferensiyasi bo'lib o'tadi va mazkur konferensiyada Edgar For (Fr. Edgar Faure) komissiyasi ta'lim paradigmasining asosiy qoidalari, uning faoliyatida uzluksizlik tamoyiliga asoslanish g'oyasi ilgari suriladi. 1970-yillarning o'rtalaridan boshlab ko'plab mamlakatlarda uzluksiz ta'lim g'oyasi qo'llab-quvvatlandi.

Uzluksiz ta'limning tasnifiy shakllari sifatida rasmiy, norasmiy va informal ta'limni kiritish mumkin bo'ladi.

Rasmiy ta'lim – bu maktab o'quvchilari va yoshlarning asosiy faoliyati sifatida o'zaro bog'liq bo'lgan o'quv dasturlari majmuasini ta'minlovchi ta'lim muassasalari tizimi.

Norasmiy ta'lim – bu rasmiy ta'lim ta'rifiga kirmaydigan har qanday tashkil etilgan va davom etuvchi o'quv faoliyati. Norasmiy ta'lim talabani sertifikatlash uchun mo'ljallanmagan. U ham kasbiy yo'nalishga, ham umumiy madaniy yo'nalishga ega bo'lishi mumkin.

Informal ta'lim – bu o'quv faoliyatining barcha turlarini o'z ichiga olgan ta'lim. Aniq bir ta'lim tashkiloti yoki muassasasi tizimida emas, balki individual va guruh darajasida amalga oshirilishi mumkin. Bunday ta'lim odamlarning kundalik hayotdagi munosabati va xatti-harakatlarini eng samarali tarzda o'zgartiradi, degan fikr mavjud. Informal ta'limning keng qo'llaniladigan shakli sifatida masofaviy ta'lim yoki ochiq ta'lim resurslari (MOOS) asosidagi mustaqil ta'limni keltirish mumkin bo'ladi.

Yuqoridagilardan ko'rinib turibdiki, malaka oshirish ta'lim tizimidagi ilg'or tajribalarning shakllanishida uzluksiz ta'lim konsepsiyasining rivojlanishi bilan birga, malaka oshirish ta'limining individuallashtirilgan ehtiyojlarga yo'naltirish g'oyasi ham shakllana borgan. Bu o'z navbatida, rivojlangan davlatlarning malaka oshirish, xususan, pedagog kadrlar malakasini oshirish tizimidagi o'ziga xos modellarining shakllanishiga asos bo'lgan.

Jumladan, Amerika Qo'shma Shtatlarida o'qituvchilarning malakasini oshirish tizimining rivojlanishi tahlili shuni ko'rsatdiki, ushbu mamlakatning siyosiy va ishbilarmonlik dunyosi rahbarlari boshqa mamlakatlarga qaraganda uzoq muddatli iqtisodiy farovonlikning zaruriy sharti – ta'lim personallarini kasbiy rivojlantirishning samarali tizimi ekanligini anglab yetishgan. Biroq Amerikada ham malaka oshirish tizimining shakllanishi va rivojlanishi izchil hamda bir xil bosqichda kechgan emas.

Mutaxassislar Amerika Qo'shma Shtatlaridagi malaka oshirish tizimining rivojlanish bosqichlarini shartli ravishda uch bosqichga ajratib ko'rsatishadi:

XX asrning 40- 60-yillargacha, 60- 80-yillarigacha, 80-yillardan 2000-yilgacha va 2000-yildan to hozirgi kungacha. Qo'shma Shtatlarda malaka oshirish tizimini rivojlantirishning birinchi bosqichi (1940-1960-yillar) markazlashtirilmagan davr bo'lib,

bunda ta’limni, xususan malaka oshirish ta’limini moliyalashtirish va nazoratini amalga oshirishda davlatning aralashuvi kuzatilmagan.

1960-1980-yillardagi oliy o‘quv yurtidan keyingi pedagogik ta’lim tizimining shakllanishi bilan bog‘liq ikkinchi rivojlanish bosqichida malaka oshirishning yangi shakllarini (universitetlar va pedagogika kollejlari bazasidagi turli xil qisqa va uzoq muddatli kurslar) amaliyotga joriy etish, malaka oshirish ta’limini moliyalashtirishda markazlashtirish va uni davlat tomonidan muvofiqlashtirish mexanizmlari tatbiq etilgan. (Uzluksiz ta’lim agentliklari; Milliy ta’lim instituti; Milliy fan fondi va boshqalar.).

Uchinchi bosqichda, ya’ni pedagog kadrlar malakasini oshirishning samarali tizimini joriy etish, ta’limni modernizatsiyalash natijasida 1980-yillarda amerikalik maktab o‘qituvchisining kasbiy rivojlanishida professional omil yetakchilik qilgan va bunda asosan shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim, faoliyatli-kognitiv yondashuv (D. Devison, B. Skinner, A. Bandura, B. Djoys, B. Shauers, S. Griffis, R. Maklid) metodologiyasiga asoslangan. Shaxsiy va kasbiy jihatdan yetuk, malakali, yangicha ish uslubiga moslashuvchan va ijodiy fikrlay oladigan o‘qituvchilarni tayyorlashga e’tibor kuchaygan.

XXI asr boshlarida esa Amerikada pedagog kadrlar malakasini oshirish tizimini takomillashtirishda o‘quv jarayonini diversifikatsiya qilish, malaka oshirish tizimida ta’lim xizmatlari marketingini rivojlantirish, innovatsion ta’lim texnologiyalarini joriy qilish, mentorlik tizimini rivojlantirish, kasbiy malakalarni muddatli o‘zlashtirishdan, uzluksiz kasbiy rivojlanish, hayot davomidagi ta’lim (lifelong learning) yondashuvlariga ustuvorlik berilgan.

Malaka oshirish ta’lim dasturlari mazmunida esa, xodimning kasbiy va shaxsiy fazilatlarini oshirish, muloqot ko‘nikmalari, intizom, kasbiy va shaxsiy o‘zini o‘zi rivojlantirish hamda o‘z-o‘zini tarbiyalash istagi kabi fazilatlarga alohida ahamiyat beriladi: mehnat faoliyati subyekti sifatida mutaxassisning kasbiy ahamiyatli sifatlari va qobiliyatlarini rivojlantirish; ularni haqiqiy mehnat sharoitlariga moslashtirish; hamkasblar va ta’lim oluvchilar bilan professional munosabatda bo‘lish; kasbiy faoliyatning muayyan turini muvaffaqiyatli amalga oshirish; kasbiy faoliyat istiqbollarini bashorat qilish kabi kompetensiyalarning rivojlantirilishiga alohida ustuvorlik beriladi.

Buyuk Britaniyadagi o‘qituvchilar malakasini oshirish tizimi o‘qituvchining “yangi”, “yosh bitiruvchi”dan “mutaxassis”gacha rivojlanishiga ko‘maklashish uchun mo‘ljallangan. Malaka oshirish tizimi maktabga yo‘naltirilgan ta’lim modeliga asoslanadi, ya’ni ta’lim dasturlari mazmuni ish beruvchilarning talablari asosida shakllantiriladi va amalga oshiriladi.

Zamonaviy Buyuk Britaniya ta’limining o‘ziga xos xususiyatlari orasida an’ana va innovatsiyalar uyg‘unligini ajratib ko‘rsatish mumkin bo‘ladi.

Buyuk Britaniyada ta’limning shakllangan ijobiy an’analariga juda ehtiyotkorlik bilan munosabatda bo‘lishadi va ularni saqlashga harakat qilishadi. Chunki, ko‘pgina ta’lim muassasalari asrlar davomida shakllangan an’analarga ega hisoblanadi va ular qo‘llab-quvvatlanadi.

Buyuk Britaniya ta’limining yana bir ijobiy jihati bu ta’lim oluvchilarning o‘quv yutuqlarini nazorat qilish va baholash tizimining mustaqilligi, qat’iy va izchilligidir. Buyuk Britaniyada har bir ta’lim oluvchi uchun markazlashtirilgan ma’lumotlar bazasi yaratilgan va takomillashtiriladi. Ta’lim oluvchilarning ta’lim yutuqlarini baholashda yosh, kategoriya va ish tajribasidan qat’iy nazar uchta yondashuv qo‘llaniladi: mezonli, me’yoriy va individual. Mezon yondashuvi darajasida ta’lim yutuqlarini milliy standartga muvofiqlik darajasi tekshirilsa, me’yoriy darajada – real bilim va ko‘nikmalar

tahlili asosida ta’lim oluvchilarni imkoniyatlari baholanadi hamda subyektiv sifatlari aktuallashtiriladi; individual darajada har bir ta’lim oluvchining akmeologik rivojlanish darajasi va dinamikasi qiyosiy-tipologik o‘rganiladi.

Shu o‘rinda, tadqiqotchi M. Yuldashev, aksariyat xorijiy davlatlarda ta’lim sifatini baholash ikki tarkibiy qismdan, ya’ni ichki (o‘zini o‘zi baholash) va tashqi baholashdan iborat bo‘lishi lozimligi, shuningdek, mazkur tashkil etuvchilarning aniq mexanizmlari har xil bo‘lishi mumkinligi tan olinadi, deya ta’kidlaydi. Sifatni tashqi baholash tizimi sifatni ko‘proq standartlar va iqtisodiy samaradorlik bilan, ichki baholash tizimi esa raqobatbardoshlik va rivojlanishga yo‘naltirilgan takomillashtirishlar bilan aloqadorlikda tushuniladi. Dunyoda mavjud ta’lim sifatini baholash tizimlarini ham ularda tashqi yoki ichki baholashga urg‘u berilishiga qarab shartli ravishda ikki modelga bo‘lish mumkin. Ya’ni ta’lim muassasalarining jamiyat va davlat oldidagi mas’uliyatini attestatsiya, akkreditatsiya va nazorat qilish vositasida tashqi baholashga asoslangan “fransuz” modeli. Bunda ta’lim muassasasi tomonidan o‘zini o‘zi baholashga yuzaki qaraladi, chunki asosiy e’tibor tashqi baholashni samarali o‘tkazishga qaratiladi. Ta’lim sifatini baholashning ikkinchi – “ingliz” modeli asosini ta’lim muassasasi tomonidan ichki baholash tashkil qiladi.

Yaponiyada rasmiy buyruqqa ko‘ra, o‘qituvchi doimiy ravishda professional formada bo‘lishi, malakasini oshirish uchun ish joyini muntazam ravishda o‘zgartirishi kerak. O‘qituvchilar hamkasblarining darslarida qatnashishlari kerak. Xalq ta’limi vazirligi tomonidan muntazam ravishda umumiy o‘rta ta’lim maktablari direktorlari va katta o‘qituvchilari uchun kurslar, yetakchi o‘qituvchilar uchun seminarlar, yangi o‘qituvchilar uchun ham kurslar hamda o‘qituvchilarning chet el amaliyotlari tashkil etiladi. Ba’zi o‘qituvchilar aspirantura va doktoranturada o‘qishni davom ettirish uchun stipendiya olishadi. 2004-yildan boshlab Yaponiyada o‘qituvchining kasbiy faoliyatini baholash tartibi malaka oshirish darslari natijalariga bog‘liqligi o‘rnatildi. Malaka oshirish sertifikatini olmagan o‘qituvchilar nomaqbul deb topiladi va maktabda ishlashdan chetlashtiriladi. Yaponiyada maktab jamoasi o‘zi uchun muhim bo‘lgan yo‘nalishlarni aniqlashtirib, o‘qituvchilari uchun kasbiy rivojlanish dasturlarini belgilaydi.

Malaka oshirish tizimidagi ilg‘or tajribalardan yana biri bu ta’limdagi, xususan, malaka oshirish tizimidagi vaucher tizimi hisoblanadi. Kattalar ta’limida vaucher g‘oyasi, asosan, Yevropa mamlakatlarida tarqalgan.

1996-yildan Finlandiyada ishsizlarga bir yoki ikki yo‘nalishda kasbiy ta’lim olishi uchun vaucherlarni joriy qilish boshlangan. Bunda katta yoshli ta’lim subyektlari, ya’ni ishsiz fuqarolar vaucherlarni olishi (600 Fin markasi hisobida) yoki bandlik markazlarida bepul o‘qishi mumkin edi. Bunday yondashuv ularda qo‘shimcha kasb o‘rganishga, yangi kompetensiyalarni o‘zlashtirishga va shu orqali yangi ish joylarini izlab topishiga bo‘lgan motivatsiyaning ortishiga sabab bo‘lgan. Bu tajriba Ispaniya, Italiya, Rossiya kabi davlatlarning malaka oshirish tizimida ham o‘z aksini topgan.

Xorijiy davlatlarning pedagog kadrlar malakasini oshirish tizimidagi o‘ziga xosligini quyidagilarda ko‘rishimiz mumkin bo‘ladi:

– birinchidan, rivojlangan davlatlarda malaka oshirish ta’lim tizimining tashkiliy-boshqaruv tizimidagi o‘ziga xosliklarning mavjudligi. Masalan, Shvetsiyada malaka oshirish tizimiga davlatning aralashuvi kuzatilmaydi, aksincha, ehtiyojlardan kelib chiqqan holda ta’lim xizmatlari sifatida ko‘rsatiladi; Finlandiyada mutaxassisning, jumladan, pedagog kadrlarning malaka oshirishi va kasbiy rivojlanishi uchun ish beruvchilar

javobgar hisoblanadi; Yaponiyada esa malaka oshirish davlat nazoratidagi yo‘nalish hisoblanadi.

– ikkinchidan, xorijiy amaliyotda malaka oshirish ta’lim muassasalarining aksariyat qismi universitetlar, yirik ilmiy markazlar negizida tashkil etilgan. Bunda malaka oshirish jarayonlarida o‘z imkoniyatlarini realizatsiya qilish imkonini beruvchi raqamli platformalarni joriy etish, onlayn loyihalarni amalga oshirish, amaliyotga yo‘naltirilgan o‘qitish, qo‘shimcha kasbiy ta’lim dasturlarini mehnat bozori segmentida rivojlantirish masalalari asosiy yo‘nalishlar sanaladi;

– uchinchidan, rivojlangan davlatlarda malaka oshirish muassasalari hududiy kolloboratsiya tamoyilida faoliyat yuritib, bunda muayyan hududning rivojlanish istiqbollari, tadbirkorlik muhiti, inklyuzivlik kabi omillarga muvofiq holda faoliyat yuritadi. Bu esa o‘z navbatida malaka oshirish tizimidagi ta’lim xizmatlarini rivojlantirishga tashkiliy-boshqaruv jihatidan imkoniyat yaratadi.

Yuqoridagi tahlillarga tayangan holda, malaka oshirish tizimidagi ilg‘or tajribalarni tahlil etish asosida o‘ziga xos mulohazali jihatlar ham ko‘zga tashlandi, ya’ni malaka oshirish kurslarida pedagoglarning kasbiy rivojlanishi mazkur kurslarda dars beradigan uslubchi-tyutorlarning malaka darajasiga bog‘lanib qolishi, pedagoglarda o‘z ustida ishlash va malaka oshirishga nisbatan motivatsiyaning yetishmasligi, ta’limni tabaqalashtirish darajasining pastligi va malaka oshirish ta’lim dasturlariga imkoniyatning hammaga ham teng emasligi bilan bog‘liq xulosalarni shakllantirish mumkin bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Андриенко Е.В. Сравнительная педагогика. Новосибирск 2016, – С. 66-70.

2. Афанасьев В.В., Куницына С.М., Лебедев В.В., Расташанская Т.В., Табаровская К.А. Отечественный и зарубежный опыт персонификатции в системе дополнительного профессионального образования, Международный научно-исследовательский журнал ▪ № 9 (51) ▪ Часть 4.

3. Железнова Б. Диагностика профессиональной деятельности педагога дополнительного образования Текст.: диагностические и обучающие методики для педагога дополнительного образования. – Оренбург, 1999. – С. 36.

4. Хатюшина А.А. Повышение квалификатции учителей США с учетом личностного развития //Социально-реабилитатционная инноватика: теория, технологии, практика. – М.: Изд-во РГСУ, 2007.

5. Yuldashev M.A. Xalq ta’limi xodimlarini malakasini oshirishda ta’lim sifati menejmentini takomillashtirish: doktorlik diss. avtoref. ...ped.fan.dok. – T., 2016. – 92 b.

6. Шадриков В.Д. Профессиональные способности. – М.: Университетская книга. 2010. – С. 310.

7. https://www.uzedu.uz

Rustam SAFAROV,
Toshkent shahar 77-sonli "Nurli maskan"
ixtisoslashtirilgan maktab-internati direktori

KO'ZI OJIZ BOLALAR UCHUN IXTISOSLASHTIRILGAN TA'LIM MUASSASASIDA TA'LIM SIFATINI BOSHQARISHDA KORREKSION TARBIYA VA TARBIYACHILARNING O'RNI

Annotatsiya

Maqolada ko'zi ojiz bolalar uchun ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasining talim sifatini boshqarishda korreksion tarbiya va bunda tarbiyachilarning muhim o'rin tutishi, shuningdek, ko'rishida nuqsoni bo'lgan shaxslarni ijtimoiylashtirish va ularga ta'lim va tarbiya jarayonida tashxisning qo'yilishiga maxsus yondashuv, o'quv-tarbiya jarayonini tashkil etishda tabaqalashtirilgan yondashuvni amalga oshirish masalalari haqida so'z yuritilgan.

Kalit so'zlar. Ta'lim, tarbiya, oquv-tarbiya, korreksion tarbiya, ijtimoiylashtirish, xulq-atvor madaniyati, shaxslararo munosabat.

В статье рассматриваются вопросы коррекционного воспитания и важная роль воспитателей в управлении качеством образования специализированного образовательного учреждения для детей с нарушениями зрения, а также социализации лиц с нарушениями зрения и особого подхода к диагностированию их в процессе обучения и воспитания, реализации дифференцированного подхода к организации учебно-воспитательного процесса.

Ключевые слова. Воспитание, обучение, коррекционное воспитание, социализация, культура поведения, межличностные отношения.

The article deals with the issues of correctional education and the important role of educators in managing the quality of education of a specialized educational institution for visually impaired children, as well as the socialization of visually impaired people and a special approach to diagnosing them in the process of education and upbringing, the implementation of a differentiated approach to the organization of the educational process.

Key words. Education, training, upbringing, correctional education, socialization, culture of behavior, interpersonal relations.

Mamlakatimizda alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarning ta'lim-tarbiya olish huquqini ta'minlash maqsadida sakkiz turdagi: 1. Kar (eshitmaydigan) bolalar uchun. 2. Zaif eshituvchilar va keyinchalik kar bo'lgan (1, 2-bo'limlar) bolalar uchun. 3. Ko'r (ko'zi ojiz) bolalar uchun. 4. Zaif ko'ruvchilar va keyinchalik ko'r bo'lgan bolalar uchun. 5. Nutqida og'ir nuqsonlar bo'lgan bolalar uchun. 6. Poliomielit xastaligi oqibatlari bo'lgan bolalar uchun (Serebral falaji oqibatlari bo'lgan bolalar uchun). 7. Psixik rivojlanishi sust bolalar uchun. 8. Yengil, o'rta va og'ir darajadagi aqli zaif bolalar uchun ixtisolashtirilgan maktab-internatlar faoliyat yuritadi.

Jismoniy yoki psixik rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalarning ta'lim-tarbiya olishi ta'lim-tarbiyaning nuqsonlarini tuzatish (korreksiya)ga yo'naltirilganligi, ta'lim va tarbiya jarayonida tashxisning qo'yilishiga maxsus yondashuv, o'quv-tarbiya jarayonini tashkil etishda tabaqalashtirilgan yondashuvni amalga oshirish, kelajakda o'quvchilarning integratsiyasi va ijtimoiy moslashuvi tamoyillari asosida amalga oshiriladi.

So‘ngi yillarda ko‘zi ojiz bolalar uchun maktab ta’limi muammolari yanada dolzarb tus oldi, bu esa ko‘zi ojiz va zaif ko‘ruvchi bitiruvchilarning integratsiyasi va ijtimoiy moslashuvi muammolariga e’tiborni kuchaytirish uchun maktab-internat vazifalarini qayta yo‘naltirish zarurati bilan bog‘liq.

Jamiyat so‘rovi natijasi o‘laroq ta’lim sohasida shaxs, jamiyat va davlat manfaatlari uchun maqsadli ta’lim va tarbiya jarayonini ta’minlash masalasi paydo bo‘ladi. Mamlakatimizda qabul qilingan asosiy qonunlarga e’tibor qaratgan holda, ushbu yo‘nalish bolalarning rivojlanishi jarayonida nafaqat ta’lim prinsipini, balki shaxsni ijtimoiylashtirish, xulq-atvor madaniyati, shaxslararo munosabatlarni uyg‘unlashtirish, axloqiy me’yorlarni moslashtirish va boshqa ko‘p narsalarni o‘z ichiga olgan tarbiyaviy rivojlanishni ham nazarda tutadi.

Bugungi kunda jamiyat maktab-internat va inklyuziv ta’lim alohida ta’limga ehtiyoji bo‘lgan bolani ijtimoiy-madaniy munosabatlar sohasiga jalb etishning asosiy vositasi deb bilgan holda, faol, mehnatkash, har tomonlama rivojlangan shaxslarni yetishtirishga umid qilmoqda. Bu jarayonda ta’lim muassasalarida korreksion tarbiyaviy jarayon va tarbiyachilarning komptensiyasi asosiy hal etuvchi omil sifatida gavdalanadi.

Ko‘pchilik ko‘zi ojiz va zaif ko‘ruvchi bolalarda asosiy saqlanib qolgan aqliy funksiyalar (nutq, fikrlash), yuqori kompensatsion rivojlanish ularga yuqori darajadagi ta’limni o‘zlashtirish imkoniyatini beradi va kelajakda xulq-atvor va axloq normalarining asosiy tushunchalarini nisbatan oson o‘rganadi. Shu bilan birga, ushbu me’yorlarni amaliy o‘zlashtirish ular uchun qiyin, chunki bu turli xil hayotiy vaziyatlarda odamlarning xatti-harakatlarini kuzatish, ularning harakatlariga taqlid qilish va madaniy xulq-atvor ko‘nikmalarini shakllantirishning cheklanganligi yoki qiyinligi bilan murakkablashadi.

Ko‘zi ojiz va zaif ko‘ruvchi bolalar uchun ixtisoslashtirilgan ta’lim muassasalaridagi axloqiy va tarbiyaviy faoliyat yagona ta’lim jarayonining ajralmas qismi bo‘lib, u hal qilinishi kerak bo‘lgan muammolarning ma’lum doirasiga, tuzilishga va ta’sir yo‘nalishlariga ega bo‘lishi kerak. Bu jarayonda quyidagi tuzilmaviy komponentlarni sanab o‘tishimiz mumkin:

• atrofdagi olamlar bilan uyg‘un munosabatlarni barqarorlashtirish, ularni psixokorreksiya vositalari, ish uslub va usullari yordamida yanada boyitish;

• bolaga tashqi (atrof-muhit, ijtimoiy) omillarga ta’sir qilish, xususan, ijtimoiy muhit va jamiyatga munosabatni to‘g‘irlash;

• tuzatish va rivojlantiruvchi sinflar jarayonida ijtimoiy yo‘naltirish va kasbiy tayyorlash;

• normalar va qoidalarni o‘zlashtirishdagi xato va kamchiliklarni bartaraf etish, qo‘shimcha ta’lim yordamida bolaning katta imkoniyatlari va yutuqlari sohasidagi faoliyatini kuchaytirish orqali ma’naviy va shaxsiy rivojlantirish.

Demak, korreksion-pedagogik (tarbiyaviy) faoliyat maqsadli, puxta o‘ylangan va maxsus tashkil etilgan pedagogik jarayon bo‘lib, u:

– diagnostika-tuzatish, korreksion-rivojlantiruvchi, korreksion-profilaktika, tarbiyaviy-tuzatish, korreksion-tarbiyaviy, aqliy tuzatish faoliyatini;

– rivojlanishning kombinatsiyalangan og‘ishlari, shuningdek, xatti-harakatlarida og‘ishlar bo‘lgan bolalar guruhlari bilan amalga oshirilishi;

– individual shaxsiy xususiyatlar va xulq-atvor kamchiliklarini tuzatish va o‘zgartirishga qaratilgan bo‘lishi;

– komil shaxsni shakllantirish va rivojlantirish uchun zarur shart-sharoitlarni yaratish;

– ko‘rishda nuqsoni bo‘lgan shaxslarning jamiyatga to‘liq integratsiyalashuviga ko‘maklashishni o‘z ichiga oladi.

Ko‘rishda nuqsoni bo‘lgan shaxslarni ijtimoiylashtirish – bu nogiron shaxsni shakllantirish uchun zarur bo‘lgan ma’lum bilimlar, me’yorlar, qadriyatlar va xulq-atvor qoidalarini ko‘rish qobiliyati buzilgan shaxs tomonidan o‘zlashtirish jarayoni bo‘lib, unga jamiyatning to‘laqonli a’zosi sifatida ishlashga va ma’lum bir jamiyatda ijtimoiy mavqeiga ega bo‘lish imkonini beradi. Ko‘zi ojiz bolalarni ijtimoiylashtirish muammosi V.P. Gudonis, A.G. Litvak, G.V. Nikulina, L.I. Plaksina, L.I. Solnseva, L.V. Fomicheva, V.A. Feoktistova va boshqa tiflopedagoglar tomonidan ko‘rib chiqilgan.

Ko‘zi ojiz bolani ijtimoiylashtirish ko‘zi ojizlar va zaif ko‘ruvchilar uchun ixtisoslashtirilgan maktab-internatning yakuniy maqsadi hisoblanadi, shuning uchun ta’lim va tarbiya jarayonlarining tarkibiy qismlarining tutashgan joyida ijtimoiy reabilitatsiya ishlari muhim o‘rin tutadi va u birlamchi kompensatsiya va ikkilamchi og‘ishlarni tuzatishga asoslangan. Zamonaviy jamiyat uchun muhim bo‘lgan va butun maktab ta’limi davomida amalga oshiriladigan asosiy maqsadlar quyidagilardir: bo‘lajak bitiruvchi shaxsini shakllantirish va har tomonlama rivojlantirish; uning ijtimoiy va mehnatga moslashishi va reabilitatsiyasi; nuqsonlarni qoplash; ijtimoiy tajribaning qulay shaklida assimilyatsiya qilish.

Shunday qilib, korreksion-tarbiyaviy, korreksion-pedagogik ishlarning butun tizimi kelajakdagi bitiruvchini atrofdagi dunyoning haqiqatiga reabilitatsiya qilish va ijtimoiy jihatdan moslashtirishga, uni jamiyatning to‘laqonli va faol a’zosiga aylantirishga qaratilgan bo‘lib, u hamma bilan bir qatorda to‘liq ijtimoiy hayotga va jamiyatga foyda keltiradigan kasbiy faoliyat orqali qo‘shilishi mumkin.

Hayotning sezilarli darajada cheklanishi nogironlikning natijasidir, qoida tariqasida, ijtimoiy moslashuvga olib keladi, bu birinchi navbatda rivojlanishdagi buzilishlar, o‘z-o‘ziga xizmat ko‘rsatish, aloqa, ta’limdagi qiyinchiliklar va zarur kasbiy ko‘nikmalarni egallash bilan bog‘liq. Vizual nuqson sharoitida psixo-emotsional stress kuchayadi, qiyin hayotiy vaziyatlarni idrok etish kuchayadi, ularni yengish uchun yetarli vositalarni tanlash murakkablashadi, ruhiy ziddiyat va xulq-atvor og‘ishlari holati yuzaga keladi. Maktab-internatlar sharoitida maxsus shaxs shakllanadi, u ko‘pincha muassasa devorlaridan tashqaridagi hayotning aksariyat holatlariga yetarli darajada tayyorlanmaydi. Maktab-internatda tarbiyalangan bolalar uyg‘un bo‘lmagan rivojlanishga moyilligi va avvalambor, tananing past funksional imkoniyatlari bilan ajralib turadi. Rolli mansublikni va shaxsning to‘laqonli hayotini amalga oshirish imkoniyatini cheklashga olib keladigan birlamchi buzilishning natijasi uning ijtimoiy pozitsiyasining pasayishi, shaxslararo munosabatlarning nomuvofiqligi va ijtimoiy yetishmovchilikdir. Ko‘zi ojizlar tomonidan ijtimoiy tajribani o‘zlashtirish, ularni mavjud ijtimoiy munosabatlar tizimiga kiritish jamiyatdan ma’lum qo‘shimcha vositalar, harakatlar va qo‘shimcha choralarni talab qiladi.

Birinchi sabablardan biri ko‘zi ojizlar va zaif ko‘ruvchilar alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lagan bolalarga ta’lim beruvchi ta’lim muassasalarining bitiruvchilarining fazoga yo‘naltirilganligining pastligidir. Ko‘rish qobiliyati buzilgan mustaqil shaxsning xulq-atvor ko‘nikmalarini tarbiyalashning yetakchi sharti bo‘sh joyga yo‘naltirish usullarini o‘zlashtirishdir. Bo‘sh joyga yo‘naltirish qobiliyati va rivojlangan ko‘nikmalari izolyasiyani yengishning asosiy yo‘nalishi va usuli bo‘lib xizmat qiladi, shuningdek nogiron kishining potensial imkoniyatlarini amalga oshirishga olib keladi. Saqlangan analizatorlarning birgalikdagi faoliyati asosida, ularning har biri ma’lum sharoitlarda yetakchi bo‘lishi mumkin (eshitish, mushak-motor, teri-taktil, hid bilish, ta’m, vestibulyar apparatlar),

ko‘rish qobiliyati buzilgan odamlarda fazoda yo‘nalish u yoki bu tarzda amalga oshiriladi. Bundan tashqari, ko‘rlarning ijtimoiylashuviga jiddiy to‘siq bo‘lib, aralash guruhlarda ko‘r va ko‘rlar o‘rtasidagi muloqotdagi qiyinchilikdir. Muloqot to‘laqonli ijtimoiy-madaniy hayotning, ijtimoiy o‘zaro ta’sirning, odamlar o‘rtasidagi ma’lumot almashinuvining asosiy jihati bo‘lganligi sababli, bu muammo maktab-internatning korreksion va tarbiyaviy ishida ustuvor vazifaga aylanadi.

Maxsus maktabning asosiy maqsadlaridan biri bolalarning maqsadli ijtimoiylashuvi uchun sharoit yaratish, bolaning o‘zi belgilashi uchun dastlabki imkoniyatlarni rivojlantirish orqali mustaqil hayotga tayyorlashdir. Tarbiyaviy ishlarini amalga oshirishning asosiy yo‘llari quyidagi yo‘nalishlarida belgilangan:

• mehnat ta’limi;

• ma’naviy va shaxsiy rivojlanish;

• estetik tarbiya;

• ijtimoiylashuv, hayotni qo‘llab-quvvatlash va muloqot asoslari (ijtimoiy yo‘naltirilganlik);

• sog‘liqni saqlash va jismoniy rivojlanish (davolovchi gimnastika, mashqlar terapiyasi (LFK), ritmika va boshqalar);

• fuqarolik ongining asoslari;

• kasbiy yo‘nalish va boshqalar.

L.I. Solnseva, V.A. Feoktistova va boshqalarning tadqiqotlariga ko‘ra, ko‘rish qobiliyati buzilgan bolalarning xususiyatlaridan kelib chiqqan holda, ularning vosita funksiyalarining shakllanishi va rivojlanishi yosh davrlari ko‘proq saqlanib qoladi, ammo vaqt o‘tishi bilan yo‘qolib boradi. Polisensor asos, ya’ni harakatlarni o‘z-o‘zini nazorat qilishni tartibga solishda sezgirlikning barcha turlarini hisobga olish, ko‘rish bilan birga, ushbu funksiyalarning muvaffaqiyatli shakllanishini kafolatlaydi. Ko‘rish qobiliyati zaif bolalar vosita qobiliyatlarini o‘zlashtirgani uchun polisensor asos torayib, biosensorga aylanadi.

Zamonaviy tarbiyachining kasbiy kompetentligi bu ta’lim jarayonini tizimli tashkil etuvchi sifatlarga egaligi bilan namoyon bo‘ladi. Mazkur muammoga ta’limning modernizatsiyalash jarayoni davrida keskin ravishda munosabat o‘zgardi. Ilmiy adabiyotlarni tahlili shuni ko‘rsatdiki, tarbiyachi kompetentligining rivojlanishi natijasida ijtimoiy tajriba o‘zgaradi, ta’lim muhiti isloh qilinadi. Pedagogik tizimda turlicha imkoniyatlar paydo bo‘ladi, mutaxassisning ijtimoiy muhitga qiziqishlari o‘sib boradi.

Korreksion tarbiyaviy ishlarni tashkil etishda tarbiyachilarning korreksiyaga qaratilgan kasbiy kompetensiyasini rivojlantirishning yangicha strategiyasini ishlab chiqish dolzarb muammo hisoblanadi. Bu nafaqat ko‘rishda nuqsoni bo‘lgan bolalar uchun ixtisoslashtirilgan ta’lim muassalari tizimida balki, boshqa maxsus ta’lim turlarida ham muhim masala hisoblanadi.

Ixtisoslashtirilgan ta’lim muassasalari tarbiyachilarining mehnat vazifalarini shartli ravishda besh qismga bo‘lish mumkin:

– ta’lim-tarbiya jarayonini tashkil qilish;

– korreksion-rivojlantirish ishlarini amalga oshirish;

– sog‘lom va xavfsiz turmush madaniyatini shakllantirish;

– o‘z-o‘zini rivojlantirish va kasbiy tajribasini oshirib borish;

– bolalarning ta’lim-tariyasiga ta’sir etuvchi omillar yuzasidan hamkorlikni amalga oshirish.

Ixtisoslashtirilgan ta’lim muassasalari tarbiyachilarining ta’lim-tarbiya jarayonini tashkil qilishdagi asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

Ta’lim muassasasida muassasa ichki tartiblaridan va qolaversa o‘quvchilarining ijtimoiy moslashuvidan kelib chiqqan holda tarbiyalanuvchilarning kundalik hayoti va faoliyatini rejalashtirish orqali tashkillashtirib, tarbiyalanuvchilarning ijtimoiy-psixologik reabilitatsiyasi, ijtimoiy va mehnat adaptatsiyasi uchun shart-sharoitlar yaratilishini ta’minlaydi.

Tarbiyalanuvchilarining ijtimoiy moslashuvi, jamiyatga integratsiyasi va mustaqil hayotga tayyorlash, bolalar reabilitatsiyasi va korreksiyasi sohasida samarali ish metodlari, shakllari va vositalarini qo‘llagan holda ixtisoslashgan yo‘nalishga mos ravishda ta’lim-tarbiya jarayonini yangi zamonaviy talablar asosida tashkil qiladi.

Direktor o‘rinbosari bilan birga tarbiyalanuvchilarning davomati, o‘quv fanlarining o‘zlashtirish monitoringini olib boradi, tarbiyalanuvchilarning kundalik uy vazifasini bajarilishini nazorat qilish orqali ularga ko‘maklashadi. Tarbiyalanuvchilar tomonidan shaxsiy gigiena talablariga rioya qilinishi, bunda bolalning kiyinishi, tashqi ko‘rinishining ozodaligi, o‘quv jihozlari va xo‘jalik buyumlarini saqlanishi ta’minlaydi.

Tarbiyalanuvchilarning jismoniy va psixologik rivojlanishiga ko‘maklashuvchi tadbirlarni amalga oshirish orqali tarbiyalanuvchilar bo‘sh vaqtini samarali o‘tkazishiga ko‘maklashib, qo‘shimcha ta’lim olishiga yordam beradi. Tarbiyalanuvchilar yoshiga mos ravishda va shifokor tavsiyalariga ko‘ra o‘z-o‘ziga xizmat qilishni, mehnat muhofazasi, mehnat havfsizligiga rioya etilishini ta’minlaydi, ijtimoiy foydali mehnatini tashkil etish bo‘yicha choralarni ko‘radi. Shuningdek, tarbiyachi tarbiyalanuvchilarning bilim faolligini, mustaqilligini, tashabbuskorligini, ijodkorligini rivojlantirish, fuqarolik pozitsiyasini shakllantirish, zamonaviy dunyoda ishlash va yashash qobiliyati, tarbiyalanuvchilar o‘rtasida sog‘lom va xavfsiz turmush tarzi madaniyatini shakllantirishga ko‘maklashadi.

Ixtisolashtirilgan ta’lim muassasasi tarbiyachisidan rivojlantiruvchi pedagogika, psixologiya asoslari, bolalar bilan tarbiyaviy ish olib borish metodikasi va texnikasi, tarbiyachining ishi uchun zarur bo‘lgan didaktik asoslar, polimadaniyatli ta’lim, ijtimoiy tarmoqlarda odob-ahloq qoidalari, ijtimoiy kompetensiya, yoshga doir rivojlanishining asosiy qonuniyatlari, shaxsning rivojlanish va ijtimoiylashuv bosqichlari va inqirozlari, hayot trayektoriyalarining ko‘rsatkichlari va individual xususiyatlari va ularda vujudga kelishi mumkin bo‘lgan og‘ishlari, ularni aniqlash usullari, ta’lim natijalarini ilmiy anglash, ularga erishish yo‘llari va baholash usullari yuzasidan zaruriy bilimlar talab etiladi.

Shuningdek, ta’lim muassasasi hududidan tashqarida ko‘rishda nuqsoni bo‘lgan bolalar uchun tadbirlar (ekskursiyalar, piyoda sayohatlar va ekspeditsiyalar)ni tashkil etish va o‘tkazish bo‘yicha tartibga soluvchi me’yoriy-huquqiy, rahbariy va ko‘rsatma hujjatlari bo‘yicha bilim va ko‘nimalarga ega bo‘lishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Проблемы воспитания и социальной адаптации детей с нарушением зрения // Под ред. Л.И. Плаксиной – М., 1995. – С. 88.

2. Тупоногов Б.К. Организация коррекционно-педагогического процесса в школе для слепых и слабовидящих детей. Методическое пособие для педагогов и руководителей специальных (коррекционных) образовательных учреждений / Б.К. Тупоногов. – М.: Гуманитарный издательский центр ВЛАДОС, 2011. – С. 224. – ISBN 978-5-691-01853-4; Тоже [Электронный ресурс]. URL: http://biblioclub.ru/index.php?page=book&id=234881

Луиза НАБИУЛИНА,
Ташкентский государственный педагогический университет имени Низами,
к.п.н., доцент

ПОДХОДЫ, ПРИНЦИПЫ И НАПРАВЛЕНИЯ РАЗВИТИЯ ИНТЕЛЛЕКТУАЛЬНОЙ МОБИЛЬНОСТИ В СИСТЕМЕ ВЫСШЕГО ОБРАЗОВАНИЯ

Annotatsiya

O'zbekistonda intellektual harakatchanlikni rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlaridan biri raqamli savodxonlik ko'nikmalarini rivojlantirishdir. Maqolada oliy ta'lim tizimida intellektual harakatchanlikni rivojlantirishning zamonaviy yondashuvlari, tamoyillari va yo'nalishlari ko'rib chiqiladi.

Kalit so'zlar. Intellektual mobillik, oliy ta'lim, texnologiya va ta'lim integratsiyasi, xalqaro mobillik, raqamli savodxonlik.

Одним из приоритетных направлений развития интеллектуальной мобильности в Узбекистане является развитие навыков цифровой грамотности. В статье рассматриваются современные подходы, принципы и направления развития интеллектуальной мобильности в системе высшего образования.

Ключевые слова. Интеллектуальная мобильность, высшее образование, интеграция технологий и образования, международная мобильность, цифровая грамотность.

One of the priority directions of intellectual mobility development in Uzbekistan is the development of digital literacy skills. The article discusses modern approaches, principles and directions of intellectual mobility development in the higher education system.

Key words. Intellectual mobility, higher education, technology and education integration, international mobility, digital literacy.

В современном информационном обществе высшее образование играет важную роль в подготовке квалифицированных специалистов, способных успешно функционировать в динамичном и конкурентном рынке труда. Развитие технологий, особенно в области информационных и коммуникационных технологий, привело к эволюции образовательных подходов и созданию новых возможностей для обучения и передачи знаний. Одной из таких новых парадигм высшего образования является интеллектуальная мобильность, которая объединяет принципы гибкости, доступности и инноваций. В данной статье мы рассмотрим подходы, принципы и направления развития интеллектуальной мобильности в системе высшего образования.

Интеллектуальная мобильность в системе высшего образования предполагает использование различных инструментов и технологий для создания гибкой и доступной среды обучения, а также обеспечения активного взаимодействия студентов, преподавателей и исследователей. Некоторые из подходов, применяемых в интеллектуальной мобильности, включают следующие аспекты.

Дистанционное обучение. С развитием интернет-технологий и электронных платформ дистанционное обучение стало широко распространенным подходом в высшем образовании. Оно позволяет студентам из разных стран и регионов получать качественное образование, преодолевая географические и временные ограничения.

Мобильные приложения и технологии. Смартфоны и планшеты стали неотъемлемой частью нашей жизни, и использование мобильных приложений и технологий в образовании становится все более популярным. Они позволяют студентам обмениваться информацией, получать доступ к образовательным материалам и участвовать в интерактивных занятиях в любом месте и в любое время. Мобильные приложения также способствуют развитию самообучения и саморазвития студентов.

Виртуальная и дополненная реальность. Технологии виртуальной и дополненной реальности предоставляют возможность создавать иммерсивные образовательные среды, в которых студенты могут взаимодействовать с виртуальными объектами и ситуациями. Это позволяет им получать практический опыт и развивать навыки в реалистичных условиях.

Интеллектуальная мобильность в системе высшего образования базируется на определенных принципах, которые обеспечивают эффективность и качество обучения. Некоторые из ключевых принципов включают:

– гибкость и доступность: интеллектуальная мобильность предоставляет возможность получения образования без привязки к определенному месту или времени. Студенты могут выбирать удобные для них форматы обучения и графики занятий, что позволяет им более эффективно управлять своим временем и учебным процессом.

– индивидуализация обучения: каждый студент имеет уникальные потребности и способности, поэтому интеллектуальная мобильность стремится к индивидуализации образовательного опыта. Персонализированные подходы к обучению позволяют студентам развиваться в соответствии с их индивидуальными целями и интересами.

– коллаборация и обмен знаниями: интеллектуальная мобильность способствует активному взаимодействию между студентами, преподавателями и исследователями. Она поддерживает совместные проекты, обмен опытом и знаниями, что способствует развитию коллективного интеллекта и стимулирует творческое мышление.

Основой для развития интеллектуальной мобильности в системе высшего образования являются интеграция технологий и образования, развитие гибких образовательных моделей, расширение международной мобильности, развитие навыков цифровой грамотности. Рассмотрим эти направления более подробно.

Интеграция технологий и образования находят свое отражение на современном этапе развития общества в виде внедрения современных технологий, таких как искусственный интеллект, аналитика данных, интернет вещей (IoT) и блокчейн и способствует улучшению возможностей интеллектуальной мобильности. Например, использование аналитики данных позволяет анализировать образовательные данные и предоставлять персонализированные рекомендации для студентов. Технологии искусственного интеллекта могут использоваться для создания интеллектуальных ассистентов, способных помогать студентам в учебном процессе и отвечать на их вопросы.

Одной из основных характеристик интеллектуальной мобильности является гибкость. Сегодня мы можем наблюдать, как разрабатываются и внедряются новые гибкие образовательные модели, такие как гибридное обучение (сочетание онлайн и офлайн форматов), компетентностный подход, проектное обучение и другие. Эти модели позволяют студентам развивать не только академические знания, но и профессиональные навыки, необходимые для успешной карьеры.

Интеллектуальная мобильность также способствует развитию международных связей и обмену студентами и преподавателями между различными учеб-

ными заведениями. Уже сейчас мы наблюдаем расширение программ обмена, создание международных образовательных платформ и сетей, а это позволяет студентам получить образование в разных культурных и академических средах.

Современный мир требует от выпускников высшего образования обладания навыками цифровой грамотности. Развитие интеллектуальной мобильности должно быть направлено на обучение студентов использованию современных цифровых инструментов, критическому мышлению, анализу информации, коллаборации в виртуальных средах и эффективной коммуникации.

Развитие интеллектуальной мобильности в системе высшего образования требует сотрудничества между учебными заведениями, преподавателями, студентами и представителями промышленности. Совместные усилия и инновационные подходы позволят создать современную и адаптивную систему образования, которая соответствует потребностям современного информационного общества и обеспечивает успешную подготовку выпускников к профессиональной деятельности.

Кроме того, развитие интеллектуальной мобильности в системе высшего образования сопровождается такими тенденциями, как:

– развитие адаптивных и интеллектуальных образовательных платформ: это находит свое отражение в создании и совершенствовании образовательных платформ, оснащенных адаптивными системами, которые индивидуально адаптируют учебные материалы и методы обучения к потребностям каждого студента. Такие платформы направлены на использование аналитических данных для определения индивидуальных сильных и слабых сторон студента и будут предлагать персонализированные рекомендации и задания.

– развитие онлайн-сертификации и микрокредитов: онлайн-курсы и программы сертификации становятся все более популярными в высшем образовании. В будущем можно ожидать развития системы онлайн-сертификации, которая будет широко признана и призвана подтверждать знания и навыки, полученные в результате обучения в онлайн-формате. Также можно предположить развитие микрокредитов, которые будут давать возможность студентам получать признание за конкретные компетенции или курсы, а не только за полноценные программы обучения.

– интеграция искусственного интеллекта в образовательный процесс: искусственный интеллект будет широко использоваться в различных аспектах образовательного процесса. Это может включать автоматизацию административных задач, персонализированную оценку и обратную связь, адаптивное содержание обучения, создание виртуальных преподавателей и многое другое.

Таким образом, интеллектуальная мобильность открывает новые возможности для студентов в получении качественного образования, развитии профессиональных навыков и глобальной мобильности. Она способствует развитию самообразования, саморазвития и активного взаимодействия в образовательном процессе.

Учитывая важность для современного мира значение интеллектуальной мобильности, в Узбекистане это также представляет собой один из важных приоритетов в сфере высшего образования. В последние годы правительство и образовательные учреждения страны активно работают над созданием современной образовательной системы, основанной на использовании информационных и коммуникационных технологий.

Одной из важных инициатив в этом направлении является национальная программа “Диджитал Узбекистан” (DigitalUzbekistan), которая направлена на содействие цифровой трансформации страны во всех сферах, включая образование. В рамках этой программы реализуются мероприятия по внедрению совре-

менных информационных и коммуникационных технологий в образовательный процесс.

Одним из конкретных направлений развития интеллектуальной мобильности в Узбекистане является развитие дистанционного обучения. Университеты и колледжи страны активно разрабатывают онлайн-курсы и программы, которые позволяют студентам получать качественное образование, не выходя из дома. Это особенно проявилось в условиях пандемии COVID-19, когда дистанционное обучение стало неотъемлемой частью учебного процесса.

Также в Узбекистане развивается использование мобильных приложений в образовании и многие образовательные учреждения создают свои собственные мобильные приложения, которые предоставляют студентам доступ к учебным материалам, заданиям, расписанию занятий и другой полезной информации. Это позволяет студентам иметь доступ к образовательным ресурсам в любое время и из любого места.

Важным аспектом развития интеллектуальной мобильности в Узбекистане является обеспечение доступности и широкого охвата образовательных технологий. В рамках программы “Диджитал Узбекистан” проводятся работы по созданию инфраструктуры и расширению доступа к высокоскоростному интернету по всей стране. Это позволяет обеспечить доступ к онлайн-образованию для студентов, находящихся в удаленных регионах или с ограниченными возможностями физического присутствия в учебных заведениях. Это способствует более равному и инклюзивному доступу к образованию.

Одним из приоритетных направлений развития интеллектуальной мобильности в Узбекистане является развитие навыков цифровой грамотности. В рамках образовательных программ акцент делается на обучении студентов использованию современных информационных технологий, критическому мышлению, анализу данных и эффективной коммуникации в виртуальной среде. Это позволяет выпускникам быть готовыми к требованиям современного рынка труда, где цифровые навыки все более востребованы.

Для успешного развития интеллектуальной мобильности в Узбекистане необходимо продолжать сотрудничество между правительством, образовательными учреждениями, промышленностью и международными партнерами. Важно развивать партнерские отношения с ведущими университетами и исследовательскими центрами, обмениваться передовыми практиками и опытом в области интеллектуальной мобильности.

Таким образом, развитие интеллектуальной мобильности в Узбекистане является важным приоритетом в образовательной сфере. Создание современных образовательных условий, активное использование информационных технологий и цифровых инноваций, поддержка студенческого предпринимательства и инноваций, а также подготовка квалифицированных преподавателей – все это способствует развитию интеллектуальной мобильности и обеспечивает студентам доступ к современным образовательным ресурсам и возможностям.

Использованная литература:

1. Кузнецова И. Г., Калмыкова О. Ю., Суханкина Н. В. Тенденция интернационализации высшего образования: формирование академической мобильности студентов // Вестн. Сам. гос. техн. ун-та. Сер. Психолого-педагогич. науки. 2010. №6.

2. Рябинина Анна Михайловна Интернационализация системы высшего образования в эпоху научно-технологической революции // Государственное управление. Электронный вестник. 2020. №81.

Bosh muharrir:
Mahmudov Sarvar Yuldashevich

Mas’ul kotib:
Suyarova Lutfiya Muxiddinovna

Bosh dizayner – badiiy muharrir:
Mamasoliyev Akbarali Hamzayevich

TAHRIR HAY’ATI:
Xilola UMAROVA, Risboy JO‘RAYEV, Komiljon MUQIMOV, Ulug‘bek INOYATOV,
G‘ayrat SHOUMAROV, Maqsudjon YULDASHEV, Oynisa MUSURMONOVA, Lola MO‘MINOVA,
Dilyara SHARIPOVA, Barno ABDULLAYEVA, Rohatoy SAFAROVA, Xolboy IBRAGIMOV,
Ravil IS’YANOV, Mirodiljon BARATOV, Shaxnoza XALILOVA, Sharibboy ERGASHEV,
Yashin ISMANDIYAROV, Alisher UMAROV, Muhabbat MIRSALIYEVA, Bahodir MA’MUROV,
Shukurullo MARDONOV, Ulfat MAHKAMOV, Muhayyo UMARALIYEVA.

JAMOATCHILIK KENGASHI:
Dilshod KENJAYEV, Sobitxon TURG‘UNOV, Nargiza RAXMANKULOVA, Abduhalim MAHMUDOV,
Kamola RISKULOVA, Feruza QODIROVA, Islom ZOKIROV, Ravshan ABDUXAIROV.

Tahririyat manzili:

Toshkent shahar Shayhontoxur tumani Navoiy ko‘chasi, 30-uy.
E-mail: xalq_talimi@xtv.uz Tel: (0 371) 231-16-51, Faks: 231-16-52
t.me/xalqtalimi_jurnali. http://t.me/xalq_talimi_jurnali.

Jurnalga yuborilgan maqolalarga javob qaytarilmaydi, jurnalda e’lon qilingan maqolalardan olingan matnlar ‘‘Xalq ta’limi’’ ilmiy-metodik jurnalidan olindi, deb ko‘rsatilishi shart.

Jurnal 2015-yil 20-martdagi 214/2-sonli qarori bilan OAK ilmiy nashrlari ro‘yxatiga kiritilgan.

“TAFAKKUR NASHRIYOTI” MCHJ bosmaxonasida chop etildi.
Toshkent shahri, Shayhontoxur tumani, Navoiy ko‘chasi, 30-uy

Bosishga ruxsat etildi: __.__.____-y. Qog‘oz bichimi 70x100 1/16. Ofset bosma usuli.
Shartli b.t. 12,0. Adadi __ ___ nusxa. – buyurtma.
Bahosi kelishilgan narxda.

Ushbu songa mas’ul – To‘xtamurodova Shohida Akmalxo‘ja qizi

Jurnalga taqdim etilgan barcha materiallar https://rustxt.ru/antiplagiat sayti hamda https://t.me/check_antiplagiat_bot da monitoring qilinadi.

© “Xalq ta’limi” jurnali, 2023.